

42

son

www.pedagoglar.uz



USTOZLAR UCHUN

ilmiy, badiiy va ommabop jurnal



DISCOURSE AND ITS
PRIVILEGE IN TEXT
FORMATION



BOSHLANG'ICH SINIF
O'QUVCHILARINING NUTQ
MADANIYATINI
SHAKLLANTIRISH
METODIKASI



KIMYO FANINI
O'QITILISHIDA DIDAKTIK
O'YINLARDAN
FOYDALANISHNING
AHAMIYATI

pedagoglar.uz

2-TO'PLAM

mart, 2023



San'a: 1

HARBIY XIZMATCHILARDA STRESSGA BARQARORLIKNI ANIQLASH DIAGNOSTIKASI

Turg'unboyev Abdusalom Adhamjon o'g'li

Mustaqil izlanuvchi

ANNOTATSIYA

Maqolada harbiy xizmatchilarni tayyorlashdagi asosiy muammolardan biri bo'lgan stress va stressga chidamlilik diagnostikasining metodologik asoslari haqida nazariy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: diagnostika, tayyorlash, ruhiy og'ish, stress, chidamlilik, kognitiv, emotsia.

АННОТАЦИЯ

В данном тезисе дается теоретическая информация о методологических основах диагностики стресса и стрессоустойчивости, которые являются одними из основных проблем в обучении военнослужащих.

Ключевые слова: диагностика, обучение, психическое расстройство, стресс, жизнестойкость, когнитивность, эмоция.

ABSTRACT

This thesis provides theoretical information on the methodological foundations of the diagnosis of stress and stress resistance, which are one of the main problems in training military personnel.

Key words: diagnostics, learning, mental disorder, stress, resilience, cognition, emotion.

Bugungi kunda "asr kasalligi" bo'lib qolganligini ta'kidlashmoqda. Zero, har qanday shaxsning, xususan harbiy faoliyat olib borayotgan xizmatchilarning ham stress holatiga tushishi nafaqat ularning yuritayotgan faoliyatiga, shuningdek ruhiy va jismoniy salomatligiga ham jiddiy salbiy ta'sir etadi. Stress va stressga barqarorlik masalalarini tadqiq etish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar ikki asosiy

natijaga erishuviga sabab bo'lgan: birinchidan insonning stressga barqarorlik ko'rsatkichlarini, ya'ni yuqori, o'rta va past ko'rsatkichlarni aniqlash imkonini beruvchi testologik instrumentlar ishlab chiqilgan; ikkinchidan, shaxsning har qanday faoliyati uning stressga barqarorligi bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq ekanligi asoslab berilgan. Boshqacharoq aytganda, shaxsning stressga barqarorligi qanchalik yuqori bo'lsa, faoliyat samaradorligi ham shunchalik yuqori bo'lishi, aksincha, stressga barqarorlik ko'rsatkichining pastligi shaxsning stress vaqtida o'z energiya va zaxiralarini salbiy psixologik holatlarni bartaraf etishga sarflashi bilan belgilanishi aniqlangan. Psixologiya fani yuzaga kelganidan to hozirgi davrgacha bo'lgan vaqt oralig'ida psixologiya ilmi, uning ilmiy tadqiqot metodikalari, ilmiy-nazariy tamoyillari, g'oyalari, ta'limotlari juda ko'p o'zgarishlarini bosib o'tdi, shuningdek, bugungi zamonaviy psixologiya nafaqat shaxsni, uning kognitiv, emotsional sohalarini, jumladan, stress va stressga barqarorlik holatlarini o'rganish borasida ham katta tajribalarga ega bo'ldi. Keyingi yillarda stressni o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlar stressning turlari, uni keltirib chiqaruvchi sabablar, omillar kabi predmetlar doirasidan chiqib stressga barqaror munosabatda bo'lishni tadqiq qilish darajasiga yetib kelganligi ham psixologiyaning katta yutug'i desak bo'ladi.

Bugungi kun harbiy xizmatchilarining ham jismoniy, ham ruhiy salomatligi jiddiy ta'sir ko'rsatadigan stress holatlarining mavjudligi va unga nisbatan barqaror munosabat bildirish uning uchun nafaqat salomatligini asrash kaliti, balki olib borayotgan faoliyatining samarasiga ham ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil ekanligini hisobga olgan holda bugun harbiy xizmatchilarning stressga barqarorligini tadqiqot predmeti sifatida o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda ayniqsa harbiy xizmatchilarda stressga barqaror munosabat bildirishning psixologik determinantlarini o'rganish juda dolzarbdir. Mazkur yo'nalishda tadqiqot olib borishni istagan tadqiqotchilarga uslubiy tavsiya sifatida quyidagi metodikalarni qo'llashlarini tavsiya qilamiz:

Respondent (harbiy xizmatchi)larda stressga barqarorlik xususiyati qay darajada rivojlanganligini aniqlash maqsadida "Shaxsning stressga

barqarorligini aniqlash” metodikalarining modifikatsiyalashgan shaklidan foydalanish mumkin. Metodikalardagi ayrim vaziyatlarning o‘zbek muhitida stressogen voqea bo‘la olmasligini yoki tadqiqot ob‘ektining ayrim jihatlarini e‘tiborga olgan holda, metodikalarning ba‘zi tasdiqlarini mahalliy muhitga va harbiy xizmatchilarga moslashtirish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mazkur yo‘nalishdagi metodikalar orqali olingan emperik ma‘lumotlar asosida harbiy xizmatchilarning faoliyat jarayonida kechadigan stressga barqarorlikning o‘ziga xosligi aniqlanadi. Shuningdek, respondentlarning stressga barqarorlik determinantlarini aniqlashda mutaxassislarning tavsiyasiga ko‘ra uni kompleks tarzda o‘rganish maqbul va bu jarayonni tashkil etishda bir nechta metodikalardan foydalanilishi maqsadga muvofiq:

A) stressga barqarorlikni o‘rganishda kompleks yondoshuv tarafdorlarining fikriga ko‘ra, shaxsning o‘ziga bahosi uning stressga barqarorligini aniqlash yuzasidan olib boriladigan tadqiqotlarda muhim rol o‘ynaydi. Mualliflar o‘ziga adekvat baho beruvchilarda stressga barqarorlik ko‘rsatkichi eng yuqori darajada bo‘ladi, deb hisoblaydi. Shu fikrlardan kelib chiqqan holda, harbiy xizmatchilarda o‘z-o‘ziga bahoning yuqori, adekvat va past darajalarini aniqlash masadida “O‘z-o‘zini baholash”ga mos keladigan metodikalardan foydalaniladi;

Bizga ma‘lumki, o‘ziga adekvat yuqori baho berishni o‘ziga nisbatan ijobiy munosabat, o‘zini hurmat qilish, o‘zini qabul qilish, o‘zidan qoniqish hissi bilan tenglashtirish mumkin. Aksincha, o‘ziga past baho berish o‘ziga nisbatan salbiy munosabat, o‘zini qabul qilmaslik, o‘zidan qoniqmaslik hislari bilan tenglashtiriladi.

Ayrim mutaxassislar o‘ziga adekvat yuqori baho beradigan kishilar ko‘pincha stressogen ta’sirlarni emotsional jihatdan og‘riqli yoki stressogen deb qabul qilmasliklarini qayd etadi. Adekvat yuqori baho beradigan odamlar stressogen vaziyatlarda o‘ziga past baho beruvchilarga nisbatan yaxshiroq harakat qiladilar va natijada bunday holat ularda o‘z imkoniyatlari haqida ko‘proq bilishga, o‘ziga bo‘lgan bahosining ortishiga olib keladi. O‘zini past baholaydigan kishilar esa aksincha, stressogen tahdid paytida yuqori darajadagi qo‘rquv va xavotirni his qiladilar, shunga mos ravishda o‘zini bunday ta’sirlarga qarshi tura

olmayman, deb hisoblaydilar. O'zini bunday tarzda negativ idrok etish o'z-o'zidan shaxsning stressogen omillar bilan kurashishni qiyinlashtiradi.

O'z imkoniyatlarini noadekvat past baholash o'z-o'ziga ishonchning ham juda past bo'lishiga olib keladi. Bu esa sinaluvchida stressogen vaziyatlarda o'zini nochor his qilishga, bu vaziyatdan chiqib ketish o'rniga tushkunlikka berilishga olib kelishi mumkin;

B) stressga barqarorlikni oshirishda o'ziga xos ta'sirga ega bo'lgan shaxs xususiyatlaridan biri – bu frustratsiyaga nisbatan tolerantlikdir. Frustratsiya – insonning ma'lum maqsadga erishish yoki vazifani hal etishi yo'lida sodir bo'lgan yengib bo'lmas (yoki sub'ektiv jihatdan shunday deb qabul qilinadigan) qiyinchiliklar natijasida yuzaga keladigan kechinmalar va xulq-atvorning namoyon bo'lishidagi o'ziga xos xarakterli holatlarni ifodalovchi tushuncha sifatida qaraladi. Frustratsiyani psixologik jihatdan o'rganish konsepsiyasi S. Rozensveygga tegishli bo'lib, keyinchalik bir necha tadqiqotchilar mazkur muammo doirasida izlanishlar

olib borishgan. Bu borada S. Rozensveygning "Rasmi frustratsiya" deb nomlangan metodikasi mashhur bo'lishiga qaramasdan, ayrim tadqiqotchilar uning murakkabligini va shu bois natijalarni tahlil qilishni qiyinlashtirganligini alohida ta'kidlashadi. Shularni hisobga olgan holda frustratsion tolerantlikni o'rganuvchi boshqa metodikalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, V.V.Boyko tomonidan shaxsning frustratsion tolerantligini o'rganish maqsadida tavsiya etilgan "Frustratsiyani aniqlash testi". Ushbu metodika natijalari ham frustratsion tolerantlikning past, o'rta va yuqori darajalarini aniqlab beradi;

V) keyingi yillarda stressga barqarorlik muammosini o'rgangan aksariyat tadqiqotchilar o'z tadqiqotlarida albatta stressga qarshi turish xulqini, ya'ni koping-kurash strategiyasini o'rganishga harakat qilishmoqda. Kopinglar samardorligining muhim mezon sifatida ularning turli xilligi va ko'p qo'llanilishi ta'kidlanadi. Darhaqiqat, ayrim tadqiqotlar koping usullarining turlichaligi muammoni yechish va stressni yengib o'tishga juda katta yordam

berishini ko'rsatgan.

Shunga ko'ra, sinalluvchilarning stress holatiga tushganida koping-strategiyaning qaysi usulidan foydalanishini aniqlash maqsadida D.Amirxan tomonidan taklif etilgan «Koping-kurash indikatori» metodikasi tanlash yaxshi natija beradi. Ushbu metodika D.Amirxan tomonidan shaxsning dominant koping-strategiyalarini tashxis qilish uchun ishlab chiqilgan hamda O.A.Sirotin va V.M.Yaltonskiylar tomonidan rus muhitidagi tadqiqotlarni o'tkazishga moslashtirilgan. Metodikaning o'zbek tilidagi varianti O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Akademiyasi psixologlari (E.Sattarov, N.Sog'inov, I.Maxmudov) tomonidan muvaffaqiyatli qo'llanilgan. Mazkur metodikaning qulayligi shundaki, koping xulqning 3 xil uslubidan qay birini qo'llashiga qarab respondentning stressga barqarorligini aniqlash imkoniyati mavjud.

«Koping-kurash indikatori» so'rovnomasining g'oyasi insonning hayoti davomida shaklanadigan va u kundalik hayotida qo'llashi ehtimol bo'lgan barcha strategiyalar 3 guruhga bo'linadi:

1. Muammoni hal qilish - bu faol xulq-atvor strategiyasi bo'lib, bunda inson muammoni samarali hal qilishda o'zida mavjud barcha resurslarni qo'llaydi.

2. Ijtimoiy qo'llab quvvatlashni izlash strategiyasi - bu faol xulq-atvor strategiyasi bo'lib, bunda inson muammoni samarali hal qilish uchun atrofdagilardan yordam va qo'llab-quvvatlashni izlaydi (oila a'zolaridan, do'stalaridan, o'zi uchun ahamiyatli insonlardan).

3. Muammodan qochish strategiyasi - bu passiv xulq-atvor strategiyasi bo'lib, unda inson muammoni hal etishdan va uni o'rab turgan atrof-muhitdan va voqelikdan qochishga harakat qiladi

Yuqoridagi metodikalar tavsifi va tahlilidan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, shaxs ichki holatining tahlili murakkab va serqirra jarayondir. Shunday ekan harbiy faoliyat bilan band bo'lgan shaxslarning ichki imkoniyatlari va mavjud muammolarini anglash darajasini hisobga olgan holda korreksiya metodlarini tanlash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Маклаков А. Г. Общая психология. - СПб.: Питер, 2000. -С.471., Умаров Б.М. Ўзбекистонда вояга етмаганлар жиноятчилигининг ижтимоий-психологик муаммолари // Психол...ф-лари доктори диссертацияси. - Тошкент., 2009.-360 с.
2. Фрейд А. Эго и механизмы защиты. – М.: Издательство Эксмо, 2003. – 256 с., Freud A. Das ich und die Abwermechanismen. - London, Imago, 1946. – 207 p., Johnson D., Johnson R. Constructive Conflict in the Schools // Journal of Social Issues. 1994. Vol. 50. No. 1. - Pp. 117-137., Cramer P. The development of defense mechanisms: theory, research, and assessment. – New York: Springer-Verlag, 1991. – 251 p.
3. S.R.Sadriddinov, D.Norqo'ziyev. Deviant xulq-atvorli bolalar psixologiyasi bilan ishlash metodikasi (Uslubiy qo'llanma), Al-Buxoriy universiteti Kengashida ma'qullangan. 2022 yil 28 fevral 7-sonli bayonnom.
4. Мухамедова Д.Г. Социально-психологические особенности эффективной управленческой деятельности менеджера образования // Методика и технологии в образовании. - Воронеж, 2010 - №6. - С. 51-54.,
5. Налчаджян А.А. Психологические защитные механизмы // Самосознание и защитные механизмы личности.
6. Доценко Е. Л. Психология манипуляции: феномены, механизмы и защита. - М.: Речь, 2004. – С. 104.
7. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. 2-е изд. - СПб., 2002. - 720 с. <http://userdocs.ru/psihologiya>, Ольшанский В.Б. Практическая психология для учителей. – М.: Просвещение, 1994. –93с., Кондратьева О.А. Психологическая защита. – М.: Перо, 2014. – С.26., Старченкова Е.С., Ячанова А.Ю. Совладающее поведение в профессионально трудных ситуациях у педагогов на разных этапах профессионализации // Вестник Санкт-Петербургского университета. Сер. 12. 2011. Вып. 2. - С. 196–201.

8. Садриддинов С.Р., Самаров Р.С. Педагогик фаолият тизими такомиллашувини таъминлашда тизимли таҳлил: функционал ёндашув // *Замонавий таълим*. 2016, 2-сон. - Б. 23-30. (19.00.00; № 8).
9. Самара, 2003. – С. 395-481., Расулов А.И. Шахс тўғрисида маълумот олиш усуллари // *Psixologiya*. - Бухоро, 2013, №3. - Б.88-96.
10. Сапаров Ш.Б. Личности-профессиональные особенности преподавателей специальных дисциплин средних специальных профессиональных учебных заведений // *Дис. к. психол. наук*. - Ташкент, 1999. -156 с.,
11. Usmonova Muxlisaxon Sobirovna, & Tursunova Irodaxon. (2022). *TEKNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODLARI* . *PEDAGOGS Jurnali*, 21(1), 41–44. Retrieved from

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KASB- HUNARGA YO'NALTIRISH

O'razboyeva Yu

*Jizzax viloyati Forish tumani 72-son umumta'lim o'rta maktabi boshlang'ich sinf
o'qituvchisi.*

Buhungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilari kasb-hunar tushunchalarini berish, kasb-hunarga bo'lgan qiziqishini oshirish, ta'limning dolzarb masalalarida biri bo'lib, bu boshlang'ich ta'limga ham taluqlidir. To'g'ri kasb tanlash insonning kelajagini, hayot tarzini belgilashda katta ahamiyatga ega. Shu sababdan, kasbga yo'naltirish ishlarini imkon qadar vaqtliroq boshlamoq zarur. Kasb tanlashda ta'lim tizmini katta tasir ko'rsatadi. Asosiy maqsadimiz esa yosh avlodni oliy va mustaqil ravishda kelgusi ta'lim yo'nalishini tanlashiga yoki shaxsning psixofiziologik xususiyatlari, qiziqishi, qobiliyati, moyilliklari va jamiyatning kadrlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda mehnat qilish sohasini tanlashga tayyorlashdan iborat. Zero, <<Kadrlar tayyorlash milliy dasturi>> ning asosiy maqsadi ham ta'lim tizmini jahon talabalari darajasida isloh qilishdan iborat bo'lib, bunda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy yo'nalishlaridan biri o'quvchilar kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishdan iborat ekanligini hisobga olishimiz kerak. Ta'limning sifat jihatidan mutloqo yangi bosqichiga zamon talablariga kelib chiqqan holda yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga qoyiladigan talablarini belgilab beradi. Hozirgi kunda shaxsni har tamomlana yetuk, barkamol qilib tarbiyalash uchun uni maktab partasidan boshlab kelgusi taqdirini aniqlab belgilashga, kelasjakda o'z qiziqish va imkoniyatlarini tiborga olgan holda qaysi kasbni yoki mutaxassislikni egallashini aniqlashga, barkamol shaxsning mustaqil va ijadiy fikirlash sifatlarini tarbiyalash umumiy o'rta o'rta ta'lim muassasalarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Maktab kasbga yonaltirish muhiti faqat qiziquvchanlikni shaxsiy sifat va shaxs psixologiyasini o'rganish bilangina

yaratilmaydi. Bolalarga boshqa odamlarning ijodiy yutuqlaridan foydalanish va tatbiq etishni shakillantirish ham muhimdir. Bolada namoyan bo'lgan qobiliyatni har kuni mashq qildirish va rivojlantirish lozim. Kasb tanlashda qiziqish, qobiliyat, imkoniyatlarni hisobga olish o'z iroda kuchini bilish katta ahamiyatga ega. Shuningdek, kasb-hunarga yo'naltirish, bolalarga faqatgina kasblar haqida malumot berishdan iborat emas. Balki ularda shaxsiy kasbiy sifatlarini shakillantirish kerak. Bola o'z shaxsiga, o'zini hatti-harakatlariga baho berishni o'rganish lozim. Zero, shaxs o'zini-o'zi tarbiyalab borsin. Bola qaysi topshiriqlarni bajarib ketaayapti-yu, qaysisini bajara olmayabdi? Bajara olmaslik sababi nimada? Bola buni o'zi anglab olishga harakat qilsin. Har bir kishi kasbni o'z qiziqishi, qobiliyati va imkoniyatlari nuqtai nazardan tanlaydi. Kasb tanlash kasbiy shaklanish davrining dastlabki bosqichidir. Nafaqat umumiy va maxsus qobiliyat, shaxs xususiyatlari, shuningdek, maddiy va ma'naviy jihatdan ta'sir etuvchi tashqi muhit ham kasb tanlashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ya'ni biz bolalarga atrofdagi turli kasb egalarini ibrat namuna qilib ko'rsatishimiz va ular bilan uchrashuvlar uyushtirishimiz zarur. Qolaversa mehnatsevar halqimiz tomonidan aytilgan, asrlar osha ajdodlardan ajdodlarga meros bo'lib kelayotgan maqol va hikmatlarni aytib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan

<<Hunar- hunardan unar>>, <<Hunar-tugamas boylik, javohir>> Shu bilan birgalikda o'qituvchi turli xil kasb hunarga yo'naltiruvchi to'garaklar tashkil qilsa, bolani yanada mehnatsevarlika chorlagan bo'ladi. Kasb tanlashga tayyorgarlik sharti: kasbiy bilim malaka va kasbiylikni anglash, umuman kasbiy qarorning to'g'riligidir. Demak, xulosa qilib aytganda, kasb-hunar tushunchalari his etishga qaratilgan mehnat tarbiyasi jarayonidagi shakil va vositalardan samarali foydalangan holda o'quvchilarning kasb-hunarga qiziqishlari tarbiyalab borilsa, kadrlar tayorlash milliy dasturning ma'lum bir bosqichini amalga oshirishida o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz. Kasbga yo'naltirish ishlarini respublikamiz ta'lim-islohatlari talabi darajasida yolg'a qo'yish, Respublikamiz va rivojlarga xorijiy davlatlarda bu borada to'plagan ilg'or tajribalarini taqib qilish, ijodiy tadbiq qilish davr taqozasi

hisoblanadi. Ta'lim tarbiya jarayonida darsdan tashqari mashg'ulotlar bir tomondan, dars jarayoning uzviy davomi bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'qituvchilar kasb tanlashga yo'llash imkoniyatlarini ancha kengaytiradi. Dars jarayonidagi kasbga bo'lgan mehr darsdan tashqari mashg'ulotlar bilan uzviy bog'lanib borilsa kasb tanlashda, egallashda ma'qul keladi. Bu esa yana bir kasb-hunarning egallanganligidan dalolatdir. Bu bizning yutuqlarimizdan biridir

Foydalanigan adabiyotlar

1. Sobirovna, U. M. (2022). Improving the educational system for children with disabilities. The Peerian Journal, 4, 20-22.
2. Sobirovna, U. M. (2022). MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
3. Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
4. Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. World scientific research journal, 9(1), 220-224.

ABDULLA ORIPOV - O'ZBEK SHOIRI VA JAMOAT ARBOBI***Qurbonboyeva Saboxat To'raboyevna***

Xorazm viloyati Shovot tumanidagi

31-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Abdulla Oripov ijodi zamonaviy o'zbek adabiyotining yorqin sahifalaridan birini nomoyon etadi. Uning she'rlarida insonning chuqur ruhiy dunyosi va xalq tarixi tahlil etiladi. 1998 yil Abdulla Oripov "O'zbekiston qahramoni" unvoniga musharraf bo'lgan.

Kalit so'zlar: deputati va senatori, ona Vatan, xalq, badiiy saviya

Abstract: Abdulla Aripov is an Uzbek poet and public figure. Abdulla Aripov's work is one of the brightest pages of modern Uzbek literature. His poems analyze the deep spiritual world of man and the history of the people. In 1998, Abdulla Aripov was awarded the title of "Hero of Uzbekistan."

Keywords: deputy and senator, motherland, people, art level

Abdulla Oripov 1941 yil Qashqadaryo viloyati Kasonsoy tumani Nekuz qishlog'ida tug'ilgan. Uning otasi Orifboy Ubaydulla o'g'li mahalliy kolxoz vakili bo'lgan. Oilada sakkiz nafar farzand - to'rt o'g'il, to'rt qiz bo'lishgan, Abdulla Oripov o'g'illardan eng kenjasi bo'lgan. 1958 yil o'rta maktabni oltin medal bilan tamomlab, Abdulla Oripov tahsilni O'zbekiston Davlat universiteti o'zbek filologiyasi fakultetining jurnalistika bo'limida davom ettiradi. 1963 yil universitetni a'lo baholar bilan yakunlab, "Yosh gvardiyachi" tahririyatida muharrir bo'lib ishlaydi; (1967-1974) G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at tahririyati muharriri va bosh muharriri; (1974-1976) "Sharq yulduzi" jurnalida bo'lim rahbari. 1972 yildan 1982 yilgacha Abdulla Oripov O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi bo'lib faoliyat yuritadi; (1982-1983) Yozuvchilar uyushmasining Toshkent viloyati bo'linmasi kotibi; (1983-1985)

“Gulxan” jurnali bosh muharriri; 1985 yildan kotib, 1996 yildan 2009 yilgacha O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi raisi. 1988 yil O‘zbekiston mualliflik huquqini himoya qilish qo‘mitasi raisi etib tayinlangan. Abdulla Oripov Oliy Majlis birinchi va ikkinchi chaqiruvchi deputati va senatori (2005 yil 25 yanvar) bo‘lgan. 1998 yil Abdulla Oripovga O‘zbekiston Qahramoni unvoni topshirildi. “Qush” nomli o‘zining ilk she‘rini Abdulla Oripov universitetda o‘qigan kezlari yozgan. Abdulla Oripovning “Bahor”, “Birinchi muhabbatim”, “Kuz”, “Saraton”, “O‘zbekiston”, “Munojotni tinglab”, “Otello”, “Sarob”, “Dengizga”, “Malomat toshlari”, “Oltin baliqcha”, “Yuzma-yuz”, “Genetika” va boshqa she‘rlari - XX asrning ikkinchi yarmi o‘zbek adabiyotining yorqin namunasidir. 1965 yil uning ilk she‘riy to‘plami “Mitti yulduz” chop etilgan. Uning ketidan “Ko‘zlarim yo‘lingda” (1967), “Onajon” (1969), “Ruhim” (1971), “O‘zbekiston”, “Qasida” (1972), “Xotiro‘t” (1974), “Yurtim shamoli” (1974), “Hayrat” (1979), “Najot qal‘asi” (1981), “Yillar armoni” (1984), “Ishonch ko‘prigi” (1989), “Munojot” (19992), “Haj daftari” (1995), “Saylanma” (1996) she‘riy to‘plamlari bosilib chiqdi. Abdulla Oripov qalamiga “Jannatga yo‘l” (1978), “Tabib va o‘lim” (1980), “Ranjkom”, “Sohibqiron” (1996) dostonlari mansub. 2000-2001 yillar to‘rt tomlik saylanmasi bo‘lmish Abdulla Oripovning “Sara asarlari” nashrdan chiqqan. Abdulla Oripov 1992 yil 10 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi muallifi. Shoir Dante Aligerining “Ilohiy komediyasini”ni, N.Nekrasov, L.Ukrainka, T.Shevchenko, K.Kuliyev va boshqalarning asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Abdulla Oripov she‘rlarini ona Vataniga bag‘ishlaydi. “O‘zbekistonda kuz” she‘rida u sevgi va nafosat ila ona diyorining go‘zalligini ifodalaydi: Ayni kuz, bog‘larning pishgan mevasi, Chumoli safiga tashlayman razm. Olma turshagining bordir egasi, Qarri ajinalar qilurlar bazm.

Porlab ko‘rinadi Qutbda yulduz,
Osmon ham qoramtir - rangi aslidir.

Sariq chakmon qiygan Xizr kabi
kuz, Chindan u donishmand ruhlar

faslidir. Afsus, bahorlarim o'tdilar ketib,
Terga botganicha qoldi saraton. Buyuk
tomoshaning so'nggini kutib, Fasllar
oralab kezdim sargardon.

Islom Karimovning ta'kidlashicha, Abdulla Oripov she'riyatining bugungi ma'naviyat va ma'rifat taraqqiyoti bosqichi muhim ahamiyatga egadir.

2007 yil 12 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasida O'zbekiston mualliflik huquqini himoya qilish agentligining Bosh direktori Abdulloh Oripov Jahon madaniyatining xazinasiga ijodiy hissa qo'shganligi uchun yuqori darajadagi "WIPO Creativity Award" oltin medaliga sazovor bo'ldi.

Mustaqillik o'zbek xalqiga o'zligini anglash va anglatish, tarixi, madaniyati, xalqona urf-odatlar va qadriyatlarini tiklash, milliy o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etish uchun beqiyos imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratdi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek, "...jamiyatning ma'naviy asoslarini yanada rivojlantirishda oilaning ahamiyatini yuksaltirish, har bir oilaning moddiy farovonligini oshirish muammolarini hal etishda davlat va jamiyat tomonidan e'tibor va g'amxo'rlik ko'chaytirilishi zarurligiga alohida e'tibor qaratildi.

Adabiyot har bir davrning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy muammolarini ko'tarib chiqishi va ularga javob izlashiga ko'ra tarbiyaviy ahamiyatga ega. Uning ijtimoiy-ma'rifiy xususiyati, ayniqsa, xalqning milliy ruhini ifodalab berishda ko'rinadi. Tabiiyki, bu jarayonda xalqona poetik tafakkur tarzi ijodkorning adabiy shaxsiyati darajasini namoyon qiladi. Chinakam iste'dod egasi, xalq dilining ulkan tarjimoni Abdulla Oripov ijodida xalqona poetik tafakkur tarzi yetakchilik qiladi.

Abdulla Oripov chinakam xalqning ehtiromi va e'tirofiga sazovor bo'lgan shoirdir. Uning xalq ardog'iga, el-yurt hurmatiga sazovor bo'lishining o'ziyoq ijodkorning she'r va dostonlari xalq ruhi va qalbining ifodasiga aylanganidan darak beradi. "Yozuvchilikning maktabi ham, dorilfununi ham bitta. U ham bo'lsa, bir umr hayotning ichida bo'lish, o'z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo'lib yashash, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishdir". Zero, Abdulla Oripov butun hayoti davomida "o'z xalqi bilan hamdardu hamnafas bo'lib" yashab, ijod

qilayotgan shoirdir. Chunki bu shoir uchun xalq mavhum tushuncha emas, u aniq mazmunga ega. Shoirning "Men nechun sevaman O'zbekistonni" she'rida aytilganidek, "Xalqim, tarix hukmi seni agarda Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi, Qorliklarni makon etgan bo'lsayding, Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?" Mazkur fikrlarda shoir she'riyatining milliy ruhiyatini belgilab beruvchi pafos ufurib turadi.

Abdulla Oripovning inson hayotini, uning orzu-umidlarini yuksak badiiy saviyada ifodalagan, umuminsoniy mohiyatga ega bo'lgan xalqona poetik tafakkur belgilari yaqqol ko'rinib turgan asarlarini maxsus tadqiq etish bugungi adabiyotshunoslik ilmining dolzarb masalalaridan biridir.

Shoir o'z she'rlarida badiiy mazmunga mos shakl tanlaydi. Badiiy ijoddagi xalqona ruh insoniyatning bir necha ming yillik hamrohi bo'lgan xalq og'zaki ijodi motivlari, xalq badiiy tafakkuridagi yetakchi tamoyillar bilan uyg'unlikda idrok etiladi. Ayni shuning o'ziyiq Abdulla Oripov she'riyatini xalqona badiiy tafakkur nuqtai nazaridan alohida o'rganish extiyojini maydonga keltiradi. Bu esa, shubhasiz, shoir ijodidagi mazkur muammoning nazariy asoslarini, xalq donishmandligi, hikmatlar xazinasini va uning ildizlarini hamda folklor motivlarini bir butunlikda tadqiq etish masalasini keltirib chiqaradi.

Mukofot va unvonlari

- O'zbekiston qahramoni (1998)
- O'zbekiston xalq shoiri (1983)
- "WIPO Creativity Award" oltin medali (2007)
- Italiya yulduzi xalqaro sharafli ordeni (2015)
- Hamza nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti (1983)
- Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat mukofoti (1994)

2007 yil Oripov Jahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) tomonidan jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan hissasi uchun oltin medalni qo'lga kiritdi.

2015 yil Italiya yulduzi xalqaro sharafli ordeni bilan taqdirlangan. Faxriy mukofot shoirga Italiya prezidenti Serj Sotarelloning taklifiga binoan topshirilgan.

O'zbekiston xalq shoiri A. Oripov hayotdan 2016 yil 5 noyabr kuni ko'z yumdi.

Uning yoshi 75 da edi. Toshkent shahridagi Chig'atoy qabristoniga dafn etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afoqova N. Abdulla Oripov lirikasida badiiy san'atlar: Filol.fan.nomzodi...dis. –Toshkent : 1997. –B. 142 .
2. Ashurova G. Abdulla Oripov she'riyatida an'ana va badiiy mahorat (obraz, g'oya va tasvir). Filol.fanlari nomzodi.....diss. avtoref.- Toshkent : 2008, - B. 26.
3. Aristotel. Poetika. Toshkent: "Adabiyot va san'at nashriyoti", 1980. – B. 149.
4. Begimqulov D. She'riyatimiz yulduzi. // Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 4 jildlik, 1 jild. –Toshkent : 2000.-B.432.
5. Vohidov R, Hoshimova M. She'riyat - shoir yuragi. Toshkent:"Fan", 1987. B. 68.
6. Jabborov I. Abdulla Oripov she'riyatida tarixiy shaxs talqini. - Toshkent: Fan, 2008. –B. 100.
7. Yo'ldoshev B. Qashqadaryo badiiyati. Toshkent: "Sharq" NMK, 1998.-B. 464. 8. Norboyev B. Hayotni poetik talqin etish tamoyillari va mahorat muammolari. Filol. fan. d-ri..dis. avtoref. Toshkent: 1996.-B. 54.

References

1. Afokova N. Fine arts in the lyrics of Abdulla Aripov: Candidate of Philological Sciences ... dis. –Tashkent: 1997. –B. 142.
2. Ashurova G. Tradition and artistic skill in the poetry of Abdulla Aripov (image, idea and picture). Candidate of Philological Sciences diss. avtoref.- Tashkent: 2008, -B. 26.

3. Aristotle. Poetics. Tashkent: "Literature and Art Publishing House", 1980. -B. 149.
4. Begimkulov D. The star of our poetry. // Abdulla Oripov. Selected works. 4 volumes, 1 volume. –Tashkent: 2000.-P.432. 5. Vohidov R, Hoshimova M. Poetry is the heart of a poet. Tashkent: "Fan", 1987. -B. 68.
6. Jabborov I. Interpretation of a historical figure in the poetry of Abdulla Aripov. -Tashkent: Fan, 2008. –B. 100.
7. Yuldashev B. Kashkadarya art. Tashkent: NMK "Sharq", 1998.-B. 464.
8. Norboyev B. Principles of poetic interpretation of life and problems of mastery. Filol. fan. d-ri..dis. avtoref. Tashkent: 1996.-B. 54.

THE ROLE OF ENGLISH LANGUAGE IN MODERN UZBEKISTAN.

Asaka tuman 2- son kas- hunar maktabi ingliz tili fani o'qituvchilari

Abduraxmonova Mardona

Begaliyeva Maftuna

Abstract: Uzbekistan is a multinational country with the Uzbek language as the only official state language. The Russian language performs the function of a lingua franca for all the ethnical minorities and has been widely used in the country as a second mother tongue. However, since the declaration of independence the importance of the English language has been increasing in all aspects of Uzbek people's life.

Nowadays the role of English language are gaining a higher speed around the world as well as in Uzbekistan. Internet is the most notable resource and 80 % of all the information on the net is in English. The role of the language using in the country increases year by year, shifting in dominance and significance in all spheres of Uzbek peoples life. Uzbek people realize that English is significant in all regards, when it comes to pursuing international education attending a good career keeping up with the rapid pace of world changes.

English is the second language in Uzbekistan.

The spread of English in Uzbekistan greatly differs from that of Russian, back at the beginning of XXth century, being marked mostly as a desirable rather than suppressive process. Uzbek people greatly favour the English language, seeing it as the key to successful and prosperous life. Language specialist *Rod Bolitho* marks such strong interest in the language by two factors: the intention of studying and working abroad and idealisation of The UK and US. These two reasons, in his opinion, are the strongest motivations for the Uzbek to learn it. More English linguistics attribute the continuously increasing interest in the country in learning English to the international significance of the language.

Since the enforcement of the decree all English language teachers have obtained a privilege of receiving a 15% (urban areas) or 30% (rural areas) bonus on top of their monthly salary, if they have reached a level of C1 in CEFR and prove this with an IELTS certificate or a certificate of language proficiency at the National Testing Centre, which was assigned to design tests to check English teacher's language proficiency. The aim of this is primarily encouraging teachers to upgrade their language levels, which, in essence, is the principal obligation of a language teacher. Nevertheless, this policy has shown its positive impact on the quality of educational staff and has become the main criterion of employment in the country, not only in education but in other spheres as well. This approach helped the Uzbek to understand what level must be acquired to meet the requirements of modern standards. Continuous language training is another important consideration in the Decree. According to it, instead of starting to learn a language from the 5th form children must now start learning English from the 1st form of the primary school, at the age of 6-7. The Decree indicated how the language must be taught in the first year and how it should continue further. It must be noted that English has been taught even at pre-school institutions, being the only foreign language taught at this age and level. Therefore, much attention has been paid to the development of appropriate programmes and textbooks in order to meet the modern world criteria and standards of teaching English to young learners. Media started to broadcast TV shows, programmes and films in English with Uzbek subtitles to serve as additional source for the people of all ages to learn the language and hasten the growth of English in society. The streets are filled with English text, including commercial advertisements, shop names, instructions, etc. The Presidential decree was enacted on the Resolution of the Cabinet of Ministers of Uzbekistan, which substantiates foreign language teaching significance comprehensively. It has got points for English language and affirms following[^]

Firstly, from the new academic year on all the applicants applying to the universities who puts in IELTS (5,5 band score) or TOEFL (IBT72) certificates, plus

the ones who has got B2 level on CEFR or FCE are privileged to get the total high score in entrance examination on English as a primary subject.

Secondly, the applicants taking exam on English as a minor subject must show IELTS (4,5 band score) or TOEFL (IBT42) certificates either B1 level on CEFR or FCE in order to take a privilege for the total high score.

Language specialist Rod Bolitho marks such strong interest in language by two factors^ the intention of studying and working abroad and one of the negative factors—idealization of the UK and the USA. These two reasons in his opinion are the strongest motivations for the Uzbek to learn English.

Conclusion

To sum up all above, the English language and situation itself in which it happens to be involved in the 21st century are unique. English language has gained popularity and spread in short period of time. Knowledge of English not only contributes to the international ties of the country, but also facilitates smooth communication among academic communities.

References

- Dearden, J. (2014, January n.d.). *English as a medium of instruction—a growing global phenomenon*. Retrieved from https://www.britishcouncil.org/sites/default/files/e484_emi_cover_option_3_final_web.pdf
- Duff, C., & Dickens, M. (2005). A View from the Ground in Uzbekistan. In H. Coleman, J. Gulyamova & A. Thomas (Eds.), *National Development, Education and Language in Central Asia and Beyond* (pp. 134-141). Uzbekistan: British Council.
- Dzhusupov, M. (2005). The Social Functions and Status of Language in Multicultural Contexts. In H. Coleman, J. Gulyamova & A. Thomas (Eds.), *National Development, Education and Language in Central Asia and Beyond* (pp. 10-19). Uzbekistan: British Council. <https://thewarwickeltezine.wordpress.com/2017/01/31/124/>
- Sobirovna, U. M. (2022). Improving the educational system for children with disabilities. *The Peerian Journal*, 4, 20-22.
- Sobirovna, U. M. (2022). MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
- Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
- Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. *World scientific research journal*, 9(1), 220-224.

MATEMATIKANI KASBGA YO'NALTIRIB O'QITISH.KASBGA YO'NALTIRIB O'QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI.

Dilfuza Alimova Abduvaxobovna

Bekobod shahar 9 umumiy o'rta maktab matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Matematikani kasbga yo'naltirib o'qitish. Kasbga yo'naltirib o'qitishning maqsad va vazifalari hamda kasbiy fanlar bilan o'zaro aloqadorligini va izchilligini kuchaytirgan holda takomillashtirish zaruriyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Matematika, o'qitish metodikasi, kasb, kasbiy ta'lim, dars jarayoni, axborot texnologiyalar.

Hozirgi kunda har qanday sohada menejmentni matematika va kompyuterlarsiz tasavvur qilish qiyin. 21-asrning savodli insoni bo'lish uchun avvalo kompyuter savodxonligi, axborot texnologiyalarini puxta egallashi kerak. Har bir mutaxassis qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat'i nazar, o'z vazifalarini zamon talablari darajasida bajarish uchun axborotni qayta ishlash vositalarining matematik savodxonligini, ulardan foydalanish metodikasini bilishi, ular bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi shart. Shu boisdan ham mustaqil respublikamizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmun-mohiyati, maqsad va vazifalari aniq belgilab berildi. Xususan, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da "Kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari, jamiyat ehtiyojlari, fanning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish, madaniyat, texnologiya va texnologiya" taqdim etilgan. O'qituvchining kasbiy yo'nalishi fanni o'qitish mazmunini ta'lim muassasasining asosiy maqsadlariga yo'naltirishi bilan belgilanadi. Ta'limning kasbiy yo'naltirilganligi pedagogik dasturiy vositalardan, bir tomondan, o'quvchilar dasturda ko'zda tutilgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari mumkin bo'ladigan tarzda noyob foydalanishdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan, tegishli

kasbga munosabat, Kelajak mehnatkashning kasbiy fazilatlarini shakllantiradi. Axborot ta'limini kasbga yo'naltirish va uning o'quvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasiga ta'siri kasb-hunar kollejlari informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishni takomillashtirish yo'llaridan biridir. Ta'limni kasbiy yo'naltirilgan qilish uchun uslubiy talab va shart-sharoitlarni ochib berish kerak. Kasbiy yo'nalishdagi asosiy talab - umumiy ta'lim va kasbiy tayyorgarlik o'rtasidagi aloqani o'rnatish. Eng muhim omillardan biri ta'lim mazmunini amaliyot bilan bog'lashdir. Umumta'lim fanlarining kasbiy mazmunini mustahkamlash, o'qitish mazmuni, shakli va vositalariga umumiy va kasbiy ta'lim o'rtasidagi bog'liqlikni kiritish kasbga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishning asosiy uslubiy shartlari hisoblanadi. Ishlab chiqarish ta'limi materialining hajmi va mazmunini qat'iy belgilash, ishlab chiqarish ta'limi bilan informatika o'qitish o'rtasidagi aloqa shakllarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Informatika va axborot texnologiyalari ta'limini kasbga yo'naltirishning eng samarali shakllari nazariy va amaliyotni uyg'unlashgan holda kasbga yo'naltirishdir. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlikni anglash o'quvchilarda tasavvur, kuzatish, mantiqiy fikrlash kabi psixologik komponentlarning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bu komponentlar umumta'lim fanlarida ishlab chiqilgan. Bilimlarni yangi sharoitda qo'llash qobiliyati o'quvchilarning aqliy rivojlanishining eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Bunda fanning roli mavhum sxema sifatida emas, balki birinchi navbatda faoliyat quroli sifatida zarur. Kasbga yo'naltirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida informatika va axborot texnologiyalari fanlari va kasb-hunar fanlari bo'yicha o'quv reja va dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalari qiyosiy tahlil qilinadi. Bo'lajak ishchining kasbiy fazilatlarini tegishli kasb uchun o'rganiladi. O'quv materialining har bir mavzusiga tayyorgarlik ko'rishda ushbu mavzuga oid ishlab chiqarish o'quv materialining hajmi va mazmunini qat'iy belgilash, ishlab chiqarish ta'limi va "informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitish o'rtasidagi bog'liqlik shakllarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarning kasbga moyilligi, qobiliyati, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir nechta zamonaviy kasb-hunarlarini

egallash imkonini beradi. Mutaxassisliklar talablaridan kelib chiqadigan ta'lim maqsad va vazifalarining murakkabligi kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini kasbga axborotli tayyorlashni yo'naltirish, ta'limning turdosh, kasbiy fanlar bilan o'zaro aloqadorligi va izchilligini mustahkamlash shakl va usullarini takomillashtirish zaruratini tug'diradi.

O'rta kasb-hunar kollejlari muassasalarida ta'limning yo'naltirilganlik darajalari:

-o'rganilayotgan fanning o'quvchilarning kelajakdagi kasbidagi o'rnini aniqlashtirish.

-Muayyan mavzu mazmunini kelajakda egallashi kerak bo'lgan kasb va fan dunyosiga qarashlarini kengaytirishga asos bo'ladigan bilimlar bilan boyitish.

-Bir semestr yoki kursda o'qitiladigan umumiy ta'lim va umumiy kasbiy fanlar o'rtasida gorizontol kasbiy yo'nalishni amalga oshirish.

-Keyingi semestr yoki kursda o'qitiladigan umumiy kasbiy fanlar o'rtasida vertikal kasbiy yo'nalishni amalga oshirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ta'lim tizimidagi fanlarni o'qitishda izchillik va uzluksizlikni ta'minlash maqsadida har bir fanning mazmuni qaytadan tahlil qilindi. Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari takomillashtirildi, ta'lim bosqichlari bo'yicha uning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash asosida tubdan isloh qilindi. Bu ishlar akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quv rejasiga umumta'lim fanlari sifatida kiritilgan "Informatika va axborot texnologiyalari" yo'nalishi bo'yicha ham amalga oshirildi.

O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi bosqichida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri sifatida ta'lim muassasalarida (kasb-hunar kollejlarda) tahsil olayotgan o'quvchilarga informatika fanining kasbga yo'naltirilgan va amaliy jihatlari haqida bilimlar beriladi. Zamonaviy kompyuter dasturlari, jumladan amaliy va xizmat ko'rsatish dasturlari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, veb-sahifalarda turli animatsiyalar yaratish, zamonaviy axborot texnologiyalari haqida umumiy ma'lumot berishdan iborat ekanligi aniqlandi.

Fanning maqsadi informatikani o'z kasbiy faoliyatida unumli foydalana oladigan darajada o'rgatishdan iborat bo'lib, o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislariga bu soha bo'yicha mukammal va to'liq bilimlar berilishi belgilab qo'yilgan. Zamonaviy axborot texnologiyalari haqida umumiy ma'lumot berishda kasbga yo'naltirish talabalarini o'rganilayotgan fanning nazariy asoslari bilan tanishtirish va uning imkoniyatlarini o'rganishdan iborat. Mikroprotessor texnologiyasi, telekommunikatsiya tizimi va axborot almashishning zamonaviy vositalari, audio-video texnologiya asosida ishlaydigan dasturiy, apparat vositalari va qurilmalar tushuniladi. Hozirgi vaqtda yetarli miqdorda yangi axborot texnologiyalari vositalari ishlab chiqilgan va ulardan foydalanilmoqda. Ularning soni har yili o'zgarib bormoqda. Ular ro'yxatiga quyidagilarni kiritish mumkin: barcha sinf kompyuterlari, displey, printer, xotira, kompyuterga ovozni kiritish qurilmasi, skaner, klaviatura, ma'lumotlar ombori, bilimlar ombori, multimedia tizimlari, videomatn, telematn, TV-axborot, modem, kompyuter tarmoqlari, elektron aloqa, elektron konferentsiyalar, axborot qidiruv tizimlari, raqamli fotokameralar, ekspert o'qitish tizimlari, grafik axborotni chiqarish qurilmasi, gipermatnli tizimlar, televidenie, radio, telefon, faks, ovozli elektron aloqa, telekonferentsiyalar, elektron doska, Internetdagi dasturiy vositalar, avtomatlashtirilgan kutubxonalar, o'qitishga mo'ljallangan dasturiy vositalar, tahririy-nashriyot tizimlari, CD ROM, dasturiy majmualar(dasturlash tillari, translyatorlar), berilganlarni uzatish vositalari, radiostantsiya va boshqalar.

Bu ro'yxatni to'liq deyish fikridan yiroq bo'lish kerak. Lekin bu ro'yxat yangi axborot texnologiyalari vositalarining va tizimlarining turli ko'rinishlari haqida tasavvur beradi.

Yangi axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanishning pedagogik maqsadlari quyidagilardan iborat:

- o'quv-tarbiya jarayonining barcha darajalarini intensivlash (tezlashtirish);
- o'quvchining har taraflama rivojlanishi;

-Kasb-hunar kollejlari muassasalari bitiruvchilarini axborotli jamiyat sharoitidagi hayotga tayyorlash;

-ijtimoiy talabni qondirish.

O'rgatish metodikasi:

Kasb-hunar kollejlaridagi muhim axborot va telekommunikatsion texnologiyalar quyidagilar:

- elektron darslik;
- multimedia tizimlari;
- ekspert tizimlar;
- avtomatik loyihalash tizimi;
- elektron kutubxonalar;
- ma'lumotlar ombori;
- lokal va global hisoblash tizimlari;
- elektron aloqa;
- ovozli elektron aloqa;
- elektron doska;
- telekonferentsiyalar tizimi;
- elektron tipografiya.

Yangi axborot texnologiyalari vositalari o'zining didaktik xususiyatlariga ko'ra o'qitish tizimining barcha komponentlariga: maqsad, mazmun, uslub va o'qitishning tashkiliy shakllariga faol ta'sir qiladi va pedagogikaning ancha murakkab hamda dolzarb masalasi bo'lgan shaxs kamoloti, uning intellektual, ijodiy potentsiali analitik va tanqidiy fikrlashi, bilimlarni egallashdagi mustaqilligi, axborotning turli manbalari bilan ishlashda mustaqillik taraqqiyoti masalasini qo'yish va hal etish imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlarida o'quv jarayonini axborotlashtirish bo'yicha ishlar:

o'quv jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan internet texnologiyalarining didaktik asoslarini aniqlash; masofaviy ta'lim metodikasini ishlab chiqish;

zamonaviy axborot texnologiyalari asosida pedagog kadrlar tayyorlash, ularning pedagogik mahoratini oshirishda;

pedagogik ta'limning elektron o'quv-uslubiy majmuasini yaratish (elektron adabiyotlar, virtual laboratoriya ishlari) va tegishli tashkiliy ishlarni amalga oshirish;

axborot texnologiyalari muhitida ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash;

Ta'limning tashkiliy shakllari, usullari, metodologiyasi shaxsni rivojlantirishning yangi axborot tizimini takomillashtirishni talab qiladi. Jamiyatning har bir a'zosi, jumladan, talabalar ham jahon sivilizatsiyasining axborot maydonidan axborot oladi. Bu ularning intellektual salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Lekin ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan keng foydalanishda shaxsning xarakteri, turli xususiyat va sifatlariga e'tibor qaratish zarur. Shu maqsadda axborot texnologiyalari talabaning fikrlash, bilim olish, kommunikativ ko'nikmalarini oshirish, samaradorlikka erishishda qo'llaniladigan uslubiy maqsadlar, zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagogik jarayonlarni samarali tashkil etishni bashorat qiluvchi jihatlar, masofaviy ta'lim kurslarini yaratish va ularning chuqur tahlil asosida afzalliklar beriladi.

Xulosa:

Zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalarining kasb-hunar kollejlaridagi mazmunini rivojlantirishdagi ahamiyatini maxsus variantlar asosida takomillashtirish ko'rsatilgan. Zero, o'quvchi o'z faoliyatida zarur bo'lgan axborotlarni o'zi mustaqil izlab topishi va mustaqil ilmiy tadqiqot olib borish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Shu sababli hozirgi kunda pedagogik ta'limni axborotlashtirishning asosiy yo'nalishlarini bir "qolip"ga solib o'rganish muhim ahamiyatga ega. Kitobda ushbu yo'nalishlar ko'rsatilib, har bir yo'nalishning ahamiyati hamda "Axborot-ta'lim muhiti"ning tipologik belgilari alohida ta'riflanadi. Ta'lim tizimini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'lim jarayonini integratsiyalash va uni boshqarish hisoblanadi. Bunda axborot-ta'lim portallarining yaratilishi axborotlarni mantiqiy tartiblash va boshqarishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Jumayev matematika o'qitish metodikasi [1]
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. -Toshkent 2006
3. Tolipov O'. Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: "Fan". 2005. [3]
4. Sherqulov. M . Ma'ruza matni dan, Toshkent: 2012. [4]
5. S. Alixonov Matematika o'qitish metodikasi. Toshkent-2017 [5]
6. Sobirovna, U. M. (2022). Improving the educational system for children with disabilities. The Peerian Journal, 4, 20-22.
7. Sobirovna, U. M. (2022). MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
8. Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
9. Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. World scientific research journal, 9(1), 220-224.

MILLIY MUSIQIY CHOLG‘ULARNING TARIXIY TARAQQIYOTI (NAY MISOLIDA)

O‘zbekiston Davlat Konservatoriyasi

sirtqi ta‘lim “Cholg‘u yo‘nalishi” (Fortepiano) 4-kurs talabasi

Sattorova Dilnoza Baxromovna

Annotatsiya: Vaqt o‘tishi bilan tarix zarvaroglari shakllanar ekan, har bir xalqning tarixi va o‘ziga xos shakllangan madaniyati rivoj topib boradi. Jumladan o‘zbek xalqimizning ham har bir millat havas qilgulik boy milliy madaniyati mavjud. Ushbu madaniyatimiz bir bo‘lagi bo‘lmish, milliy cholg‘ularimizdan nay cholg‘usi haqida ushbu maqolamizda so‘z yuritar ekanmiz!- Nay cholg‘usini kelib tarixini o‘rganmasdan ilojimiz yo‘q. Ushbu maqolamizda milliy cholg‘usi Nayning kelib chiqish tarixidan bugungi xolatigacha rivojlanish jarayonlariga yaqindan yondashdik.

Kalit so‘zlar: Nay, Sharq taronalari, Arzu samo, Jonbaxsh, Musiqa, zeru bam, Mubarqa‘, an‘anaviy ijrochilik, nota orqali ijro, Nay pikkolo, Nay tenor, Nay al‘t, Nay bas, mis nay, yog‘och nay, g‘arov nay.

Ma‘lumki, O‘rta Osiyo xalqlari juda ko‘p tarixiy voqealarni boshidan kechirgan. Har bir davrda – barcha fanlar qatori musiqa ilmi ham goh rivojlanib, goh tahdidlarga uchrab, musiqa ahli turli xil holatda yashab ijod etishdi. Ijtimoy hayot ba‘zi cholg‘ularni rivojlanishiga, ba‘zilarini esa muomaladan chiqib ketishiga sabab bo‘ldi. Hozirgi kunda O‘rta Osiyo hududida qadimiy musiqa cholg‘ulari bilan bir qatorda ko‘p ovozlilikka moslashtirilgan (rekonstruksiya) musiqa cholg‘ulari mavjud. O‘rta Osiyoning yirik shaharlaridan Toshkent, Dushanbe, Olma Ota, Samarqand shaharlarida O‘rta Osiyo va Umumjahon miqyosidagi musiqiy anjumanlar o‘tkazilib milliy musiqa ijrochiligiga xos asarlar jumladan, milliy musiqa cholg‘ularining ijrolari namoyish etilmoqda. Olma Ota shahrida 1973-yilda o‘tkazilgan Osiyo davlatlarining musiqiy tribunasi, Dushanbe shahrida 1990-yilda

Borbod Marvazining tavalludiga bag'ishlab o'tkaziladigan umumjahon musiqiy anjumani, Toshkent shahrida 1975-yilda o'tkazilgan "Maqom, mugam va zamonaviy bastakorlar ijodi" hamda Samarqand shahrida ko'p yillardan buyon o'tkazilayotgan "Sharq taronalari" Xalqaro musiqiy anjumanlari shular jumlasidandir. Milliy musiqa cholg'u ijrochiligining yo'qolib borishini oldini olish maqsadida, 1972-yilda Toshkent davlat konservatoriyasida san'atshunoslik fanlari doktori, professor Fayzullo Karomatov rahbarligida maqom asarlarini ijrolari, umuman milliy musiqa ijrochiligi bo'yicha "Sharq musiqasi" kafedrasini tashkil etildi. Unda milliy musiqa cholg'ulari ijrochiligi qayta tiklanib - ud, tanbur, qonun, nay, g'ijjak, dutor, rubob, doira, surnay, qo'shnay, sato va boshqa cholg'ularning milliy uslubdagi ijrolari o'rganila boshlandi. Musiqa ilmining tarixi juda qadim-qadimlargacha borib taqaladi. Lekin, barcha musiqiy ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Keyingi yillarda olimlarimizning izlanishlari natijasida - arxeologik qazishmalardan topilgan uy - ro'zg'or buyumlaridagi musiqa cholg'ulari va ijrochilarning tasvirlari aks ettirilgan suratlar hamda haykalchalarga tayanib, musiqa ilmi juda qadim tarixga ega ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Musiqa ilmi qachon paydo bo'lgan degan savolga jo'ngina qilib, odamzod yaratilgan lahzada deb javob berish mumkin. Rivoyatlarda aytilishicha - Alloh Taolo Hazrati Odamni yaratib, uning vujudiga jonni kiritish jarayonida musiqa sadolari "arzu samo"ni to'ldirib turgan ekan. Musiqa haqida gap ketganda "Jonbaxsh" sifatining qo'llanilishi ham shundan bo'lsa ajab emas.¹ Miloddan oldingi davrda yashab ijod etgan ko'pgina allomalar fanning turli sohalarida ijod etish bilan birga, musiqa ilmiga ham alohida e'tibor berganlar.

Masalan: Arestotel, Pifagor, Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy, Marog'iy, Jomiy, Navoiy, Kavkabiyy, Husayniy, Darvesh Ali Changiy, Komil Xorazmiy va boshqalar IX asrlardan boshlab "Musiqa" ilmi va uning ijrochiligiga oid risolalar yaratila boshlandi. Forobiyning "Kitobu-l-musiqiy al kabir" (Musiqaga oid katta kitob) X-XI asrlarda Abu Ali Ibn Sinoning "Kitobu-sh-shifo", "Donishnoma" kitoblaridagi

¹ Nafas Shodmonov. "Temuriylar davrida musiqashunoslik". T., 1995, 3-b.

maxsus boblar. Abdulqodir Marog'iyning "Maqosid-ul-alhom" (Kuylar maqsadlari) Urmaviyning "Risolatush-sharafiya", Qutbiddin Sheroziyning "Durratuttoj" musiqiy risolalari. Abdurahmon Jomiyning "Risolayi- musiqiy" (Musiqqa ilmi risolasi). Kavkabiyning "Risolayi-musiqiy" asari, ya'ni "Risola dar bayoni duvozdah maqom" "O'n ikki maqom bayoniga bag'ishlangan risola", Husayniyning "Qonuni-ilmi" va "Amaliyi musiqiy", Darvesh Ali Changiyning "Tuhfatu-s-surur" asarlari shular jumlasidandir.

Ushbu maqolamiz aynan nay cholg'usi ijrochiligiga bag'ishlanganligi uchun, ushbu cholg'u tarixiga mos manbaalarga to'xtalamiz. IX-X asrlarda yashab ijod qilgan, Sharqning buyuk allomasi Abu Nasr al-Forobiy o'zining "Katta musiqiy kitobi" risolasida ta'riflangan -nay cholg'usi zamonaviy naydan deyarli farq qilmaydi" deb yozgan bo'lsa, XVI asrda yashab o'tgan musiqashunos, bastakor, sozanda, hofiz va shoir Darvish Ali Changiy o'zining "Risolai musiqiy" traktadida shunday so'zlarni keltiradi: -"Nay"- hazrati sarvari koinot, yaralmishlar peshvosi, ehson bog'ining guli, inson bog'chasining nuri, me'roj qiblasining semurg'i, ilohiy qurb ka'basi, Alloh sirlarining ma'dani Muhammad Rasululloh (s.a.v.) zamonidagi sozdir. "Naqldurki, uning paydo bo'lganining sababi shul ediki, Hazrat me'rojdan qaytgandilar. Jami sirlarni mardlar sarvari, Xudo she'ri Hazrat Amir al-mo'minin Ali karramallohu vajhahuga aytib berdilar. So'ng unga amr qildilar: -Ushbu sirlarni begonalardan pinhon saqla, oshkora qilma!". Insoniylik taqozosiga ko'ra, Hazrat Amir almo'minin Ali raziyallohu anhu beorom va betoqat bo'la boshladilar. Hazrat Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning buyruqlari hech bir kimsaga, jonga sirni oshkor etmaslik haqida bo'lgan edi. U betoqat va beoromlik ko'pligidan biyobonga bosh olib ketdi. Bir quduqni ko'rib, o'sha quduqqa sirlarni aytdi. Ilohiy farmon bo'lib, o'sha quduqda bir qamish ko'karib chiqdi. Bir cho'pon uni qirqib oldi va labiga qo'yib puflay boshladi. Bir ovoz undan zohir bo'ldiki, barcha vahshiy, qush va jonlar eshitishi bilanoq oromlarini yo'qotdi. Vallohu a'lam bi-s-savob!

Bilginki, nay qiyshiq bo'lgan, so'ng uni taroshlab to'g'rilaganlar hamda unga nayi rost deb nom qo'yganlar. Qiyshiq naydan bir qancha maqomlarni chiqarib bo'lmaydi, to'g'ri naydan esa nima xohlasalar, chiqarish mumkin. Zotan, Mubarca'

pardasi bor. U yettinchi parda bo'lib, Rost maqomidandir. Panjgoh ham, so'ng zilkulli bor Navo ham shunday. Segoh ulardan keyin chiqadi. To'g'ri nayni *zeru bam* ham deydilar".² Yoki Abdurauf Fitrat o'zining "O'zbek klasik musiqasi va uning tarixi" kitobida "Nay qamish ma'nosidagi forsiycha so'zdir. Bizda brinj (bronza) yoki baqir (mis) dan yasaladi" -deb izohlangan. Yana shunday ma'lumotlardan birida nay go'yo temirchilarning olovini havo orqali puflab beradigan narsasiga qiyos qilib Xorazmshoh Mavlano Safjiddin Al-Mo'min tomonidan ixtiro qilingan deyiladi. Nay musiqa cholg'usi zardoli, tut, g'arov, nuqra, kumush yoki misdan yasaladi. Unda yetti ovoz chiqaruvchi teshik pardalar bo'lib, bittasi alohida og'izdan nafas berish uchun, oltitasi bir joyda birin-ketin olti barmoqqa moslanib, bular asosiy sado chiqaruvchi aylana pardalar hisoblanadi. 1924-yillarda Buxoroda mavjud nay cholg'usi to'g'risida quyidagicha ma'lumotlar berilgan: "Nay qamish ma'nosida forsha bir so'zdir. Nay "birinj" yo "baqir" (kumush yoki mis) dan yasaladur"³. Yana bir asarda tanbur musiqa cholg'usini sozlanishida Buxoroda mavjud naylardan foydalanilganligi, ya'ni mis nay "sol", yog'och nay "lya-bemol", g'arov nay "lya" tovushlarini berib, asar ijrosida tanbur yuqoridagi naylardan bir- biri "sol", "lya-bemol" yoki "lya" tovushlariga soz qilinarkan.

Nay cholg'usi katta tarixga ega bo'lsada, bugungi kunda ushbu cholg'u ijrochilik jihatidan ikki xil yo'nalishga:

- an'anaviy ijrochilik - bastakorlar ijodi, maqom, xalq kuy-qo'shiqlari;
- nota orqali ijro - bastakorlar ijodi, maqom, xalq kuy-qo'shiqlari bilan birga, O'zbekiston va jahon kompozitorlarining turli janrlarda yozilgan asarlarini ijro etish.

Ma'lumki XX asrning 30-50-yillarida o'zbek xalq cholg'ularini takomillashtirish borasida, O'zbekiston musiqa san'atining ko'zga ko'ringan bir nechta olimlari tomonidan katta ilmiy-amaliy tadqiqotlar amalga oshirildi. Unga ko'ra: o'zbek xalq cholg'ulari faqatgina - bastakorlar ijodi, maqom, xalq kuy-qo'shiqlari ijrochiligi bilan cheklanib qolmasdan, uning texnik imkoniyatlarini oshirish, diapozonini kengaytirish va shu orqali bastakorlar ijodi, maqom, xalq kuy-

² Дарвиш Али Чангий "Трактат о музыке". Ташкент, 1989.

³ Н.Миронов. Музыка узбеков, Самарканд, 1929

qo'shiqlari bilan birga O'zbekiston va jahon kompozitorlarining turli janrlarda yozilgan asarlarini ijro etish va shu orqali dunyo musiqasi durdonalari bilan tanishib, jahon miqyosida o'tkazilayotgan turli festival hamda tanlovlarda ishtirok etish imkoniyatini yaratish asosiy masalalar sifatida qo'yilgan.

Toshkent davlat konservatoriyada nay sinfi (Xalq cholg'ulari bo'limida) 1950-yilda ochilgan bo'lib, A.Qodirov va M.H. Toirov mazkur sinfda ta'lim olgan ilk talabalardir. A.I.Petrosiyans va P.Yunusov nay sinfini tashkil qilish tashabbuskorlari bo'ldi. Ular naydan tovush chiqarish yo'llari va applikator usullarini ham sistemalashtirishdi. 1956-yildan buyon nay sinfini oliy ma'lumotli mutaxassis Mirza Hakimovich Toirov olib borgan.⁴

Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra nay cholg'usining oilasi paydo bo'ldi va uning ijrochilik diapazoni kengaytirildi:

1. Nay pikkolo – do, re, mi, fa pardalaridan;
2. Nay tenor – sol, lya, si pardalaridan;
3. Nay al't –mi, fa, sol pardalaridan;
4. Nay bas – lya, si do, re pardalaridan.

Hozirda nayning ushbu turlarida O'zbekiston va jahon kompozitorlarning turli janrlarda yaratgan asarlari chalinib, konsertlarda, shuningdek, Xalqaro hamda Respublika tanlovlarida ishtirok etib kelinmoqda. Tanlovlarda ishtirok etgan jamoalar yoki yakkanavoz sozandalar birinchi va oliy o'rinlarni olib, o'zbek musiqasi ijrochiligini dunyo sahnalarida targ'ib etib kelishmoqda. O'zbekiston musiqasi ijrochiligi o'quvchi yoshlarning madaniy va ma'naviy saviyasini shakllantirish yo'lida beqiyos o'rnini borligi katta ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning musiqiy savodxonligini oshirishda Milliy cholg'u asboblarning tarkibiy tuzilishi va ijro madaniyatini o'rganishda bolalar musiqasi va san'at maktablari, san'at va madaniyat ixtisoslashtirilgan maktablarida hamda oliygohlarning musiqasi kafedralarida muntazam mashg'ulotlar keng ko'lamda olib borilmoqda.

⁴ Н.Миронов. “Музыка узбеков”, Самарканд, 1929

Shuni xulosa qilib ayta olamizki o'zbek milliy cholg'u ijrochiligining, milliy madaniyatimizning nigizi bo'lmish qadimiy tarixga ega nay cholg'usi ohanglari xar bir yurtdoshimizni qalbida mangu yashaydi. Davlatimizning xar bir fuqarolari qayerda musofirchilikda bo'lmasin nogaxon nay ovozi eshitilib, unda milliy ohanglarimiz yangrasa beixtiyor milliyligimizdan g'ururlanadi va faxrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Batir Dosimbetov "Xalq cholg'ularida ijrochilik (Nay)" Toshkent 2021, 243-
Nafas Shodmonov. "Temuriylar davrida musiqashunoslik". T., 1995, 3-b.
2. Дарвиш Али Чангий "Трактат о музике". Ташкент, 1989.
3. Н.Миронов. "Музыка узбеков", Самарканд, 1929

CHOLG'U IJROCHILIGINI RIVOJLANTIRISH

QARSHI IXTISOSLASHTIRILGAN SAN'AT MAKTABI OLIY TOIFALI

O'QITUVCHISI

NIYOZOV QURBONALI NURALIYEVICH

ANNOTATSIYA: Maqola umumta'lim maktab ta'limiga cholg'u ijrochiligi fanini kiritilishi va o'quvchilarda ijrochilik malakalarini shakllantirishning ahamiyati haqida.

Kalit so'zlar: cholg'u ijrochiligi, milliy cholg'ular, rekonstruktsiya qilingan, musiqiy meros, sozanda.

ABSTRACT: The article deals with the importance of introducing the subject of instrumental performance into secondary school education and the formation of students' performing skills.

Keywords: instrumental performance, folk instruments, reconstruction, musical heritage, musician instrumentalist.

KIRISH: O'zbek xalqining bebaho boyligi hisoblanmish milliy musiqiy cholg'ularimiz o'zining betakrorligi, naqsh bezagining jozibadorligi, ovoztarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining beqiyosligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda alohida o'rin tutadi. Musiqiy cholg'ular azal-azaldan o'zbek xalqining ma'naviy hayotida muhim ahamiyat kasb etib, kundalik turmush tarzi bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Ular hozirgi kunda ham kishilar dunyoqarashining shakllanishida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ayniqsa, cholg'u ijrochiligi san'ati ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida noyob estetik vosita sifatida shakllanib, nafaqat musiqa ilmida, balki zamonaviy musiqa ijodiyotidam katta qiziqish uyg'otib kelmoqda. Uning barcha o'ziga xos xususiyatlari va qirralarini o'rganish esa cholg'u ijrochiligi amaliyotini boyitishga yordam beradi. Milliy musiqiy sozlarimiz juda qadimiy va boy tarixga ega. Musiqa san'atida dastlabki zarbli (membranofon) cholg'ular eramizdan oldingi o'n uchinchi ming yillikda paydo bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha, bunday cholg'ular qadimgi

mehnat qo`shiqlarining ritmik tuzilishi bilan bevosita bog`liq bo`lgan. Keyinchalik shovqinli (idiofon) cholg`ular paydo bo`ldi. Ijrochilar qarsak chalib ritmni ta`kidladilar, shovqinli cholg`ular ta`sirini kuchaytirdilar. Ijrochi ayollarning chapak zarblari o`ziga xos takrorlanmas go`zal holatni vujudga keltirar edi. Shu sababli zarbli cholg`ular eng qadimgi cholg`u asboblari turiga kiradi. Ularning kelib chiqishi insonning qadam bosishi, mehnat jarayoni, raqs harakatlari, ov va harbiy yurishlari bilan bog`liq. Uzoq tarixiy rivojlanish davomida turli xalqlar musiqa amaliyotida o`zining tuzilishi, tovush hosil qilishi, ijro va ifoda imkoniyati jihatidan xilma-xil zarbli cholg`ularning turlari shakllangan. Taniqli olim T. Vizgoning ma`lumotiga ko`ra mudovara (tarelka) harbiy cholg`ular qatoridan ham o`rin olgan. Misli mudovara (sanj)lar ham meloddan uch ming yil oldin ma`lum bo`lsa-da, zamonamizgacha xuddi doyra cholg`usidek o`z shaklida etib kelgan. Zarbli cholg`ular - doyra, debu, daff, daz, dov, sanj, go`lachalar meloddan ikki ming yil muqaddam (nisoniylar davri) vujudga kelib, turli shakllari, tuzilish va zarblari bilan takomillashib bizgacha yetib kelgan. Doira va sanj cholg`usining tarixi ijro etilish usullari haqida musiqashunos olim T. Vizgo fikr yuritib, sanj cholg`usining o`rtasidan tasma o`tkazilib chalinganligini va hozirgi davrda ham xuddi shunday uslubda ijro etilishini ta`kidlaydi. Samarqandning Urgut tumani Mo`minobod qishlog`idan topilgan miloddan besh ming yil oldin suyakdan ishlangan va beshta qo`l bilan bosib ijro etiladigan teshikka ega bo`lgan nay qisman saqlangan bo`lib, o`sha davrda bunday tovush ko`lamiga ega bo`lgan cholg`uda qanday kuylar ijro etilganligini tasavvur qilish mumkin. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan va bizgacha to`liq cholg`u sifatida yetib kelmagan bo`lsa-da, ilmiy manbalarda tasviri tushirilgan bu cholg`ular paleolit davriga to`g`ri keladi. Shuningdek, ular aynan eng qadimiy insoniyat tarixida ilk musiqa rivojining qay tarzda ekanligidan hamda umummadaniy saviyasidan dalolat beradi. Ular asta-sekin rivojlanib hozirgi nay, goboy va klarnet darajasigacha yetib kelgan. Musiqiy cholg`ular juda qadimiy rivojlanish tarixiga ega. Arxeologik qazilmalar, qoyatoshlardagi va devoriy tasvirlar, tarixiy va ilmiy hujjatlar, adabiy manbalar, miniatyura asarlaridan musiqiy cholg`ular uzoq o`tmishda mavjud bo`lgani va turli xalqlar o`rtasida muloqot

vositasi bo'lganligini isbotlaydi. O'zbek xalq cholg'ulari haqidagi bebaho ma'lumotlar A.Eyxgorn, V.Bertels, A.Boldirev, B.Riftin, A.Semyonov, R.Sadokov, T.Vizgo, O.Malkeevalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. So'nggi yillarda musiqiy cholg'ularni o'rganishga bo'lgan qiziqish nafaqat bizning respublikamiz, balki chet davlatlarda ham sezilarli darajada ortdi. Ushbu yo'nalish bugungi kunda zamonaviy san'atshunoslik ilmi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Musiqiy cholg'ular ma'naviy madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, jamiyat rivojining ma'lum bosqichida shakllangan estetik didni ham aniqlaydi. Shuningdek, musiqiy cholg'ular va ularning madaniy yodgorliklardagi tasvirlari o'tmish davr hayotidan dalolat beruvchi haqiqiy va yagona ma'lumot manbai hisoblanadi. Musiqiy merosning qaysiki turida ish olib borilishidan qat'iy nazar, tadqiqotchi uchun hududiy chegaralarni aniqlash biroz qiyinchilik tug'diradi, chunki davlatlarning zamonaviy chegaralanishi unchalik uzoq bo'lmagan davrda vujudga kelgan. O'rta Osiyo hududida Parfiya, So'g'diyona, Baqtriya, Xorazm kabi turli davlatlarning vujudga kelganligi bizga tarixdan ma'lum. IX-X asrlarda Eron va Afg'oniston davlatlari hududi Buxoro xonligining yerlari bo'lgan. XII asrda Xorazm hukumronligi shimoliy Hindistongacha bo'lgan juda katta hududni egallagan edi. XIV asrda mo'g'ul imperiyasi vayronalarida Temurning buyuk saltanati yuzaga keladi va Samarqand uning markazi bo'lgan. Shuning uchun musiqiy cholg'ularning yaratilishi va rivojlanishini faqatgina bir xalqning mahsuli deb hisoblash noto'g'ri. Ular ko'p asrlik rivojlanish natijasida, o'zaro ta'sir va o'zaro aloqalar orqali vujudga kelgan. Musiqiy cholg'ularning eramizgacha mavjud bo'lganligini tasdiqlovchi zamonaviy arxeologik topilmalar katta qiziqish uyg'otadi. Jumladan, yaqinda Samarqand viloyatining qishloqlaridan birida, ayol qabridan oltin va bronza taqinchoqlar orasida suyakdan ishlangan nay topilgan hamda uning bronza davriga mansubligi aniqlangan. Shuni ham aytish kerakki, o'zgacha ko'rinishga ega bo'lgan buben cholg'usi ham O'rta Osiyoda qadimda istiqomat qilgan aholiga ma'lum bo'lgan. Afrosiyobning terrakota haykalchalariga qarab, lyutnya (ud) so'g'diylarning sevimli cholg'usi bo'lganligini aniqlash mumkin. Cholg'uning katta va kichik hajmdagi, yumaloq va uzunchoq shakldagi, ammo asosiy jihatlari o'xshash

boʻlgan turlarini uchratamiz. Ushbu tasvirlarda biz lyutnyaning torli-tirnama, kosaxonasi katta va dastasi kalta, bosh qismi orqaga qayrilgan turlarini koʻrishimiz mumkin. Bu cholgʻu «kalta lyutnya» yoki ud nomi bilan mashhurdir. Xalq cholgʻularini oʻrganish boʻyicha maʼlumotlar yuqorida nomlari qayd etilgan olimlarning ilmiy tadqiqotlarida oʻz aksini topgan. Shuningdek, V.Belyaevning «Oʻzbekiston musiqa cholgʻulari» (1933), R.Gruberning «Musiqa madaniyati tarixi» (1941), I.Rajabovning «Maqomlar masalasiga doir» (1963), A.Karomatovning «Oʻzbek cholgʻu musiqasi» (1972), T.Vizgoning «Oʻrta Osiyo musiqa cholgʻulari» (1980), A.Petrosyansning «Cholgʻushunoslik» (1990), A.Odilovning «Oʻzbek xalq cholgʻularida ijrochilik tarixi» oʻquv qoʻllanmasi (1995), A.Lutfullaev va T.Solomonovanning «Oʻzbek xalq musiqa cholgʻulari» oʻquv-uslubiy qoʻllanmasi (2005), A.Tashmatovanning «Musiqiy cholgʻular muzeyi Katalogi» (2006), A.Lutfullaevning «Oʻzbek xalq cholgʻularida ijrochilik sanʼati tarixi» oʻquv qoʻllanmasi (2006), S.Saidiyning «Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholgʻular» nomli oʻquv qoʻllanmasi (2008) xalq cholgʻularini oʻrganishga bagʻishlangan. V.Belyaevning «Oʻzbekiston musiqa cholgʻulari» nomli kitobi 1933-yili Moskvada nashr etilgan boʻlib, u 7 bobdan iborat. I-bob zarbli, shovqinli, tilchali va rezonansli cholgʻularga bagʻishlangan. 14 II-bobda damli cholgʻular, III-bobda torli cholgʻular haqida maʼlumotlar berilgan. IV-bob oʻzbek musiqa cholgʻularining ansambllarda qoʻllanilishi, V-bob oʻzbek musiqa cholgʻularining avvalgi (eskicha) vazifalari, VI-bob oʻzbek xalq cholgʻularning tarixiy ahamiyati, VII-bob oʻzbek musiqa cholgʻularining Oʻzbekiston musiqa madaniyatini qurishda qoʻllanilishi kabi maʼlumotlarni oʻz ichiga qamrab olgan. Ushbu kitobda oʻzbek musiqa cholgʻulari haqidagi bebaho maʼlumotlar oʻrin olgan. XIX Asrning ikkinchi yarmida oʻzbek xalq cholgʻulari ijrochiligi sohasida jiddiy oʻzgarishlar yuz berdi: yangidan-yangi shakllar paydo boʻldi. Xalq ijrochiligi anʼanalari asosida yangi, nisbatan murakkab va mukammal, xalq hayotining turli tomonlarini yorituvchi kuy va qoʻshiqlar yaratila boshlandi. Taniqli dutorchi, tanburchi, doirachi, naychi, surnaychi, bulamonchi, gʻijjakchi, qashqar va afgʻon rubobchilari paydo boʻldi. Xalq cholgʻulari musiqa ixlosmandlari orasida keng

yoyildi. Ular «Navro`z» bayramlarida va shu singari xalq sayllari va tomoshalarida, hosil bayramlarida faol ishtirok etdilar. Cholg`ular orasida musiqa tovushlarini yozib ko`rsatadigan maxsus belgilar tizimini (notatsiya) yaratishga intilish paydo bo`ladi. Buni amalga oshirish shoir va musiqachi Pahlavon Niyoz Mirzaboshi (Komil Xorazmiy 1825-1879) ga nasib etadi. Iste`dodli musiqa ijrochisi, mohir tanburchi va g`ijjakchi Pahlavon Niyoz Mirzaboshi sayohat chog`ida nota bo`yicha kuy chalayotgan cholg`ularni ko`rib hayratga tushdi. Mirzaboshi-Komil Xorazmiy Xorazmga qaytishi bilanoq ilgaridan diliga tugib yurgan niyati - maqomlarni yozib olishga ilhom bilan kirishdi. Cholg`uchi tanbur chizig`ida joylashgan ladlar miqdoriga muvofiq ravishda o`zida bo`ylama chiziqni mujassam etgan tabulatura yozig`i – «Xorazmcha tanbur notatsiyasi» ni kashf etdi. Ladni bosish joyi nuqtalar bilan belgilandi. Chiziq ustidagi va ostidagi nuqtalar bilan tanbur torlarini usti yoki ostidan chertish soni ifodalangan. Bu Xorazm tanbur yozuvi o`ngdan chapga o`qilgan. 15 Muallif Xorazm olti yarim maqomining birinch maqomi «Rost» ni cholg`u va aytim yo`llarini yozib oladi. Bu ishlarda o`g`li Mirzo Matrasulboy yaqindan yordam beradi. Muhammad Rahimxon (Feruz) ning yordamida mashhur xattotlar tomonidan nusxalar ko`paytiriladi. Nusxalardan bittasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida, 1tasi O`zbekistondavlat konservatoriyasida saqlanib kelinmoqda. Mukammal bo`lmasada, bu yangi nota yozuv uslubi ijrochilik tarixiga musiqa merosini yozib olish va saqlab qolish yo`lidagi ilk urinish sifatida kirdi. Notatsiya muallifi katta musiqa arbobi va o`qituvchisi ham edi. Xudoybergan Muxrkan, Xudoyberdi Mahsum, Bobojon bo`lamonchi, Muhammad Rasul Mirzo, Matyoqub Xarratov, Matniyoz Yusupov va ko`pgina boshqa taniqli sozanda va xonandalar undan dutor, tanbur, g`ijjak, bo`lamon, surnay, doyra va boshqa cholg`ularchalishni o`rganishgan. XX asrning 20-yillarida o`zbek musiqa san`ati jadal ravishda taraqqiy eta boshladi. Musiqa o`quv yurtlari - Toshkentdagi Turkiston xalq konservatoriyasi (1918) va uning Samarqand, Farg`ona (1919) va Buxorodagi (1920) filiallarida katta ishlar amalga oshirildi. Ularda asosan o`zbek xalq cholg`ulari hamda ba`zi yevropa musiqa cholg`ulari (fortepiano, skripka va damli cholg`ular) ni chalish o`rgatilar edi. Shu

tufayli respublikaning ko'pgina shaharlarida musiqa havaskorligi keng quloch yoydi. D. B. Kabalevskiy bolalar cholg'u musiqa ijrochiligi faoliyatiga katta ahamiyat bergan. Xususan, u ta'kidlaganki: "Agar sinfda fortepiano bo'lsa, darslarga to'rt qo'lda ijro qilishni (o'qituvchi bilan ansamblda chlish) kiritish tavsiya etiladi ... Ehtimol, hayotlarida hech qachon fortepiano klavishlariga tegmagan bolalar, ikki barmog'i bilan faqat o'qituvchi tomonidan berilgan ikkita notani bosib ozmi-ko'pmi to'laqonli musiqa asarini ijro etishda ishtirok etadi. Bu bolalarda katta qiziqish uyg'otadi, musiqaga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi va, albatta, ularning musiqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi» Ammo sinfda fortepiano bo'lmasa-chi? Va agar u mavjud bo'lsa ham, sinfdagi bolalarni ushbu faoliyatga jalb qilishda qiyinchiliklar mavjud - axir, o'qituvchi hammani bir vaqtning o'zida bitta cholg'uga o'tkaza olmaydi. Va maktab darsi sharoitida bu faoliyatga murojaat qilishning shubhasiz afzalliklari bilan, bolalar shunchaki klavishlarga "teginib ko'rish" imkoniyatiga ega bo'lishardi halos.[4]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA:

Boshlang'ich elementar cholg'u asboblari ham cholg'u ijrosini o'rganib ko'rish mumkin. Agar maktabda bolalar cholg'u asboblari bo'lsa, ulardan darslarda o'qituvchi bilan ansamblda (shu jumladan to'rt qo'lda ijro sifatida) foydalanishimiz mumkin - qo'shiqni jo'rlikda kuylash, musiqa ostida harakat qilishimiz uchun bu juda ma'qul, chunki bu asboblarni chalish bolalarning musiqiy rivojlanishiga ham hissa qo'shadi, ularning musiqiy va ijrochilik tajribasini boyitadi va darsga o'yin elementini kiritadi. Ammo bolalar asboblari ijroni bu turi bolalarning e'tiborini uzoq vaqt ushlab turishga qodirmi? Hatto K. Orff tomonidan yaratilgan mashhur elementar musiqa cholg'ularida ijro qilish faqat maktabgacha yoshdagi bolalarga nisbatan mo'ljallangan. Bugungi kunda kichik maktab yoshdagi o'quvchilarini ham doirachalar, shiqildoqlar, uchburchaklar va barabanlarning shovqini bilan qiziqtirish allaqachon qiyin bo'lib qolgan. Badiiy sifat jihatidan juda shartli bo'lgan natijaga Orff cholg'u asboblari chalishning juda qiyin texnikasi asosida erishish mumkin. Shu bilan birga ularni arzon deb atay olmaysiz. Bu ularni mahalliy maktabda tarqatish imkoniyatini kamaytiradi.[4] Ko'p qiyinchiliklarni musiqa

o`qituvchisining zukkoligi bilan bartaraf etish mumkin. Ammo baribir, barcha maktab o`quvchilarini improvizatsiyalangan usullar asosida cholg`u musiqa ijrochiligi bilan tanishtirish masalasini hal etishda o`qituvchining zukkoligi yetarli emas. Yoki, bu asboblardan tashqari, musiqa darsida boshqalarga murojaat qilish mumkin bo`lgandir? Axir, D. B. Kabalevskiy umumta`lim maktablari uchun musiqa faning dasturini yaratilganiga ham 50 yildan ortiq vaqt o`tdi. Darhaqiqat, musiqiy cholg`ular insoniyat ma`naviyatini ohanglarda tarannum etuvchi vosita, ya`ni xalq ijodiyoti mahsuli bo`lib, azal -azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalib, tobora mukammallashib kelayotgan mo`jizaviy va ifodaviy asboblardir. Cholg`ularda har bir xalqning milliy g`ururi, an`anasi, qadriyatlari o`z ifodasini topganki, ulardan taraladigan ovoz ham shunga moslashgan. Zamonaviy jarayonda o`tmish an`analariga yangicha qarash, ilg`or rivojlangan texnikadan munosib foydalanish hamda komil insonni tarbiyalash kabi omillarga alohida e`tibor qaratilmoqda. Zero, komil inson tarbiyasida musiqa eng muhim, ya`ni insonlarni ruhiy hamda ma`naviy tarbiyasiga asos bo`la oladigan omil sifatida qaraladi. O`quv-ta`lim jarayonining barcha bosqichlarida bunga e`tibor berilishining sababi ham shunda ekanligi shubhasizdir.[2] 2022/2023 o`quv yilidan boshlab umumiy o`rta ta`lim muassasalarida milliy musiqa cholg`ularidan kamida bittasida kuy ijro etish mahorati o`rgatiladi hamda bu haqda ularning ta`lim to`g`risidagi hujjatiga (shahodatnoma) tegishli qayd kiritiladi. Bu borada O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Madaniyat va san`at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida»gi qarori imzolandi. Qarorga ko`ra, 2022/2023 o`quv yilidan musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o`quv soati hamda unga qo`shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg`ularida kuy ijro etish amaliy to`garaklari va fakul`tativ darslari o`tkaziladi. Shuningdek, milliy cholg`ulardan kamida bittasida, 2023/2024 o`quv yilidan boshlab esa kamida uchta kuy ijro etish mahoratiga ega bo`lish musiqa fani o`qituvchilari uchun majburiy hisoblanadi. Musiqa fani uchun ajratilgan o`quv soatlari doirasida «Hayotimga hamrohdir cholg`u» shiori ostida cholg`u ijrochiligi dars mashg`ulotlari yo`lga qo`yiladi. O`quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini mazmunli tashkil etish

maqsadida ularning qiziqishlariga ko`ra milliy musiqa cholg`ularida kuy ijro etish mahorati, tasviriy va amaliy san`at, hunarmandchilik yo`nalishlarida amaliy to`garaklar (keyingi o`rinlarda – amaliy to`garaklar) tashkil etiladi. Musiqa san`ati bo`yicha professional ta`lim hamda oliy ta`lim to`g`risidagi hujjatga ega bo`lgan, kamida 3 ta milliy musiqa cholg`ularida mahorat bilan kuy ijro eta oladigan mutaxassislarni asosiy ish joyidan bo`sh vaqtida u yerdagi mehnatga haq to`lash shartlarini saqlab qolgan holda o`rindoshlik asosida umumiy o`rta ta`lim muassasalari musiqa fani o`qituvchisi va musiqa yo`nalishidagi to`garak rahbari lavozimiga to`liq stavkada ishga qabul qilishga ruxsat beriladi; Bundan tashqari musiqa fani o`qituvchilarini kamida uchta milliy musiqa cholg`ularida kuy ijro etishga o`rgatish xalq ta`limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimi doirasida amalga oshiriladi, bunda qayta tayyorlash (malaka oshirish) kurslarida mashg`ulot olib borish uchun madaniyat va san`at sohasi vakillari shartnoma asosida jalb etiladi.[1] O`qituvchi faqatgina cholg`uchilik san`atini o`rganayotgan o`quvchi bilan emas, balki tom ma`noda tarbiyalanuvchi bilan ishlayotganini his etishi lozim. Ishga xuddi mana shunday yondashish kerak, zamonaviy fan ta`lim va rivojlanishni ilmiy nuqtai nazardan chuqur va har taraflama o`rganmoqda. Ta`lim va rivojlanish jarayoni bir - biri bilan uzviy bog`langan. Rivojlanish ta`lim jarayonida amalga oshiriladi. O`quvchilarning muayyan bilim, ko`nikmalarni o`zlashtirishlarining individual xususiyatlari, ongning qanchalik rivojlanganligi ta`lim jarayoniga ta`sirini o`tkazadi. Kimning ong va intellekt darajasi rivojlangan bo`lsa, u turli bilim va ko`nikmalarni oson va tez o`zlashtira oladi. Ta`lim va rivojlanishning o`zaro bogliqligini e`tirof etish ta`lim jarayonida rivojlanish o`z - o`zidan amalga oshadi, degani emas. Fan talimining rivojlanganishiga ijobiy ta`sirini inkor etmaydi. Shunga qaramasdan, ta`lim ta`siridagi rivojlanish natijasi hamma vaqt ham bir xil bo`lavermaydi. Bunday natijalar keskin farq qilishi mumkin. Bu erda savol tug`iladi: ta`lim davomida rivojlanishga qanday manbalar o`z ta`sirini ko`proq o`tkazadi? Bu savolga G.M. Sipinning «Fortepianoda ijroni o`rganish», («Obucheniye igre na fortepiano») kitobidan javob topishimiz mumkin: «Bu erda ta`lim jarayonining mazmuni, shakli va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega». Yuqorida aytib o`tilgan

fikr bevosita cholg`u ijrochiligi ta`limiga ham tegishli. Hamma gap o`quvchining ijro etish ko`nikmalarini o`zlashtirishi bilan uning umumiy musiqiy rivojlanishi masalalarining bog`liqligi cholg`u ijrochiligi fani milliy cholg`ularning kelib chiqish tarixi, milliy soz yasovchi ustalar haqidagi ma`lumotlar va milliy cholg`ularimizni zamonaviy estrada ijrochiligidagi o`rni haqidagi nazariy va amaliy bilimlarni talabalarga zamonaviy ta`lim standartlari talablariga muvofiq o`rgatishdan iborat.[2] O`zbek mumtoz musiqiy merosi turli cholg`ularga boy va ularning har biri uzoq o`tmish, tarkibiy rivojlanish va texnikaviy takomillashish jarayonidan o`tganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ijro mezonlariga ko`ra o`zbek xalq cholg`ulari ikki guruhga bo`linadi. Birinchi guruhga barcha an`anaviy xalq cholg`ulari kiradi. Ikkinchi guruh XX asr madaniy rivoji bilan bog`liq bo`lib takomillashga, ya`ni qayta ishlangan (rekonstruktsiya qilingan) cholg`ular kiradi. An`anaviy xalq cholg`ulari tarkibidan joy olgan cholg`u sozlar: tanbur, dutor, sato, rubob, ud, nay, surnay, qo`shnay, karnay, g`ijjak, chang, qonun, doyra, nog`ora. Xalq ijodiyotida qo`llaniladigan sozlarga changqo`biz, sibizg`i, safoil kiradi. Qayta ishlangan cholg`ular asboblariga - rubob, g`ijjak, dutor va chang sozlarinig musiqaning soprano, alt, tenor, bas ovozlar mezonlariga ko`ra qayta ishlangan namunalari kiradi. Karnay, surnay, nog`ora va doyra tarkibidagi damli va urma cholg`ular guruhi qadimdan ijro amaliyotida shakllanib, xalqimizning barcha ommaviy tadbirlarining faol ishtirokchisiga aylangan. An`anaviy cholg`u sozlar ansambllari esa o`z xususiyatlaridan kelib chiqib qo`llanilgan. Ijroda keng ko`lamli va katta ovoz imkoniyatiga ega bo`lish maqsadida barcha cholg`ular yig`indisidan katta cholg`ular ansambli tashkil etilgan. Cholg`u musiqasi ijrochiligi va maqom ijrochilik amaliyoida esa kichik-kichik guruhlar bo`lib ijro etish ham an`anaga aylangan. Jumladan: har bir cholg`u doyra jo`rligi bilan ijro etish; tanbur dutor bilan; tanbur, dutor doyra jo`rligi bilan; tanbur, dutor, g`ijjak doyra jo`rligida ud, qonun doyra bilan birga va h.k.[3] Hozirgi davrga kelib o`zbek musiqa ijrochiligini uchta yirik yo`nalishga ajratish mumkin. Xalq folklor musiqa yo`nalishi, xalq mumtoz musiqa yo`nalishi va kompozitorlik musiqa ijodiyoti yo`nalishi. Xalq folklor yo`nalishida ommaviylik xususiyatga ega bo`lgan, ovoz va texnik jihatlari mos

bo`lgan cholg`ulardan ko`proq foydalaniladi. Masalan: rubob, nay, g`ijjak, chang va doyra cholg`u asboblari. Qayd etish joizki xalq folklor musiqa ijrochiligida ijro sharoiti, joyi ham o`ziga xos bo`ladi. Shuning uchun cholg`ular ham tez moslasha oladigan va har qanday sharoitda ijro eta oladiganlik xususiyat kasb etishlari taqozo etiladi. [5]

XULOSA :

Har bir xalq o`zining milliy musiqiy merosini sevsa, ajdodlar an`anasini ardoqlasa, uni munosib tarzda o`zlashtirsa va qadriga yetsa, o`zga xalqlar san`atini ham baholay oladi. [7] Zero, bizgacha yetib kelgan musiqiy an`analar avlodlar zanjirining mustahkamligidan dalolatdir. Bu borada xalqimizning ma`naviy boyligi bo`lgan maqomlar, maqom yo`llariga mansub mumtoz musiqa asarlari hozirgacha o`zining badiiy va estetik imkoniyatlarini yuqori darajada saqlab kelayotganligini alohida ta`kidlab o`tish joiz. Ularni o`rganish, tadqiq etish va kelajak avlodlarga yetkazish zamonamizning talab va eshtiyojida bilgan dolzarb masalalardan biridir. Ma`lumki, o`zbek xalqining musiqiy madaniyati milliy cholg`ularga boy bo`lib, tanbur, dutor, g`ijjak, nay, qo`shnay, surnay, chang, qonun, ud, rubob, doira va nog`ora kabi cholg`ular o`zining mukammalligi bilan mohir ijrochilar amaliyotida munosib o`rin topgan. Chunki har bir cholg`u o`zining shakllanish tarixi, ijro imkoniyatlari, betakror, jozibali sadolanishi va muxlislariga ega. Ularning barcha siru—sinoatlarini ilmiy-nazariy tadqiq etish va yosh avlodga yetkazish har bir murabbiyning muqaddas burchidir.

REFERENCES

1. O`zbekiston Prezidenti qarori, Madaniyat va san`at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo`shimcha chora tadbirlar to`g`risida, 02 02 2022 yil, PQ-112 son.
2. SH.Rahimov, A. Lutfullayev- «Cholg`ushunoslik», «Musiqa» nashriyoti, T., 2010
3. R.Nosirov- «Cholg`u ijrochiligi», O`zDSI, 2008

4. И. М. Красильников- «И. М. Красильников Как развивать детское инструментальное музицирование?», Материалы XIII международной научно-практической конференции, Санкт – Петербург, 2014.

5. Малоҳат Саиджабборовна Мухитдинова -»Педагогика олий музика таълимида бакалаврларни тайёрлашда учраб турадиган муаммолар ва уларнинг ечиш йўллари»-

6. М.С. Мухитдинова - «Ижрочилик санъатида замонавий талқин масалалари»- Гармонично развитое поколение-условие стабильного развития Республики Узбекистан. Сборник научно-методических статей, 2019 г., №9, УзНИИПН им. К.Ниязи.

7. Muxitdinova Malohat Saidjabborovna -»Bo`lajak musiqa o`qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda klasterli yondashuv masalalari»- Ta`lim fidoyilari-Respublika ilmiy-metodik jurnal, 9-son, ILMIY NASHRLAR MARKAZI, 2021y.

**«BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QISH
SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH»**

*Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani
36-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Xolmirzayeva Mahliyo Adhamjon qizi*

Annontatsiya: Ushbu metodik tavsiyada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish to'g'risida fikr yuritilgan. O'quvchilarga ona tili va o'qish savodxonligi fanlarida interfaol va qiziqarli metodlar dars berish yo'llari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, o'qish savodxonligi, o'qituvchi, o'quvchi, pedagogik.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim- tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega.

O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga boigan intilishlariga turtki beriladi. Shu maqsadda "O'qish kitobi" darsliklariga ona tabiat,

atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqlol va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlikkabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritiladi. O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi

"Kichik maktab yoshi - bu bolaning hayotidagi olti yoshdan o'n yoshgacha bo'lgan davr, u boshlang'ich maktabda o'qiyotgan paytidir." "Bu davrda o'qitish inson shakllanadigan asosiy faoliyatdir." Boshlang'ich sinflarda bolalar fanlarning

boshlanishini o'rganishni boshlaydilar. Ushbu bosqichda psixikaning intellektual va bilim doirasi asosan rivojlanmoqda. Ushbu bosqichda ko'plab aqliy yangi shakllanishlar paydo bo'ladi, eskilari yaxshilanadi va rivojlanadi. "Maktab davri kognitiv funktsiyalarning intensiv rivojlanishi, hissiy-idrok etish, fikrlash, mnemonik va boshqalar bilan ajralib turadi".

O'qish - bu keyingi o'rganish uchun zarur bo'lgan yangi bilimlarni olish vositasi. O'qishni o'rganmagan yoki kam o'qiydigan talaba muvaffaqiyatli bilim ololmaydi. Axir, maktabda o'qish jarayoni har doim bolalarning mustaqil ishlashini, birinchi navbatda kitob ustida ishlashni nazarda tutadi. O'quvchilar tomonidan o'qish texnikasini etarli darajada o'zlashtirmaslik, eng muhimi o'qilganlarni tushunish qobiliyati o'quv ishlarida jiddiy qiyinchiliklar bilan birga keladi, bu esa o'quv qobiliyatsizligini keltirib chiqaradi. O'qishni o'rgatish muammosi pedagogik jarayonning eng muhim muammolaridan biri bo'lib, u doimo psixologlar va o'qituvchilar e'tiborini jalb qilib kelgan. Boshlang'ich maktabda o'tkaziladigan diagnostik tasvirlar o'qish qobiliyatlarini shakllantirishni nafaqat tezlik mezonlari (daqiqada so'zlar soni) yordamida, balki o'qishni tushunishni baholashni ham nazarda tutishiga qaramay, ko'plab o'qituvchilar uchun birinchi mezon asosiy hisoblanadi. Psixolog L.V. Shibaeva, o'qituvchi boshlang'ich maktabda g'amxo'rlik

qiladigan o'qish texnikasi o'rnatilgan deb hisoblanadi va o'qish madaniy qadriyat maqomiga ega bo'lgan to'laqonli faoliyat sifatida rivojlanmaydi.

Yangi ta'lim standartlari doirasidagi o'qish kompetensiyasi umuminsoniy ta'lim harakatlarini anglatadi va uni shakllantirish vositalaridan biri AKT texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Rivojlangan o'qish qobiliyatiga ega talaba nimani o'qishni biladi (adabiyot olamiga yo'naltirilgan), qanday qilib o'qishni biladi (o'qiganini etarlicha idrok etadi), badiiy texnika haqidagi g'oyalarga, uning didi va hissiyotlariga qarab. O'quvchining kompetensiyasi, adabiyotni idrok etish madaniyati, badiiy matnning obrazli mohiyatini tushunishga asoslanadi va og'zaki obrazlar tilini egallashni, asosiy adabiy tushunchalar tizimidagi yo'nalishni o'z ichiga oladi. Badiiy o'qish darslarini o'tkazishda o'qituvchilar o'quvchilarning o'qish tajribasini to'plash, o'qiganlarining ma'nosini anglash asosida o'qish texnikasini rivojlantirish, adabiyot, rasm, musiqa asarlarini taqqoslashni o'rgatishlari va doimiy o'qish istagini tarbiyalashlari kerak. O'qish qobiliyatini shakllantirish, biz bolalarni mualliflar, ularning pozitsiyalari bilan tanishtiramiz, bu asosan ularning asarlarida ifodalanadi. Biz bolalarni matnlarni taqqoslashga, badiiy ifoda vositalari bilan tanishtirishga, so'z bilan ehtiyot bo'lishga o'rgatamiz. O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqloq, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqloq, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir. Shuni unutmaslik kerakki, har bir ta'limiy vazifani bajarishning aniq va ilmiy metodik usullari mavjud bo'lib, ular zamonaviy o'qitish usullari bilan boyitib borilmoqda. Bu vazifalar boshqalari bilan o'zaro bog'liq holda va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari jarayonida hal qilinadi. O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qish orqali inson borliq, jamiyat haqida bilimga ega bo'ladi, o'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. Boshlang'ich sinfdan o'qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o'qishga o'rgatishning yo'l-yo'riqlarini oqish metodikasi ishlab chiqadi. O'qish metodikasining kichik yoshdagi o'quvchilarning umumiy rivojlanishi,

psixologiyasi, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar borliq fanlar yutug'i asosida shakllanib boradi. Hozir maktablarda o'qish izohli o'qish metodida olib borilyapti. Izohli o'qishga keyingi ma'ruzalarda to'xtalamiz. O'qish darslarida o'quvchilar tabiat, jamiyat, unda yashovchi, kishilar xayoti, ularning o'tmishi, hozirgi yashash tarzi, mashhur kishilari haqida, vatanning tabiati, ob-havosi, boyliklari, hayvonot dunyosi va boshqalar haqidagi bilimlarni egallaydilar. Bilim olish jarayonida ularga nisbatan munosabat uyg'onadi. O'quvchilar aqliy faoliyatini zarur shartlar bilan ta'minlash uchun o'qituvchi kichik yoshdagi o'quvchilarning diqqat xususiyatlarini yaxshi bilishi kerak. O'quvchilarda tanlab hikoyalash malakasini hosil qilishga bo'shlang'ich sinf o'qish darslarida keng qo'llaniladigan meto'dik usullar yordam beradi. Bunda hikoya qismiga chizilgan rasm asosida hikoyalash; hikoyadagi bu voqeani tasvirlovchi rasm asosida hikoyalash; tanlab qayta hikoyalashni talab etadigan savollarga javob berish. Darslardagi ko'rgazma vositalari, tarqatma materiallar, turli o'yinlar o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishda samarali usullar hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'yinlarni yaxshi ko'rish bilan birga o'yin orqali ba'zi qoidalarni juda tez o'zlashtirib, uni uzoq vaqt esda saqlab qoladi. Masalan: "Kim ko'p baliq tutadi?", "Bekinmachoq" o'yini, "Kim oshdi?", "Tovush tanitish" kabi o'yinlar mavjud. Bu o'yinlar kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda kata qiziqish uyg'otadi. O'yinni tashkil qilishda sinf partalarining qatoriga qarab, o'quvchilar guruhlarga bo'linadi. Masalan birinchi sinflarda M tovushini tanishtirishda quyidagi "Tovush tanitish" o'yinidan foydalaniladi. Ikkita o'quvchi M tovushi qatnashgan so'zlardan navbat bilan ayta boshlaydi. O'quvchilardan biri to'xtab qolgach, boshqa o'quvchi davom ettiradi. Bunday o'yinlar yordamida o'quvchilar mazkur tovushning so'z boshi, so'z o'rtasi va so'z oxirida kelishini anglab oladilar. "Kim oshdi?" o'yinini o'tkazishda o'qituvchi besh daqiqa ichida kim ko'p so'z o'qiy olishini tekshiradi. So'zlarni o'qishni boshlash va tugatish vaqtini o'qituvchi belgilaydi. Belgilangan vaqt ichida o'quvchilar ovoz chiqarib so'zlarni o'qiydilar va nechta so'z o'qiganlarini sanab beradilar. So'ralgan o'quvchi qaysi so'zga kelgani va shu so'zga necha so'z o'qiganini aytadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarda diqqat tez o'sadi. Ixtiyorsiz diqqat

qiziqish bilan mustahkamlanishi sababli, har bir o'qituvchi o'z darsini qiziqarli va maroqli qilishga intiladi. Lekin shu narsani yodda tutish lozimki, o'quvchilarning diqqatini bevosita qiziqarli va maroqli bo'lmagan narsalarga ham qaratishga o'rgatish kerak. Chunki o'quvchida nozik va injiq diqqat paydo bo'lib qoladi. Ko'rgazmali idrok katta imkoniyatlarga ega. Eslab qolishda ko'rgazmalilikning o'zi emas, balki ularning nutq va amali faoliyat bilan birlashtirilishi yuqori samaradorlikka olib keladi. Yuqorida ta'kidlangan metodlardan tashqari, boshlang'ich sinf o'qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya usullaridan "Aqliy hujum", "Tarmoqlash", "Guruhlar bilan ishlash", "Blis texnologiyasi" kabilardan ham foydalanish yaxshi samara beradi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydalanish, darsda qanday usullarni qollash o'qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R. Safarova, M. G'ulomov, M. Inoyatova. Savod o'rgatish darslari, Toshkent 2012-yil "Tafakkur" nashriyoti.
2. O'qish 1-sinf o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, G. Boymurodova, X. Sattorova. Toshkent 2014-yil "Sharq" nashriyoti.
3. Sobirovna, U. M. (2022). Improving the educational system for children with disabilities. The Peerian Journal, 4, 20-22.
4. Sobirovna, U. M. (2022). MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
5. Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
6. Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. World scientific research journal, 9(1), 220-224.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI IJODIY FAOLIYATGA YO'LLASH

*Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani 36-umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Mirzayeva Mashxura Alisherovna*

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining dasrlarda ijodiy faoliyatga qiziqtirish, yo'llash uslublari bo'yicha batafsil ma'lumot bayon etilgan. Shuningdek, dars faoliyatini olib boorish bo'yicha metodik tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ijodiy faoliyat, metodika, o'quvchi va o'qituvchi, ko'nikma va uslublar.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda evristik va muammoli ta'limdan tashqari bilishga yo'naltirilgan, ilmiy asoslangan ta'lim metodlaridan va o'yindan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Boshlang'ich ta'limda ishbop, rolli, syujetli o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga, ilmiy-ijodiy izlanishlarga yo'llaydigan, bilishga oid ilmiy faoliyatni tashkil etish shakl va metodlaridan foydalanish o'z samarasini berdi. Bu borada ijodiy faoliyatni rivojlantirish darslariga dialog-darslar munozara, bahs, suhbatlar, fantaziya, izlanish darslari, muammolar qo'yish va ularni yechish darslari; ishtirokchilik darslari, modellashtirish, badiiy texnik ijodkorlik, ijod qilish, kichik kashfiyotlar yaratish, insholar yozish, solnomalar tuzish, ishbop o'yinlardan, innovatsion metodlardan foydalanish kabilar eng samarali bo'ldi. ta'lim jarayonida dars shakllarining o'yin usullari sifatida o'qitishning ma'lum bir paytida o'tkaziladi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchisi kattalarning xatti-harakatini taqlid qilishga qiziqadi. Bunda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan ishbop o'yinlardan foydalanish kata ahamiyat kasb etadi. Bolalarga mo'ljallangan ishbop o'yinlartakrorlash, mustahkamlash,

o'tilganlarning qay darajada o'rganilganligini (diktantlar, musobaqalar, krossvordlar, sirtqi sayohatlar rolli o'yinlar, dramatik sahnalar tarzida) aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Ishbop o'yinlarni hayotiy vazifalarni imitatsiya va modellashtirish asosida tashkil etish samarali natijalarga olib keladi. Bunday o'yinlar faqat bilishga oid bo'lmay, dunyoqarashni kengaytirish, hamda hissiy ta'sir etishi bilan ham xarakterlidir. Masalan, boshlang'ich ta'limda "Nima uchun?", «T-chizma», «FSMU», «Tarmoq (Klaster)», «Ikki qismlik kundalik» kabi innovatsion metodlardan foydalanganda o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga bevosita yordam beradi. Bugungi kunda ilmiy, uslubiy adabiyotlarda «ijod», «ijodkorlik» kabi atamalarni uchratib qolmoqdamiz. Bu atamalarning adabiyotlar sahifalarida paydo bo'lganligi bejiz emas. «Ijod» so'zining lug'aviy ma'nosi: «yaratish», «yangilikni kashf etish» so'zlariga monand keladi.

Ijodkorlik - faoliyatning turli holatlarida paydo bo'ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo'lishidan, namoyon bo'lishigacha jarayonini o'z ichiga oladi. SHaxsda faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi ilgari maqsad qilib qo'yilmagan, hal etuvchi vosita bo'lib hisoblanmagan intilishdir. Ijodkorlik- sifat jihatdan yangi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni. Ijodkorlik o'zida insonning mehnatda namoyon bo'lgan qobiliyatini ifodalaydi. Ob'ektiv olam qonuniyatlarini bilish asosida xilma-xil ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantiradigan yangi haqiqatni yaratadiganday mehnat ijod bo'lishi mumkin. Ijod turlari bunyodkorlik faoliyati bilan belgilanadi: ixtirochi, tashkilotchi, mehnati ilmiy va badiiy mehnat va boshqalar. Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar ijtimoiy munosabatlarga bog'liq. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. SHunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda har bir o'quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

Psixolog olim N.D.Levitov ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi:

- tafakkurning mustaqilligi;
- o'quv materialining o'zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi;
- standart bo'lmagan vazifalarni hal qilishda, aqliy chamalashning (topqirlikning) tezligi;
- o'rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo'lmagan narsadan muhimini ajrata bilish.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish shart-sharoitlari deganda, avvalo ana shu shart-sharoitlarning paydo bo'lishi, amalga oshishi hamda rivojlanishi jarayoni tushiniladi.

Ular quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirishda ularning bu borada egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari.
2. Ijodiy faoliyatni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotning aloqadorligi.
3. Ijodiy faoliyatni shakllantirishga doir mashg'ulotlar evristika muammoli vaziyatlar yaratish.
4. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga texnologik yondashuv.

Bu shart-sharoitlar quyidagicha amalga oshadi: O'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishda ular egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalarga quyidagi talablar qo'yiladi.

- dastur materiallarni qay darajada o'zlashtirganligi;
- mavzularga doir asosiy tushuncha va qoidalarni o'zlashtirganligi;
- tanlagan mavzu bo'yicha topshiriqlarni mustaqil bajara olishi; o'rganilayotgan mavzulardagi asosiy muammolarni anglab olishi;
- topshiriqlarni bajarishda o'quv ashyolari va texnika vositalar, axborot texnologiyasidan foydalana olishi;
- o'z qobiliyatini namoyon etishi va uni rivojlantira olishi;
- mavzu bo'yicha o'z oldiga erishiladigan maqsadlarni qo'ya olishi, rejalar tuzishi va natijalarni baholay olishi;
- mavzularni o'rganishda o'z fikrini dalillay olishi;

- o'z variantini tavsiya eta olishi va hokazolar.

Mazkur talablar o'qituvchiga o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishlari, ularning o'quv-biluv faoliyati, individual moyilliklarini bilish imkoniyati paydo bo'ladi va bu borada o'quv jarayoni tuzilmasini belgilab olishga yordam beradi. Yuqoridagi talablar asosida muammoga doir ta'limni maqsadga muvofiq tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari belgilab olinadi.

Maqsadga muvofiq yondashuv deganda o'quv- biluv jarayoni yoki ta'lim mazmuni, metod va shakllari tizimining ijodiy faoliyatni rivojlantirishga doir maqsadli yo'naltirilgan maxsus tashkil etilgan tuzilmasi tushiniladi.

Pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri barcha bolalarning ijodiy faoliyati har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Shu bilan bir qatorda muayyan sohalarda chuqur qiziqishlarini, intilishi va qobiliyatini namoyon qilayotgan o'quvchilarni aniqlash, ularga bundan keyingi rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish lozim. Buning uchun esa: kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada:

1. O'quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishga doir innovatsion faoliyatga tayyorlash.
2. O'qituvchi va o'quvchilar munosabatida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirish.
3. Ijodiy faoliyatni rivojlantirishda bilishga doir innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Hozirgi davrda o'quvchilarning biror- bir haqiqatni mustaqil izlashi va kashf etishi bilan bog'liq bo'lgan evristik va muammoli ta'lim o'quv-biluv jarayoniga faol kirib kelmoqda.

V. Karimova o'z tadqiqotlarida ilmiy faoliyatni ushbu uch turi amalga oshirilganda shaxsning unga mos bo'lgan sifatleri:

- 1) O'quvchilar tomonidan tashqi olamni kuzatish jarayonida zarur bo'ladigan sifatleri;

2) O'quvchilar uchun faoliyatning ijodiy mahsulini yaratish sharoitlarini ta'minlovchi ijodiy faoliyat sifatлари;

3) O'quvchilar bilish faoliyatini tashkil etganda uning oldingi ikki holatda-bilish va ijod holatida ko'rinadigan sifatleri namoyon bo'lishini ko'rsatib o'tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod vatan kolsin.-T.: SHarq.- 234 b.

2. Adizov B.R.Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari.-Toshkent: Fan, 1997.-182-b.

3. Azixxodjayeva N.N. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo.-T. Fan va axborot texnologiyalari, 2006. -167 b.

4. Bikvayeva N.I., ye.YAngabayeva Matematika 3-sinf T., 2004 yil, 12-13 b.

5. Dik N. F. Vospitivayem lichnost. Feniks, 2005 320 st.

6. Sobirovna, U. M. (2022). Improving the educational system for children with disabilities. The Peerian Journal, 4, 20-22.

7. Sobirovna, U. M. (2022). MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.

8. Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.

9. Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. World scientific research journal, 9(1), 220-224.

«BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH DARSLARIDA O‘QUVCHINING SO‘Z BOYLIGINI OSHIRISH USTIDA ISHLASH METODIKASI»

Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani

36-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Oxunova Extiborxon Qodiraliyevna

Annotatsiya: Ushbu metodik tavsiyada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida o‘quvchining so‘z boyligini oshirish ustida ishlash borasida ma‘lumotlar keltirilgan. Boshlang‘ich ta‘limda o‘quvchilariga bilim berish va ularni tarbiyalashda samaradorlikka erishishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni haqida yozilgandir.

Kalit so‘zlar: maxsus lug‘aviy-grammatik mashqlar, talaffuzi va imlosi, tushuntirish-namoyish etish metodi.

Ma‘lumki, boshlang‘ich ta‘lim — ta‘lim tizimining poydevori hisoblanib, o‘quvchilarni o‘qitish sifati unga bog‘liq bo‘ladi va bu boshlang‘ich maktab o‘qituvchisi zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta‘lim tizimida boshlang‘ich maktab «ko‘nikmalar maktabi» bo‘lib keldi, ya‘ni o‘quvchi keyingi ta‘lim olish uchun o‘qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan ta‘lim bosqichi sifatida qaralgan. Bugungi kunda boshlang‘ich maktab boshqacha tasavvur etiladi. Bugungi kunda u ta‘lim tizimida bolaning birinchi tajribasi — ta‘lim olish kuchlarini sinash joyi bo‘lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta‘lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o‘quvchilarning aynan mana shu sifatleri ta‘lim jarayoniga AKT‘ni joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz.

Boshlang‘ich sinflar o‘quv dasturida, ona tili, o‘qish bolalarning lug‘atini boyitish, bog‘lanishli nutqni o‘stirish, adabiy-estetik tafakkurini kamol toptirish, nutq

madaniyatini shakllantirish, nutq ta'sirchanligini ta'minlashning muhim omilidir", - deyiladi. Bu vazifalar grammatik mavzularni o'rganish, mashq 6 matnlarini kuzatish va tahlil qilish, maxsus lug'aviy-grammatik mashqlar orqali bajariladi.

Lug'at ishida so'zning ma'nosi, talaffuzi va imlosi e'tiborda tutiladi. Bular ustida ishlashdan asosiy maqsad ehtiyoj sezilgan paytda o'quvchilarning ulardan nutqda foydalanishlariga erishish, o'zgaralar nutqini anglashlarini ta'minlashdir. Buning uchun o'qituvchi ona tili va o'qish darslarida qo'llangan har bir so'zning va ta'limiy jarayonlarda: ekskursiya, o'zaro suhbat, turli tadbirlarda ishlatilgan so'zlarning ma'nosiga e'tibor bilan qarashi, ularning qaysilari maxsus ishlashni taqozo etishini belgilab olishi kerak.[1]

O'quvchilarni notanish so'z va iboralar bilan tanishtirish. O'quvchilar darslikdagi so'z va iboralarga birinchi marta duch kelayotgan bo'lishi mumkin. Bu so'z yangi paydo bo'lgan so'z bo'lmasa ham, o'quvchining ma'nosini bilmaydi, demak, o'quvchi uchun yangi so'z hisoblanadi. Masalan, 1-sinf, „Ona tili“ darsligida xabib (do'st), dar-parda (oyna o'rniga shaffof qog'oz yopishtirilgan derazaparda), mag'rur (kekkaygan, mag'rur — kamtar), kamol (har tomonlama yetuk, to'kis, kamol topmoq — xazon bo'lmoq), xaroba (qarovsiz qolgan vayrona), qardosh (do'st, birodar, qarindosh-urug'), safdosh (harbiy xizmatda birga, tashkilotda birga), sarkarda (qo'mondan, lashkarboshi), zeb (bezak, ko'rk, husn), qasr (hashamatli saroy, ko'shk) kabi so'zlarga duch keladilar.

Bunday so'zlarning ma'nosini sinonimlar keltirib kengaytirish yo'li bilan qarama-qarshi ma'noli so'zlar bilan izoh berish yo'li bilan, gap tuzish orqali ma'nosini yechish, rasmlar orqali tushuncha hosil qilish yo'li bilan tushuntirish mumkin. Bunday ishlash o'quvchilarda so'z ma'nolariga nisbatan sezgirlikni yuzaga keltiradi.[2]

Leksikologiya o'zbek tilining lug'at tarkibini o'rganadigan bo'limdir. Leksikologiya lug'at tarkibidagi so'zlarning nutqda ma'no ifodalash xususiyati, qo'llanish faolligi, boyib borishi, ba'zi so'zlarning eskirib, iste'moldan chiqib ketishi, ma'no ko'chish hodisasi kabilarni o'rganadi. Shu sababli leksikologiya lug'at ustida ishlash metodikasining lingvistik asosi hisoblanadi.[3] So'zni o'ziga yaqin tushuncha

— boshqacha ifoda etish bilan tushuntirish. Bunda tushuntiriladigan so'zning izohi qisqa va aniq bo'lishi kerak. Masalan, o'zboshimchalik

- o'z xohishicha ish tutish, ishni o'zi xohlaganicha bajarish; mutaxassis — biror hunar egasi;

shunqor - uzoq uchadigan ko'zi o'tkir qush; mesh — mol terisidan tikilgan idish; guldon — gul solib qo'yiladigan idish va boshq. O'qituvchi ta'limning har bir bosqichida o'quvchining nutq taraqqiyotida bo'ladigan o'zgarishlarini bilishi va unga tayanishi lozim. Har bir darsda o'quvchining lug'at boyligi, so'z boyligi oshib borishi lozim. O'quvchilarning lug'at ustida ishlashda, so'z boyligini oshirishda o'qituvchi zamonaviy usullardan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Bular quyidagilar.

1. Tushuntirish-namoyish etish metodi. O'qituvchi tomonidan bilimlar tayyor xolda beriladi. Ona tilining qonun-qoidalari tushuntiriladi va mustahkamlanadi. Bu darsda o'quvchilar bayon qilinayotgan bilimlarni tinglaydilar va xotirada saqlashga harakat qilishlari kerak.

2. Muammoni bayon qilish metodi. O'qituvchi o'quvchilar oldigi ma'lum bir muammo qo'yadi va ularning mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash orqali bu muammoni hal qila boshlaydi.

3. Qisman izlanuvchanlik metodi. Ta'limning bu metodi shu bilan xarakterliki, o'quvchi dars jarayonida ma'lum bir o'quv muammosini qo'yadi, ammo uni mustaqil hal qilish yo'llarini ko'rsatmaydi. Har bir o'quvchi muammoni mustaqil hal qilish uchun o'zicha izlanadi, ijodiy faoliyat ko'rsatadi. Muammoning o'qituvchi tomonidan qo'yilishi metodni qisman ijodiy qilib qo'yadi.

So'z va bo'g'inlarni o'rgatishda tovush va xarflarni alohida-alohida aytib o'qimaslikka, balki tovush va harflarni bo'g'inda to'g'ri qo'shib talaffuz qilishga, so'zlarni og'zaki nutqdagi kabi yaxlit xolda tovushlar uyg'unligiga rioya qilib o'qishga odatlantiriladi.

O'quvchilar nutqini boyitishda maqollar katta ahamiyat kasb etadi. Maqollar o'qish uchun ham, suhbat uchun ham, hikoya tuzish uchun ham, grammatik tahlil va

yozuv uchun ham juda qulay materialdir. Ular ixcham, sermazmun va ta'sirchan bo'ladi;

maqollar o'quvchilarning badiiy didini o'stiradi, nutqqa e'tibor bilan qarashga, to'g'ri, mantiqiy fikrlashga o'rgatadi, estetik tarbiyasida muhim o'rin tutadi. O'qish kitoblarida mavzuga bog'liq holda, o'zbek tili darsliklarida esa mashq matnlari ichida xilma-xil mavzularda juda ko'p maqollar beriladi. O'quvchilar maqollarni o'qib, o'qilgan asarning axloqiy muammosi bilan, hayotiy sharoit bilan bog'laydilar, ularning majoziy mazmunini, ayrim so'z va iboralarning ma'nosini tushuntiradilar. Natijada o'rni bilan maqollardan foydalana boshlaydilar. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida lug'at ustida ish olib borish o'quvchilarning so'z boyligini oshirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Ona tili metodikasi ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ona tilini o'qitishning izchillik va uzluksizligini ta'minlaydi. Maktabgacha tarbiya muassasasida, asosan, bolalarning nutqini o'stirish nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinfda o'quvchilar nutqini o'stirishdan tashqari, ona tilidan elementar nazariy tushunchalarni amaliy o'zlashtirishlari ham nazarda tutiladi. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi:

1. Savod o'rgatish metodikasi, ya'ni elementar o'qish va yozishga o'rgatish. Bolalarga savod o'rgatish pedagogika fanidagina emas, balki ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy masalalardan hisoblanadi.

2. O'qish metodikasi. Boshlang'ich sinflarda o'qish predmetining vazifasi bolalarni to'g'ri, tez (me'yorida), ongli va ifodali o'qish malakalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

3. Grammatika, fonetika, so'z yasalishini o'rganish metodikasi. Bu bo'lim elementar to'g'ri yozuvga va husnixatga o'rgatishni, grammatik tushunchalar, boshlang'ich imlo malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

4. Nutq o'stirish metodikasi. Bu bo'lim boshlang'ich sinflarda alohida o'rin tutadi. Bolalar birinchi navbatda tilni, nutqni o'quv predmeti sifatida anglyadilar, ular xohlagan va qiziqarli narsalarnigina emas, balki zaruriy narsa va hodisalar haqida o'ylab, rejali nutq tuzish zarurligini ham tushuna boshlaydilar. Ular o'zining

grafik shakli bilangina emas, balki leksikasi, sintaktik va morfologik shakli bilan ham og'zaki nutqdan farq qiladigan yozma nutqni ham egallaydilar.

Ona tili o'qitish metodikasining metodologik asosi borliqni bilish nazariyasidir. Bu fanning bosh vazifasi o'quvchilarning o'zbek tili lug'at boyligini to'liq o'zlashtirib olishlarini ta'minlashdir. Ma'lumki, jamiyatda til kishilar o'rtasidagi aloqaning zaruriy vositasidir. Tilning aloqa vositasi sifatidagi ahamiyati uzluksiz ortib boradi. Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari yordamidagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bog'lash amalga oshadi.

Til va nutq tafakkur bilan uzviy bog'lanadi. Tilni egallash va nutq o'stirish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati ham o'sib boradi. Maktabning vazifasi tilni kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'afforova T. va boshq. O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik.-T.: —Sharq, 2014.
2. Qosimova K. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: «Nosir», 2009
3. Sobirovna, U. M. (2022). Improving the educational system for children with disabilities. The Peerian Journal, 4, 20-22.
4. Sobirovna, U. M. (2022). MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
5. Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
6. Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. World scientific research journal, 9(1), 220-224.

**«MATEMATIKA DARSLARINI O'QITISHDA INTERFAOL
USULLARDAN FOYDALANISH»**

Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani.

36-umumta'lim maktabining matematika fani o'qituvchisi

Dehqonov G'olibjon Akmaljon o'g'li

Annotatsiya: Ushbu metodik tavsiyada matematika darslarida interfaol usullardan foydalanish va afzalliklari va ulardan foydalanish usullari haqida ma'lumot berilgan. Bugungi kunda darslarni o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishi maqsadida turli yangi metodlar ishlab chiqish va darslarga tadbiq qilish kerak.

Kalit so'zlar: maktab, ta'lim-tarbiya, o'qituvchi, metod, interfaol, didaktika, klaster, aqliy hujum, bumerang, galereya, zig-zag, zinama-zina, muzyorlar, rotatsiya,

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab

etiladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjixdtlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligishundaki, butun faoliyat o‘quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O‘qitishning interfaol usullarini tanlashda ta‘lim maqsadi, ta‘lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o‘quv muassasasining o‘quv-moddiy sharoiti, ta‘limning davomiyligi, o‘qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e‘tiborga olinadi. Interfaol metodlar deganda-ta‘lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta‘lim jarayonining markazida ta‘lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta‘lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta‘lim oluvchi markazda bo‘lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: ta‘lim samarasi yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish; ta‘lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi; ilgari orttirilgan bilimlarning ham e‘tiborga olinishi; ta‘lim jarayoni ta‘lim oluvchining maqsad va extiyojlariga muvofiqlashtirilishi; ta‘lim oluvchining tashabbuskorligi va mas‘uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi; amalda bajarish orqali o‘rganilishi; ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi. Shunday qilib, fanlarni o‘qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘ziga xos xususiyatga ega. Ta‘lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o‘rganish va amalda qo‘llash o‘quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to‘g‘ri echimini topishlariga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘quvchilarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o‘quvchi-talabalarning bilim, ko‘nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi. Darslarni interfaol metodlarda tashkil etishning afzalliklari. O‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi. O‘z vaqtida o‘quvchi-o‘qituvchi o‘quvchilar orasida ta‘limiy aloqalar o‘rnatiladi. O‘qitish usullari ta‘lim jarayonida turli xil ko‘rinishlarda kechadi (yakka, juft, guruh, katta guruh). O‘quv jarayoni o‘qish extiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo‘ladi. O‘zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o‘quv materialiy yaxshi esda qoladi. O‘quv jarayonida o‘quvchining o‘zi o‘ziga baho berishi, tanqidiy

qarashirivojlanadi. O'quvchi uchun dars qiziqarli o'qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi. O'qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo'ladi. Har bir o'quvchining o'zi mustaqil fikr yurita olishiga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi. Interfaol usulda o'tilgan darslarda o'quvchi faqat ta'lim mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi. Xulosa shuki, bunday sharoitda o'qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo'yicha chuqur mushohoda yuritishga, muammolarni o'z vaqtida echa oladigan qobiliyatga ega bo'lishi kerak. Interfaol metodlarda darsni tashkil etishda o'quvchi shaxsini

rivojlantirish o'zi – o'ziga zamin yaratishdan boshlanishi kerak. Yuqorida aytilganlardan interfaol ta'lim metodlarini tegishlicha tahlil qilish va shu asosda ularni tasniflash zarurati ma'lum bo'ladi. Quyida ushbu masala yuzasidan umumiy mulohazalarni keltiramiz. Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta'lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta'lim metodlari quyidagilar sanaladi:

1. Interfaol metodlar: —Keys-stadi (yoki —o'quv keyslari), —Blist-so'rov, —Modellashtirish, —Ijodiy ishl, —Muammoli ta'lim va b.

2. Interfaol ta'lim strategiyalari. —Aqliy hujum, —Bumerang, —Galereya, —Zig-zag, —Zinama-zina, —Muzyorar, —Rotastiya, —Yumaloqlangan qorl va k. interfaol ta'lim metodlari tarkibidan interfaol ta'lim strategiyalarini ajratishda guruh ishini tashkil qilishga yondashuv ma'lum ma'noda strategik yondashuvga qiyoslanishiga asoslaniladi. Aslida bu strategiyalar ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q.

3. Interfaol grafik organayzerlar: —Baliq skeleti, —BBB, —Konsteptual jadval, —Venn diagrammasi, —T-jadval, —Insert, —Klaster, —Nima uchun?, —Qanday? va b.

Interfaol grafik organayzerlarni ajratishda bunday mashg'ulotlarda asosiy fikrlar turli grafik shakllarda yozma ko'rinishda ifodalanishiga asoslaniladi. Aslida bu grafik organayzerlar bilan ishlash ham ko'proq jihatdan interfaol ta'lim metodlariga tegishli bo'lib, ularning orasida boshqa farqlar yo'q. Interfaol ta'lim

metodlarini ko‘pincha turli shakllardagi o‘quv mashg‘ulotlari texnologiyalari bilan bir vaqtda qo‘llanmokda. Bu metodlarni qo‘llash mashg‘ulot ishtirokchilarining faolliklarini oshirib, ta‘lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan yuqoridagi tasnif bo‘yicha hozirgi ayrim interfaol ta‘lim metodlarining turli shakllardagi o‘quv mashg‘ulotlari texnologiyalari bilan qo‘llash uchun qulayligi shartli ravishda keltirildi. Bu jadvaldagi ayrim interfaol ta‘lim metodlarining turli shakllardagi o‘quv mashg‘ulotlari texnologiyalari bilan qo‘llash uchun qulayligi bir muncha shartli va aslida muayyan o‘quv mashg‘ulotlari texnologiyalari bilan boshqa yana ko‘p interfaol metodlarni aniq maqsadlar yo‘lida qo‘llash mumkin ekanligini alohida ta‘kidlash zarur.

Eng jiddiy didaktik muammolardan biri ta‘lim metodlarini tanlash nimalarga bog‘liq, degan masaladir. Didaktikaga oid adabiyotlarda ta‘lim metodlarini to‘g‘ri tanlash va ularni qo‘llash samaradorligining turli omillar bilan bog‘liqliklari

quyidagicha qayd qilinadi:

birinchidan, o‘quv mashg‘ulotlarining didaktik maqsadlari va vazifalariga bog‘liq; ikkinchidan, bayon qilinadigan materialning xarakteriga bog‘liq;

uchinchidan, ta‘lim oluvchilarning bilimi va rivojlanish darajasiga bog‘liq;

to‘rtinchidan, o‘quv jarayonida o‘rganilayotgan fan asoslarining muayyan (hozirgi) davrdagi metodlariga bog‘liq;

beshinchidan, o‘qituvchining pedagogik mahorati, uning tayyorgarligi va o‘quv jarayonini tashkil etish darajasi hamda o‘qituvchining hozirgi zamon metodlari bo‘yicha bilimlariga bog‘liq.

Shunday qilib, oliy ta‘lim muassasalaridagi kasbiy ta‘lim jarayoni o‘qitishning zamonaviy shakl va metodlariga muvofiq tashkil etiladigan ko‘pqirrali yaxlit tizim doirasida amalga oshiriladi. Bunda har bir shakl o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni bajaradi, lekin shakl va metodlar to‘plami yagona didaktik majmuani hosil qiladi. Bu didaktik majmuaning amalga oshirilishi esa, o‘quv jarayonining psixologik-pedagogik qonuniyatlari bilan belgilanadi. Interfaol ta‘lim metodlaridan na‘munalar. Boshlang‘ich maktabda matematika ta‘limi ta‘limi o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, o‘z fikrlarini

mustaqil bayonqila olish, egallagan bilimlarini ijtimoiy faoliyatlariga qo'llash hamda ta'limning ikkinchi bosqichida o'qishni davom ettirish uchun matematik tayyorgarlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Matematika bolalarda tafakkur, diqqat, xotira, ijodiy tafakkur etish va kuzatuvchanlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, matematika o'quvchining mantiqiy fikrlash malakalarini oshirishi, uning o'z fikrini aniq, to'g'ri va tushunarli bayon etishi uchun zamin hozirlaydi. O'qituvchining vazifasi – bolaga matematikani o'qitishda bu imkoniyatlardan samarali foydalana olishdir.

Darsda o'quvchilar faolligini oshiruvchi vositalardan biri –interfaol metodlardir. Bu uslublar maktab pedagogikasi uchun yangilik emas. Ulardan ilgari ham foydalanib kelingan. Qachonki bu metodlar samarali natija bera oladi?

- dars va mavzuning maqsadlari to'g'ri aniq tanlanganda;

-mavzuga mos metodlarni tanlay olinsa;

-bir metod butun dars davomini qamrab olmasdan, balki kichik daqiqalarni qamrab olsa;

-tanlangan metod o'quvchilarga yangi bir axborotlarni yetkazib bersa;

O'qituvchi metodlarni yuqoridagi talablar asosida qo'llay olsa, o'quvchilarning dars materiallarini o'zlashtirish darjasi ancha yuqori bo'ladi.

Matematika darslarida Klaster va Charxpalak metodlarining qo'llanilishini tavsiya etamiz:

”Klaster” metodi: Fikrlarning tarmoqlanishi – bu metod o'quvchilarni biron-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, o'quvchilarni mavzuga ta'luqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog'langan holda tarmoqlashga o'rgatadi. Bu metod biror mavzuni chuqurroq o'rganishdan avval o'quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o'zlashtirish, umumlashtirish hamda o'quvchilarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

“CHARXPALAK” interfaol metodi.

O'quvchilar guruhlariga bo'linib, ularga topshiriqlar yozilgan varaqa tarqatiladi. Ushbu metod orqali o'quvchilarni o'tilgan mavzularni yodga olish, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berish va o'zini-o'zi baholashga o'rgatadi hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni egallagan bilimlarini baholashga qaratiladi. Ushbu metodni qo'llash jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini mustaqil bayon etishga, guruh bo'lib ishashga, boshqalar fikrini hurmat qilishga o'rganadilar.

“Charxpalak interfaol usulida matematika darslarini qiziqarli tashkil etishimiz mumkin. O'quvchilar jadval asosidagi so'zlar, shakllarni tegishlisini belgilaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Interfaol ta'lim usullari” Sh.K Shayaqubov, R.X Ayupov Toshkent-2020
2. Matematika o'qitish metodikasi” S Alixonov Toshkent-2011
3. Sobirovna, U. M. (2022). Improving the educational system for children with disabilities. The Peerian Journal, 4, 20-22.
4. Sobirovna, U. M. (2022). MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
5. Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
6. Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. World scientific research journal, 9(1), 220-224.

**«TEXNOLOGIYA FANI DARSLARINING O‘QUVCHILARGA
KASBLARGA OID MA’LUMOTLARNI BERISHDAGI AHAMIYATI»**

Farg'ona viloyati Qo'shtepa tumani 36-maktab texnologiya fani o'qituvchisi

Buronova Azizaxon Abduvaxobovna

Annotatsiya: Ushbu metodik tavsiyada umumta'lim maktablarida Texnologiya fani darslarining o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashdagi o'rni haqida ma'lumotlar berilgan. Texnologiya darslarinig kasb tanlashga yo'llash ishlaridagi imkoniyatlari haqida bayon qilingan. Texnologiya o'quv predmeti darslarida o'quvchilarni kasblar bilan tanishtirish samaradorligini oshirish uchun qilinishi lozim bo'lgan tashkiliy va uslubiy ishlar bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlari: Kasb, texnologiya, xalq hunarmandchiligi, soha, ishlab chiqarish, faoliyat.

Insonning kasbiy shakllanishi va mutaxassis sifatida kamolga yetishini uning hayot yo'lidan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Psixologik adabiyotlarda ta'kidlab o'tilganidek, kishining kasbiy shakllanishi butun hayoti davomida kechadigan jarayon bo'lib uning yoshiga hamda shaxsining taraqqiyotiga mos holda boradi. Kasbiy faoliyat sohasidagi muvaffaqiyat va mataxassisining mahorat darajasiga erishish sur'ati uning kasb tanlash motivlari bilan o'zaro aloqadordir. Kasb tanlash inson uchun muhim muammolardan biridir. Tanlov doirasi qanchalik keng bo'lsa, u shunchalik psixologik jihatdan murakkablashib boradi.

Shaxsning sub'ektiv moyilliklari va u yoki bu faoliyatga qobiliyatligi bir butunlikni tashkil etadi. Qiziqish va moyillik faoliyat jarayonida shakllanadi va o'zgarib boradi. Kasb tanlash arafasida turgan inson shaxsining mazkur sohadagi qanchalik mos ekanligi faqatgina ushbu faoliyat jarayonidagina aniqlanadi.

Kasblarga xos faoliyat turlari bilan yaqindan tanishish uchun Texnologiya o'quv predmeti masg'ulotlarida juda katta imkoniyatbor. Umumiy ta'lim maktablarida texnologiya fani asosida o'rganilishi muhim va zarur bo'lgan nazariy

ma'lumotlar, amaliy ko'nikma va malakalar, jarayonlar yotadi. Umumiy ta'lim maktablarida tashkil etiladigan texnologiya mashg'ulotlari ushbu ta'limni amalga oshirishda, o'quvchilarning umumtexnologiya, mehnat, maxsus bilim, ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda etakchi o'rin egallaydi. Texnologiya o'quv predmeti mazmuni, mohiyati va vazifalariga ko'ra ko'pgina ilmiy, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni umumlashtirib, uyg'unlashtirib, mujassamlashgan holda amaliyotga tadbiq etishni ko'zda tutadi. SHu jihatdan olib qaraganda texnologiya maktab tizimi umumta'lim fanlaridan o'rganiladigan nazariybilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan bog'laydigan quvvatli didaktik vositadir. Demakki, kasb tanlashga yo'llashda ham katta ahamiyatga egadir. Maktablarda texnologiya ta'limining maqsad va vazifalari: Boshlang'ich maktabda (I-IV - sinflar) o'quvchilarni texnologiya va hunarmandchilik dunyosi, o'simliklarni parvarish qilish, turli materiallar bilan tanishtirish, oddiy ishlov berish, oddiy texnologiya va hunarmandchilik asboblari va texnologiya, ish-harakat usullari to'g'risida sodda tasavvurlar hosil qilishni ko'zda tutadi. Bu davrda o'quvchilar texnologiya ta'limidan o'zlashtirgan bilimlar ko'lamini o'zlarining hayotiy tajribalarida va oiladagi texnologiya jarayonida mustahkamlaydilar va kengaytirib boradilar.

Tayanch maktablarda (V-IX – sinflar) da o'quvchilar umumtexnologiya ko'nikma va malakalarini shakllantiriladi, qiziqish va moyilliklariga ko'ra, o'z-o'zini kasbiy jihatdan aniqlashlari, kasb-hunar turlarini tanlashlarini ta'minlanadi, qiziqish va moyilliklari rivojlantiriladi, umumtexnologiya madaniyati shakllantiriladi va rivojlantiriladi, xalq xo'jaligi va hunarmandchilikning sohalari, ularda ishlatiladigan asbob-uskunalar, texnika va texnologiya bilan tanishtiriladi, texnologiya faoliyatining turli qirralarida ishtirok etishlari ta'minlanadi.

Yuqori sinflarda texnologiya ta'limi va kasblarga yo'naltirish kursi-ishchi va mutaxassislarning amaliyotida qo'llanadigan turli xil qo'l asbob-uskunalar, jihozlar, moslamalarini o'rgatishni, mexanizatsiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan vositalar bilan ishlashni, texnologiya qonunchiligi xavfsizligi, sanitariya-gigiena qoidalari va yo'l-yo'riqlari asoslarini o'rgatishni ta'minlaydi. SHuningdek, bu davrda

o'quvchilarda xalq xo'jaligining va hunarmandchilikning asosiy sohalari bo'yicha maxsus kurslarni o'qitishni tashkil etib, turli xil kasbiy bilimlar berish, amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishni maqsad qilib qo'yadi. Ushbu kurslarda o'quvchilar kasbiy mahoratlarini takomillashtira borib, tanlagan kasblari bo'yicha tegishli hujjatlarni olib, bevosita unumli texnologiya jarayonida qatnashish imkoniyatiga va huquqiga ega bo'ladilar.

Texnologiya ta'limining yuqorida ko'rsatilgan maqsadiga erishishi uchun quyidagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi: turli sohalardagi ishlab chiqarish mazmuniga ega vazifalarni echish, tajribalar o'tkazish, o'lchov-tekshiruv asboblardan, ma'lumotlardan foydalana olish, texnologiya operatsiyalarini bajarish, olingan natijalarni talab etilgani bilan taqqoslash yo'li bilan xulosa chiqarishga o'rgatish;

-o'quvchilarda bilim va mehnatga muhabbat, mehnat ahillariga hurmat hissini singdirish, ularni jamoatchilik, vatanga sadoqat, do'stlik, o'zaro hurmat ruhida tarbiyalash;

-o'quvchilarni bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari talablari asosida sifatli, xaridorgir iste'mol mollari, texnologiya mahsulotlari etishtirishga odatlantirish, o'zlari etishtirgan mahsulotlarni o'zlari iste'molchiga etkazishlariga o'rgatish, ish boshqaruvchilik (menedjerlik), homiylik, ishbilarmonlik sifatlarini singdirib borish va rivojlantirish.

-texnologiya ta'limini o'rganish jarayonida o'quvchilarga, xalqimiz ruhiyatini yashash tarzini, an'analarini tiklash va rivojlantirish maqsadida xalq hunarmandchiligining kiritilishi milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining ko'p qirralari boy merosini o'rganish, o'zlashtirish va amaliy faoliyatlariga qo'llash kabilarni o'rgatish.

Qator yillardan buyon olib borgan kuzatishlar natijasida yuqorida ko'rsatib o'tilgan mehnat ta'limi-texnologiya ta'limining asosiy xususiyatlariga qo'shimcha ravishda aytish mumkinki, ushbu sohaning har bir bosqichini, mashg'ulotini, mavzusini, mavzu qismlarini o'tishda ham o'ziga xoslik sezilib turishini ta'kidlash o'rinlidir.

Texnologiya ta'limining o'ziga xos xususiyatlari, ahamiyati uning ta'lim mazmunini tanlashda, har bir bosqich uchun belgilab olishda namoyon bo'ladi. Jumladan xalq hunarmandchiligining umumta'lim maktablari texnologiya o'quv predmeti tarkibiga kiritilishi texnologiya darslarini tashkil etishning ko'lamini yanada kengaytirishga, shahar va qishlok maktablarida texnologiya ta'limi darslarini tashkil etishni yanada yaxshilashga olib keladi. chunki, ushbu ta'limning an'anaviy ko'rinishda shahar va qishlok maktablarida mashg'ulotlarni tashkil etishda xalq hunarmandchiligi sohalari taraqqiyoti, ta'lim muassasani o'rab turgan ishlabchiqarish sohasini hisobga olib, ularga bog'lanish zarur. Xalq hunarmandchiligining esa bevosita xalq xo'jaligi (mahalliy) tarmoqlarga bog'lik bo'lmagan holda o'quvchilarga turli umumtexnologiya, maxsus ko'nikmalarni o'rgatishda didaktik imkoniyatlari behisobdir.

Xalq hunarmandchiligi sohasini o'rganish bo'yicha olib borilayotgan mashg'ulotlarning moddiy, xom ashyo, materiallar bilan ta'minlanishini yo'lga qo'yishda deyarli barcha maktablarda mahalliy imkoniyatlar mavjuddir. Mahalliy xom ashyo ta'minotini o'quvchilar va o'qituvchilar o'z kuchlari bilan bevosita amalga oshirishlari mumkin. Xalq hunarmandchiligining texnologiya va kasb-hunar ta'limida muntazam o'rganilishi o'g'il va qiz bolalar texnologiyaini, qishloq va shahar maktablarida muqobil mashg'ulotlarning tashkil etilishini va qolaversa, o'quvchilarning ta'lim muassasasini bitirganlaridan so'ng doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlanishlarini ma'lum tartibga soladi.

Umumiy ta'lim maktablarida texnologiya ta'limi mashg'ulotlari negizida xalq xo'jaligi soxalari xususiyatlarini, ishlab chiqarish bilan bog'liq nazariy ma'lumotlarni, ma'naviy, milliy, madaniy, moddiy qadriyatlardan hisoblangan xalq hunarmandchiligining turli yo'nalishlarini o'rganish va yoshlarga o'rgatish ishlarining yo'lga qo'yilishi ushbu sohalarning didaktik, tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyos ekanligini ko'rsatadi. Shu jixatdan Texnologiya ta'limida o'quvchilarni kasblar bilan tanishtirish, kasb tanlashuf yo'naltirishda o'rni kattadir.

Yuqorida bayon qilingan kasb tanlashga yo'llash ishlarining samaradoligini oshirishda texnologiya darslarida zamonaviy ta'lim texnolgiyalaridan, axborot

texnologiyalardan keng foydalanishni talab qiladi. SHu bilan birga ta'lim vositalarini ham moderinizatsiya qilish xam zarur. Chunki, o'quvchilarni xalq xo'jaligining turli tarmoqlari, ularda zarur bo'ladigan kasb egalari uchun muxim jixatlar bilan tanishtirish imkoniyatlari ana shu vositalarga bilan chambarchas bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduqudusov O. Kasb-hunar pedagogikasi. Darslik. – T.: O'MKHTTKMO va UQTI, 2014.
2. Pedagogika nazariyasi va tarixi. M.X. To'xtaxo'jaeva tahriri ostida. – T.: "Moliya-iqtisod", 2008.
3. Sobirovna, U. M. (2022). Improving the educational system for children with disabilities. The Peerian Journal, 4, 20-22.
4. Sobirovna, U. M. (2022). MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
5. Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
6. Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. World scientific research journal, 9(1), 220-224.

G'AFUR G'ULOMNING 'VAQT' SHE'RI TAHLILI.

Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik

fakulteti 2-kurs talabasi

Naimova Ozoda.

Annotatsiya : Aslida, inson vaqti uning umridir. Vaqt bulutlardek o'tib ketadi. Kishi o'z zamoni va vaqtining qadrini bilishi, hatto biror lahzasini behuda o'tkazmasligi vashu asnoda eng afzal so'z va ishlarni bajarishi lozim. Doimo niyati yaxshilikda bo'lishi va bajariladigan amallarida sustkashlik qilmasligi kerak.

Kalit so'zlar : vaqt, zamonasizlik, nafas, umr, sharob.

G'afur G'ulom ijodiga nazar solsak, uning she'rlari, asarlari hamda hikoyalari naqadar ichki tuyg'u bilan ifodalanganini ko'rishimiz mumkin. Uning ijodi har jabhani o'z ichiga qamrab oladi. G'afur G'ulom ham ijodkor, ham adabiyotshunos va shu bilan birgalikda akademik- shoir hisoblanadi. Uning ijodiy mahsuli juda ko'p qamrovli bo'lib, ijodga turli usullar bilan yondashgan. Adibning "Vaqt" she'ri hammaga ma'lum va mashhur she'rlaridan biri hisoblanadi. G'afur G'ulomning "Vaqt" she'ri haqida gapiradigan bo'lsam, bu she'r adibning jiyani tufayli boshlanadi. Ya'ni "Vaqt" she'ri sarlavhasida ostida quyidagi so'zlar bitilgan : "Menga soat taqdim etgan jiyanim Hamidulla Husan o'g'liga bag'ishlangan " deb yozib qo'yilgan.

Shoir ushbu she'rini yozgan paytda, g'oyat murakkab, sharqona-o'zbekona fikr cheklangan, fikr-mulohazalar esa markscha – lenincha fikr yuritiladigan davr edi. G'afur G'ulom ushbu aqidalar chizig'idan yurmaslik qanchalik xavfli ekanini bilar va shu muhit ichida turib ham "Vaqt" she'rini yaratolgan ijodkor edi. Bu davr tuzumini qarshilab o'tish hamda yengib o'tish botqoqqa turib parvoz qilishdan ham qiyin ish edi. Biz shu o'rinda yozuvchi Omon Muxtorning quyidagi so'zlarini yodga olsak ayni muddao bo'ladi: "Hali aytganimiz minbardagi shoir sifatida tanilgan G'afur aka aslida faylasuf, mutaffakir edi. Davr imkon bersa, u faqat falsafiy hamda

umuminsoniy she'rlar yozar edi. Zotan, XX asr o'zbek adabiyoti she'riyatidagi G'afur akaga yetkazib, 'eng kichik zarradan Yupitergacha....' deya keng nafasda so'zlagan boshqa shoir uchramaydi''.

G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni

Kapalak umriga qiyos etgulik

Ba'zida bir nafas olgulik muddat-

Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik.

Adibning 'Vaqt' she'riga yuzaki qaraydigan bo'lsak, oddiy ma'no bordek tuyuladi, lekin bu she'rni chuqur o'rgansak, o'ta mavhum hamda qudratli hodisani guvohi bo'lishimiz mumkin. Chunki vaqtsiz hech narsa qilib bo'lmaydi. Hamma ishning oxiri borib vaqtga taqaladi. Bu bandeda har bir soniya, har bir on nazarda tutilgan. Vaqt go'yoki kapalak umriga qiyos etilgan, chunki barchamizga ma'lumki, kapalak umri naqadar oz va shu bilan birgalikda bizning umrimiz ham. Shoirning 'Vaqt' she'ri da vaqt atamasi zohiran soda, botinan esa tushunilishi qiyin she'r hisoblanadi. She'r misralari sirtdan qaraganda oddiy bo'lib ko'rinadi, ularning ma'nosini anglashimiz esa biroz qiyindek tuyuladi. She'r ma'nosini anglamaguncha esa, uning obrazini shakllantira olmaymiz. Bu turdagi she'rlarda avval obraz ko'zga tashlanib, keyin obraz bilan birgalikda ma'no anglashiladi. Lekin G'afur G'ulomning 'Vaqt' she'rida esa avval so'z va misralardagi ma'noni anglashimiz lozim, shundan keyingina esa bizning ongimizga she'r obrazidagi tasavvurlar kela boshlaydi. Go'yoki, 'Vaqt' she'ri chalg'ituvchi soddalikni bosib o'tib, zamirida zil ma'nolar yashiringan misralarni anglashga uringan, shunday urinishdan zavq tuya oladigan intellektual kitobxon mulki hisoblanadi. 'Vaqt' she'rini yuzaki o'qish vaqtni besamar o'tkazish bilan barobardir.

Vaqt Alloh taolo izmidagi sir-sinoatidir. 'Vaqt' haqida shunchalik mukammal she'r yozgan shoir shu haqiqatni bilmasmidi. Albatta, bilardi. Shoirning qizlari Olmos opa o'z esdaliklarida ul zotning do'st-nadimlari (e'tiborlisi shundaki, ularning barchasi eskicha ta'lim olgan madrasa ko'rgan milliy ziyolilar edilar) yarim tunda allaqaysi radioto'lqinlardan Qur'on tilovatlarini tinglab, yig'lab o'tirishganini ko'rgani haqida yozgan. Bu totalitar davrda yashagan ma'rifatli

o'zbek ziyolisi ikkiyoqlama, avra-astar hayot davrida yashaganligidan dalolat berib turadi.

U bir tomondan sho'ro g'oyalarini qabul qilgani holda, ikkinchi tomondan esa asriy zotiy o'zakdan voz kechmaganligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, "Qur'oni karim" dagi "Oyatul kursi" da ilohiy qalam bilan bitilgan "Faqat uning o'zi bordir. U tirik va abadiy turguvchidir" kalomi shoirning ongida

Hayot sharobidan bir qultum yutay,

Damlar g'animatdir, umrzoq soqiy.

Quyosh-ku falakda kezib yuribdi,

Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy

bo'lib jaranglagani bejiz emas. Shunda U, ya'ni Alloh, hamisha tirik ekan, asl ma'rifatli, iymonli insonlarning umri boqiydir, degan ma'noni ko'rishimiz mumkin. Adibning "Vaqt" she'ridagi ushbu misrasida "bir qultum" lahzaning boshqa bir shakli "nafas"ning sharobga bog'liq ekanligini bildiradi. Barchamizga ma'lumki, nafas olinadi-chiqariladi. Sharob esa qultum holida yutiladi. Bu yerda bir qultum sharob, bir lahzaga tenglashtirilyapti. Lahza esa g'animat sifatida "umrzoq soqiy" bilan qiyoslangan. O'ta nozik ishora bilan "g'animat" "umrzoq" qa, "damlar" mangulikning hoziru-nozir vakili hisoblangan "soqiy"ga qarshilantirilmoqda. Shuning uchun mangulikka sobit timsol kerak, uni esa jumlaning ushbu qatorida ko'rishimiz mumkin: ***quyosh-ku falakda kezib yuribti", umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.***

Ba'zan shoir ijodidagi zamonasizlik haqida gapirilganiga guvoh bo'lamiz. "Vaqt" she'rini ham ushbu oqimga qo'shib qo'yishadi. Zamonasizlik zamonga, davr talabiga qarab ish tutishlikni, ijod qilishni anglatsa, unda "Vaqt" she'ri bunday zamonasizlikdan ancha yuqori turadi. Umuman, bu kabi asarlarga oddiy mezon bilan yondashibham, bunday me'zonlarni "Vaqt" kavi she'rlarga qo'llab ham bo'lmaydi. She'rni zamonasiz asarlar sirasiga kiritganlarni, unda joriy zamonga oid voqea –hodisa va shaxslar tilga olingani bizni chalg'itgan bo'lishi mumkin. Lekin biz o'zimizni G'afur G'ulomning o'rniga qo'yib ko'rsak hamda vaqt haqida she'r yozsak, qanday qilib davrimizdagi hodisalarni tilga olmasligimiz mumkin. G'afur

G'ulom ham o'z zamonasining davri haqida yozgan, shuning uchun ham adibning ushbu she'rini zamonasizlik deyishga haqqimiz yo'q deb hisoblayman. "Vaqt" she'riga kelsak, bu she'r batamom vaqt haqida yozilgan, zamona esa shu vaqtning bir parchasi, abadiyat nigohida qaralsa, u mutlaq vaqtning bir parchasi xolos. "Vaqt" she'rini zamonasiz asarlar sirasiga kiritayotganlar esa, she'rning mohiyatini yaxshi tushunmagan hamda uni anglamagliklaridan dalolatdir.

G'afur G'ulomning "Vaqt" she'rini qisqacha tahlil qilish natijasida, vaqtning qadri, har bir o'tadigan soniyamizning qadrini anglashimiz, uni behuda narsalarga sarf qilmasligimiz kerak.

Vaqt qadrlay bilgan odam foydasiga yuradi. *Ibn Qayyum aytadi: "Aslida, inson vaqti uning umridir. Vaqt bulutlardek o'tib ketadi. Kishi o'z zamoni va vaqtining qadrini bilishi, hatto biror lahzasini behuda o'tkazmasligi vashu asnoda eng afzal so'z va ishlarni bajarishi lozim. Doimo niyati yaxshilikda bo'lishi va bajariladigan amallarida sustkashlik qilmasligi kerak.*

Shunday ekan har birimiz, o'tayotgan har bir daqiqa, har bir onimizni nimaga sarf qilayotganimizni anglashimiz kerak. Umr bir marotaba beriladi. Shu berilgan umrdan, samarali foydalanish har birimizning o'z qo'limizda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. <https://islom.ziyouz.com/maqola/ulamolar-nazdida-vaqtning-qadri>.
2. Tanlangan asarlar.[Matn]: nazm va nasr.- T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2021.-352 bet.
3. G'afur G'ulom xotiralarda : to'plam/ Nashrga tayyorlovchlar : N.Ramazonov, L.Ilhomjonov. O'zR Adliya vazirligi , TDYU.-Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2021.-208b

G'AFUR G'ULOMNING "YODGOR" HIKOYASINING HUQUQIY TALQINI

*Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik
fakulteti 2-kurs talabasi
Naimova Ozoda Qudrat qizi.*

Annotatsiya: G'afur G'ulomning "Yodgor" qissasida gumanizm masalasigi e'tibor qaratgan. Asar qahramonlaridan biri Yodgorning haqiqiy onasi Mehrixon ota istagi yo'lida, oila sha'ni uchun jaholat oldida ojiz va betadbir bo'lib qoladi. U o'zi va sevgan yigiti kelajagi uchun Yodgorni katta g'ov deb bilib, noilojlikdan o'ylab topgan yolg'oni tufayli umr bo'yi vijdon azobida qiynaladi. Begonaning qo'liga g'ayritabiiy va latifanoma tashlab ketilgan farzandining noma'lum taqdiri to'g'risida tortgan tashvishlari yillar davomida o'z tas'irini ko'rsatadi.

Kirish so'z : Yodgor, rasm, dastro'molcha , Axshobod, Moskva

G'afur G'ulomning insoniylikni ulug'lovchi asarlaridan yana biri «Yodgor» qissasidir. Yozuvchi, asarda o'sha paytdayoq muhabbat erki masalasini ko'tarib chiqib, qoloq psixologiya, jaholat inson boshiga og'ir kulfatlar olib kelishi mumkinligini ko'rsatib beradi. Xazil-mutoyiba va ertaknamo yo'sinda yozilgan bu asar zamirida g'amgin hikoya, fojiali taqdir bor. G'afur G'ulom jahon adabiyotida hozirgi vaqtlarda keng qo'llanilayotgan tasvir usulini o'sha vaqtdayoq ishga solgan. Ya'ni biror sodir bo'lgan voqeaga odamlarning munosabatini ko'rsatish, ularni sinov chig'irig'idan o'tkazish orqali aslida kimligini, ruhiy olamini, ma'naviyatini ochib berish usulini qo'llagan. «Yodgor» qissasida Mehri otasining johilligi va umuman o'sha davrdagi hukmron odat bo'yicha Mehrixon sevgan yigiti bilan birga bo'la olmasligiga – nikohsiz tug'ilgan bola xalaqit berishini ifodalab bergan. Shu bois, yo sharmanda bo'lislari yoki boladan qutulishlari kerak edi.

Mehri go'dakdan qutulish yo'lini qidiradi va tasodif orqali Jo'raga duch kelib qolib, **"Birovga xolis xizmat qilib o'rganganmisiz"**, - deb, Jo'raga bolani hiyla

bilan topshirib, og'ir vaziyatdan chiqib ketadi. Jo'ra go'dakni uyiga olib keladi. Ammasining qizi Saodatni Jo'raga olib berishga onalar maslahat qilib qo'yishgan edi. «Taqdirni buzib bo'lmaydi», shunday bo'lishi kerak edi, ular nazarida. Biroq, yosh go'dakni (keyin Yodgor deb ism berishdi unga) ko'tarib kirganda, onalarining orzulari chippakka chiqqanday bo'ladi: ularni na go'dakning taqdiri, na o'z farzandlarining kelajagi qiziqtiradi. Har ikkisi ham Yodgorni Jo'raning o'g'li deb, fig'onlari ko'kka chiqadi. Hamma qatori bu holat Jo'raning onasini ham or – nomusiga tegib, onasi Jo'rani «yetti nomusimni yerga bukding, juvonmarg»,- deb qarg'aydi. Ammasi «beboshvoqqa beradigan qizim yo'q. Mening qizim xali ochilmagan gul», deb to'nini teskari kiyib oladi. Ikki onani jig'ibiyron qilib yondirgan ikkinchi narsa – Jo'raning xaqiqatni yashirib, go'dakni «Mening bolam», «Onasi shu bolani tug'di-yu, o'ldi-da», deyishi edi. Ammo G'afur G'ulomning bu usuli yuzaki qaraganda oddiydek, sun'iydek tuyuladi. Chunki haqiqatni aytsa, hech kim Jo'rani ayblamas, aksincha, uning odamgarchiligiga qoyil qolishgan bo'lishar edi. Adib atayin bu yo'ldan bormay, Jo'raning «yolg'on» so'zlashini asoslaydi. Zero, Jo'ra haqiqatni ularga ayta olmasdi. Chunki Jo'ra Mehrixonning boshidan o'tgan asil voqeani – haqiqatni hali mutlaqo bilmasdi. Buni Mehri necha yillardan keyin harbiy vrach bo'lib yetishgan va tasodifan uchrashib qolgan Jo'raga o'zining haqiqiy hayot yo'lini-go'dakni unga tashlab ketish tarixini so'zlab beradi. Mehrining o'z eri va hayoti to'g'risidagi qayg'uli hikoyasi uning yuragini larzaga soladi. Shu tufayli Mehrixonning tarixini uydagilarga aytib, sirini fosh etib, uni yana qo'shimcha g'amga botirishni xohlamaydi. Uning ustiga, ota-onasiz qolgan go'dakning ahvoli uni masalaga chuqurroq kirishishga undaydi: «Endi qanday bo'lsa ham bolani qutqarib qolish kerak. Axir bu go'dakda nima ayb?», - deya Jo'ra qat'iy qarorga keladi. Qutqarib qolishning birdan-bir yo'li go'dakni o'z farzandim deb aytish edi. Jo'raning bu «hiylasi» kutilgan natijani beradi: onasi uni o'z nevarasidek parvarish qiladi, Saodat ham Jo'raga bo'lgan munosabatini o'zgartirmaydi, onasi (Jo'raning ammasi) ham Jo'raga yana mehr qo'ya boshlaydi. Qizini Jo'raga berishga rozi bo'ladi. Jo'ra armiyada ekan, xat orqali Saodat bilan oralarida mehr-muhabbat paydo bo'ladi. Ko'rinadiki, qissada go'dak voqeasi

asardagi barcha qahramonlarning kimligini namoyon etish vositasiga aylanadi va yozuvchi o'zbek xalqi tabiati-xarakteriga xos bo'lgan bolajonlilikni, mehr-oqibatni qiziqarli ko'rsatib beradi. Demak, G'afur G'ulom qissalari Sharq va G'arb nasrchiligi sintezidan tug'ilgan badiiy tafakkurning yorqin namunalari. G'afur G'ulom boshqa asarlari kabi "Yodgor" qissasida ham gumanizm masalasiga e'tibor qaratgan. Asar qahramonlaridan biri Yodgorning haqiqiy onasi Mehrixon ota istagi yo'lida, oila sha'ni uchun jaholat oldida ojiz va betadbir bo'lib qoladi. U o'zi va sevgan yigiti kelajagi uchun Yodgorni katta g'ov deb bilib, noilojlikdan o'ylab topgan yolg'oni tufayli umr bo'yi vijdon azobida qiynaladi. Begonaning qo'liga g'ayritabiiy va latifanoma tashlab ketilgan farzandining noma'lum taqdiri to'g'risida tortgan tashvishlari yillar davomida o'z kuchini ko'rsatib, ruhiy iztiroblar tufayli uni kasalvand qilib qo'yadi. Yodgor-ramziy nom, poetik vositasi hisoblanadi. G'afur G'ulomning bu asarni yozishidan maqsadi asarda insoniy munosabatlar va asar qahramonlarini ma'naviy-ruhiy olamini ko'rsatishda hamda karakterini ochib berish maqsad qilingan. Bo'lib o'tgan voqealarga qaramay, Mehrining onasi qizining yigiti bilan munosabatlariga unchalik qarshilik bildirmadi, lekin eriga qarshi ham bora olmaydi. Adabiyotda ko'rilganiday, Mehrixon obrazi bevafo ona obrazi emas. U nomusni o'ylaydigan, xatolari uchun iztirob chekadigan, o'z-o'zini kechirmay yillar davomida ruhan qiynaladigan, yurak «sir»larini eridan ham pinhon tutib, uni ayaydigan, shafqat va marhamatga loyiq ayol obrazidir. Farzandini bag'rida parvarish qila olmagan, unga butun borlig'ini, mehrini baxshida etib, tunlari bedor allalar ayta olmagan, bu uchun uning baxtiga chang solgan ota tabiatidagi ma'rifatsizlikni, jaholatni aybsitish o'rinli bo'lar edi. Hayot haqiqatiga milliy joziba bera olishda G'afur G'ulomga Sharq adabiyotiga xos bo'lgan, voqea tuzish yo'llaridan ijodiy hamda ijobiy foydalanish nihoyatda ochib berilgan. G'afur G'ulomning "Yodgor" qissasini huquqiy sohada talqin qiladigan bo'lsak, asardagi o'sha davr zamoni ochib berilgan. Jo'ra va Mehrixon o'rtasidagi huquqiy masalaga e'tibor qaratilmagan. Bu yerda FHDYO organlarining qilgan xatolarini ko'rishimiz mumkin. Chunki Jo'raning o'ziga tegishli bo'lmagan pasport Mehrixonga Jo'ra bilan "ajrashtirilganligi" haqida ma'lumotnoma berilishini asos qilishimiz

mumkin. To'g'ri o'sha paytda elektron vositalar, axborot aloqalari yaxshi bo'lmasligi mumkin. Lekin bu hodisa ko'rib turganimizdek, ancha katta ahamiyatini ko'rsatib o'tgan. Bir onaning butun umr vijdon azobida qiynalishi, ularning befarzand o'tishi ham asarni ancha badiiy mahoratini ochib bergan. Asar qahramonlarining FHDYO organlariga murojaat qilganlari, ish "silliq" ko'chganidan xursand bo'lishlari, ularning ajrimiga aynan nima sabab bo'lganligi, yarashuv uchun mal'um muddat vaqt hamda imkoniyat yaratmaganliklari ham FHDYO organlarining xatolari deb hisoblayman. Asar badiiy jihatdan ancha ijobiy yoritib berilgan. Asardagi obrazlar, ularning hayitdagi kechinmalari, insoniylik tuyg'ulari to'la-to'kis yoritib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

G'afur G'ulom . Tanlangan asarlar. Nazm va nasr.- T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi, 2012- y. 352-bet.

G'afur G'ulomning badiiy mahorati: Ilmiy maqolalar to'plami/Nashr.tayyorl. N.Bozorova, T. Matyoqubova . – Toshkent : Toshkent davlat yuridik universiteti , 2021.-240b.

G'afur G'ulom xotiralarda : to'plam/ Nashrga tayyorlovchlar : N.Ramazonov, L.Ilhomjonov. O'zR Adliya vazirligi , TDYU.-Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2021.-208b Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

RUS TILI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Raximova Gulbahorxon Bahodirovna

O'zbekiston tuman 2-son kasb-hunar maktabi rus tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada rus tili darslarini tashkil etish va undagi metodlar samaradorligi haqidagi fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: konseptual, til ko'nikmalari, "arra" metodi, "yozma bahslar", "zig zag".

Аннотация: в данной статье представлены представления об организации занятий русским языком и эффективности его методов.

Ключевые слова: концептуальное, языковые навыки, метод «пилы», «письменные рассуждения», «зигзаг».

Zamonaviy ta'limning markazida o'qituvchining faoliyati turadi. Umuman ta'lim tizimida rus tilifani markaziy o'rinni egallaydi. Haqiqatni bilish vositasi sifatida rus tili nafaqat lingvistik bilimlarni, balki bolaning intellektual rivojlanishini ham ta'minlaydi, konseptual-kategorik apparatni shakllantiradi, mavhum fikrlash, xotira va tasavvurni rivojlantiradi. So'nggi yillarda, afsuski, o'quvchilar rus tili darslarida qiziqishning keskin pasayishi, bolalarning til ko'nikmalarini kengaytirish, savodxonlik va nutq madaniyatini oshirishga bo'lgan istagi yo'q. Hozirgi kunda barcha o'qituvchilarni qiziqtiradigan eng muhim muammo — rus tili darsining o'quvchilarning asosiy ta'lim va tarbiya shakli sifatida samaradorligini oshirishdir. Xuddi shu shaklda o'tkazilgan darslar o'quvchini charchatadi. O'quvchi va o'qituvchi uchun darslarning monoton ekanligi o'quv faoliyatining samaradorligini pasaytiradi. Ta'lim berishga majbur qilmang, balki qiziqish uyg'oting, o'quvchida doimiy bilim olish istagini paydo qilish o'qituvchining vazifasidir. Yosh o'quvchi o'ziga xos yosh xususiyatlariga ega: beqaror e'tibor, vizual-majoziy fikrlashning ustunligi, vosita faolligini oshirish, o'yin faoliyatiga bo'lgan intilish, bilimlarning

xilma-xilligi. Bularning barchasi o'qituvchining ishini murakkablashtiradi. Dars davomida bolalarning e'tiborini saqlab qolish uchun faol va qiziqarli fikrlash faoliyatini tashkil etish zarur. An'anaviy ta'lim usullari har doim ham barcha talabalar tomonidan materialning assimilyatsiyasini ta'minlay olmaganligi sababli, darslarda o'quv faoliyatini mohirona tashkil etish kerak bo'ladi. Ushbu faoliyatni shakllantirish uchun sharoit yaratish uchun bilim motivatsiyasini shakllantirish kerak. Bugungi kunda rus tili darslarida o'quvchi talabalar faolligini oshirishda quyidagi metodlardan foydalanish mumkin:

“Arra metodi” (E.Aronson,1978)

Pedagogik amaliyotda mazkur metodda kichik guruhlar 6-8 ta o'quvchidan tashkil topadi. Dars davomida o'rganiladigan mavzu mantiqan tugallangan qismlarga ajratiladi. Har bir qism yuzasidan o'quvchilar bajarilishi lozim bo'lgan o'quv topshiriqlari tuziladi. Har bir o'quvchilar guruhi mazkur topshiriqlarning bittasini bajaradi va shu qism bo'yicha «mutaxassis»ga aylanadi. So'ngra guruhlar qayta tashkil etiladi. Bu guruhlarda har bir qism (blok yoki modul) «mutaxassis» bo'lishi shart, mazkur «mutaxassis»lar o'zlari egallagan bilimlarni xuddi «arra» tishlari ketma-ket kelganidek navbat bilan o'rtoqlariga bayon qilishadi. Mazkur guruhlarda o'quv materialini mantiqiy ketma-ketlikda qayta ishlab chiqiladi.

1986-yili R.Slavin «arra» metodini qisman o'zgartirib «arra-2» metodini yaratdi. Mazkur metodga ko'ra kichik guruh 4-5 o'quvchidan tashkil topadi. Barcha guruh a'zolari o'quv materialini yuzasidan tuzilgan yagona topshiriq ustida ishlaydi. Guruh ichida o'quvchilar topshiriqlarni qismlarga ajratib, bo'lib oladilar. Har bir o'quvchi o'ziga tegishli qismini puxta o'zlashtirib «mutaxassis»ga aylanadi. Dars oxirida har bir kichik guruhdagi «mutaxassis»lar uchrashuvi qayta tashkil etilgan guruhlarda o'tkaziladi.

O'quvchilar bilimi test savollari yordamida individual tarzda o'tqazilib nazorat qilinadi va baholanadi. Guruh a'zolarining ballari jamlanadi, eng yuqori ball to'plagan guruh g'olib sanaladi.

“Yozma bahslar”

O'quvchilarga sinfdoshlar bilan birgalikda hozirgi vaqtda jamoatchilik fikrini to'qinlantirayotgan mavzularda dialoglar rejalashtirish imkonini berish kerak. Yozma bahslar metodikasi yozma shakldagi bunday dialoglarni sinfdagi barcha o'quvchilar ishtirokida o'tkazish imkonini beradi. Metod o'quvchilarning berilgan mavzu sohasidagi bilimlarini chuqurlashtirish sharoitini yaratadi. Munozara madaniyatini o'rgatish, asoslash qobiliyatini rivojlantiradi.

O'tkazish texnologiyasi:

1-bosqich. Mashg'ulot boshlanishidan avval stollarni quyidagi rasmdagidek qo'yib chiqing (4 guruh ikki stolda qarama-qarshi, ammo bir-biriga bevosita yaqin joylashadi).

2-bosqich. Ta'lim oluvchilarga yozma debatlar o'tkazish uslubiyati haqida gapirib berib debatlar-ikki tomon o'rtasidagi yozma muloqot shaklidir;

debatlar ikki o'quvchi yoki o'quvchilar guruhlarini o'rtasida o'zaro olib borilishi mumkin; ushbu uslub bahsli, mavzularni muhokama qilganda ayniqsa foydalidir;

munozara paytida o'quvchilar faqat o'z asosli dalillarini taqdim etadi, qolaversa boshqa tomonning asosli dalillariga javob beradi;

texnika o'quvchilarning muhokama qilinayotgan muammolariga doir bilimlarni chuqurlashtiradi, munozara madaniyatini o'rgatadi, asoslab berish malakasini oshiradi;

o'qituvchi qo'lga kiritgan ajoyib material baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

3-bosqich. Ishtirokchilarni 3 guruhga bo'ling. Guruhlarni stolga o'tkazing. Bu mashqda 1-4 guruhlar mavzuni qo'llab-quvvatlashini, 5-8 guruhlar esa qarshi chiqishini tushuntiring. 1-guruh 5-guruh, 2-guruh 6-guruh, 3-guruh 7-guruh, 4-guruh 8-guruh bilan bahs yuritadi. 1-4 guruhlariga qizil, 5-8 guruhlariga qora rangli flomaster tarqating. Debat yuritiladigan jadvalni tanishtiring. Asosiy tamoyillarni eslatib. 1-4 guruhlariga jadvallarni topshirib, mashq boshlanishi uchun signal bering.

4-bosqich. Mashq yakunlanganidan so'ng debatlarini birinchi tugatgan guruhlar vakillaridan plakatlarni o'qishni iltimos qiling (biron-bir sharhsiz). Agar

ihdiyoringizda vaqt qolsa, boshqa guruhlardan ham o'z plakatlarini o'qib berishni iltimos qilish mumkin.

Mavzu: (O'qituvchi tanlaydi) _____

Ha

Sizning eng kuchli asosli dalillaringiz? _____

Yo'q

Boshqa tomonning asosli daliliga javob qaytaring? Sizning eng kuchli asosli dalillaringiz?

Javob

Asosli dalil _____

Javob

Asosli dalil _____

Javob

Asosli dalil _____

Javob

Yakun: _____

«Zigzag» strategiyasi metodi

Sinf o'quvchilari 7 ta guruhga bo'linadilar va guruh nomlanadi. Guruhlarda yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn qismlarga ajratiladi va ajratilgan qismlar mazmuni bilan tanishib chiqish vazifasi guruhlarga topshiriladi. O'quvchilar matnlarni diqqat bilan o'rganadilar va gapirib beradilar. Vaqtni tejash maqsadida guruh a'zolari orasidan liderlar belgilanadi va qayd etilgan vazifa ular tomonidan bajariladi. Liderlarning fikrlari guruh a'zolari tomonidan to'ldirilishi mumkin. Barcha guruhlarning o'quvchilari o'zlariga topshirilgan matn mazmuni xususida so'zlab berganlaridan so'ng, matnlar guruhlarga almashtirilib, avvalgi faoliyat takrorlanadi. Guruhlarga bir necha matnlar taqdim etiladi. Shu tarzda barcha matnlar mazmuni guruhlarga tomonidan o'rganib chiqilgach o'quvchilar o'tilgan mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni ajratadilar, ularning o'zaro mantiqiy bog'liqligini aniqlaydilar, yuzaga kelgan g'oyalar asosida mavzuga oid sxema ishlab chiqiladi.

So'ngra o'zlashtirilgan bilimlar asosida o'quvchilarning o'zlariga shunday sxemalarni ishlab chiqish vazifasi topshiriladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, til o'rganish o'quvchilar uchun murakkab jarayon sanaladi. O'quvchilar xorijiy tillarni o'zlashtirishda doimo qiyinchiliklarga duch keladilar. Biz yuqorida sanagan interfaol metodlar esa anashu qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi va o'quvchilarni xorijiy tillar, xususan rus tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini orttirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayeva F. Kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish(uslubiy qo'llanma). Toshkent - 2013
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/interfaol-metodlar-o-quvchilar-kreativliginioshirishning-muhim-omili>
3. Джуманиёзова, Д. К. Rus tili darslarida o'qitishning nostandart shakllari va usullari / Д. К. Джуманиёзова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2022. — № 22 (417). — С. 673-675.

**G'AFUR G'ULOMNING "MENING O'G'RIGINA BOLAM" HIKOYASI
HAMDA HIKOYANING HOZIRGI ZAMON BILAN HUQUQIY
BOG'LIQLIGI.**

*Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik
fakulteti 2-kurs talabasi*

Naimova Ozoda Qudrat qizi.

Annotatsiya: "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasida insoniylik, poklik tuyg'ularining mavjudligi. Asarni hozirgi zamon huquqi bilan bog'liq tomonlari.

Kalit so'zlar: o'g'ri, qozon, tumov, urush, tovuq.

O'zbek xalqining zabardast vakillaridan biri- G'afur G'ulom ijodiga nazar solar ekanmiz, adib turli yo'nlismlarda ijod qilganligiga guvoh bo'lamiz. Adibning she'rlari, hikoya, qissa hamda boshqa ijodiy mahsulini chuqur o'rganish lozim deb o'ylayman. Sababi G'afur G'ulomning asarlarida insoniylik, poklik, halollik, mehr-muhabbat kabi yaxshi xislatlar juda ko'p. Adibning bu kabi ijodiy merosiga misol qilib, urushning dahshatli, falokatli yillarida yozilgan asarlardan biri "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi misol bo'la oladi. G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi 1965- yilda e'lon qilingan lirik-dramatik hikoya hisoblanadi. Asarda bo'lib o'tgan voqea haqiqatga asoslangan, real voqealik hisoblanadi. "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi jahon hikoyachiligi darajasidagi yetuk, mukammal asardir. Bu asarda G'afur G'ulom ijodining yuragi bo'lmish insonparvarlik ruhi baland jaranglaydi. «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasida o'zi guvoh bo'lgan oddiy voqea asosida, ya'ni urush davridagi tuzum, shafqatsiz jamiyatni va shunday sharoitda ham o'zining insoniyligiga, mehr-oqibatiga zarracha putur yetkazmagan insonni ko'rsatadi. G'afur G'ulomning ota-onasi o'lib, uchta singlisi bilan katta onasi – «qora buvisi» qo'lida qolgan paytidagi uylariga o'g'ri kelishi voqeasini aytib beradi. Birinchi jahon urushi payti, «zamon chappasiga ketgan» vaqt, barcha kosiblar singan, ish yo'q hamma och-yalang'och.

Oddiy kosib, ishsiz yigit ikki bolasi, xotini, onasini boqa olmay, o'g'irlik qilishga majbur bo'ladi. Kechasi «Qora buvi» ning tomiga chiqqanida qo'qqisdan aksirib yuboradi. Yetimlar taqdirini o'ylab, mijja qoqmay yotgan «qora buvi», «O'g'rigina bolam, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo'lmaydimi!», - deydi. «Qora buvi»ning mehribonona, samimiy munosabati o'g'rining ham xasrat qopini ochib yuboradi. U tomda, kampir pastda dardlashadilar, urushning yomon oqibatlari, urush qanchalar odamlarni qiynagani, ularni boshiga juda katta falokatlar olib kelganligi, xalqning qashshoq hamda qiyinchilik bilan kechirayotgan hayoti, shaharning ota-onasiz yetimlarga to'lib ketgani, xullas, osmon uzoq yer qattiqligi to'g'risida suhbat quradilar. Asarda "Ellikboshimiz Rahmonxo'jaga xo'rozni olib borib bergan edim, ishni bosdi- bosdi qilib yubordi. Rahmonxo'ja men bilan tuzuk, yaxshi odam. Bultur uni-buni sotib, sakson uch so'm pul jamg'arib: "Topganimiz shu, ellikboshi ota", -deb pora bergan edim, rabochiyga ketishdan olib qoldi". Bu holatda bilishimiz mumkinki, o'g'rining so'zidan o'sha ellikboshilarning poraxo'rliigi ham, boylar-u amaldorlarning, tuzumning shafqatsizligi ham oshkor bo'ladi. Yozuvchi ayni paytda, shu kambag'allarda insoniylik, odamiylik, mehr-shafqat tuyg'usi saqlanib qolganini ta'kidlaydi: «qora buvi» o'g'rini uyida bor bo'lgan ikkitagina zog'ora non bilan choy ichishga taklif qiladi, u esa «Meni tanib qolasiz, juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo'q andisham bor, uyalaman», - deydi. «Qora buvi» uyda yarim pudlik qozon bor, hozir bunda ovqat pishirishga masalliq ham yetmaydi, «qutlug' uydan quruq ketasanmi, bolam. Shuni obketaqol. Sotib kuningga yaratarsan, o'g'rigina bolam», deydi. O'g'ri ko'nmaydi, kelajakda yaxshi kunlar kelishiga umid bildiradi. Ko'rinadiki, hikoyada ona – farzandlik munosabatiga xos samimiy, chin insoniy muhit yaratilgan. Shuning uchun ham, u kitobxonni rom qiladi, ishontiradi. G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasidan bilishimiz mumkinki, asar qanchalik badiiy mahorat bilan yozilganligini. Asardagi mehribon buvining insoniylik tuyg'ulari yoki o'g'rining "o'g'ri bo'lsa-da, andisha" qilishi, urush davridagi insonlarning pok, insoniylik tuyg'ularini ko'rish insonni larzaga soladi. Asarning badiiy jihatdan uyg'unligi, insonni larzaga solish jihati ham, undagi insoniylik hamda mehr- oqibat

tuyg'ularinig borligi hisoblanadi. Ushbu hikoyani o'qib, urush davridagi qiyinchilik-qashoqlik, urushning qanday oqbatlarga olib kelishi, bir nechta bolalarning tirik yetim qolishi, ularni ota-ona mehridan mosuvo qilgan urush haqida yozgan she'rimni ham maqolaga joylashtirmoqchiman :

“Insonlarga iltimosim”

Tushunmasman, insonni aslo
Nima uchun nega talashgan.
Ayting axir bu urush bizga
Nega kerak, nima berolgan.
Aziz, muqaddasdir har inson joni,
Shodlik, quvonchda o'tsin har oni.
Nohaq to'kilmsin hech inson qoni.
Olamni tutmasin ohu-fig'oni.
Tinchlik ila uyimiz obod
Xalqlarimiz, ellarimiz shod.
Butun olam yashnar umrbod.
Urush noming bo'lsin bizga yot.
Iltimosim sizdan odamlar
Ozor bermang bir-biringizga
Bu dunyoda inson g'animat
Mehr bering bir-biringizga.

G'afur G'ulomning “Mening o'g'rigina bolam” hikoyasini hozirgi zamon huquqiy holat bilan talqin qiladigan bo'lsak, asarda ikki turdagi “jinoyat” ko'rsatib o'tilgan. Bularning birinchisi o'g'rilik. Ikkinchisi esa poraxo'rlik. Agar hikoayadagi jinoyatlarga hozirgi zamon qonunchiligi bilan javob beradigan bo'lsak, o'g'rining jazosi qanday bo'lardi. Yoki ellikboshi bo'lgan Rahmonxo'jaga qanday jazo berilardi. Bu haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman. Jinoyat kodeksining 169-moddasida o'g'rilik uchun qanday jazo berilishi haqida aytib o'tilgan.

O'g'rilik, ya'ni o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-toroj qilish —

bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Endi korrupsiya bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarga to'xtaladigan bo'lsak, Jinoyat kodeksining 210-moddasida ushbu holatning javobini ko'rish mumkin.

210-modda. Pora olish .

Mansabdor shaxs manfaatini ko'zlab amalga oshirishi kerak bo'lgan yoki qilishi mumkin bo'lgan muayyan harakatni bajarish yoki bajarmaslik evaziga pora olish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi. shaxsan yoki vositachi orqali pora bergan shaxs bu qonunga zid ekanligini bila turib, moddiy boylik olgan yoki mulkiy manfaatdor bo'lsa, -

asosiy hisob-kitobning ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki muayyan huquqlardan mahrum qilib, besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Albatta G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikyasida bunday turdagi katta jinoyatlar sodir etilmagan. Lekin agar ushbu jinoyatlarni hozirgi zamon huquqi bilan talqin qiladigan bo'lsak, shu turdagi jazo bilan jazolanardi. G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasini ham huquqiy jihatdan , ham insoniylik jihatdan talqin qilib ko'rdik. Asardagi eng asosiy narsa, urush davrida , qahatchilik davrida ham insonlarning bir – biriga bo'lgan mehr-muhabbati, ularning insoniylik tuyg'ulari asarning yanada jozibali bo'lishiga o'z hissasini qo'shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'afur G'ulom . Tanlangan asarlar. Nazm va nasr.- T.:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi, 2012- y. 352-bet.
2. G'afur G'ulomning badiiy mahorati: Ilmiy maqolalar to'plami/Nashr.tayyorl. N.Bozorova, T. Matyoqubova . – Toshkent : Toshkent davlat yuridik universiteti , 2021.-240b.
3. G'afur G'ulom xotiralarda : to'plam/ Nashrga tayyorlovchlar : N.Ramazonov, L.Ilhomjonov. O'zR Adliya vazirligi , TDYU.-Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2021.-208b
4. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.

“G’AFUR G’ULOM “MENING O’G’RIGINA BOLAM” ASARI TO’G’RISIDA”

Mamatkulova Sitora Uktamovna

Toshkent davlat yuridik universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mashhur yozuvchi O‘zbek xalqining sevimli yozuvchisi G‘afur G‘ulom ijodining nazariy asosi yoritib berilgan. Shuningdek, yozuvchining hayot yo‘li, ijodi haqida batafsil ma‘lumotlar tahlil qilingan. “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasida o‘sha davrni naqadar chiroyli tasvirlab bergani ko‘rishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: badiiy adabiyot, yozuvchi, nasr, she‘riyat, o‘g‘rigina bola, qayg‘u.

O‘zbek xalqining taniqli va sevimli yozuvchisi G‘afur G‘ulomning she‘riyati va nasrida o‘zbek xalqi tarixi o‘zining badiiy timsolini topgan. Yozuvchining ijodi rang-barang — she‘rlar, qo‘shiqlar, dostonlar, qasidalar, hikoyalar, qissalar. G‘afur G‘ulomning urushdan keyingi davrdagi ijodi o‘zbek adabiyoti rivojida beqiyos o‘rin tutgan. G‘afur G‘ulom, shuningdek, Pushkin, Lermontov, Griboyedov, Mayakovskiy, Nozim Hikmet, Rustaveli, Nizomiy, Shekspir, Dante, Bomarshe va boshqalarning asarlarini o‘zbek tiliga mohirona tarjimasini bilan mashhur. G‘afur G‘ulom 1903 yilning 10 may kuni Toshkentda, dehqonlar oilasida tug‘ilgan. Uning otasi savodxon bo‘lgan.

U o‘zbek va tojik mumtoz adabiyotini o‘qigan, rus tilini bilgan, o‘zi ham she‘rlar yozgan. Uning uyiga Muqimiy, Furqat, Asiriy, Xislat va boshqa shoirlar kelib turgan. 1916 yilning kuzida G‘afur o‘qishga kiradi. Onasining vafotidan so‘ng (otasi avvalroq vafot etgan), u ishlashga majbur bo‘lgan. Ko‘plab kasblarda o‘zini sinab ko‘rgach, u nihoyat, matbaaga harf teruvchi bo‘lib ishga kiradi, so‘ngra, pedagogik kurslarda tahsil oladi. 1919 yildan 1927 yilgacha u o‘qituvchi, maktab direktori, Ma‘naviyat uyushmasi ishchilari raisi bo‘lib ishlaydi, bolalar uyini tashkil etishda faol ishtirok etadi. 1923 yildan G‘.G‘ulomning adabiy faoliyati boshlanadi.

She'rlar, dostonlar, ocherklar, hajviy hikoyalar va qissalari gazeta va jurnallarda chop etila boshlaydi. 1923 yil yozilgan —Feliks farzandlari she'rida yetim bolalar haqida gapirarkan, unda yozuvchi o'z hayotini ifodalaydi, —Maorif va o'qituvchi oynomasida esa —Go'zallik qayerdal nomli ikkinchi she'ri nashr qilinali. Birin- ketin she'riy to'plamlari bosmadan chiqadi: —Dinamol, —Xitoy suratlaril, —Biz sizlar bilan tirikmiz, —Jonli qo'shiqlaril, —Sizga, —Sovg'a, —Tong qo'shig'i, —Qo'qon dostoni va boshqalar.G'afur G'ulomning 30-yil boshlarida yozilgan she'rlarida yangi shakllarga burilish seziladi, bunga mumtoz rus tilini o'rganashi ham muhim darajada ta'sir ko'rsatgan. Bundan tashqari, sanoatning o'sishi, Turksib temir yo'l magistralining qurilishi kabi uning ona yurtida sodir bo'layotgan ajoyib o'zgarishlarni ta'riflash uchun yangi lug'at boyligi, yangi she'riy bo'yoqlar, yangi ohang va vazn talab etilgan.—Dinamo, —Tirik qo'shiqlar — yosh shoirning yo'nalishi yorqin namoyon bo'lgan birinchi she'riy to'plamlari.

G'afur G'ulom ko'pgina lirik-dramatik yo'nalishdagi hikoyalar ham yozdi. Ularda inson fojiasini va ularni shu holga solgan muhit, sharoitni ko'rsatdi. U 1965 yili «Mening o'g'rigina bolam» lirik-dramatik va «Hasan Kayfiy» yumoristik hikoyasini e'lon qildi. Birinchisiga yozuvchi voqeyiy hikoya, ikkinchisiga esa, xalqimizning yumoristik ertaklaridan, deb izoh beradi. Ikkalasi ikki xil ifoda yo'sinida yozilgan, lekin ikkalasi ham jahon hikoyachiligi darajasidagi yetuk, mukammal asarlardir. Ularda G'afur G'ulom ijodining yuragi bo'lmish insonparvarlik ruhi baland jaranglaydi. U mehnatkash, pok, halol, o'z aql-farosati, o'zining peshona teri bilan kun kechiruvchi va hayotni, jamiyatni mukammal qilishga intilgan insonni faol himoya qildi, uning taqdiri, buguni va ertasi uchun san'atkorlik qalbi bilan umr bo'yi kurash olib bordi.

Jumladan, «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasida o'zi guvoh bo'lgan oddiy voqea asosida shafqatsiz jamiyatni va shunday sharoitda ham o'zining insonligiga, mehr-oqibatiga zarracha putur yetkazmagan insonni ko'rsatadi. Yozuvchi o'z otanasi o'lib, uchta singlisi bilan katta onasi — «qora buvisi» qo'lida qolgan paytidagi uylariga o'g'ri kelishi voqeasini so'zlaydi. Birinchi jahon urushi payti, «zamon chappasiga ketgan» vaqt, barcha kosiblar singan, ish yo'q hamma och-yalang'och.

Oddiy kosib, ishsiz yigit ikki bolasi, xotini, onasini boqa olmay, o'g'irlik qilishga majbur bo'ladi. Kechasi «Qora buvi» ning tomiga chiqqanida qo'qqisdan aksirib yuboradi. Yetimlar taqdirini o'ylab, mijja qoqmay yotgan «qora buvi», «O'g'rigina bolam, axir kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo'lmaydimi!»,- deydi. «Qora buvi»ning mehribonona, samimiy

munosabati o'g'rining ham xasrat qopini ochib yuboradi. U tomda, kampir pastda dardlashadilar, urushning kasofati, xalqning qashshoq hayoti, shaharning yetimga to'lib ketgani, xullas, osmon uzoq yer qattiqligi to'g'risida suhbat quradilar. O'g'rining so'zidan ellikboshilarning poraxo'rliigi ham, boylaru amaldorlarning, tuzumning shafqatsizligi ham oshkor bo'ladi. Yozuvchi ayni paytda, shu kambag'allarda insoniylik, odamiylik, mehr-shafqat tuyg'usi saqlanib qolganinitta'kidlaydi: «qora buvi» o'g'rini uyida bor bo'lgan ikkitagina zog'ora non bilan choy ichishga taklif qiladi, u esa «Meni tanib qolasiz, juda ham yuzimni sidirib tashlaganim yo'q andisham bor, uyalaman», deydi. «Qora buvi» uyda yarim pudlik qozon bor, hozir bunda ovqat pishirishga masalliq ham yetmaydi, «qutlug' uydan ko'ruq ketasanmi, bolam... Shuni obketaqol. Sotib kuningga yaratarsan, o'g'rigina bolam», deydi. O'g'ri kunmaydi, kelajakda yaxshi kunlar kelishiga umid bildiradi. Ko'rinadiki, hikoyada ona – farzandlik munosabatiga xos samimiy, chin insoniy muhit yaratilgan. Shuning uchun ham, u kitobxonni rom qiladi, ishontiradi.

G'afur G'ulom so'nggi nafasigacha ijod etdi, mehnat qildi. Uzoq yillar davomida O'zbekiston Fanlar akademiyasining til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishladi. Badiiy asarlar bilan bir qatorda ko'plab ilmiy maqolalar yozdi, tarjimalar qildi. O'zining asarlari ham o'nlab tillarga o'girildi. Mehnatlari evaziga u O'zbekiston Fanlar akademiyasiga haqiqiy a'zo etib saylandi. Respublika Oily kengashiga deputat bo'ldi. Unga «Ozbekiston xalq shoiri» yuksak unvoni berildi. Badiiy asarlari sovetlar mamlakatining eng yuksak mukofotlariga sazovor bo'ldi. Uning o'n ikki jilddan iborat mukammal asarlar to'plami bosilib chiqdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil. -300 bet.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to‘plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.
3. Jumaboyev M. O‘zbek bolalar adabiyoti. –T.: O‘qituvchi, 2002, -290 bet.
4. Jumaboyev M Bolalar adabiyoti. –T.: O‘qituvchi, 2011, 260 bet.

A PIECE FROM THE LIFE OF GAFUR GHULAM

Kayumova Farzona

Student of Tashkent State Law University

Annotation: This article contains brief information from the life of Gafur Ghulam, in which the main reasons for entering literature are given. In addition to this, a view of respect for Gafur Ghulam was also highlighted. means light and temperature.

Keywords: Deep power, charm Ghafur Ghulam, atmosphere without light.

This is the deep power, charm, and dazzling beauty of Gafur Ghulam's poetry." Abdulla Qahhor XX century world literature gave many great writers and poets. Uzbek poet Gafur Ghulam has his own place, image and voice in this colorful and rich literary city, which cannot be compared to anyone else. According to sources, Gafur G "Ulom was born in 1903 in Shaikhontohur district of Tashkent city. Gafur Ghulam's father was literate, and until 1908 he was a clerk in the local department of the city дума, Gafur Ghulam writes in his autobiography titled "My Past and Forgiveness", "My father is well-educated, speaks Uzbek, Tajik he knew and spoke a little Russian. He wrote poems under the pseudonyms Mirza and Ghulam. They used to say that many poets and calligraphers from Tashkent, such as Shamurod Khatib, Mukumi, Tashkhoja Asiri, Furqat, and Muhiy from the Ferghana Valley, came to our house. Gafur Ghulam's mother was a lover of oriental poetry who could also read books in Persian Tajik languages. Benazir was a gifted Gafur Ghulam. He considered Nizami, Lutfi, Mashrab, Bedil, Muqumi, and Furqat as his spiritual teachers. He was inspired by them and wrote articles about them. Gafur Ghulam, who had a deep knowledge of the culture and history of Eastern philosophy, continued the traditions of classical literature. He made a great contribution to the rise of Uzbek literature to a new level. He is a writer who enriched Uzbek literature with his poetic works, and elevated it with his prose works. It is no exaggeration to

say that Gafur Ghulam was an encyclopedia of that time because he knew Uzbek classical literature well. There are several unrepeatable ways of showing deep respect to the word artist who made a worthy contribution to the development of the culture. As an example, the establishment of a house-museum in the house where Gafur Ghulam lived was a unique gift for his fans and lovers of literature in general. This museum started its activity in 1983 in connection with the 80th anniversary of the poet's birth. At the moment, this wonderful museum is functioning as a place of spirituality and virtue.

References:

1. <https://arboblar.uz/uz/people/gafur-gulyam>
2. <https://tafakkur.net/gafur>
3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Gafur_Gulom
4. <https://arboblar.uz/uz/people/gafur-gulyam>

G`IJJAK IJROCHILIGI DARSLARIDA MUMTOZ ASARLARNING IJRO YO`LLARINI O`ZLASHTIRISH

Husanov Anvarxon Eshanxonovich

Qarshi ixtisoslashtirilgan san`at maktabi

"Xalq cholg`ulari" bo`limining g`ijjak mutaxassisligi o`qituvchisi

Annotatsiya: O`zbek xalq cholg`ulari ichida aynan g`ijjak sozi ovozing mayin va ta`sirchanligi bilan ajralib turadi. U sozlar ijrosining bir-biriga qo`shilib, silliqanib borishini ta`minlaydi, ohangga sayqal beradi. Har bir cholg`u sozi o`zining shakli va tuzilmasiga ega bo`lgani kabi g`ijjak ham ana shunday tashqi sifatlarga ega ekanligi aytib o`tildi.

Kalit so`zlar: mumtoz, milliy, g`ijjak, maqom, sozandalik, kasbiy malaka, bezak, shtrix, texnika.

KIRISH

G`ijjakda tovushhosilqiluvchivosita kamon (smichok) dir. Kamontuzilishigako`ra kamontayoqchasivaqillitoridaniborat. G`ijjakning yoqimli tovushi kamonning qay tarzda tortilishiga bog`liq. Kamon quyidagi besh qismga bo`linadi:

- 1) kamonning dastasi, (kamonning pastki yarmi);
- 2) kamonning uchi, (uning yuqori yarmi);
- 3) kamonningpastkiqismi- kamontoriningdastaga yaqin qismi;
- 4) kamonning o`rtasi;
- 5) kamonning yuqorigi qismi, ya`ni kamonning uch tomoni.

G`ijjakning chap oyoq ustiga qo`yib chalinadigan qismi podstavka deyiladi. G`ijjakda ovoz hosil bo`lishini ta`minlovchi kosa bo`lib, uning usti odatda baliqning terisi yoki biror-bir yurak pardasi bilan qoplangan bo`ladi. Shuningdek, chap qo`l harakatlanadigan dasta, to`rtta sim, torlarni tortib turuvchi quloqlar hamda xarraklardan iborat. Ustki va pastki xarraklar torlarning kosa terisi va dastaga tegib

qolmasligi, ularning erkin harakatlanishini ta'minlaydi. Pastki xarrak qoplangan terining o'rtasiga qo'yilib pastida simlarni bog'lab turuvchi moslamalar mavjud. Yuqoridagi xarrak, odatda, shayton (ko'zga ko'rinmas) xarrak deb yuritiladi.

ASOSIY QISM

To'rtta sim pastki moslamalar bilan yuqoridagi quloqlarga birlashtiriladi. Shunda simlarning chalinadigan va chalinmaydigan qismlari paydo bo'ladi. Simlarning katta xarrakdan toki bog'lab turuvchi moslamalargacha bo'lgan, shuningdek, shayton xarrakdan toki quloqlargacha bo'lgan oralig'i ham chalinmaydi. Ohang shayton xarrak bilan asosiy xarrak oralig'ida tarang tortilgan simning tebranishidan hosil bo'ladi.

G'ijjakning to'rtta simi (tori) mavjud bo'lib, birinchi tor, ingichka simi «MI»– II-oktavaga; birinchiga nisbatan yo'g'onroq bo'lgan ikkinchi tor, «LYa»– I-oktavaga; yanada yo'g'onroq bo'lgan uchinchi tor «RE»– I-oktavaga va nihoyat eng yo'g'on to'rtinchi sim

«Sol»– kichikoktavaga sozlanadi. Barmoqlarni bosish natijasida simlar borgan sari qisqarib boradi va ularning tovushi ingichkalashib, pardalar bo'yicha balandlashadi.

G'ijjak sozida chalish, boshqa cholg'u sozlari kabi qo'llar va barmoqlarning to'g'ri harakatlanishi, gavda holatlarining unga moslashtirilishini talab etadi [2].

Gavda oyoq, qo'l va barmoqlarning erkin holati tovushning yoqimli, ijroning mukammal bo'lishini ta'minlash bilan birga, ijro yuzasidan mantiqiy fikr yuritishga ham imkon yaratadi.

G'ijjak cholg'u sozini chalish texnikasiga xos muhim element o'ng qo'lning to'g'ri ishlatishidir. Bunda qo'lning yelka tirsakkacha bo'lgan qism harakati shuningdek, panja hamda barmoqlar harakatidan iborat asosiy uch qism holat namoyon bo'ladi. Ijro zarurati, ehtiyojiga ko'ra o'ng qo'lning muayyan qismlari harakatga keltiriladi. Shu tariqa kuyni chalish uchun zarur bo'luvchi tovushlar hosil qilinadi. O'ng qo'lning esa yelkaning bo'sh, erkin holatini ta'minlash, tirsakni erkin bukib barmoqlar bilan g'ijjak dastasining yuqori qismi ushlanadi va panja tirsak bilan bog'lanish qismida kichik barmoqqa tomon egiladi.

Pardalar (simlar)ni bosishda barmoqning yumshoq (yostiqcha) qismi bilan bosish va imkon qadar har bir pardada tebratma hosil qilishga erishish zarur. Bu holat mumtoz kuylarning ta'sirli ijro etilishini ta'minlaydi. Aynan shu tebratmaning bo'lmasligi o'zbek mumtoz kuylarini chalishga zidligi, u elementlarsiz musiqiy asarlar ta'sirchanligining pasayishini talabalar yaxshi bilishlari lozim. Kuyni bu kabi mezon, nola, shtrix va tebratma kabi bezaklar asosida chalish uning badiiy qiymatini belgilabgina qolmay, ijroning muvaffaqiyatli chiqishiga yordam beradi.

G'ijjak kuyning yuksak mahorat bilan ijro etilishini ta'minlovchi bir qator texnik imkoniyatlarga ega. Ular haqida qisqacha to'xtalib o'tish o'rindir [4].

Kuyni yuksak mahorat bilan ijro etilishini ta'minlovchi texnik imkoniyatlar, shtrixlardan biri - bu «detashe» bo'lib, u kamonning dastasidan to uchigacha bo'lgan oraliqda bir tekisda, uzmasdan, torta olishga asoslanadi. Asar sur'ati va xarakteriga ko'ra detashe kamoni butunicha yoki ayrim qismlaridan foydalanish orqali amalga oshadi.

Kuyni mahorat bilan ijro etilishida «markato» belgisiga amal qilish ham muhim ahamiyatga ega. Bu belgidan foydalanishda kamoni simga imkon boricha yopishtirib, to'liq tortib chalish maqsadga muvofiqdir. Kamonning harakati almashtirilganda ham kamoni simdan uzmaslikka harakat qilish lozim. Bunda har bir nota aksent bilan bog'lanib so'ngra asta-sekin so'nib boradi.

«Legato» shtrixi esa tovushlarni urg'usiz, bir-biri bilan birlashtirib chalinishini ifodalaydi. Bunda kamon harakati almashinishining sezilmasligi, urg'usiz kechishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Bunday harakatlanish mumtoz asarlar ijrosidagi murakkab harakatlarni yuksak mahorat bilan bajarishga imkon beradi.

«Detashe» va «legato»larning bir-biriga bog'lanib kelishi ayniqsa maqomlarda ko'p uchraydi.

Mumtoz asarlar ijrosida ham ba'zan aniq, keskin uzish hollari kuzatilib, u g'ijjak sozi ijrosidagi «martele» belgisi asosida amalga oshiriladi. «Martele» shtrixida ijro etish ba'zan mardonavorlik, jasurlik, shijoat ruhiyatiga ega asarlarda kuzatilsa, ba'zan raqs xarakteridagi asarlarda ham ko'zga tashlanadi [5].

«Stakkato» bu keskin uzib-uzib ijro etishni talab qiladigan belgi sanalib ijro darajasini kasbiy nuqtai nazaridan tahlil qilishda stakkato ham muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA MUNOZARA

Keyingi vaqtlarda g'ijjak kamoni ham skripkaga o'xshatib, tori(qillar)ga tegmasdan dastaga barmoqlarni tekis joylashtirib chalish usuli ommalashib bormokda. Garchi kamonniyangicha ushlab usuli rikoshet, yuguruvchi stakkatolarni olishda texnik jihatdan qulay bo'lsada, mumtoz kuylarni ijro etuvchilar qadimiy usulni qo'llash maqsadga muvofiqligi hamda texnik qiyinchiliklarni bartaraf qilishga yordam berishini qayd etib o'tish zarur.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. – T.: Sharq nashriyot-manbaa konserni bosh tahririyati, 2018. – 239 b.
2. Kavkabi M. Musiqiy risola //Trans. persdan. Rashidova D.A. Qo'lyozma, ilmiy tadqiqot kutubxonasi. inst. San'at tanqidi. Inv. № 508.
3. Karimova Z.B. Nawai musiqada. - T .: Izd.let. va ularga san'at. G. Gulyama, 2018. - 143 b.
4. Karomatov F.M. Xalq musiqasi // O'zbek musiqasi tarixi. Tuzuvchi: T.E. Solomonova. - T .: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va sanat nashriyoti, 2011. - 27 - 34-b.
5. Maqomlar, mug'omlar va zamonaviy bastakor ijodi. - T .: G. G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2018. - 134 b

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DANIDAN INTERFAOL METODLARNING QO`LLANILISHI

Bozorboyeva Dilkushodxon Xamidjonovna

Asaka tumani 7-maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari va afzalliklari xususida so`z yuritiladi.

Kalit so'zlar: maktab, ta'lim-tarbiya, interfaol, o'qituvchi, o'quvchi, ma'naviyahloqiy tarbiya dars, metod.

KIRISH

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnoma, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardan oq «dars» degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari lozim. Bugungi kunda o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun tajribali o'qituvchilarturli didaktik o'yinlardan foydalanishmoqda. Interfaol metod - ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordamberadi. Uning asosiy mezonlari - norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat.¹

¹ Abdullayeva Q. va boshqalar "O'qish ktobim" 2- sinf, T. 2016 yil. 37-b.

Interfaollik, bu - o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bundan o'quv- biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi - o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik - o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi - o'qituvchi, o'quvchi - o'quvchi suhbatlarida sodir bo'ladi. Interfaol metodlarning bosh maqsadi - o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni hosil bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik (fikrlash, izlash, topish) suhbat - dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni hosil qilish va yechish orqali kreativ - ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi.²

ASOSIY QISM

O'qituvchilarning matematika fanlarini o'qitishda yo'naltirilgan darslar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi.³

Ta'lim jarayoni o'quv materialini mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayyan mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini ifoda etish imkonini beradi. Ta'lim mazmunida, shuningdek, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, ko'nikma hamda malakalarning hajmi ham o'z ifodasini topa olishi lozim. Zero, ta'lim mazmunining g'oyaviy jihatdan mukammalligi

² Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent. 2016. 61-b.

³ Sherqulov. M. Ma'ruza matni dan, Toshkent: 2016. 18-b.

o'quvchilar tomonidan muayan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish darajasi bilan belgilanadi. Buning samarasi o'quvchilar tomonidan ma'lum tushunchalarning o'zlashtirilishi, ko'nikma va malakalarning shakllanishini ta'minlovchi shartlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi. Aynan darsning shakli, metod va vositalari ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli ta'minlanishiga olib keladi. Ular yordami bilangina o'quv predmetining mavzusi borasidagi nazariy bilimlar o'quvchilarga uzatiladi, o'quvchilar tomonidan esa ushbu bilimlar qabul qilinadi. Dars mashg'uloti uchun eng maqbul deb topilgan shakl, metod va vositalarning belgilanishi ta'lim jarayonining qariyb 90 foizlik muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati aynan mana shu bosqichda ochib beriladi. O'quvchilarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi dars jarayonini samarali, qiziqarli, bahs-munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki beradi. Mana shu holatdagina o'quvchilar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, o'qituvchining zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, umumiy faoliyatni nazorat qila olish, murakkab vaziyatlarda yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahatlar berish, hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash

borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi. Matematika darslarida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish usullarini ko'rib chiqamiz.

“Fikriy hujum” metodi. Mazkur metod o'quvchilarning darslar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi.

“6x6x6” metodi. “6x6x6” metodi yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarining har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rta tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarining har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangidan shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

“Klaster” metodi. Klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini

ta'minlashgaxizmat qiladi.⁴ Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlar va o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. "Zakovatli zukko" metodi. Mavjud bilimlarni puxta o'zlashtirishda o'quvchlarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega. "Zakovatli zukko" metodi o'quvchilarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o'z bilimlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'quvchilar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga qaytarilgan to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi. Metod o'quvchilar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo'llanilishi mumkin.⁵ "Charxpalak" metodi. "Charxpalak" texnologiyasidan o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida, dars boshi va oxirida, biror bo'lim tugatilganidan keyin, o'tilgan mavzularni o'zlashtirganlik darajasini baholashda, takrorlash, mustahkamlash, oraliq va yakuniy nazoratlarni o'tkazishda foydalanish mumkin. Mashg'ulotlarni yakka va guruh shaklida tashkil etsa bo'ladi. Qolaversa, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamragan holda turli mazmun va xarakterga ega mavzularni o'rganishda ham asqotadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori № 5
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2010.
3. Tolipov O'. Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: "Fan". 2015.
4. Sherqulov. M . Ma'ruza matni dan, Toshkent: 2016.

⁴ Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2010. 332-b.

⁵ Tolipov O'. Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: "Fan". 2015. 52-b.

DEVELOPING SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE OF THE YOUNG LEARNERS WITH INTERNET RESOURCES

Lola Ortukova

UZSWLU Master Department Student

Annotatsiya

Ushbu maqolada yosh o'quvchilarning ijtimoiy-lingvistik kompetentsiyasini Internet resurslari orqali rivojlantirish to'g'risida muhokama qilinadi. Maqola talabga ko'ra annotatsiya, kalit so'zlar, kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: sotsiolingvistika, kompetentsiya, yosh o'quvchilar, internet resurslari, modernizatsiya, ta'lim, ijtimoiy

Аннотация

В данной статье рассматривается развитие социолингвистической компетентности младших школьников с помощью интернет-ресурсов. Он включает, как требование, аннотацию, ключевые слова, введение, основную часть, заключение и список литературы.

Ключевые слова: социолингвистика, компетентность, младшие школьники, интернет-ресурсы, модернизация, образование, социальные

Annotation

This article discusses the Developing sociolinguistic competence of the young learners with internet resources. It includes, as a demand, annotation, keywords, introduction, main part, conclusion and reference list.

Keywords: sociolinguistics, competence, young learners, internet resources, modernization, education, social

Introduction

It is commonly known that, Significant changes in the direction of education, its goals and content are reflected in various program documents and Federal State Educational Standards. Was accepted Federal Law "On Education", developed the

“Concept of Modernization national education for the period up to 2010”, in which a special attention is paid to changing the educational paradigm. For many years, the pedagogical community has accepted the so-called ZUN-paradigm of the result of education, according to I.A. Zimnyaya, which included "theoretical substantiation and definition of the nomenclature of the hierarchy of knowledge, abilities, skills, methods of their formation, control and evaluation" [1]. Now the goal of education, which correlates with the main task - to ensure the entry of a person into the social world and help him adapt in it, is to obtain a more complete personal and socially integrated result.

“This becomes possible with a competency-based approach. The concept of “competence” / “competence” acted as a general definition of such of the integral social-personal-behavioral phenomenon, as a result of education in the aggregate of motivational-value, cognitive components”. Thus, a new paradigm was formed the result of education.

Literature review

Competency-based education has been developing since in the 70s of the last century in America. 1. In 1965, N. Chomsky introduced the concept of "competence" in relation to the theory of language, transformational grammar . Then comes the concept of "communicative competence"

2. (D. Himes), in 1970–1990 the concept of “social competencies / competencies” was developed. Researchers both in the world and in Russia distinguish from 3 to 37 (J. Raven) species. Education is based on the fact that the formation competencies become the end result of the education process. For different types of activities, researchers identify different types of competencies.

So, for example, the Council of Europe (1990) for linguistic competence / competence identifies strategic, social, sociolinguistic, proper linguistic and educational activities.

Methods

Let us proceed directly to the definition of the sociolinguistic competitions and its formation among schoolchildren participating in educational and international project implemented between school number 12 in Perm.

(Russia) and the Borbeck Gymnasium for Girls in Essen (Germany)

Program for the exchange of students between these educational institutions is has been going on for three years now. Participants of the program live in guest rooms for ten days, families, get acquainted with everyday life, attend training sessions and participate in real life cultural program. However, the main role in the program for exchange is played by the joint project activities of Russian and German school children.

As you know, for the design method, the presence of problems is especially important. we, which is to be solved in the course of work. Before the first trip school children were interested in what the city of Essen could be interesting for participants in future trips. They were, in fact, the pioneers of data program and set ourselves the goal of creating, during the trip, Schuru "Our stay in Essen"

The participants of the next group (2014) drew attention to the fact the fact that the Ruhr area is Germany's main coal-mining zone, due to a large number of "dirty" industries was until 1950 environmentally the most unfavorable in the country. However, this did not prevent the city of Essen – one one of the largest industrial centers of the Ruhr - after 50 years the participants of the 2014 program from the German side thought out excursion program, which was closely related to the general theme of the project that. The topics of mini-projects were identified:

“Coal mining and steel viable industry of industrial production in the Ruhr area”, “Concern Thyssen-Krupp”, "Reconstruction of the former coal mines of the Ruhr on the example Zollverein mine”, “Restructuring of the former production and industrial buildings in Essen”, “Measures of environmental restructuring of Essen. The students worked in pairs: one participant from Germany, i.e.

Discussion

German is his native language, and the second language is from Russia, with his native Russian and German as a foreign language. Such pair work undoubtedly

contributes to no verbal communication and interaction. From the quality of performance of paired tasks depends on the collective result, which is a serious motivation for project participants. For them, not only self-esteem is important, but also the assessment of other project participants and project leaders.

Teachers from both German and from the Russian side

It is they who develop tasks for the participants` project, formulate a topic and help in solving an adequate problem. During the excursion program, defenses were held every day mini projects. So, during the presentation of the theme of the mini-project "Coal the steel and steel industries of the industrial production of the Ruhr areas" students focused on statistical data. In the museum "Zeche Zollverein" speakers gave an example of improving the quality of the environment living environment of the Ruhr area, namely, they told that the closed unprofitable coal mines and other industries have been converted in the centers of family and cultural leisure: rock climbing centers, museums, sports complexes, etc.

Results

The result of joint project activities was a brochure. "Industrial and environmental restructuring of the Ruhr area in the second swarm half of the XX century", which combined all abstract documents frets with photographic materials and statistical data.

Activities on the project theme had for Perm schoolchildren, undoubtedly of great practical importance, since the problem of environmental economic and industrial restructuring is also relevant for our city. to claim the title of "Europe's greenest city". How did it happen for such a relatively short period of time to change the ecological situation in a given industrial area? The solution to this problem formed the basis of a joint project activities of students from partner schools during the second visit and helped shape the theme of the forthcoming brochure Industrial and Environmental logical restructuring of the Ruhr area in the second half of the 20th century.

Conclusion

We consider it possible to conclude that the creation and implementation of such kind of international project in which participants develop as personal learn to communicate and interact as equal partners, commingled with the basics of research work, contribute to the solution of global scoring task of education - entry into the social community and productive adaptation of our students in this world.

Reference:

1. Zimnyaya I.A., Key competencies - a new paradigm of results education [Electronic resource]. – URL: <https://aspirant.rggu.ru/article/html?id=50758> (date of access: 02/05/2015).
2. Chomsky N. Aspects of the theory of syntax. - M., 1972.
3. Zimnyaya I.A., Sakharova T.E. Project methodology for teaching English language // Foreign languages at school. - 1991. - No. 3. - P. 9–15.
4. New pedagogical and information technologies in the education system education / E.S. Polat [i dr.]. – M.: Academia, 1999. – P. 58.
5. Dagbaeva N.Zh., Ovchinnikova M.F. Formation principles sociolinguistic competence at the initial stage of a language university // Science Vector [Electronic resource]. - 2012. - No. 1(8). - S. 103–106. – [URL:https://edu/tltsu.ru/sites/sites_content/site1238/html/media69595/029_dagbaeva.pdf](https://edu/tltsu.ru/sites/sites_content/site1238/html/media69595/029_dagbaeva.pdf) (date of access: 09.02.2015).

PROFILAKTIKA INSPEKTORLARI FAOLIYATIDAGI YUTUQLAR VA AYRIM AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR

Negmurodov Bekmurod Bobomurod o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV

Akademiya 307 guruh kursanti

Bahromov G'iyos Raimberdi o'g'li

Shirin shahar IIB JXX HPB profilaktika inspektori

ANOTATSIYA

Ushbu maqola orqali mualliflar huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid normativ huquqiy hujjatlarni, mamlakatimizda so'nggi yillarda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etishga doir huquqiy hujjatlarni, profilaktika inspektorlari oldida turgan ulkan ma'suliyatli vaziflarni yoritib o'tib, profilaktika xizmatini yanada xalqchil tuzilmaga aylantirish yuzasidan o'z fikr mulohazalari tavsiyalari bilan o'rtoqlashib o'tganlar.

Kalit so'zlar: Huquqbuzarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, professional tuzilma, platforma, kriminogen vaziyat, kompleks mexanizm.

АННОТАЦИЯ

Посредством данной статьи авторы освещают нормативно-правовые документы, связанные с профилактикой правонарушений, нормативно-правовые документы, касающиеся борьбы с преступностью и организации профилактики правонарушений в нашей стране за последние годы, огромные ответственные задачи, стоящие перед инспекторами профилактики, и о превращении службы профилактики в более популярную структуру, которые поделились своим мнением и рекомендациями

Ключевые слова: Преступность, профилактика преступлений, профессиональная структура, платформа, криминогенная ситуация, комплексный механизм

ANOTATION

Through this article, the authors shed light on the normative legal documents related to crime prevention, the legal documents related to the fight against crime and the organization of crime prevention in our country in recent years, the huge responsible tasks before the prevention inspectors, and about turning the prevention service into a more popular structure. who shared their opinions and recommendations

Keywords: Crime, Prevention of crimes, professional structure, platform, criminogenic situation, complex mechanism

Jahonda huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishning ta'sirchan tizimini yaratish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarga qonunga hurmat va qonun buzilishining har qanday ko'rinishiga murosasizlik munosabatini singdirish, profilaktik ishlarni muvofiqlashtirish, huquqbuzarliklar profilaktikasining zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qonunchilik normalari va ularni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq muammolarning ilmiy yechimini topish dolzarb hisoblanadi. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar sud-huquq sohasini demokratlashtirish va erkinlashtirishga, sud hokimiyatining fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirishga zamin yaratdi. Shu bilan birga, mamlakatni rivojlantirishning zamonaviy talablari va strategik ustuvor vazifalari sud-huquq tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi¹ Shuningdek, huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish tizimini takomillashtirish istiqbollari tadqiq etish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'tgan davr mobaynida respublikamizda huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib, bu boradagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yaxlit normativ-huquqiy baza shakllandi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining samarali faoliyati natijasida mamlakatda huquq-tartibot mustahkamlanib,

¹ Sh.M.Mirziyoevning "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 21.10. 2016 yil

kriminogen vaziyat sezilarli darajada yaxshilandi. Bugungi kunda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini tashkil etish uslublarini tubdan o'zgartirish, qonun buzilishi holatlarini fosh etish va choralar ko'rish emas, balki mazkur holatlarning barvaqt oldini olish va profilaktikasini ta'minlashni, ushbu idoralarning eng asosiy vazifasiga aylantirish, huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi chora-tadbirlarining samarali tizimini joriy etish, huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlari faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni keng yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda profilaktik chora tadbirlarin amalga oshirishda profilaktika inspektorlarining roli kengayib, ular mamuriy hududda mahalla raisi va uning o'rinbosarlari bilan birgalikda, har bir ko'cha, har bir xonadonga birma-bir kirib, fuqarolarning ijtimoiy ahvolini o'rganish, taklif va tavsiyalarini berishlari muhim masalalardan biri hisoblanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 26-martdagi **“Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 6196-sonli Farmoni** qabul qilingan bo'lib, ushbu farmonda ichki ishlar organlari tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan normalar o'z aksini topganligini ko'riishmiz mumkin. Shuningdek, ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida mahalla huquq-tartibot maskanlari bosqichma-bosqich tashkil etilishi, bunda:

- mahalla huquq-tartibot maskani hududdagi jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy quyi bo'g'ini hisoblanishi;

- mahalla huquq-tartibot maskani negizida hududdagi ichki ishlar organlarining tegishli sohaviy xizmatlari hamda Milliy gvardiya va boshqa davlat organlarining muvofiqlashtirilgan faoliyati tashkil etilishi;

- mahalla huquq-tartibot maskani tomonidan jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish ishlarini

tizimli tashkil etish va muvofiqlashtirish vazifasi profilaktika inspektoriga yuklanishi belgilab qo'yildi.

Ta'kidlash joizki, yurtimizda huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilish, jamoatchilik bilan aloqalarni yana-da mustahkamlash borasidagi ishlar yangi bosqichga ko'tarildi. Profilaktika inspektorlari faoliyati tizimini tubdan isloh qilishning huquqiy asoslari takomillashtirildi, tizim xodimlariga yangi vazifalar yuklatildi va xizmat olib borish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilmoqda²

Bugungi kunda profilaktika inspektori zimmasiga yuklatilgan barcha funktsiyalarni samarali bajarish har tomonlama hududda kriminogen vaziyatni o'rganishni, tahlil qilib borishni talab qiladi. Shunday ekan, o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda eng avvalo mahallada yashovchi, o'zining g'ayriijtimoiy xulq-atvori xavfliligi tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli holatida bo'lgan jismoniy shaxslarning turmush tarzini, mavjud muammolarni o'rganishi zarur. Ushbu toifadagi shaxslarning muammolarini Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi tegishli idoralar bilan hamkorlikda bartaraf etish hamda huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatishga, shuningdek ularga jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalarini singdirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi kerak.

Muhtaram Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev joriy yilning 12 fevral kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida mahallalarda va oilalarda ijtimoiy-ma'naviy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlarning oldini olish bo'yicha tizim yo'lga qo'yilmaganligi, oqibatda ayrim mahallalarda notinch oilalar, huquqbuzarliklar ko'payganligi, shuningdek, xotin-qizlar va voyaga etmaganlar orasida o'z joniga suiqasd qilish holatlari uchrayotgani juda achinarli ekanligiga e'tibor qaratdi.

² Yangi O'zbekiston gazetasi elektron Manbaa: <https://yuz.uz/uz/news/jamoat-xavfsizligini-taminlashda-profilatika-inspektorining-rol-i-qanday>

Ayni paytda, “Oila – muqaddas” degan azaliy va ezgu g'oya qadrsizlanib, ming yillik milliy qadriyatlarimiz zavol topar ekan, bu kabi og'riqli holatlarni kamaytirib bo'lmasligini, buning uchun mahalla katta ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqishi kerakligi, chunki faollar, ko'pni ko'rgan oqsoqollar, tajribali nuroniylarimiz, agar istasa, jamoatchilik bilan birgalikda har qanday muammoni hal qilishga, xato qilgan yoshlarni to'g'ri yo'lga solishga qodir ekanligiga to'xtalib o'tdi. Mahallada sodir etilgan har bir jinoyat favqulodda holat deb hisoblanishi kerakligiga urg'u berdi.

Yig'ilishda mahallalarning o'zida ham qator muammolar borligi qayd etilib, ularni qo'llab-quvvatlash, mahalla idoralarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash masalalariga ham e'tibor qaratildi.

SHuningdek, davlatimiz Rahbari mahalla raisining vakolat muddati uch yildan besh yilga o'zgartirilishi, uning uch nafar o'rinbosari lavozimi joriy etilishi, profilaktika inspektori endilikda mahalla raisining huquq-tartibot masalalari bo'yicha o'rinbosari bo'lib faoliyat yuritishi, u ham 5 yil muddatga tayinlanishi, inspektorni boshqa xizmatga o'tkazish yoki rotatsiya qilish faqatgina O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri o'rinbosari vakolatiga berilishi yuzasidan so'z yuritdi.

Haqiqatdan ham mahalla raisi yoki profilaktika inspektori o'ziga biriktirilgan hududda uzoq muddat ishlamas ekan, shu mahallaning aholisi, ularning muammolari, notinch oilalar, huquqbuzarliklar keltirib chiqaruvchi omillarni to'liq o'rganib ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'ra olmaydi.

Ayni paytda, mahalla raisining uch nafar o'rinbosari lavozimi joriy etilishi mahalla raisiga juda katta ko'mak bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shu vaqtga qadar mahallalarda jamoatchilik asosida tashkil etilgan komissiyalarning oilalarda ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirishdagi o'rni sezilmayotganligi hech kimga sir emas edi. Muhtaram Prezidentimiz aynan shu masalaga to'xtalar ekan, “mahallalardagi turli yo'nalishlar bo'yicha tashkil etilgan, biroq kutilgan samarani bermay kelayotgan 12 ta jamoatchilik komissiya va tuzilmalari ham optimallashtiriladi” – deya ta'kidladi.

Shuningdek yig'ilishda fuqarolar yig'inlarining faoliyatiga xos bo'lmagan 50 dan ortiq vazifa bekor qilinishi, profilaktika inspektorlariga yuklatilgan ortiqcha topshiriqlar ham keskin qisqartirilishi belgilandi. Shu vaqtga qadar profilaktika inspektorlari o'z vakolatlariga kirmaydigan vazifalarga jalb qilinishi, ular uchun yig'ilishbozlik va yo'riqnomalarning ko'payishi natijasida xizmat hududidagi oilalarni o'rganish, huquqbuzarliklar keltirib chiqaruvchi omillarni bartaraf etish masalalarida sustkashliklarning yo'l qo'yilishiga sabab bo'lmoqda.

Mahalla va oila masalalari vazirligini tashkil etish haqida taklif mutasaddi tashkilotlarning “bir yoqadan bosh chiqarib”, yagona maqsad yo'lida faoliyat ko'rsatishlarini ta'minlash, bir so'z bilan aytganda, joylarda muammolarni hal qilishning yaxlit va ta'sirchan vertikal tizim sifatida “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyiliga asoslangan yangi tizimni joriy etish, ushbu noyob tuzilmaga hurmat tuyg'usini shakllantiradigan sahna asarlari va badiiy filmlar yaratish yuzasidan bergan ko'rsatmalari – Davlatimiz rahbarining chuqur va puxta o'ylab qabul qilgan qaroridir.

Profilaktika inspektorlari hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 13 ta moddasiga asosan o'z vakolati doirasida qaror qabul qilsa, videoselektor yig'ilishida ushbu raqamni 30 tagacha oshirish masalasi ilgari surildi.³

Manashunday ustuvor vazifalardan hozirgi kunda profilaktika inspektorlariga qo'yilayotgan asosiy talablardan kelib chiqqan holda biz eng avvalo profilaktika inspektorlarini yanda xalqchil ish faoliyatini olib borayotganligini beg'araz xolisona baholash maqsadida, Respublikamiz uchun yagona platforma baza yaratilishini bu platforma orqali har bir fuqoro o'zi istiqomat qiluvchi hududiy profilaktika inspektorining ish faoliyatida, xalq bilan uzluksiz va sifatli ishlayotganligini holisona baholanishini ochiq dasturda kuzatib borishlari mumkin bo'ladi. Bu platformada natijalariga ko'ra yuqori ko'rsatkichga erishgan profilaktika

³ O'zbekiston Respublikasi IIVning rasmiy veb sayti elektron Manbaa: <https://iiv.uz/news/profilaktika-inspektorlarining-faoliyati-bilan--bogliq-ezgu-tashabbuslar->

inspektorlarini mukofotlash uchun taqdim etish, mazkur platformada salbiy natija ko'rsatgan hodimlarni ish faoliyatini tekshirib, agarda haqiqatda intizombuzarlik hollatlari aniqlanadigan bo'lsa ularga nisbatan intizomiy jazo choralarini qo'llash amalyotini joriy etishimiz maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz. O'ylashimizcha bu platforma profilaktika inspektorlarini yanada xalqchil ishlari uchun turtiki bo'lib xizmat qilar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoevning "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 21.10. 2016 yil
2. Yangi O'zbekiston gazetasi elektron Manbaa: <https://yuz.uz/uz/news/jamoat-xavfsizligini-taminlashda-profilatika-inspektorining-rol-qanday>
3. O'zbekiston Respublikasi IIVning rasmiy veb sayti elektron Manbaa: <https://iiv.uz/news/profilaktika-inspektorlarining-faoliyati-bilan--bogliq-ezgu-tashabbuslar->

TEZKOR BO'LINMALARNING JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIGI

Raximov Muhammadnosir Isomiddinovich

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Akademiyasi 3-o'quv kurs 302 guruh kursanti

Erkinjonov Nurmuhammad To'lqinjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Akademiyasi 3-o'quv kurs 303 guruh kursanti

ANOTATSIYA

Ushbu maqola orqali mualliflar tezkor bo'linmalarning jamoatchilik bilan hamkorligini, tezkor qidiruv faoliyati to'g'risida qonunchilik hujjatlaridan foydalangan holda tushunchalarni yoritib o'tib, tezkor qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ko'maklashuvchi shaxslar bilan ishlashga doir adabiyotlarda keltirilgan ta'riflarni yoritib o'tishgan.

Kalit so'zlar: tezkor bo'linmalar, jamoatchilik bilan hamkorlik, kooperativ tashkilot, tezkor qidiruv faoliyati, ko'maklashuvchi shaxs, ikkiyuzlamachilik.

АННОТАЦИЯ

Посредством данной статьи авторы освещают вопросы взаимодействия оперативных подразделений с общественностью, понятия оперативно-розыскной деятельности с использованием законодательных документов, а также приведенные в литературе определения работы с лицами, оказывающими содействие органам, осуществляющим оперативно-розыскную деятельность.

Ключевые слова: оперативные подразделения, сотрудничество с общественностью, кооперативная организация, оперативно-розыскная деятельность, помогающий человек, лицемерие.

ANNOTATION

Through this article, the authors shed light on the cooperation of operational units with the public, the concepts of operational search activity using legislative documents, and the definitions given in the literature on working with persons assisting the bodies implementing operational search activities. bitten.

Key words: operative units, cooperation with the public, cooperative organization, operative search activity, helping person, hypocrisy.

O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyasining 121-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy kooperativ tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo‘linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko‘rsatishi ta‘qiqlanadi.¹

Tezkor qidiruv faoliyati to‘g‘risidagi qonunning 3-moddasiga ko‘ra **Tezkor-qidiruv faoliyati** tezkor qidiruv faoliyati to‘g‘risidagi qonun bilan maxsus vakolat berilgan davlat organlarining tezkor bo‘linmalari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlari o‘tkazish orqali amalga oshiriladigan faoliyat turidir.

Ushbu qonunning 10-moddasida tezkor qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib unga ko‘ra quyidagi organlarga tezkor qidiruv faoliyatini amalga oshirishga haqlidir:

- ✓ O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining;
- ✓ O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining;
- ✓ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining;
- ✓ O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy razvedkasining;
- ✓ O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining;
- ✓ O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining;
- ✓ O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining organlari amalga oshiradi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi elektron manbaa: Lex.uz sayti <https://lex.uz/docs/-20596>

Ushbu qonunning 23-moddasiga ko'ra tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ko'maklashayotgan shaxslar davlat himoyasida bo'ladi. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ko'maklashayotgan shaxslar tezkor-qidiruv faoliyati uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan belgilangan miqdorlarda taqdirlanish huquqiga ega. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ko'maklashayotgan shaxslarning, shuningdek ular oila a'zolarining hayotiga, sog'lig'iga yoki mol-mulkiga haqiqiy tahdid yuzaga kelgan taqdirda, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar ularga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda maxsus himoya chora-tadbirlarini ko'rishi shart.

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ko'maklashayotgan shaxs tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda ishtirok etishi bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, bu uning mehnat qilish qobiliyatini yo'qotishiga hamda nogironlikka olib kelgan taqdirda, ushbu shaxsga qonunchilikka muvofiq bir yo'la beriladigan nafaqa to'lanadi hamda nogironlik pensiyasi tayinlanadi.

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ko'maklashayotgan shaxs tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda ishtirok etishi bilan bog'liq holda halok bo'lgan taqdirda, marhumning oila a'zolariga va qaramog'ida bo'lgan shaxslarga qonunchilikka muvofiq bir yo'la beriladigan nafaqa to'lanadi hamda boquvchisini yo'qotganligi munosabati bilan pensiya tayinlanadi.

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ko'maklashayotgan, uyushgan jinoiy guruh, jinoiy uyushma orasiga ularni fosh qilish maqsadida kiritilgan shaxs qonunda belgilangan tartibda qilmishning jinoiylikini istisno qiladigan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, qonunga xilof qilmishlari uchun jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.²

Tezkor-qidiruv amaliyoti guvohlik berishicha jinoyatchilikka qarshi kurashish vazifalarini samarali hal etishda ko'maklashuvchi (*ko'maklashmoq*- yordam,

² Tezkor qidiruv faoliyati to'g'risidagi 2012 yil 25 dekabrda qonun elektron manbaa: Lex.uz sayti <https://lex.uz/docs/-2107763>

ko'mak bermoq yordamlashmoq)³ shaxslar institutidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Rossiya xavfsizlik xizmatining sobiq rahbarlaridan bo'lgan V.F.Grushko, "Nooshkora yordamchilar kuchidan foydalanmasdan jinoyatchilik terrorizm uyushgan va transmilliy boshqa o'ta og'ir jinoiy va ko'rinishlarga qarshi samarali tashkil etishning iloji yo'q" deb ta'kidlagan edi. Ko'maklashuvchi shaxslar institutidan foydalanish har bir davlatning mazkur sohadagi zarur amaliyoti hisoblanib, jinoyatlarni fosh etish imkoniyatini oshiradi. Masalan, AQShda Federal Tergov Byurosi (FTB) tomonidan 85% dan ortiq og'ir jinoyatlar ko'maklashuvchi shaxslar yordamida fosh etiladi.⁴

Shu bilan birga, yaqin o'tmishimizning ayrim bosqichlarida ko'maklashuvchi shaxslar institutini tugatishga urinishlar bo'lgan bo'lib, G.K.Sinilovning yozishicha, o'tgan asrning 60-yillarida davlat rahbarlarining jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamkorlikning nooshkora shakllaridan foydalanishdan voz kechishga va bu funksiyani jamoatchilik tashkilotlariga topshirish borasidagi o'ylamasdan qilingan harakatlari oqibatida ko'maklashuvchi shaxslar tarmog'i qariyb vayron etilgan bo'lib, buning natijasida jinoyatchilikning keskin oshib ketishi va uning ochilish darajasi pasayib ketishi kuzatilgan.

TQFnı amalga oshiruvchi organlarga ko'maklashuvchi shaxslar bilan ishlash TQFnıng o'zagini tashkil etadi. Shu bilan birga, mazkur institut TQFnıng boshqa yo'nalishlari va shakllari ega bo'lmagan ayrim xususiyatlarga egaligi bilan ham ta'riflanadi. Jumladan, mazkur soxadagi fuqarolarni maxfiy hamkorlikka jalb qilish jarayonida o'ziga xos (huquqiy, ahloqiy, tashkiliy-taktik va boshqa) mustaqil mavqega ega bo'lgan subyekt namoyon bo'ladi. Bir tomondan, ko'maklashuvchi shaxs ijtimoiy munosabatlar sub'ektlarining huquqiy holatiga ba'zan kuchli tasir etuvchi davlat-huquqiy faoliyatida bevosita ishtirok etadi. Boshqa tomondan, ular davlat hokimiyatiga tayanadigan biror-bir maxsus vakolatga ega bo'lmaydilar. Natijada ularning huquqiy tabiati qarama- qarshi va aniq belgilab berilmagan ijtimoiy munosabatlar sub'ektlari sifatida namoyon bo'ladi.

³ O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 ga yaqin so'z birikmasi. /Ma'sul muharrir A.Madaliyev. – T.: 1997.-C 73.

⁴ Qarang: Grushko V.F. Судьба контрразведчика.-М...1997.-С.73.

Shuningdek, ko‘maklashuvchi shaxslar bilan ishlash faoliyatining ob‘ektiv mohiyatidan, uning dolzarbligini oshiruvchi bir qator xususiy holatlar kelib chiqadi. Ular avvalo, quyidagilardir:

1. Jinoyatchilikka qarshi kurashda ko‘maklashuvchi shaxslar bilan ishlash institutini keng qo‘llash orqali TQF vazifalarini to‘liq ko‘lamda hal etish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, bu jarayonda fuqarolarni hamkorlikka jalb etish, ularga rahbarlik qilish va hokozo kabi ulkan ishlar bajarilishi lozimligini unutmaslik kerak
2. Ko‘maklashuvchi shaxslar bilan ishlash institutining TQFning boshqa yo‘nalishlari (vositalar, shakllar, TQT va h.k) bilan qiyoslaganda o‘ziga xos xususiyatga egaligi. Ushbu ishlar bilan shug‘ullanish uchun tezkor bo‘linmalar rahbarlari va xodimlarining nihoyatda cheklangan doirasiga ruxsat etiladi. Bu bilan mazkur ishning jinoyatchilikka qarshi kurashdagi samaradorligi ta‘minlanadi, Biroq bir vaqtning o‘zida uni amalga oshirilishi ustidan nazorat qilishning an‘anaviy shakllaridan foydalanish murakkablashadi.
3. Ko‘maklashuvchi shaxslar jinoyatchilikka qarshi kurashda maxsus vakolati bo‘lmagan holda, to‘liq ravishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi maqomiga ega bo‘lgan jamoatchilik vakili sifatida maxfiy hamkorlikda ishtirok etadilar. Biroq bunday hamkorlikning o‘zi ham ba‘zida ularning shaxsiy manfaatlariga putur yetkazishi xam mumkin. Bular harakatlanish erkinligi va turmush tarzining cheklanishi; murakkab vazifani bajarish vaqtida salomatligining yomonlashuvi, fosh bo‘lib qolgan taqdirda sog‘lig‘iga va hatto xayotiga xavf tug‘ilishi mumkinligiga oid holatlar. Shu bois, tezkor xodimning o‘zaro hamkorlik doirasida xizmat burchini mas‘uliyatsizlarcha, chuqur o‘ylamasdan bajarilishi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Ko‘maklashuvchi shaxslar instituti samaradorligini oshirish, avvalambor, ularning gumonlanuvchi shaxslar bilan ishonchli munosabatlar o‘rnatishlari hisoblanib, ular tekshirilayotgan shaxslarga, ularning muayyan xatti-harakatlar qilishga moyilligiga qarab, bevosita ruhiy, ma‘naviy va boshqacha ta‘sir ko‘rsatishlari mumkin. Mazkur ishning bunday xususiyati, uning ko‘maklashuvchi shaxs yoki tezkor xodim

tomonidan notog'ri bajarilishi, qonuniylikning qo'pol ravishda buzilishiga olib kelishi mumkin.

4. Ko'maklashuvchi shaxslar tarkibining ijtimoiy va shaxsiy tavsifdagi muayyan xususiyatiga to'xtalsak, bir tomondan qaraganda ko'maklashuvchi shaxslar TQFni amalga oshiruvchi organlar shtatida turmaydilar. Shuning uchun, ular bilan zarur darajada intizom va tartibotni ta'minlash maqsadida rasmiy tarbiyaviy xizmat shakllari va usullaridan foydalanishning imkoniyati yo'q. Ikkinchi tomondan aynan ular, doimiy ravishda, jinoiy unsurlar tomonidan salbiy tekshiruvga duch kelib, ba'zida ular ta'siriga tushib qoladilar va natijada o'z majburiyatlariga vijdotsizlarcha yondashish, soxta axborot berish va ikkiyuzlamachilik qilish yo'liga o'tishlari mumkin.⁵

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi elektron manbaa: Lex.uz sayti <https://lex.uz/docs/-20596>
2. Tezkor qidiruv faoliyati to'g'risidagi 2012 yil 25 dekabrda qonun elektron manbaa: Lex.uz sayti <https://lex.uz/docs/-2107763> Jinoyat huquqi Maxsus qism darslik M.X.Rustambayev Toshkent 2018. 10 bet
3. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 ga yaqin so'z birikmasi. /Ma'sul muharrir A.Madaliyev. – T.: 1997.-C 73.
4. Qarang: Grushko V.F. Судьба контрразведчика.-М...1997.-С.73.
5. Tezkor qidiruv faoliyati darslik Vahobjon Karimov Toshkent 2021 yil O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura akademiyasi elektron manbaa: <https://proacademy.uz/postfiles/books/iv/qh/index.html>

⁵ Tezkor qidiruv faoliyati darslik Vahobjon Karimov Toshkent 2021 yil O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura akademiyasi elektron manbaa: <https://proacademy.uz/postfiles/books/iv/qh/index.html>

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING SODIR ETILGAN JINOYATLANI ISSIQ ISSIQ IZIDAN FOSH ETISH YUZASIDAN HARAKATLARI

Panjiyev Bunyod Ilhom o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV

Akademiya 3-o'quv kursi kursanti

ANOTATSIYA

Ushbu maqola orqali muallif jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarni barvaqt profilaktika qilish, profilaktika inspektorining sodir etilgan jinoyatni issiq izidan ochish yuzasidan ko'radigan chora-tadbirlari, jinoyatchilikka qarshi kurarishdagi asosiy vazifalar nima ekanligini yoritib, profilaktika inspektorining o'zaro hamkorlik yo'nalishlarini tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Jinoyat, huquqbuzarlik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, jinoyatni issiq izidan fosh etish, ichki idoraviy va idoralararo hamkorlik, jinoyatchilikni jilovlash.

АННОТАЦИЯ

Посредством данной статьи автор освещает вопросы борьбы с преступностью и раннего предупреждения правонарушений, меры, принимаемые инспектором профилактики по выявлению совершенного преступления, каковы основные задачи в борьбе с преступностью, направления взаимного сотрудничества инспектора по профилактике.

Ключевые слова: Преступность, преступность, профилактика правонарушений, раскрытие преступлений, внутриведомственное и межведомственное взаимодействие, борьба с преступностью.

ANNOTATION

Through this article, the author sheds light on the fight against crime and the early prevention of violations, the measures taken by the prevention inspector to

detect the committed crime, what are the main tasks in the fight against crime, and the directions of mutual cooperation of the prevention inspector are analyzed.

Key words: Crime, crime, crime prevention, crime detection, internal departmental and interdepartmental cooperation, crime control.

Bugungi kunda yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, yoshlar o'rtasida xalqimizga yot g'oyalar tarqalishining tobora kuchayib borayotganligi huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga o'z vaqtida ularning oldini olish va ularga barham berish bo'yicha yangi vazifalarni qo'ymoqda.

Chunki, Jinoyatlar o'z-o'zidan sodir etilmaydi. Asosiy masala jinoyatlarning oqibatlari bilan kurashish emas, balki barvaqt oldini olish, sodir etishga imkon bergan sabab va shart-sharoitlarni o'z vaqtida bartaraf etishdan iboratdir»¹.

Jinoyatni issiq izidan ochish deganda jinoyat sodir etilishi bilan darhol bir sutka 24 soat ichida ochilishini tushunilish lozim. Jinoyatni tez va to'la ochish eng avvalo ko'p jinoyatlarda hodisa sodir bo'lgan joyni sifatli ko'zdan kechirishga bog'liq bo'ladi.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish kechiqtirib bo'lmas tergov harakati bo'lib, jinoyat alomatlariga ega hodisaning natijalarini maqsadga muvofiq ravishda faol o'rganishdan iborat.

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirganda quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- 1) umumiy xolatni va natijalarini hisobga olish;
- 2) hodisa to'g'risidagi izlar va boshqa axborot manbalarini qidirish, ularni qayd etish, olib qo'yish, dastlabki tadqiq qilish, baho berish va saqlab qo'yish;

¹Тартиб-интизом ва масъулиятни кучайтириш, жиноятчиликнинг олдини олиш мухитини мустахкамлаш – ҳуқуқбузарлик профилактикаси самарадорлигининг асосий омилдир // Халқ сўзи. – 2017. – 15 нояб.

- 3) hodisa, uning qatnashchilari to'g'risida barcha faktik ma'lumotlarni yig'ib, ularni tahlil qilish, hodisa va uning qatnashchilari to'g'risida ta'rifga ega bo'lish va shu asosida zaruriy tasmollarni ishlab chiqish hamda tergov yo'nalishlarini belgilash;
- 4) jinoyat izlarining «issig'ida» tezkor-qidiruv choralari va tergov harakatlarini o'tkazish uchun zarur ma'lumotlar olish;
- 5) hodisaning salbiy oqibatlarini o'rganish (agar bunday oqibatlar mavjud bo'lsa).

Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish kechitirib bo'lmas tergov harakati sifatida barcha hollarda, agar izlarning aniqlanishiga, tadqiq etilishiga va saqlanishiga doir zudlik bilan chora qabul qilish lozim bo'lsa, jinoyat alomatlarini qayd qilish maqsadida o'tkaziladi. Garchi hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish hodisa joyini bevosita o'rganishda asosiy vosita hisoblansa ham uning har qanday jinoyat bo'yicha o'tkazilishi tavsiya etiladi. Hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish O'zbekiston Respublikasi JPKning 135-137, 141-moddalarida ko'rsatilgan.

Kriminalistikada hodisa sodir bo'lgan joy bilan jinoyat sodir bo'lgan joy o'rtasida farq borligi qayd etilgan. Hodisa sodir bo'lgan joy bu ma'lum ochiq joy yoki xonadon bo'lib, aynan o'sha joyda jinoyatning alomatlari yoki izlari topilgan deb xisoblanadi. Jinoyat sodir bo'lgan joy deb esa aynan jinoyat yuz bergan joy ataladi. Hodisa joyini ko'zdan kechirish murakkab, katta hajmli harakatdir. Uning murakkabligi obyektlarning ko'pligi va ko'zdan kechirish vazifalarining ko'pligi, hodisa joyida bo'lgan sharoitlarning meteorologik omillarga ko'ra o'zgarishi, ayrim ob'ektlarning xususiyatlari, odamlarni ataylab yoki ehtiyotsizlik bilan qilgan harakatlari sababli o'zgarishi, ish faoliyatining uzunligi hamda chigal vaziyatlarda katta ruhiy ezilish kabilar bilan belgilanadi.

Va shu guruhining hodisa sodir bo'lgan joyda qanday harakat qilishi to'g'risidagi yo'riqnoma mavjud. Navbatchilik qismi xodimi hodisa to'g'risida habar olganidan so'ng quyidagi harakatlarni amalga oshiradi:

- 1) habar bergan shaxsning o'zi kim, hodisa qayerda sodir bo'lgan va qanday harakatlar sodir etilgan, bu harakatlarni kim sodir etgan yoki sodir etishi mumkin, o'sha shaxsning tashqi qiyofa belgilari, qaerga qochib ketganligi qayd qilinadi;

2) hodisa sodir bo'lgan joyga zudlik bilan tergov-tezkor guruhini jo'natadi, hudud profilaktika inspektorini jinoyat sodir bo'lgan joyga yuboradi yoki unga bu haqda habar qiladi. Ayrim hollarda o'zining yordamchisini jinoyat sodir bo'lgan joyga yuborib, boshqa jinoyatlar sodir etilishiga qarshi choralar ko'radi, hodisa sodir bo'lgan joyni qo'riqlash tadbirlarini belgilaydi;

3) boshqa ichki ishlar organlarini hodisa to'g'risida habardor qilib, ularga jinoyatchilarning tashqi qiyofalari, ular olib ketgan buyumlar va transport vositalarining belgilari to'g'risida va jinoyatga aloqador boshqa ma'lumotni beradi, ularni ushlab olish maqsadida hodisa joyiga va jinoyatchilarning paydo bo'lish ehtimoli bo'lgan joylarga qidiruv guruhlarini yuboradi;

4) tergov-tezkor guruhi bilan muntazam aloqa qiladi, unga zaruriy yordam ko'rsatadi, bu guruhdan keladigan axborotning tekshirilishini tashkil qiladi, kriminalistik va tezkor xisoblar bo'yicha axborotni tekshiradi;

5) hodisa to'g'risida ichki ishlar organi rahbariyatiga habar beradi.

Hodisa sodir bo'lgan joyga chiqqanda tergovchi va kinolog mumkin kadar xizmat kiyimida bo'lishlari lozim..

Tergov-tezkor xodimlari hodisa sodir bo'lgan joyga birinchi bo'lib yetib kelishganida quyidagi harakatlarni amalga oshirishlari, ya'ni jabrlanuvchilarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatishlari, jinoyat harakatlarini bartaraf etishlari va bu harakatlardan kelib chiqadigan zararni yo'q qilishlari, uni bartaraf etish borasida chora ko'rishlari, hodisa sodir bo'lgan joyni qo'riqlashlari, zarur bo'lsa bunga jamoat vakillarini jalb qilishlari yoki qo'shimcha kuchlarni chaqirishlari, hodisani o'z ko'zi bilan ko'rgan shaxslarni aniqlashlari, jinoyatda gumon qilingan shaxslarni ushlab choralarni ko'rishlari, barcha olib borilgan ishlar to'g'risida navbatchiga bayon qilishlari lozim bo'ladi.²

² Kriminalistik taktika darslik darslik IIV Akademiyasi Toshkent 2013 yil 67-69 betlar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tartib-intizom va mas'uliyatni kuchaytirish, jinoyatchilikning oldini olish muxitini mustahkamlash – huquqbuzarlik profilaktikasi samaradorligining asosiy omilidir [www.Xalq so'zi](http://www.Xalq-so'zi.uz). – 2017. – 15 noyab.
2. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanadataraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kabul kilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi [www. Xalq so'zi](http://www.Xalq-so'zi.uz). – 2017. – 8 dek.
3. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanadataraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. Prezident Shavkat Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi [www. Xalq so'zi](http://www.Xalq-so'zi.uz). – 2017. – 8 dekabr.

BERDAQ SHE'RIYATI OLAMIDA AYOL SIYMOSINING O'RNI

Xoliqova Gullola Yoqub qizi

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti talabasi

Email: xoliqovagullola0529@gmail.com

Adashboyev Imomjon Abduvohid o'g'li

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti talabasi

*Ilmiy rahbar: **Rismuhamedova Guljan Amanovna***

Annotatsiya: Qoraqalpoq adabiyotining yorqin namoyondasi, Amu sohili kuychisi-Berdaq (Berdimurod) Qarg'aboy o'g'lining she'riyatida ayol siymosi, uni ulug'lash va qadrlash, unga hurmat va ehtirom ko'rsatishni yoshlarga yanada anglatish maqsadida bugungi maqolamizni yozdik. Uning she'riyatida ayol, ona tasvirini tahlil qildik.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, go'zallik, do'stlik, insoniy fazilatlar, xulq-odob, haqqoniylik.

Annotation: We wrote today's article in order to make it more clear to young people about the female figure in the poetry of the son of Karakalpak literature, the singer of the Amu coast, Berdaq (Berdimurad) Kargaboy, to glorify and value her, to show her respect and reverence. We analyzed the image of a woman and a mother in his poetry.

Key words: patriotism, universal values, beauty, friendship, human qualities, manners, honesty.

Аннотация: Мы написали сегодняшнюю статью для того, чтобы донести до молодежи более ясное представление о женском образе в поэзии сына каракалпакской литературы, певца Амуйского берега Бердака (Бердымурада) Каргабая, прославить и оценить ее, показать ей уважение и почтение. Мы проанализировали образ женщины и матери в его поэзии.

Ключевые слова: патриотизм, общечеловеческие ценности, красота, дружба, человеческие качества, манеры, честность.

Qoraqalpoq xalqi adabiyoti tarixida o‘chmas iz qoldirgan shoir Berdaq she‘r va dostonlari xalq ommasining turmushini xolisona va haqqoniy tasvirlab berish bilan ajralib turadi. Berdaq inson o‘z faoliyatida, xatti-harakatida, maqsadiga erishishida erkin ekanligini yozadi. Berdaq ijodiy merosida axloq, xulq-odob, nafosat va go‘zallik masalalari muhim o‘rinni egallaydi. Uning she‘rlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, xalqlar do‘stligi, oddiy axloq qoidalari to‘g‘risida qimmatli fikrlar uchraydi. Berdaq xuddi Navoiy kabi odamlarni axloq-odobiga qarab, ularni ikkiga: yaxshi va yomonga bo‘ladi. Yaxshi inson deganda, u butun insoniy fazilatlarni o‘zida to‘plagan dono, aqlli, bilimdon, o‘zgalarga yordam beruvchi, fe‘l-atvori go‘zal kishilarni ko‘z oldiga keltiradi. Yomon odam esa Berdaq talqinida, xalq va jamiyatning, oilaning ofatidir, u xalqni ham, og‘a-inini ham, oilani ham qadriga yetmaydi. Berdaq ko‘p she‘rlarida bolalarni tarbiyalash, kattalarni, ayollarni, onalarni hurmat qilish, yosh avlodga vatanparvarlik, o‘z xalqiga muhabbat, xalqlar o‘rtasida do‘stlik va birodarlik g‘oyalarini singdirishga intildi.

Berdaqning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug‘orilgan adabiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy g‘oyalari hozirgi mustaqillik sharoitida ham o‘z tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Shoir Berdaq sahro kengligi va donoligini o‘zida mujassam etgan. Lekin XX asr qoraqalpoq adabiyoti tarixida Berdaq merosi bir-birini rad etadigan ziddiyatli qarashlarga sabab bo‘ldi. Mustaqillik davriga kelibgina berdaq ijodi to‘g‘risidagi ortiqcha bahslar to‘xtab, shoir merosining yangi qirralari ochildi. Berdaq ijodidan “KO‘RINDI” sherini bir mutola qilsak:

Dunyosi qursin, yo‘q unga poyon,
Tilim tutiladi, azob chekar jon,
Elim och, yalang‘och, g‘arib, notavon,
Keng yer yuzi ko‘zimga tor ko‘rindi.

Yorqanot uchadi, qizil, pari yo‘q,
Pari yo‘q, kori yo‘q yo hunari yo‘q,
Sovuqda ucholmas, holu sabri yo‘q,
Yoz qish kabi ko‘p dilozor ko‘rindi.

Yo'rg'ayu, tulporu ne-ne yugruk bor,
Odamizod shod chogida u darkor,
Bog'i eram, yo xiyobon, terakzor
Ko'zlarimga bir changalzor ko'rindi.

Keng dunyo menga tor, alomat bo'ldi,
Yo'llar tuman, qyun, chang bilan to'ldi,
Qizil gulday yuzlar somonday so'ldi,
O'tgan dunyo menga mozor ko'rindi.

Berdaqning hayot yo'li va ijodi haqida qancha ko'p so'zlasakda oz. Shuning uchun yoshlarimiz o'rtasida Berdaqning ijodini keng targ'ib qilish va asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish va yosh avlodga, yoshlarimizga, xalqimizga, ommaga tanishtirish lozim. Berdaq xalqning o'tli dardiga malham bo'lish, harorat bag'ishlash barobarida, kitobxonga hassos shoir dard-alamlaridan xabar yetkazishga qodir bo'lgan buyuk xalq kuychisidir. Buni yaxshi anglagan shoir o'z she'rlaridagi kechinmalar mohiyatiga ishora qilish orqali kitobxonni bilim olish uchun diqatini qaratish kerak bo'lgan nuqtalarga alohida urg'u berib asarlar, she'rlar yozgan.

Berdaq she'rlarida ota-ona, oila, el-yurt oldidagi burchi va mas'uliyati hamda vatanparvarlik kabi g'oyalarni ilgari suradi. Shu bilan birga uning asarlarida, ayol, ona va ona tabiat timsoli ham chuqur o'rin egallagan. Masalan shoirning Kelin, va Olti qiz nomli she'rlarida ayolning latofati, go'zalligi va tunganmas mehri yorqin ifoda etilgan. Ayniqsa shoirning Kelin nomli she'rida baxt ostonasiga endigina qadam qo'yayotgan yosh bir qizda mujassam bo'lgan barcha go'zallik, latofat, joziba aks ettirilgan. Shoir asarda kelinning har bir ishi elga ibrat ekanini ta'kidlaydi. U o'z she'rida bir qizning latofati butun jamoani qanchalik maftun etishi mumkinligini o'tkir aks ettiradi. She'rdagi yetuk juda aql-u o'ying deya ayol kishi tafakkurining qancha boy ekanligiga, uning ilm xazinasiga tunganmas ekanligiga ishora qiladi. Bundan tashqari shoir qalining ellik sigir oz deya ayol kishining qadr-qimmati

qanchalik yuksak ekanligi, uning bebaho xilqat ekanligini yana bir bora kitobxonga chuqur anglatishga urinadi. Shoir umumiy qilib aytganda bu she'rida nafaqat bir ayolning butun go'zalligini, xislatlarini tasvirlaydi, balki ayollarga, kelinlarga o'z qadrini bilish, o'z hayot yo'lida qanday yashash haqida ham maslahatlar va fikrlar berib o'tadi. Shoir ijodi juda serqirra va tunganmas-bitmas xazinadir. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlaymizki, Berdaqning asarlari va she'rlari bugunning kelishini intiqlik bilan kutgan zamonasining qiyinchiligiga sabr qilgan shaxs sifatida yoshlarimizga haqiqiy o'rnak bo'luvchi shaxs sifatida gavdalanadi. Har bir xalqning o'zligini, milliy mavqeyi va qadr-qimmatini dunyoga tanituvchi ulug' farzandi bo'ladi. Ularning qoldirgan o'lmas meroslari ayni xalqning nafaqat o'tmishini, balki buguni va kelajagini hma belgilaydi.

Biz ulug' shoir Berdaqni nafaqat qoraqalpoq, balki butun xalqimizning ana shunday ardoqli farzandlaridan biri sifatida doimo qadrlaymiz. Berdaq hayoti va ijodini targ'ib qilish biz yoshlar uchun shoirning she'rlarini yoshlar ishtirokida zamonaviy tarzda kuylanishi va mazmun jihatdan yuksakligi, asarlarida insoniylikni targ'ib qiluvchi qisqa metrajli roliklarni sahnalashtirish qisqa metrajli video lavhalarini ko'plab tayyorlash orqali adibning faoliyatini yoritsak ayni insoniylikni targ'ib qilgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. “Ma'naviyat yulduzlari” (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999-yil) kitobidan olindi.
2. Давкараев Н. Очерки по истории дореволюционной каракалпакской литературы?. Т., 1959.
3. Nurmuxammedov M. Qoraqalpoq adabiyoti tarixi. Т. 1978.
4. Tojiboyev A. Sir qo'shiqlari. Т. 1970.
5. Berdaq. Tanlangan asarlar. Т. 1978.
6. Kaipberganov T. Gumroxlari. Roman. Т., 1978.
7. <http://www.samdu.uz/>
8. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Berdaq>

**BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING O'QISH
SAVODXONLIGINI BAHOLASH - XALQARO TADVIQOTLAR
TAJRIBASIDA**

Kamolova Nafisa Turg'unboyevna.

Yangi asr universiteti

Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada bolalarning o'qish savodxonligini baholash mexonizmini hamda olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyati tekshirishning zamonaviy usullari ma'zmun mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro mezon, o'qish savodxonligi, xorijiy tajribalar, ta'lim sifatini baholash, pedagog kadrlarning malakasini oshirish, pedagogik kuzatuv.

**ASSESSMENT OF READING LITERACY OF PRIMARY CLASS
STUDENTS - AN INTERNATIONAL RESEARCH EXPERIENCE**

Kamalova Nafisa Turgunboyevna.

New Century University

Teacher of the Department of Pedagogy

Abstract: the article reveals the content of the mechanism of children's reading literacy assessment and the modern methods of checking the ability to apply the acquired knowledge in practice.

Keywords: international criteria, reading literacy, foreign experiences, evaluation of the quality of education, professional development of pedagogical personnel, pedagogical observation.

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir davrda kelajagimiz davomchilari bo'lmish yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim,

ko‘nikma va malakalarini shakllantirish hamda ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish, shu yo‘lda xalqaro tajribalarni o‘rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo‘nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi tashkil etilib, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish bo‘yicha¹ masalan,

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) — boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash;

The Programme for International Student Assessment— (PISA) 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash kabi ustuvor mezonlarda quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish belgilandi²:

PISA - The Programme for International Student Assessment — 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

TIMSS - Trends in International Mathematics and Science Study— 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash;

PIRLS - Progress in International Reading and Literacy Study— boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash;

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.

² PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy).

TALIS - The Teaching and Learning International Survey— rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish.

Xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda O‘zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi» ishlab chiqildi, unga ko‘ra, masalan; o‘quvchilar mustaqil ta’lim olishlari uchun elektron shakldagi ta’limni rivojlantirish, unda o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlar bo‘yicha savollar bazasini yaratish hamda boyitib borishda o‘quvlar tashkil etish kabilar belgilangan. Aynan PISA tadqiqoti baholash topshiriqlari to‘plamida test topshiriqlari, ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun so‘rovnomalar ustida amaliy mashg‘ulotlarda malaka oshirish kurs tinglovchilari bilan birgalikda quyidagilarni o‘z ichiga olgan ta’lim yo‘nalishida misol tariqasida “Falsafaviy kafe” topshirig‘i asosida tadqiqot olib borish lozim³: tadqiqot mavzusiga oid ilmiy-falsafiy, psixologik-pedagogik adabiyotlar, o‘quv-metodik qo‘llanmalarni ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil etish; pedagogik kuzatuv; pedagogik tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish; tadqiqot mavzusi bo‘yicha suhbatlar tashkil etish; tadqiqot natijalarini umumlashtirish.

Amaliy ishning ahamiyati: to‘plangan tajriba materiallarini tahlil qilish, umumlashtirish va ijodiy yondashish asosida ta’lim muassasalarida dars jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini xalqaro tadqiqotlar talabi darajasida tayyorlash va uning samaradorligini oshirish yo‘llari belgilanadi.

Misol uchun: “Falsafaviy kafe” topshirig‘i

Kompyuter texnologiyalari asosida ekranda oshxona va undagi o‘zaro suhbatlashayotgan xo‘randalar tasviri namoyishi taqdim etiladi, ma’lumotlarni aynan tasvirli rasmlar va u yerda berilgan matnli ilovalar, ko‘rsatilgan saytlar yordamida vazifa shartlarini bajarish lozim. Rasmi tasvirga yuzlanamiz: o‘ng

³“PISA-2018 Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari”: To‘plam – “Axborot-tahlil markazi” AQ. Astana. 2016-126 bet.

tomonda 3 nafar falsafashunos: Zenon, Konfutsiy va Bentam, xo‘randalar qatorida falsafa fakulteti o‘quvchilari ham joylashgan. Tasvirlarda olimlarning falsafiy qarashlari aks atgan masalalar matni berilib, o‘ng tomonida yechim topishda foydalanish uchun tarmoqdan giperilova qayd etilgan. 1-senariy ilovalarida: “Men boshqa odamlar bilan qanday munosabatda bo‘lishim kerak?”, “O‘zimizni qanday tutishimiz lozimligi to‘g‘risidagi g‘oyalar qayerdan chiqdi?”, “Odamlar har doim bir narsalar uchun tortishadi” kabi so‘roqlar ustida minglab yillar bo‘yi o‘ylanib kelgan, - degan fikrlar qayd etilgan. Har bir falsafashunos rasmining ustiga bosilsa, sahifa ochilib, ular haqida qisqacha tarixiy axborot va g‘oyalari mavjud bo‘lgan manbalar aks etadi. O‘quvchilarning ko‘pchiligi falsafa ilmi haqida fuzalolarning nominigina bilishi mumkin, ammo ularning hayoti, qarashlari va g‘oyalari to‘g‘risida to‘liq ma‘lumotlarga ega bo‘lmaydi yoki o‘qish vaqtida qunt bilan yondashmaydi. Shuning uchun tasvirlangan ilovalarda berilgan manbalarning qadimgi zamonga tegishli bo‘lishi va hattoki ayrim qarashlar juda eskirib ketganligi bois ham e‘tiborni jalb etishi murakkablik darajasida taqdim etilishi kerak. Tasvirli ma‘lumot bo‘yicha *topshiriq*: “O‘zing uchun xohlamaganingni boshqalarga ham ravo ko‘rma” nomli Konfutsiy ta‘limotiga oid matn qayd etilgan sayt dan: “Konfutsiy b.z.q.551-479 yillar oralig‘ida yashagan xitoy faylasufi. U uch yoshga to‘lganda otasi vafot etgan, shu sababli onasi bilan birga kambag‘allikni boshidan kechirib, voyga yetadi. Bu Xitoydagi qirg‘inbarot suronli va urush zamoni edi. Konfutsiy atrofidagi odamlarning qiynalayotganini ko‘rib, buni to‘xtatgisi keldi. U mavjud dunyoning tinchligi va rivojlanishini tiladi. Konfutsiy jamiyatni o‘zgartirish uchun har kim o‘zining yakka tartibini o‘zgartirishi lozim deb hisoblaydi. U bu ayniqsa, xulq-atvori oddiy odamlar hayotiga ta‘sir ko‘rsatadigan mulk egalariga tegishli deb hisobladi. Bizning asosiy maqsadimiz atrofimizdagi odamlar bilan kelishib yashash bo‘lishi lozim. Konfutsiyga mos kelishuvchanlikga erishishning ahamiyatli usullaridan biri “Ren” bo‘lib hisoblanadi, uni tarjima qilganda ma‘nosi “mehribonlik” degani, bir odamning ikkinchi odamga mehribonlik ko‘rsatishini bildiradi”.

I-So‘roq: “Falsafaviy kafe” saytining sahifasidan “Konfutsiy” ilovasini bosasiz va aks etgan “Ren” so‘zi orqali Konfutsiy nimani yetkazmoqchi bo‘lganligini topishingiz kerak. A. Tinchlik va rivojlanish. B. Suronli va urush zamonida yashagan. C. Mulk egalarining xulq-atvori. D. Odamlarga bo‘lgan mehribonlik. E. Kelishuvchanlik bilan hayot kechirish.

Shu kabi elektron shakldagi amaliy mashqlarni ham tahliliy izohlashlar orqali o‘rgatish asnosida Xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg‘or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta’lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo‘llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish maqsadida o‘qitishning innovasion usullaridan foydalangan holda o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha pedagog kadrlarning malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash masalalariga ijobiy yondashish – davr talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.
2. PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy).
3. “PISA-2018 Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari”: To‘plam – “Axborot-tahlil markazi” AQ. Astana. 2016-126 bet.
4. <http://www.tdi.uz/uz>
5. <http://markaz.tdi.uz/>
6. [Sobirovna, U. M. \(2022\). TEXNOLOGIYA FANI MASHG‘ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. *World scientific research journal*, 9\(1\), 220-224.](#)

MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK JIHLTLARI

Murodova Aziza Baxtiyorovna

Yangi asr universiteti Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi

Annatatsiya

Maskur maqolada maktabgacha ta'lim jarayonidagi pedagog-tarbiyachilarning kasbiy jihatdan shakillanib borishlarining pedagogic jihatlari yoritilgan.

Kalit so'z: tarbiya, alla, "ta'lim texnologiyalarining variativligi", "ta'lim traektoriyasi" va "ta'limni individuallashtirish".

Yangi O'zbekistonda o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali shakl va usullarni joriy etish hamda innovatsion g'oyalarni targ'ib etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish muhim vazifalarimizdan biridir. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, tashkilotlarni o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarni jalb qilish, ta'lim jarayonida innovation texnologiyalarni joriy etish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda. Bu vazifalarni samarali amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachi, uslubchi va psixologlari zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Bolalarga maktabgacha yoshidan boshlab zamonaviy ta'lim berish, ularni psixik, aqliy va ijtimoiy jihatdan faol rivojlantirish – xozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hal qilinishi kerak bo'lgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

L.R. Muminovanning ilmiy tadqiqotlari maktab yoshidagi bolalarning til rivojlanishidagi nuqsonlarni bataraf etishda pedagogik-korreksion faoliyatning nazariy asoslarini tadqiq etishga bag'ishlangan.¹³ Bundan tashqari, L.R. Muminova tomonidan maktabgacha umumiy va maxsus ta'lim

muassasalarining kata va tayyorlov guruh bolalari hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini xalq o'yinlari asosida rivojlantirish muammosi o'rganilgan. Bu maqsadda qadimiy va boy folklor merosimizdan bolalar o'yinlarining qo'shiq hamkorligida ijro etiladigan namunalari tanlab olinib, o'yinlarning tasnifi, ta'lim tarbiyadagi o'rni, shuningdek logopedik-korreksion ishda qo'llanish xususiyatlari va metodikasi taklif qilingan. Bunday o'yinlar bolalarning nutqiy, jismoniy, psixologik, ma'naviy rivojlanishida muhim o'rin tutishi tajriba-sinov ishlari yordamida aniqlangan.

G.E.Djanpeisova maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida matematik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish muammolarini tadqiq etgan. Muallif o'z tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda arifmetika va geometriyaga oid ilk bilimlarni shakllantirish yo'llari, vositalari hamda pedagogik shart-sharoitlarini tadqiq etgan. Bolalarda matematik bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish ularning aqliy rivojlanishi, o'zini anglashi, ijtimoiylashuvida muhim omillardan bo'lishini aniqlagan. Bolalarga interaktiv mantiqiy-matematik ta'limni tashkil etishda kompyuterli muhitning ahamiyatini alohida e'tirof etgan. Bolaning vositachi-personajlar orqali kompyuter bilan virtual tashkillashtiriladigan dialogi kompyuterni "jonlantirib", bolaning harakatlarini faol va ongli bo'lishini ta'minlaydi. G.A.Mardonovanning ilmiy tadqiqot ishi oilada bolalarni alla vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash muammosini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotchi allaning ijtimoiy-g'oyaviy mazmuni, tarbiyaviy ta'siri hamda "alla" so'zining etimologik ma'nosi va tarixiy shakllanishini pedagogik nuqtai nazardan talqin etgan. Bolalarni alla vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning falsafiy, pedagogik va psixologik holatini tahlil etib bolalarning yoshi, psixologik-ma'naviy rivojlanishi bo'yicha ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga yo'naltirilgan alla turlarini didaktik mazmuniga ko'ra tasniflagan. Bundan tashqari, "oila – mahalla – maktabgacha ta'lim muassasasi" o'rtasidagi hamkorlik faoliyati asosida bolalarni alla vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash samaradorligini oshirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmi takomillashtirilgan bo'lib, bolalarni alla vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash metodining

samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish muammosini G.M.Nazirova tadqiq etgan. Tadqiqotchi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda tizimli yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari va pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tavsiflab, ushbu jarayonlarni tizimli yondashuvga tayangan holda takomillashtirish modelini nazariy- empirik jihatdan asoslagan. Pedagogik jarayonni takomillashtirish modeli ta'limiy-tarbiyaviy faoliyat komponentlarining rivojlanish sohalari bilan o'zaro integratsiyalash, refleksiv uzviylikni ta'minlash hamda mustaqil faoliyatni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari bolalarda rivojlanish sohalari bo'yicha tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning integrativ-variativ dasturlariga asoslangan Play guruhlar faoliyatidagi kreativlikka ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan. G.M. Nazirova maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda bolalarning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan yoshga doir xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, bu yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati – o'yin. To'g'ri tashkil etilgan o'yinda esa bolaning jismoniy, aqliy va shaxsiy sifatlarining rivojlanishi, o'quv faoliyatiga tayyorlik shakllanishi va maktabgacha yoshdagi bolaning ijtimoiy muvaffaqiyatini ta'minlash uchun sharoitlar yaratiladi, - deb hulos qiladi.

N.Sh. Abdullayevaning maktabgacha ta'limni kreativ yondashuv asosida takomillashtirishga bag'ishlangan dissertatsiyasida maktabgacha ta'lim sifatini oshirish uchun o'quv dasturlarida bolalarning yoshi, psixologik va intellektual jihatlarini inobatga olish, ta'limni individuallashtirish va differensiyalashga asoslangan texnologiyalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida yetarli darajada foydalanish, bolalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan metodik ta'minotni ishlab chiqish va amalda joriy etish zaruriyatini asoslab berdi. Variativ yondashuvning asoslari sifatida "ta'lim texnologiyalarining variativligi", "ta'lim traektoriyasi" va "ta'limni individuallashtirish" ekanligini alohida ta'kidladi. Tadqiqotchi maktabgacha ta'lim

tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan rahbar va pedagog kadrlarning variativ yondashuvni amaliyotga joriy etish bo'yicha kompetensiyalarini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida variativ yondashuvli ta'lim dasturlarini amaliyotga samarali joriy etish uchun maxsus metodik qo'llanmalar va tavsiyanomalar ishlab chiqish hamda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari va multimedia vositalaridan keng foydalanish tavsiya qilingan.

D.A. Abdurahimovanning dissertatsiyasida maktabgacha yoshdagi bolalarni xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashni takomillashtirishning konseptual asosi bu jarayonning aksiologik, qadriyatli, tizimli-faoliyatli, rivojlantiruvchi komponentlariga pedagogik, psixologik, falsafiy, persektiv yondashuvlar integratsiyasiga ustuvorlik berishda muhim vazifa ekanligini aniqladi. Xalq og'zaki ijodi namunalari vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tizimini takomillashtirishda quyidagi tamoyillarni taklif qiladi:

- yaxlit yondashuv; tarbiyalanuvchiga pedagogik qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezuvchi, individual munosabatda bo'lishni talab etuvchi shaxs deb qarash;
- tarbiyaviy ish mazmuni, shakl va metodlarini tanlab olishda tabaqalashtirilgan yondashuv; tabiat bilan uyg'unlik; madaniyat bilan uyg'unlik;
- tarbiyaviy jarayondagi munosabatlarni tashkil etishga insonparvar yondashuv;
- qadriyatli-mazmunli yondashuv.

M.N. A'zamova maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab bolalarda do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish alohida ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etadi. Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida ular orasida do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlik muhitini vujudga keltirish nihoyatda zarur bo'lib, bunday ko'nikmalar ularning maktab hayotiga oson va samarali moslashishini ta'minlaydi. Tadqiqotchi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni do'stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikka o'rgatish orqali ularni intellektual rivojlantirish va birgalikdagi o'quv faoliyatiga tayyorlashning nazariy asoslarini

tahlil qilishga intilgan. Tadqiqotchi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanadigan bolalar, birinchi navbatda, do'stlar orttirish va ular bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga ehtiyoj sezishlarini aniqlagan. Maktabga tayyorlash jarayonida tarbiyalanuvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olishlari zarurligini nazariy jihatdan asoslab, ko'pgina qiyinchiliklar va ziddiyatlar bolalarni maktabga tayyorlash bosqichida vujudga kelishini didaktik jihatdan isbotladi.

A.E. Rustamova maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tilini o'qitishda talaffuzini shakllantirish va rivojlantirishga oid olib borgan ilmiy tadqiqotida bolalarning ilk nutqiy va talaffuz ko'nikmalari shu bosqichdan shakllanishini aniqlagan. Bu yoshdagi bolalarni o'qitish jarayonida idrok etish, xotirada saqlash, aniq va ravon talaffuz etish kabi lingvopsixologik xususiyatlarni alohida o'rganish taqozo etiladi. Bu yoshdagi bolalarning psixologik yosh xususiyatlarida o'yin faoliyati alohida o'rin tutadi. Shuning uchun ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalaridan foydalanish nihoyatda samarali bo'ladi.

D.T.Sabirova maktabgacha katta yoshdagi bolalarda tasviriy savodxonlik elementlarini shakllantirishga bag'ishlangan dissertatsiyasida berilayotgan nazariy bilimlar amaliyot bilan hamohang ravishda bo'lishi va ular maktabgacha ta'lim muassasalariga amaliyot chog'ida borilganda mashg'ulotlarni o'tish orqali mustahkamlanishiga e'tibor qaratib, bunda bolalar bilan o'tiladigan mashg'ulotlar jarayoniga o'yin vaziyatlarini olib kirish, interfaol usullardan, treninglardan foydalanish va ishlarni o'zaro musobaqa tarzida tashkil etish orqali ularning qiziqishini, faolligini oshirishga erishish zarur, degan xulosaga keldi. Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini takomillashtirish muammosining yechim yo'llaridan biri, eng avvalo, o'qitish va tarbiyalashning innovasion metodlarini amaliyotga joriy qilish – ta'lim jarayoniga tarbiyalanuvchi shaxsi va individualligiga yo'naltirilgan o'qitishning innovasion texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llanilishidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni interaktiv didaktik o'yinlar va materiallar asosida o'qitish – bola shaxsiga yo'naltirilgan ta'limni tashkil

etish imkonini beradi. Bunday o'quv mashg'ulotlari bolalarda katta qiziqish uyg'otib, o'yin davomida ortiqcha zo'riqishlarsiz mantiqiy hamda ijodiy fikrlash rivojlanadi, ijtimoiy faollik va axloq me'yorlariga rioya qilish ko'nikmalari tarbiyalanadi, tabiiy va ijtimoiy muhit to'g'risidagi tasavvurlari tartibga solinadi va tushunchalarni to'g'ri shakllanishi ta'minlanadi. Buning uchun tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitishda ularning o'zlari mustaqil ravishda emas, balki kattalar yordamida va rahbarligida nima qila olishlariga e'tibor qaratishi kerak bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017. – 592 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // O‘zR Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutq. – T.:O‘zbekiston, 2016. – 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2017. – 24-b.
4. Sadiddinov S.R. Qonun ustivorligi-taraqqiyot asosi. “USTOZLAR UCHUN” Respublika pedagoglar jurnali orqali ommalashtirgani uchun taqdirlanadi Dekabr 39-son 1-qism 02.12.2022.
5. Sadiddinov S.R. Turayeva D.R. Psixokonsultatsiya va psixokorreksiya (o'quv qo'llanma). O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil 25 noyabrdagi 388-sonli buyurug‘iga asosan.
6. Rahmatullaev Ch. Ilmiy ish olib borich asoslari (konspektiv kurs).-T.: TochDU nashriyoti, 1988.
7. Tulenov J.T.Dialektika nazariyasi. –T.: Fan, 2001.

Internet ma'lumotlari: Internet saytlari

www.tdpu.uz

www.pedagog.uz

www.Ziyonet.uz

www.edu.uz

tdpu-INTRANET.Ped

BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA INNOVATSION FAOLIYATNING SHAKLLANGANLIK BOSQICHI

Urazova Zulfiya Murtazayevna

Yangi asr universiteti

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Annatatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining zamonaviy yondashuv va metodlaridagi innovatsion bosqichda shakllanishlari yozilgan bo‘lib, hozirgi davr talablariga mos kadrlarni tayyorlash masalasi mulohaza qilingan.

Kalit so‘z: individuallik, metod, innovatsion, komponent, tizimli-yo‘naltirish, baholash, faoliyat.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, ta’limda innovatsion faoliyat va tadqiqotchilik xususiyatiga ega bo‘lmoqda. Aynan shuning uchun ta’limning pedagogik jamoalari, metodik xizmatlarining rahbarlari faoliyatida o‘qituvchilar tomonidan kiritilayotgan pedagogik innovatsiyalarni tahlil qilish va baholash, ularni muvaffaqiyatli ishlab chiqish va qo‘llash uchun zarur sharoitlarni yaratish, umumta’lim maktablarining bozor munosabatlariga o‘tishlari, ularning raqobatbardoshligi haqiqiy vaziyatni yaratadigan yangi turdagi, jumladan, nodavlat ta’lim muassasalarini yaratish muhim yo‘nalishga aylanmoqda. Innovatsion faoliyatni shaxsiy toifa, ijodiy faoliyatning yaratuvchilik jarayoni va natijasi sifatida talqin qilish mumkin. Tizimli-yo‘naltirilgan tadqiqot ishlarda innovatsion faoliyat kreativ paradigmaning shaxsiy, boshqaruvchi-kommunikativ va natijali tizimostilarining tahlilida ochib beriladi. Shaxsning innovatsion imkoniyatini yangi tasavvurlar va g‘oyalarni ishlab chiqish, asosiysi ularni amaliy shakllarda loyihalash, modellashtirish ijodiy qobiliyati shaxsning yangiga, shaxs bag‘rikengligiga, tafakkurining moslashuvchanligiga bog‘liq. Madaniy-estetik rivojlanganlik va ma’lumotlilik.

O‘z faoliyatini takomillashtirishga tayyorlik, ichki, mazkur tayyorlikni ta‘minlovchi vosita va metodlarga asoslanadi, rivojlangan innovatsion ong (innovatsion faoliyatning an‘anaviyga ko‘ra qimmatini, innovatsion ehtiyojlar, innovatsion xulq motivatsiyasi) kabi asosiy ko‘rsatkichlar bilan bog‘laydilar.

O‘qituvchi ijodiy imkoniyatining rivojlanishi prinsiplari quyidagilar hisoblanadi:

- ✓ pedagog shaxsining qadrliligini tan olishi prinsipi;
- ✓ “o‘zligini” ijodiy tushunish prinsipi;
- ✓ kompensatsiya prinsipi;
- ✓ individuallashtirish

prinsipi;

- ✓ ziddiyatlilik prinsipi;
- ✓ axloqiy bog‘liqlik prinsipi;
- ✓ kreativ ilhomlanish

prinsipi;

- ✓ refleksiya prinsipi;
- ✓ tizimni tanlash prinsipi.

Innovatsion faoliyatni amalga oshirish bosqichida refleksiya ikki jarayon bilan birga kechadi:

1) o‘qituvchi xuddi bashorat bosqichiga takroran qaytadi va u yerda konsepsiyaning alohida tashkil etuvchilarini kuzatadi;

2) ikkinchi jarayon o‘z faoliyatiga refleksiya bilan, ya‘ni maqsadni amalga oshirish jarayoni bilan bog‘liq: o‘qituvchi imkoniyatlari va tashqi sharoitlar bog‘liqligining tahlili sodir bo‘ladi, innovatsiyalar, malakalar, pedagogik amallar, mazmun tahlil etiladi. Ko‘rib chiqilgan innovatsion imkoniyat o‘qituvchi innovatsion faoliyati jarayonlari, xatti-harakatlari va xulqini belgilaydi. Innovatsion xulqi asosida pedagogik amaliyot sharoitlarida amalga oshiriladigan mukammallik ideali va qiymati yotadi. Bunday xulq muloqotda, o‘qitishda, o‘z-o‘zini belgilashda, refleksiv jarayonlar kechishida va boshqalarda namoyon bo‘ladi. Ixtiyoriy kasb egasi xulqini biz faoliyat asosida tahlil qilishimiz

mumkin.

Innovatsion faoliyat tushunchasi chegaralarini belgilashning izlanishi pedagogik faoliyat tuzilishini, uning innovatsion xususiyatini o'rganish bilan; innovatsion faoliyat komponentlarini o'zgarish va ajratish, innovatsion faoliyatda o'qituvchining vaziyati, o'qituvchining individual faoliyat metodini o'rganish, individual pedagogik faoliyat xususiyatlarini aniqlash, o'qituvchining innovatsion faoliyatini o'rganish va baholash, xorijiy pedagogik fikrda innovatsion jarayonlar tahlili va innovatsion modellar turlarini ajratish bilan bog'liq bo'lgan. Innovatsion faoliyat yangiliklarning yuzaga kelishi, ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi jarayonlari bilan tavsiflanadi. Innovatsion faoliyat: rivojlanayotgan innovatsion jarayon kuchlari va uning muhit bilan munosabatlarining xususiyati kabi ikkita omilga bog'liq. Ta'lim muassasasini boshqarish sharoitlarida bu, bir tomondan, tanlovning yoki yangilik ishlanmasining asoslanganligi, uni amalga oshirish, ikkinchi tomondan, o'quv-tarbiya jarayonining barcha komponentlari, o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalarning manfaatdorliklari, o'z-o'zini boshqarish organlarining qo'llab-quvvatlashlari. Innovatsion faoliyat refleksiya – shaxsning o'z izlanuvchilik-ijodiy faoliyatini anglashi, kreativ-qayta o'zgartirish faoliyati va birgalikdagi ijodkorlik tuzilishiga ega. Shuningdek, pedagogning kasbiy faoliyatdagi individualligini namoyon etish shakllarida ham to'xtalib o'tish lozim.

Pedagogik mehnatda o'qituvchining individuallashtirish jarayoni quyidagi turli ifodalarga ega bo'lishi mumkin:

- kasbiy xulq va faoliyatda o'xshamaslikning qisman yoki epizodik namoyon bo'lishi sifatida individual farqlar;
- kasbiy faoliyatda uzoq vaqt davomida barqaror saqlanadigan individual metod, kasbiy faoliyat usullari va vazifalarini individual umumlashtirish;
- o'qituvchi shaxs mehnatida betakrorligi, o'ziga xosligining ifodalanishi sifatidagi individuallik, individual kasbiy dunyoqarash, ko'pincha shaxsning mehnatidagi kasbiy turining individual varianti.
- Ijodiy individuallikning asosi samarali o'z-o'zini anglash hisoblanib, u

quyidagilarni nazarda tutadi:

- o‘zini boshqalar qiyoslaganda shaxs betakrorligini anglash;
- o‘zi to‘g‘risidagi kreativ ifodalanish va tasavvurlarning namoyon bo‘lishi;
- individual kreativ xususiyatlar yaxlitliligi va uyg‘unligi, ichki birligi;
- shaxs o‘z-o‘zini rivojlantirish, uning ijodkor sifatida shakllanishi jarayoni dinamikligi va uzluksizligi;
- shaxsning o‘z-o‘zini ta’kidlashi va o‘zining kompetentligini anglashi;
- ijodkorning o‘z-o‘zini amalga oshirishi va o‘zining ahamiyatligini shaxsiy va ijtimoiy aspektlarda anglash.

Shunday qilib, o‘qituvchining innovatsion faoliyati tuzilishi funksional komponentlar, mezon, daraja va tuzilish komponentlaridan iborat.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. S.R.Sadriddinov, D.Norqo‘ziyev. Deviant xulq-atvorli bolalar psixologiyasi bilan ishlash metodikasi (Uslubiy qo‘llanma), Al-Buxoriy universiteti Kengashida ma’qullangan. 2022 yil 28 fevral 7-sonli bayonnoma.

2. Мухамедова Д.Г. Социально-психологические особенности эффективной управленческой деятельности менеджера образования // Методика и технологии в образовании. - Воронеж, 2010 - №6. - С. 51-54.,

3. Налчаджян А.А. Психологические защитные механизмы // Самосознание и защитные механизмы личности.

4. Элмуратова Д. Бошланғич синф ўқитувчисининг инновацион фаолиятга касбий тайёргарлигининг асосий кўрсаткичлари. ТДПУ Илмий Ахборотномаси, илмий-назарий журнал. № 1. Б.63-68 Тошкент 2019

5. Элмуратова Д. Талабаларда креативликни ривожлантириш йўллари. Биология фанининг долзарб муаммолари ва уни ўқитишда инновацион технологиялар илмий-амалий анжуман материаллари тўплами .Б 138-141. ТДПУ. Тошкент 2017.

HERMAN VAMBERINING AMIR TEMUR HAQIDAGI MULOHAZALARI

Zikriyoyev Fozilxon Islom o'g'li

Tarix yo'nalishi talabasi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada vengriyalik tarixchi, sayyoh va olim Herman Vamberining “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” asaridagi Amir Temur shaxsi yoritilgan. qolaversa Vamberining Amir Temur shaxsi va faoliyati haqidagi fikr-mulohazalari, Amir Temur haqida yozilgan boshqa asarlar bilan solishtirilgan holda ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Herman Vamberi, “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” asari, Amir Temur, Movarounnahr, “Tuzuklar”, Mo‘g‘ullar, Amir Husayn, “ko‘ragon”, Sharafuddin Ali Yazdiy, A. Yakubovskiy.

Kirish: Vengriyalik sayyoh Herman Vamberi Eron va Turkistonga sayohati davomida nafaqat o‘sha davrdagi Turkistonni balki uning o‘tmishini ham tasvirlagan. Muallif “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” kitobida O‘rta Osiyo tarixi haqidagi qarashlariga katta ta’sir ko‘rsatdi. O‘rta Osiyoga Islom kirib kelishidan Shayboniyxonning vafotiga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan bu kitobni Vamberi asosan arab, fors, mo‘g‘ul va turk manbalariga tayanib yozgan bo‘lib, bundan tashqari 1863-yildagi sayohati davrida ko‘rgan va o‘zi uzoq yillik tadqiqotlari davrida to‘plagan qo‘lyozmalaridan foydalanilagan. Bu asarning qiymatiga beqiyos darajada ta’sir ko‘rsatadi. Kitobning o‘qishlilikini ta’minlaydi. Kitob “Arablarning hujum qilishi, islomning qabul qilinishi”, “Mo‘g‘ullar istilosi”, “Amir Temur”, “Temuriylar”, “O‘zbeklar va Shayboniy Muhammadxon” kabi bo‘limlardan iborat. Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi, Vamberi o‘zining kitobida nega aynan Movarounnahr tarixining ushbu tarixiy davrlarini yoritdi? Birinchidan, venger olimida tariximizning ushbu davrlari katta taassurot qoldirgan. Ikkinchidan,

Vamberi o‘z kitobida G‘arb kitobxon ommasi uchun qiziq va dolzarb mavzuni yoritishi kerak edi. Shuning uchun ham Movarounnahr tarixining Yevropaliklar uchun doim qiziq bo‘lgan davrlarini yoritgan. Movarounnahrda Islom qanday kirib kelgan, Sharqni tiz cho‘ktirgan, Chingizxonning Movarounnahrda yurishlari qanday ro‘y bergan, Oqsoq Temur va Temuriylar tarixi qanday bo‘lgani haqidagi savollar Sharq tarixiga qiziqadigan umuman tarixga qiziqadiganlarni o‘ylantiradigan savollardir. Misol keltiradigan bo‘lsak, birgina Amir Temur va temuriylar tarixiga bo‘lgan qiziqish Yevropada juda yuqori bo‘lib, XV asrdan hozirga qadar Temur tarixiga oid yuzlab tarixiy asarlar va sahna asarlari yaratilgan. Amir Temurning “Tuzuklari” esa Yevropada shuhrat qozongan. Usmonli turklar sultoni Boyazidni yengani sharafiga Fransiyada Amir Temurning oltindan haykalchasi yasaladi. Italian va ingliz dramaturglari Temurga bag‘ishlab pyesalar yozishadi. Bularning barchasi yevropaliklarning Movarounnahr tarixiga xususan Temur tarixiga qiziqishlari yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Vamberining asarida ham Amir Temur asosiy planga olib chiqiladi. Yevropaliklar uchun har doim qiziq bo‘lgan mavzuga katta o‘rin berilishi asarning tezda shuhrat topishiga olib keladi.

Asosiy qism: Herman Vamberi o‘zining asarida Amir Temur shaxsiga katta o‘rin bergan. Mo‘g‘ullar bosqinidan so‘ng xarobaga aylangan Movarounnahrni keyingi asrlarda Chig‘atoy va uning avlodlari boshqaradi. Dastlab Chig‘atoy ulusi tarkibida bo‘lgan Movarounnahr keyinchalik alohida boshqariladi. Asta-sekinlik bilan Movarounnahrda mo‘g‘ullar mahalliy aholi bilan aralasha boshlaydilar. Natijada ularning avvalgi kuch-qudrati sinadi. Bu esa mahalliy hukmdorlarning kuchayishiga sabab bo‘ladi. Hokimiyat uchun kurashlar kuchayadi. Mahalliy kuchlar tomonidan Chingiziy shahzodalar tez-tez almashtirib turiladi. Movarounnahr boshboshdoqlik davriga kiradi. Ana shunday vaziyatda kurash maydoniga Amir Temur kirib keladi. Vamberi o‘zining asarida shunday yozadi: “Barlos urug‘ining ko‘ragon tarmog‘idan Temurbekning maydonga chiqishi buyuk hodisa bo‘ldi. Bu shaxs Ovrupada Tamerlan yoxud Temurlang nomi bilan

mashxurdir”^[1]. Vamberi Amir Temurning nasl-nasabiga to‘xtalar ekan uni barlos urug‘ining ko‘ragon tarmo‘gidan ekanligini ta’kidlaydi. Ma’lumki, manbalarda Amir Temurga ko‘ragon nomi Chingizxon avlodidan bo‘lgan qizlarga uylangani uchun berilgan deyiladi. Ya’ni ko‘ragon so‘zi mo‘g‘ulchada “xonlarga kuyov” degan ma’noni ham anglatadi. Yana boshqa manbalarda ko‘ragon so‘zi “ko‘rkam” ma’nosini bildirishi haqida ham fikrlar ham bor. Bugungi kunda ham barlos urug‘iga mansub odamlar bugungi kunda ham o‘z ko‘rkamlilari bilan ajralib turishadi. Vamberi ham Amir Temurning ko‘ragon taxallusini chingiziylarga bog‘liq bo‘lganligi uchun emas balki barlos urug‘ining “ko‘rkam”laridan bo‘lgani uchun berilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘g‘ri deb bilgan. Bu ma’lumot kamdan-kam manbalarda xususan, Vamberining asarida uchraydi. Amir Temur haqida katta izlanishlar olib borgan rus tadqiqotchisi A.Y.Yakubovskiy Amir Temurning “ko‘ragon” taxallusini chingiziylarga kuyov bo‘lgani uchun olganini ta’kidlaydi. Rus sharqshunosi A.Y. Yakubovskiy shunday yozadi: “U vaqtlarda Chingizxon va uning urug‘ining obro‘si shu qadar kuchli bo‘lganki, faqat Chingizxon urug‘iga mansub kishi xon bo‘la oladi degan va turmushda qat’iy o‘rnashib qolgan tasavvurga qarshi chiqishga jur’at etuvchi biror kishi topilmagan. XIII–XIV asrlardagi kishilarning siyosiy ongida bu tasavvurning naqadar mustahkam o‘rnashib qolganligini shu narsadan bilish mumkinki, mashhur Temur “xon” unvonini olmay o‘zini amir deb yuritgan va o‘zining “go‘rgon” (kuyov) deb atalishi va shunday qilib, Chingizxonga qavm-qarindosh hisoblanishi bilan faxrlangan”.

Vengriyalik olim Amir Temur shaxsiga to‘xtalar ekan uning Yevropada mashxur bo‘lgan sifatiga ya’ni oqsoqligiga ham izoh berib ketgan. Vamberi asarni yozishda asosan arab tarixchilarining asarlariga murojaat etadi. Bilamizki, arab tarixchilari Amir Temurga muxolif o‘laroq uni ta’riflashgan. Uning shaxsiga aloqador turli xil asossiz ma’lumotlarni o‘z asarlarida keltirishganiga ham guvoh bo‘lamiz. Masalan arab tarixchisi Ibn Arabshoh o‘z asarida Amir Temur qo‘y o‘g‘irlab ketayotganda qo‘yning og‘irligidan oqsoqlanib qolganligini va keyinchalik

shuning kasriga oqsoq bo‘lib qolganini yozadi. Lekin bilamizki Amir Temur Seyistondagi janglarning birida oyog‘idan jarohat oladi va shuning ta‘sirida oqsoq bo‘lib qoladi. Vamberi ham Amir Temurning oqsoqligi jangdagi jarohat bilan bog‘liqligini yozadi. Bundan tashqari Amir Temurning “Tuzuklar”ida ham Amir Temur Seyistondagi janglarda jarohat olganini va ikki oy yotib qolganini yozadi.

Vamberi Temurni tasvirlar ekan uning yoshligidan suvoriylik va musulmonchilik ruhida tarbiyalanib mo‘g‘ullarni daf qilish fikrida o‘sganligini yozadi. Shuningdek Temurning o‘zi haqida “Tuzukot”ida yozganlarini keltirib o‘tadi: “Men o‘n yoshimda o‘zimda favqulodda hukmronlik va ulug‘lik alomatlarini his qildim. O‘z oldimga keluvchi har bir kishini sezilarli darajada g‘urur va layoqat bilan qabul qildim. O‘n sakkiz yoshimda o‘zimning suvoriylik va ovchilik hunarim haqida ko‘p o‘yladim . Umrinni Qur‘on o‘qish, shatranj o‘ynash va ot minish mashqlariga sarf etdim. ”^[2]Vamberi Temurning yoshligidan qobiliyatli bo‘lganini va kelajak maqsadlarini avvaldan aniq belgilab olganligi haqidagi ma‘lumotlarga ko‘p o‘rinda urg‘u berib o‘tadi. O‘z fikrlarini Temurning “Tuzukot”ida yozgan so‘zlari bilan isbotlaydi. Qolaversa, Vamberi Amir Temurni ba‘zi bir tarixchilar singari yaxshiy hukmdor sifatida tasvirlamaydi, balki buni qoralaydi ham buning dalili sifatida “Temur tuzuklari”dagi ma‘lumotlar, mamlakatni ma‘muriy boshqarish tartibini keltiradi. Umuman asarda ko‘radigan bo‘lsak Vamberi “Temur tuzuklari”dan juda ko‘p foydalanganiga guvoh bo‘lamiz. Buni Vamberi Amir Temurga muxolif bo‘lgan arab tarixchilarining asarlaridan va mahalliy tarixchilarning Amir Temurni madh etuvchi asarlaridan ko‘ra Amir Temurning “Tuzuklari”ga ko‘proq ishonganligi bilan ham izohlash mumkin. Asarda ham u “Temur tuzuklari”ning samimiy va ishonchli yozilganini ta‘kidlab o‘tadi.

Vamberi asarida Amir Temurning yurishlariga va davlat qurish jarayonlariga katta o‘rin ajratadi. U Amir Temurning harbiy mahoratini alohida ta‘kidlab o‘tadi. Mashhur “Loy jangi”da Temurning harbiy ehtiyotkorligi va saboti qo‘shinni to‘liq halokatdan saqlab qolganini yozadi. Bundan tashqari Temur sulhpatvar inson

ekanligini, urushdan ko‘ra sulhni afzal ko‘rishini ham qator misollar bilan ko‘rsatib beradi. Amir Husayn va Amir Temur o‘rtasidagi ziddiyat qanchalik chuqur bo‘lmasin Amir Temur uni kechirganini, unga og‘ir ahvolda yordam qo‘lini cho‘zganini yozadi. Vamberi Amir Husaynni Amir Temur emas balki o‘zining amirlari o‘ldirganligi haqida ma‘lumotni keltirib o‘tadi: “Mirxondning rivoyatiga qaraganda, «Hoji bo‘lish uchun Ka‘baga bormoqchi va u erda o‘z gunohlarini ko‘z yoshlari bilan yuvmoqchi» edi. Temur shunda olijanoblik ko‘rsatdi. Suyukli xotining akasini afv etdi. Lekin uning saroyidagi to‘ralar Husayn tufayli tortgan azoblari-yu, tahqirlanishlarini unutmagandilar. Ular Husaynning joniga qasd etdilar. Garchi Temur bunga uzoq vaqt qarshilik qilsa-da, keyinchalik rozilik bergan bo‘lsa kerak. Uning yoshlikdagi quroldosh o‘rtog‘i, baxtsiz raqibi minoradan irg‘itildi. U oxirgi daqiqada shu joyga qochgan edi.”^[3] Amir Temur va Amir Husayn o‘rtasidagi munosabat Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnomasida” ham xuddi shunday yoritilganiga guvoh bo‘lamiz. “Zafarnoma”ning “Hazrat Sohibqironning Husaynbek ustiga cherik tortib borg‘oni va zafar qilg‘oni” bo‘limida yoritilgan voqealar Vamberining yozganlaridan deyarli farq qilmaydi. Shuningdek Amir Temurning Xorazm va Oltin O‘rda bilan munosabatlarini ham keltirib o‘tadi. Xorazm hukmdori Yusuf so‘fi Amir Temurga ko‘p marta xiyonat qilgan bo‘lsa ham Amir Temur har gal uni kechiradi va oradagi munosabatlarini nikoh bilan mustahkamlaydi. Vamberi Amir Temur va Xorazm o‘rtasidagi munosabatlarni yoritishda to‘g‘ri pozitsiyani tanlagan. Chindan ham Amir Temur Xorazmga 5 marta yurish qiladi va har gal Yusuf So‘fini yengadi. Ammo Yusuf so‘fi Amir Temurga nisbatan har gal xiyonat qiladi. Bu ko‘plab tarixiy manbalarda ham bugungi kun tarix kitoblarida ham shunday yoritiladi. Oltin O‘rda xoni To‘xtamishga nisbatan ham Amir Temur shunday yo‘l tutadi. Vamberi Xuroson va Eron ustiga yurishlar davrida ham Amir Temurning o‘z xohishi bilan taslim bo‘lgan shaharlarga tegmaganini bunday shaharlardan faqat keyingi shaharlarga yo‘l sifatida

foydalanganini, shahar aholisiga nisbatan yaxshi munosabatda bo'lganini ularning xavfsizligini ta'minlaganini yozadi.

Vengriyalik olim Amir Temurning nafaqat ulkan davlat tuzganini balki unda qonun ustuvorligini ta'minlaganini ham alohida e'tirof etadi. Davlatni boshqarishda Qur'oni karimdan va Chingizxonning "Yasoqlar"idan foydalanganini ta'kidlab o'tadi. Ibn Arabshohning Amir Temur Qur'ondan ko'ra Chingizxon Yasoqlarini xush ko'rishi haqidagi ma'lumotini Vamberi inkor etadi. Amir Temurning yoshligidan musulmonchilik ruhida tarbiyalanganini va Qur'onni juda hurmat qilishini lekin Chingizxon Yasoqlarining davlat boshqarishdagi ahamiyatini hisobga olib uni ham yoqlaganini keltirib o'tadi. Temurning davlat boshqaruvi sohasidagi ishlari chindan ham taxsinga loyiqdir. Vamberi ham buni o'z asrida ta'kidlagan.

Vamberining "Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" asari Movarounnahr tarixini Yevropa kitobxon ommasi uchun ochib berdi. Muallif aytib o'tganidek Yevropaliklar uchun Movarounnahrning birinchi tarixi bo'lgan ushbu asarda tariximizning eng yorqin sahifalari o'rin olgan. Ana shu sahifalardan biri shubhasiz Amir Temur tarixidir. Muallif asarida eng katta o'rinni Amir Temur faoliyatiga beradi. Chunki Amir Temur shaxsi nafaqat Movarounnahr uchun balki G'arb uchun ham qiziq bo'lgan, hozirgacha o'rganilayotgan mavzudir. Amir Temur shaxsining o'zi bir tarix bo'lsa uning faoliyati yana bir tarixdir. Vamberi o'z asarida Amir Temur shaxsiga ham uning faoliyatiga ham ma'lum darajada to'xtalib o'tadi. Asarni o'qish jarayonida ko'ramizki, Vamberi Amir Temur shaxsiga betaraf tomondan yondashadi. Arab tarixchilarining asarlaridagi kabi Amir Temurga nisbatan muxoliflik ruhi Vamberi asarlarida sezilmaydi. Temuriylar davri tarixchilarining Amir Temurni ulug'lovchi asarlarining ta'siri ham asarni o'qish jarayonida ko'zga chalinmaydi. Vamberi Amir Temurning faoliyatini ham xuddi shunday betaraflik ruhida, tarixiy-siyosiy jarayonlarni to'g'ri tahlil qilgan holda yoritadi. Asarning ushbu jihatlarini inobatga olib shuni aytish mumkinki, asar Yevropa kitobxon ommasi uchun Amir Temur va Movarounnahr tarixini o'rganishdagi eng asosiy va ishonchli manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Herman Vamberi. “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” “Gafur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nahriyoti”. “Toshkent-1990”. 21-bet
2. Herman Vamberi. “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” “Gafur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nahriyoti”. “Toshkent-1990”. 21-bet
2. Herman Vamberi. “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” “Gafur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nahriyoti”. “Toshkent-1990”. 21-bet
3. . Herman Vamberi. “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” “Gafur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nahriyoti”. “Toshkent-1990”. 23-bet

ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ МАҲАЛЛА ҲУҚУҚ- ТАРТИБОТ МАСКАНИДА КРИМИНОГЕН ВАЗИЯТНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЮЗАСИДАН ҲАРАКАТЛАРИ

Дадажонов Пулатжон Дониёржон ўғли

Ўзбекистон Республикаси ИИБ

Академияси 3-ўқув курси курсанти

АНОТАЦИЯ

Ушбу мақола орқали муаллиф жиноятчиликка қарши курашишда ва ҳуқуқбузарликларни барвақт профилактика қилишда проофилактика инспекторининг маҳалла-ҳуқуқ тартибот масканидаги ҳаракатларини, маҳалла ҳуқуқтартибот масканини яратилиш асоси ва унинг истиқболларини, криминоген вазият тушунчасини ва унинг илмий таҳлилинини ёритиб ўтган. **Калит сўзлар:** *ҳуқуқбузарлик, ҳуқуқий маданият, криминоген вазият, ахборот таҳлил, жиноятчиликни жиловлаш, латент жиноят.*

АНОТАЦИЯ

Посредством данной статьи автор осветил деятельность профилактического инспектора участкового правоохранительного пункта в сфере борьбы с преступностью и раннего предупреждения правонарушений, основы создания участкового правоохранительного пункта и его перспективы, концепцию криминогенная ситуация и ее научный анализ.

Ключевые слова: *преступность, правовая культура, криминогенная обстановка, информационный анализ, борьба с преступностью, латентная преступность.*

ANNOTATION

Through this article, the author highlighted the activities of the prophylactic inspector in the neighborhood law enforcement center in the fight against crime and the early prevention of violations, the basis for the creation of the neighborhood law enforcement center and its prospects, the concept of the criminogenic situation and its scientific analysis.

Key words: crime, legal culture, criminogenic situation, information analysis, crime control, latent crime

Жиноятчиликка нисбатан мурасасизлик маданиятини шакллантириш, ҳуқуқий нигилизмга барҳам бериш ва фуқароларнинг қонунга итоаткорлик ҳулқ-атворини оммалаштиришга қаратилган, шу жумладан ички ишлар органлари таянч пунктлари, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи ва бошқа давлат идоралари ва ташкилотларида «очик эшиклар куни»ни ташкил этиш орқали тизимли чора-тадбирларни амалга ошириш каби тадбирлар амалга оширилмоқда¹.

23.06.2022-йилда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 343-сон “Маҳалла ҳуқуқ-тартибот масканлари фаолиятини янада такомиллаштириш тўғрисида” ги қарори билан маҳалла ҳуқуқ-тартибот масканлари ташкил этилган.

Мамлакатимизда ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш борасида комплекс чора-тадбирлар амалга оширилиб, ҳуқуқ-тартиботни таъминлашда ижобий натижаларга ҳамда криминоген вазиятни сезиларли даражада яхшилашга эришилмоқда.

Бунда, ички ишлар органларининг жамоатчилик билан ҳамкорлигини, кишлоқлар, овулла ва маҳаллаларда жамоат тартиби сақланишини,

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 мартдаги “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2833-сон Қарори.

фуқаролар хавфсизлигини, жиноятчиликка қарши курашишни бевосита таъминлайдиган профилактика инспекторларининг о'рни катта.

Жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жиноятчиликка қарши курашишнинг яхлит тизимини шакллантириш, ички ишлар органларининг энг қуйи бо'ғ'инидан республика даражасигача самарали фаолиятни ё'лга қо'йиш ва замонавий иш услубларини жорий этиш орқали мамлакатимизда ҳуқуқ-тартибот ва қонунийликни мустаҳкамлаш, аҳолининг тинчлиги ва осойишталигини таъминлаш устувор аҳамият касб этади.

2021-йил 26-мартда О'збекистон Республикаси Президентининг "Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга ко'тариш чора-тадбирлари то'ғ'рисида"ги фармони қабул қилинди. Мазкур Фармонда ички ишлар органларининг таянч пунктлари негизида маҳалла ҳуқуқ-тартибот масканлари ташкил этилиши белгиланди. Таъкидлаш жоизки, маҳалла ҳуқуқ-тартибот маскани ҳудуддаги жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жиноятчиликка қарши курашишнинг асосий қуйи бо'ғ'ини ҳисобланади.

Маскан негизида ҳудуддаги ички ишлар органларининг тегишли соҳавий хизматлари ҳамда Миллий гвардия ва бошқа давлат органларининг мувофиқлаштирилган фаолияти ташкил этилади. Шунингдек, маскан томонидан жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва жиноятчиликка қарши курашиш ишларини тизимли ташкил этиш ва мувофиқлаштириш вазифаси профилактика инспекторига юкланди.

Криминологик адабиётларда вазиятларни аниқ ҳаётий вазият, криминоген ва криминоген бўлмаган вазиятларга ажратишади.

Криминоген вазият мазмуни бўйича жинойий ниятнинг, жиноят содир қилиш мақсадининг шаклланишига таъсир қилувчи, жинойий натижага эришиш учун қулай ҳисобланган, яъни жиноят содир этишга кўмаклашувчи вазият. Шунини қайд этиш лозимки, ҳар қандай криминоген вазият ўзича

мустақил ҳолда шахсни жиноят содир этишга олиб келмайди. Жиноят содир этиш вақтидаги криминоген вазият шахсининг муҳит билан алоқасининг алоҳида даражаси ҳисобланади. Бу алоқада салбий хусусиятларга эга бўлган шахсдаги жиноят содир этиш мойиллиги криминоген вазият таъсирида муайян хатти-ҳаракатга айланади. Аниқ ҳаётий вазиятнинг шахс муайян жиноят содир этишига таъсирини қуйидагича тасвирлаш мумкин:

Жиноят содир этилишига кўмаклашувчи Аниқ ҳаётий вазиятлар криминологик адабиётларда турли асосларда таснифланади.

Ҳаётий вазиятлар ҳаракат қилиш вақти бўйича узоқ муддатли (масалан, курғоқчилик натижасида ҳосилнинг бўлмаслиги ёки айрим истеъмол буюмларининг тақчиллиги) ва қисқа муддатли (дўконда навбатда турганда келиб чиққан низо) криминоген вазиятларга бўлинади.

Ҳаракат қилиш майдони бўйича эса криминоген вазиятларни Аниқ бир шахсга ёки бир гуруҳ шахсларга таълуқли (оилавий жанжал, кимнингдир вафоти, мулкнинг ўғирланиши ёки нобуд бўлиши ва ҳ. к.) ва умумий, яъни барчага таълуқли (табиий офат, жамоадаги носоғлом вазият, давлатдаги сиёсий барқарорликнинг йўқлиги, миллий низолар ва ҳ.к.) бўлган криминоген вазиятларга ажратиш мумкин.

Келиб чиқиш манбаи бўйича вазиятларни табиий кучлар таъсири- да келиб чиққан (ноқулай об-ҳаво шароити кишилар ўлимига, мулк- ларнинг яроқсизланишига олиб келган ҳодисанинг юз беришига кўмаклашади) ва инсонлар томонидан вужудга келтирилган (спиртли ичимликларни истеъмол қилиш безориликни содир қилишга ёки жабрланувчининг ахлоққа зид хатти-ҳаракат ва ҳ.к.) криминоген вазиятларга бўлинади. Бундан ташқари, келиб чиқиш манбаи бўйича аралаш вазиятлар ҳам бўлиши мумкин. Масалан, маст ҳолда шахс автомашинани бошқариб кетаётган вақтда ноқулай об-ҳаво, яъни йўлни муз қоплаганлиги ва туман бўлиши оқибатида йўл транспорти халоқати юз бериши. Аниқ ҳаётий вазиятларни мазмуни бўйича қуйидаги турларга ажратиш мумкин:

1) муаммоли, яъни шахс ўз мақсадига эришишида белгиланган қийинчилик ва тўсқинликларга тўқнаш келганда вужудга келадиган вазият (масалан, келиннинг қариндошлари томонидан никоҳга розилик бериш учун қалин тўлашнинг мажбурий шарт қилиб қўйилиши);

2) низоли, яъни айбдор билан бошқа шахслар ёхуд давлат ва жамият манфаатлари ҳамда қарашларининг қарама-қаршилиги ва очик зид келиши билан боғлиқ ҳолда вужудга келган вазиятлар (оиладаги, миллатлар ўртасидаги ишлаб чиқаришдаги низолар, келишмовчиликлар, жанжаллар ва ҳ.к.) Айбдорга таъсир қилиши бўйича ҳаётий вазиятларни фавқулоддаги, ифво қилувчи ва жаҳлини чиқарувчи хусусиятларга эга бўлган криминоген вазиятларга бўлиш мумкин.

Фавқулодда вазият шахс учун кутилмаганда вужудга келадиган ва кучли таъсир қиладиган ҳодиса (масалан, шахс томонидан кутилмаган хужумни қайтаришда зарурий мудофаа чегарасидан четга чиқиш ҳисобланади.

Жаҳлини чиқарувчи вазиятлар эса шахсда рухий ҳаяжонланишни чиқарувчи (масалан, шахснинг оиладаги жанжалдан кейин асаб бузилиши натижасида касбдошини ҳақорат қилиши) ҳодисалар ҳисобланади. Шунинг кайд этиш лозимки, криминологик адабиётларда аниқ ҳаётий вазиятнинг муайян жиноят содир қилиниши жараёнида тутган ўрни бўйича ягона фикр йўқ. Айрим криминологик адабиётларда аниқ ҳаётий вазият муайян жиноий хатти-ҳаракатнинг сабаби сифатида ҳам намоён бўлиши мумкинлиги таъкидланган. Лекин криминологияда кўпчилик олимлар аниқ ҳаётий вазият аввало шахсга таъсир қилиши натижасида унда муайян жиноий тажовуз мотивини шакллантиради, унинг характери, мақсадини белгилайди ва жиноят содир этишда субъектив омилнинг муайян жиноий хатти-ҳаракатда намоён бўлишига кўмаклашувчи шароит ролини бажаради, деган фикрни билдиришади.

Чунки аниқ ҳаётий вазият объектив мазмунга эга бўлиши билан бирга, бу вазиятни шахс томонидан субъектив қабул қилиш билан тақозо қилинган

шахсий аҳамияти ҳам мавжуд. Яъни бир хилдаги ҳаётӣ вазият турли қарашларга эга бўлган шахсларга турлича тасир қилади. Муайян криминоген вазият жамиятга зид қарашларга эга бўлган шахсларда уларнинг салбий хусусиятларининг жиноий хатти-ҳаракатларда намоён бўлишига ёрдамлашади, кўмаклашади ва намоён бўлишини осонлаштиради, ҳар томонлама баркамол, ижобий хусусиятларга эга бўлган шахсларда эса жамиятдаги ахлоқий, умуминсоний ва ҳуқуқий нормаларга мувофиқ хатти-ҳаракатлар содир қилишни тақозо қилади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, аниқ ҳаётӣ вазиятлар муайян жиноий хатти-ҳаракат содир қилиш жараёнида шароит рўлини ўйнайди. Бизга фалсафадаги сабабиятлар назариясидан маълумки, оқибатнинг вужудга келишида сабаб билан биргаликда албатта шароит ҳам бўлиши шарт. Шунинг учун ҳам жиноятчиликка қарши кураш соҳасида криминоген вазиятларни бартараф қилиш, уларга нисбатан тўсқинлик қиладиган, уларнинг таъсирини йўқотадиган, уларни кучсизлантирадиган чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш алоҳида жиноятларнинг олдини олишдаги асосий йўналиш ҳисобланади.²

ФҲЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 мартдаги “Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2833-сон Қарори
2. Кримнология умумий қисм дарслик И.Исмаилов, Қ.Р.Абдурасулова, И.Ю.Фазилов, Тошкент 2015-йил 175-бет электрон манбаа:https://library.samdu.uz/files/7e2828fd60ff7b0a650f9a4810754663_2015-ismoilov-kriminologiya-umumiy-uz.pdf

² Кримнология умумий қисм дарслик И.Исмаилов, Қ.Р.Абдурасулова, И.Ю.Фазилов, Тошкент 2015-йил 175-бет электрон манбаа: https://library.samdu.uz/files/7e2828fd60ff7b0a650f9a4810754663_2015-ismoilov-kriminologiya-umumiy-uz.pdf

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛАТИНСКИХ ТЕРМИНОВ И ТЕРМИНОЭЛЕМЕНТОВ В МЕДИЦИНЕ

Айтмуратова Перхан

Самаркандский Государственный медицинский университет

Кафедра языков,

Peri8206@mail.ru

Аннотация. Целью настоящей статьи является определение непосредственной роли и места латинского языка в современном социуме, выявление социальных сфер, в которых латинский язык является важнейшей частью, определение уровня понимания в обществе роли латинского языка в современном мире.

Ключевые слова: латинские афоризмы, современный мир, прогрессивно, временный период, ранг мертвых языков, юридические процессы

Annotation. The purpose of this article is to determine the direct role and place of the Latin language in modern society, to identify social spheres in which the Latin language is the most important part, to determine the level of understanding in society of the role of the Latin language in the modern world.

Keywords: Latin aphorisms, modern world, progressive, time period, rank of dead languages, legal processes

Введение. Латинский язык является одним из древнейших письменных языков индоевропейской языковой семьи. Также известно, что в Древнем Риме VI в. до н.э. издавались императорские законы, проводилась перепись населения, которую использовали для нужд управления, составления летописей, записи молитв и оракулов, при заключении сделок. Найденные записи, осуществлявшиеся на популярных тогда медных таблицах, относятся приблизительно к середине V в. до н.э.

Великая Римская империя активно расширяла свои территории путем военного захвата земель соседних варварских племен, что не могло не привести к широкому распространению латинского языка на завоеванных территориях. Наравне с насаждением латинского языка римскими захватчиками, его широкому распространению между иноязычными народами способствовало как лексическое богатство латыни, наличие большого количества абстрактных понятий, отражающих сферы человеческой жизнедеятельности и бытия, так и грамматическая стройность, краткость и точность выражения. Благодаря своей долгой и насыщенной истории, латинский язык стал основным языком европейской культуры от античности до нового времени.

Латынь является языком народа большой и богатой цивилизации, сохранившейся в истории мира. Античные традиции, в некотором смысле, являются универсальными и гармоничными, входят во множество других культур, формируя, в некоторых случаях, основу для них, например, европейских. Античная мифология, философия, литература, медицина, юриспруденция и многое другое стали началом сегодняшних наук и мировоззрения образованного человека. Любая научная терминология базируется на греко-латинских терминах, латинские афоризмы украшают речь политиков, журналистов, писателей. Таким образом, латынь наполняет речь не только красотой и легкостью стиля, но и способствует систематизированной работе с интернационально доступными понятиями.

Изучая иностранные языки, мы узнаём не только культуру носителей этого языка, мы узнаём лучше и самих себя, а также открываем перед собой новые перспективы. Поэтому знание латинского языка помогает подняться на ступень выше и, ни в коем случае, не позволяет сделать шаг назад. Однако сейчас латынь не используют в повседневном общении, на ней активно не излагают свои мысли, не пишут художественных произведений, официальных документов и научных трудов. Означает ли это, что сейчас латынь более не может стать ни для кого «родным» языком, «одеждой» собственных мыслей?

Мы считаем, что это не совсем так. В настоящее время можно заметить интересную тенденцию к возрождению изучения латинского языка. Латинский язык в обязательном порядке изучают в медицинских и фармацевтических вузах, так как латинский язык — это язык медицины и фармации: *In via est in medicina via sine lingua latina* — Непроходим в медицине путь без латинского языка. Латинский язык изучают и студенты многих факультетов высших учебных заведений: филологического, юридического, исторического, биологического. В русском разговорном языке среди молодёжи активно используются латинские слова и выражения.

Изучение латинского языка внесло неоценимый вклад в развитие сравнительно-исторического и сопоставительно-типологического языкознания. Так, благодаря влиянию латыни на языки соседних галльских и кельтских племен, современный мир приобрел такие значимые языки как французский, итальянский, испанский, португальский и многие другие. Без латинского языка не представляется возможным постижение важнейших фактов культуры античности по первоисточникам, а, следовательно, и никакое подлинно историческое образование.

Несмотря на то, что латынь утратила значение международного языка ученых любой специальности, которое принадлежало ей еще в XVIII в., в ряде научных областей ее позиции остаются незыблемыми и сегодня. Это язык естественнонаучной систематики, анатомической, медицинской и фармакологической номенклатуры. Вместе с тем, латинская и латинизированная греческая лексика служит основным источником пополнения непрерывно и прогрессивно возрастающей терминологии во всех областях науки и техники.

В связи с этим, актуальность темы данного исследования основана на значимости роли латинского языка в процессе становления мировой культуры, религии, науки, юриспруденции и медицины, а также влияния на большинство языков индоевропейской языковой семьи. Несмотря на то, что латинский язык причислен к рангу мертвых языков, он до сих пор активно используется во

многих сферах жизни человека. Латынь продолжает оставаться важным культурным явлением современного мира. Без этого языка невозможно представить себе многие области человеческой деятельности.

Научная новизна представляемой работы состоит в том, что ранее в науке не предпринималось попыток рассмотреть области применения латинского языка в современном мире и систематизировать полученную информацию.

Теоретическая значимость работы заключается в том, что она вносит вклад в изучение латинского языка с точки зрения социолингвистики и освещает статус латинского языка во временной период XX-XIX вв. Данная статья представляет интерес для современной науки в целом, так как латинский язык является неотъемлемой частью во всех сферах науки. В настоящей работе выделяются и характеризуются этапы развития латинского языка в аспекте диахронии. Также выявляются факторы, влияющие на становление латинского языка как международного языка науки, который до сих пор является актуальным для изучения и научного исследования.

Практическая значимость данной работы состоит в том, что она может помочь преподаванию латинского языка как в средних, так и в высших учебных учреждениях. Оставив после себя богатое письменное достояние, латинский побуждает изучать его грамматический и лексический строй, древние тексты, пытаться адаптировать его к настоящему моменту, вывести его из сферы исключительно письменного употребления. Также результаты проведенной работы могут быть применены при изучении и переводе текстов на латинском языке.

В **заключении** приводятся основные выводы и результаты проведенной работы.

1. Ботаника, как и медицина, требует наличия единой унифицированной терминосистемы, доступной для международного пользования. Доминирующим языком данной системы, в связи с историей становления вышеперечисленных наук, является латынь. Базисом медицинской и

ботанической терминологии являются оригинальные и адаптированные римлянами греческие терминологические элементы;

2. Латинский язык, благодаря рецепции римского права, становится важным элементом в юридическом дискурсе. Язык римского права, которым

является латынь, играет неотъемлемую роль в юридических процессах, документации, а также дискурсе. В современной правовой литературе активно используются латинские термины и крылатые выражения;

3. Латынь занимает устойчивую позицию в религиозной сфере человеческой деятельности. Она до сих пор является обязательным предметом в католических семинариях и университетах, а также используется при написании официальных документов Ватикана, как, например, энциклика. Современные термины в таких документах, как энциклика, в большей части случаев формируются при помощи переосмысленной латинской лексики;

4. Латинский язык был на протяжении длительного периода языком получения высшего образования, способствовал развитию переводческой деятельности.

Использованные литературы

1. Rakhmatova Sunbula Ahmadjonovna, Aytmuratova Perxan Genjibaevna, Normuradova Nasiba Saydullaevna, Rakhimova Nigora Atakulovna, Ibragimova Dilbar Sadulayevna **The Teacher's Role in the Effective Organization of the Lesson Process in Foreign Language** Дата публикации 2021/3/1 Журнал: Annals of the Romanian Society for Cell Biology

2. Aytmuratova Perxan Genjibaevna **THE ROLE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS** Дата публикации 2022/11/3 Журнал Web of Scientist: International Scientific Research Journal Том 3 Номер 11 Страницы 41-45

3. Aytmuratova Perxan Genjibaevna, Esanova Maftuna Bakhadirovna **THE IMPORTANCE OF TEACHING LATIN IN MEDICAL SCHOOLS** Дата публикации 2022/12/17 Журнал Thematics Journal of Education Том 7 Номер 5

4. Karimovna Y. S. The linguistic environment in the field of medical communications //Eurasian Journal of Academic Research. – 2022. – T. 2. – №. 2. – С. 143-147.
5. Yorova S. K. The concept “health” in the English lingual culture //Humanities and Social Sciences in Europe: Achievements and Perspectives. – 2017. – С. 58-60.
6. Karimovna Y. S. English and Uzbek medical conversation between doctor and patient (Analysis from a linguistic point of view) //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 5. – С. 292-294.
7. Makhmudova S.A. Principles and methods of assessment, International journal of discourse on innovation, integration and education. 13.01.2021, pages 46-48
8. Mardanovich M. Z. et al. Some Considerations about Legal Solutions and Practices of Certain Problems Writing Recipes //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 5341-5352.
9. Olimzoda P. Usage of video as audiovisual materials in foreign language classes //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 11. – С. 800-803.
10. Нормуродова Н., Уралова Ч., Олимзода П. The role of extracurricular activities in foreign language teaching //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 5/S. – С. 12-16.
11. Shamsiyev K. et al. APPROACHES TO TEACHING ACADEMIC WRITING //Международная конференция академических наук. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 31-34.
12. Anatolyevna F. M., Kamariddinovich S. K. SYNONYY IN ENGLISH MEDICAL TERMINOLOGY //Euro-Asia Conferences. – 2021. – С. 21-23.
13. Sobirovna, U. M. (2022). INTERACTIVE LEARNING METHODS USED IN THE EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY COURSES. Open Access Repository, 9(11), 106-113.
14. Sobirovna, U. M. (2022). USE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN INCREASING THE EFFICIENCY OF TECHNOLOGY LESSONS. Open Access Repository, 9(11), 114-119.

**IZBOSKAN TUMANIDAGI "NANYANG RED COTTON ANGEL
TEXTILE" MA'SULYATI CHEKLANGAN JAMIYATIDA ISHLAB
CHIQRISH SAMARADORLIGINING TAXLILI.**

*Sobirova Munavvarxon Qaxramonjonovna,
Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyala instituti,
Iqtisodiyot (qishloq xo'jaligida) mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

Annotatsiya

Ushbu maqolada Izboskan tumanidagi "Nanyang Red Cotton Angel Textile" ma'sulyati cheklangan jamiyatining 2021 yildagi iqtisodiy ko'rsatkichlari va yillik ishlab chiqarish hajmi bo'yicha ish olib borilib, "Nanyang Red Cotton Angel Textile" ma'sulyati cheklangan jamiyatining ishlab chiqarish samaradorligi taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: samadorlik, rentabellik, klaster, eksport, diversifikatsiya.

Ko'p ilmiy maqolalar yozilishiga qaramay agrar ilmiy tatqiqotni asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan iqtisodiy samaradorlik kotegoriyasini bir aniq qoidaliy tushunchasi shakillanmagan, bu kotegoriyaga iqtisodchilar turlicha talqin beradilar va turlicha qoidasini tasniflashadilar, hozirga kelib ham bu predmet ilmiy diskusiyalarni asosiy mavzusi (muommosi) dan biri bo'lib kelmoqda. Ko'p iqtisodchilar shunday nazariyani quvvatlashadi, ya'ni iqtisodiy samaradorlik kotegoriyasi sifat va miqdorni tipik tushunchasi bo'lib, o'zida yer, moliya, va mexnat resurslari va munosabatlarida aks ettirib ijtimoiy- iqtisodiy sohani rivojlanishini ta'minlaydi. Ayrim iqtisodchi olimlar esa iqtisodiy samaradorlik tushunchasini **samara** va **natija** iboralari bilan bog'laydi, ya'ni kam mexnat sarfi (xarajat) bilan ko'p miqdordagi mahsulotni ishlab chiqarishdir.

Biroq, qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan har qanday agrotexnologiya jarayonlari va tadbirlari iqtisodiy samaradorlikda o'z baho va qiyosini topadi.

Ma'lumki , mahsulot birligiga qilingan ishlab chiqarish harajatlarini oqilona sarflash va kamaytirish rentabellik ko'rsatkichini asosiy shartlaridan biridir. Bu maqsadga , ekilgan ekinlarni hosildorligini oshirish yo'li bilan erishish mumkin. Hosildorlikni oshirishda urug'chilikda oliy va sifatli navlarini saralab ekish, belgilangan agrotexnologiya jaroyonlarini samarali va o'z muddatida sifatli qo'llash, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish kabi omillar ahamiyatga egadir. Shuning uchun xo'jalikda olingan daromadlarni aniqlash va baholash iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahliliga bog'liqdir. Behisob shukur, bu yil aholimiz 36 milliondan oshdi. Har yili safimizga qariyb 900 ming yangi avlod qo'shilmogda¹. Yangi avlod qo'shilishi esa oziq ovqatga bo'lgan talabni oshishiga olib keladi.

Quyida 3–jadval ma'lumotida Izboskan tumanidagi "Nanyang red cotton angel textile" ma'sulyati cheklangan jamiyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini 2021 yili iqtisodiy samaradorlik ma'lumotlarini ko'rib chiqamiz:

**Izboskan tumanidagi "Nanyang red cotton angel textile" ma'sulyati
cheklangan jamiyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari²**

3-jadval

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2020 yil	2021 yil	O'sish surati %
	Ishlab chiqarish				
1	Tovar maxsuloti	Mln so'm	1199 2	2603 5	217,1
2	Tashib olingan paxta tolasi	tonna	3134	6000	191,4

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.20.12.2022

² Izboskan tumanidagi "Nanyang red cotton angel textile" ma'sulyati cheklangan jamiyatning yillik xisobotlaridan

3	Kalava ip	tonna	2303, 0	5000	217,1
4	Eksport	Ming \$	3211, 0	7000	218,0
5	rentabellik	%	15,7	16	+0,3

3-jadvalda Izboskan tumanidagi "Nanyang red cotton angel textile" ma'sulyati cheklangan jamiyatining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari berilgan, jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki Izboskan tumanidagi "Nanyang red cotton angel textile" ma'sulyati cheklangan jamiyatida 2021 yilda 2020 yilga nisbatan o'sish suratlari ortib bormoqda bu albatta ijobiy natija xisoblanadi.

Fermer xo'jaligi faoliyatini diversifikatsiyalash - agrar sektorda ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil qilish, ular faoliyatini diversifikatsiyalash va fermer xo'jaliklari faoliyati jarayonidagi iqtisodiy munosabatlari majmuini talabalarga o'rgatish hisoblanadi.

Fermer xo'jaligi faoliyatini diversifikatsiyalashning maqsadi fermer xo'jaliklari daromadlarini oshirish va resurslardan samarali foydalanishda faoliyatni diversifikatsiyalash, qo'shimcha va yordamchi tarmoklarni rivojlantirish bo'yicha zarur bo'lgan bilimlarni shakllantirish hamda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish, agrar sohada iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish tamoyillari asosida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ilg'or texnologiyalar asosida tashkil etish va optimallashtirish bo'yicha ma'lumotlar berishdan iborat.

**Izboskan tumanidagi "Nanyang red cotton angel textile" ma'sulyati
cheklangan jamiyatning yillik ishlab chiqarish hajmi³**

4-jadval

³ Izboskan tumanidagi "Nanyang red cotton angel textile" ma'sulyati cheklangan jamiyatning yillik xisobotlaridan

№	Ko'rsatkichl ar	O'lcho v birligi	2020 yil	2021 yil	Nisbat i %
1	Yillik ishlab chiqarish quvvati	tonna	4350	5800	133
2	Ishchilar soni	nafar	270	296	110
3	Zarur bolgan asosiy xom ashyo (paxta tolasi)	tonna	5000	6000	120
4	Ishlab chiqarilgan maxsulot miqdori	tonna	4820	5536	115
5	Ishlab chiqarilgan maxsulot	mln	7085 4	9079 0	112
6	Ishlab chiqarilgan maxsulot so'mdagi narxi	ming	14,7	16,4	112

4-jadvalda Izboskan tumanidagi "Nanyang red cotton angel textile" ma'sulyati cheklangan jamiyatning yillik ishlab chiqarish hajmi berilgan, jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki 2020-2021 yillarda Izboskan tumanidagi "Nanyang red cotton angel textile" ma'sulyati cheklangan jamiyatning yillik ishlab chiqarish hajmi ortib bormoqda.

Fermer xo'jaliklarining barqarorligi va ular faoliyatining samaradorligi respublikamiz qishloq xo'jaligi rivojlanishining muhim shartlaridan hisoblanadi.

Mamlakat iqtisodiyoti, shu jumladan, qishloq xo'jaligini isloh qilish, modernizatsiyalash va uning tarkibiy tuzilishlarini diversifikatsiyalash ushbu tarmoqlarda zamonaviy ko'rinishdagi va har tomonlama raqobatga chidamli faoliyat sub'ektlarini rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qilishini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Shuni e'tiborga olgan holda, o'tgan davr mobaynida iqtisodiyot va qishloq xo'jaligini erkinlashtirish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash borasida ishonchli tizim va mexanizmlar shakllantirildi. Bular esa o'z navbatida, respublikamiz iqtisodiyotini yanada barqarorlashtirish, har xil iqtisodiy-ijtimoiy tahdidlarni samarali hal qilish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizni, avvalo, iqtisodiyotimizni isloh etish, erkinlashtirish va modernizatsiya qilish, uning tarkibiy tuzilishini diversifikatsiya qilish borasida amalga oshirilayotgan, har tomonlama asosli va chuqur o'ylangan siyosat bizni inqirozlar va boshqa tahdidlarning salbiy ta'sirlaridan himoya qiladigan kuchli to'siq, aytish mumkinki, mustahkam va ishonchli himoya vositasini yaratdi. Respublikamizda qishloq xo'jaligi faoliyatini diversifikatsiyalash, ularni faoliyatiga zamonaviy texnologiyalarni jalb etish bo'yicha yetarli darajada ilmiy, iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy asoslar yaratilgan. Bu borada keng ko'lamli va samarali islohotlarimiz natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi ilk bor 80 milliard dollardan oshdi. Iqtisodiyotimizga shu yilning o'zida 8 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi, eksportimiz esa, 19 milliard dollarga yetdi⁴.

Bu borada tadbirlar ko'lami O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 15 maydagi-Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarorida keltirilgan vazifalar bilan kengaytirildi⁵. Bu me'yoriy hujjatlarga muvofiq mamlakat iqtisodiyoti va qishloq xo'jaligida yanada qulay biznes-muhit yaratish, xususiyl mulkchilikning ustuvorligini mustahkamlashga yo'naltirilgan qonun hujjatlarini takomillashtirish va bu borada ishonchli kafolatlarni ta'minlash, tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, davlatning

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 15 maydagi-Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori.

boshqaruv funtsiyalari va ruxsat beruvchi normalarni qisqartirish, byurokratik to'siq va g'ovlarni olib tashlash, kichik biznes sub'ektlarining moliya-kredit va xomashyo resurslaridan, ular ishlab chiqaradigan mahsulotlarga davlat buyurtmalari berilishidan keng foydalanishini ta'minlaydigan bozor vositalari va mexanizmlarini tadbiq etishni yo'lga qo'yish amalga oshirilmoqda. Ushbu tadbirlar pirovardida fermer xo'jaliklari ishlab chiqarish faoliyati turlarini kengayishiga hamda qo'shimcha faoliyat turlarini tashkil qilinishiga olib kelmoqda.

Bu siyosatni amalga oshirish mamlakatimiz mahsulotlarining tashqi va ichki bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etish, shuningdek iqtisodiyot barcha tarmokdarida ishlab chiqarishning barqaror o'sishini ta'minlashga dastak bo'ladi.

Qishloq xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirish, sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, eng muhimi, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini yuksaltirish, yurtimizni obod etish yo'lida tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan fermerlik harakatining samarasini yanada oshirish maqsadida yirik ko'lamdagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Maqbullashtirish jarayonida fermer xo'jaliklari o'zini zarur texnika, aylanma mablag'lari bilan ta'minlash, kredit qobiliyatiga ega bo'lish, eng asosiysi – o'z xarajatlarini qoplash va foyda topib ishlash, fermer xo'jaligi daromadini oshirishni ishonchli asosga aylantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Fermer xo'jaliklarining salohiyatini oshirilishi, moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi ta'minlanishi natijasida ular tomonidan yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini, chorvachilikda mahsuldorlikni oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va assortimentini ko'paytirish bo'yicha imkoniyatlari yanada oshmoqda.

Diversifikatsiya korxonalar (birlashma)larning faoliyat sohalari va ishlab chiqarilgan mahsulotlari turlarining kengayishi, yangilanib turishidir. Diversifikatsiya – bir-biri bilan texnologik jihatdan bog'liq bo'lmagan ishlab chiqarish turlarini bir vaqtda rivojlanishi va mahsulot turlarining ko'payishidir. Qishloq xo'jaligida ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil etish ishlab

chiqarishni diversifikatsiyalash mexanizmlaridan biridir. Buning uchun ko'p tarmoqli xo'jalik faoliyatida fermer xo'jaligining oladigan foydasi miqdorini oshirish esa - mavjud yer va suv resurslaridan foydalanishda zamonaviy agrotexnologiyalarni joriy etish, ilg'or tajribalar, agrar ilm-fani yutuqlariga tayanish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, tashish va boshqa xizmatlar ko'rsatish sohalariga investitsiyalar jalb qilish evaziga amalga oshiriladi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan shuni tushunish mumkinki, hozirgi tez rivojlanaётgan bozor iqtisodi sharoitida fermer xo'jaliklarini faoliyat sohalarini kengaytirish, ularni zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash hamda qishloq xo'jaligida qulay investitsion muhitni yaratish o'z-o'zini taqazo etuvchi omillar hisoblanadi.

Zeroki, qishloq xo'jaliklarini diversifikatsiyalash va ustuvor yo'nalishlarni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash, ularni barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi omillardan sanaladi. Shu bois, qishloq xo'jaligini diversifikatsiyalashning ustuvor dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, mulkiy munosabatlarni rivojlanishi natijasida agrar sohada ustuvor yo'nalish sifatida fermer xo'jaliklarini barqaror iqtisodiy rivojlanishi mamlakatimiz qishloq xo'jaligida asosan 4 ta yirik muxim vazifalarni xar qilinishida asosiy ahamiyat kasb etadi. Bunda:

- birinchidan tarmoqda mahsulotni yetishtirish, tayyorlash, qayta ishlash, sotish va xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish;
- ikkinchidan fermer xo'jaliklarini ma'lum turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashtirish va ekinlar tarkibini maqbul joylashtirish;
- uchinchidan, agrosanoat tarmoqlari o'rtasidagi ishlab chiqarish iqtisodiy munosabat fermer xo'jaliklarida xo'jaliklararo kooperatsiya va agrosanoat interratsiya tizimini rivojlantirish;
- to'rtinchidan, ishlab chiqarishning maqbul xajmlarini belgilash va intensiv rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Agrar sohada mulkiy munosabatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bozor islohotlarini amalga oshirishning:

- birinchi bosqichi 1991-2000 yillarni o'z ichiga olib, ushbu davrda past rentabelli, odamlarga o'z imkoniyatlarini namoyon etish uchun sharoit yaratib bermagan shirkat xo'jaliklarini tugatib, shaxsiy tashabbuskorlikni rag'batlantirishga qaratilgan fermer xo'jaliklarini tashkil etish yo'li tanlandi.

- ikkinchi bosqichi 2001 yil va undan keyingi yillarni o'z ichiga olib, ushbu davrda fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi sohasidagi asosiy harakatlantiruvchi kuchga aylandi.

Agrar sohada iqtisodiy islohotlar asosan quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirildi:

“Yer islohoti” bo'yicha:

- 2004 yildan boshlab barcha qishloq xo'jaligida yer uchastkalaridan foydalanishning ijara shakli joriy etildi;

- yer uchastkalari 30 yildan 50 yilgacha ijaraga berilishi belgilab qo'yildi;

- yer uchastkalaridan foydalanish huquqini meros qilib qoldirish tizimi joriy etildi;

- o'z mablag'i hisobidan qo'shimcha yer o'zlashtirilganda qo'shimcha iqtisodiy rag'batlantirish tizimi joriy etildi.

Suvdan foydalanish bo'yicha:

- irrigatsiya tizimlarini boshqarishning ma'muriy hududiy printsiptan havza printsiptiga o'tkazildi, respublika bo'yicha 10 ta irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari va 1 ta Farg'ona vodiysi bo'yicha birlashtirilgan dispetcherlik Markaziga ega bo'lgan magistral kanallari tizimi boshqarmasi tashkil etildi;

- fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash uchun Suv iste'molchilari uyushmalari tashkil etish yo'lga qo'yildi;

Moliya-kredit va soliq sohasida:

- davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan mahsulotlarni yetishtirishni moliyalashtirishda imtiyozli kreditlash tizimi yo'lga qo'yildi.

Ushbu kredit bugungi kunda fermer xo'jaliklarining iqtisodiy jihatdan "oyoqqa turib olishida" muhim omil bo'lmoqda. Chunki qator yillardan beri Markaziy bank tomonidan qayta moliyalash stavkasi 16 foiz miqdorida belgilanayotgan yillik inflyatsiya darajasi o'rtacha 6,5-7 foiz darajasida bashorat qilinayotgan bir sharoitda 5 foizli kredit fermer xo'jaliklari uchun juda qulay hisoblanadi.

- qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yerlarning sifati, ball-bonitetiga bog'liq bo'lgan yagona yer solig'ini to'lash tizimiga o'tkazildi.

- respublikamizda ishlab chiqarilgan texnika vositalarini lizingga berish tizimi joriy etildi.

- fermer xo'jaliklari uchun imtiyozli kredit tizimi yaratildi.

Boshqa tadbirkorlik sub'ektlariga qayta moliyalash stavkasidan yuqori foiz stavkalarda kreditlar berilsa, fermer xo'jaliklariga texnika sotib olish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni yo'lga qo'yish uchun qayta moliyalashtirish stavkasining 50 foizi (bugungi kunda 6%), uchdan biri (ya'ni 4%), oltidan biri (ya'ni 2%) yillik stavka bilan kreditlar berish tartiblari ishlab chiqilgan.

Narx-navo masalalarida:

- davlat tomonidan sotib olinadigan paxtaning narxini jahon bozorida narxdan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi.

- davlat tomonidan sotib olinayotgan g'alla narxini mintaqaviy bozorlardagi narxdan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etildi.

- boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini narxi bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda shartnoma asosida belgilanmoqda.

Respublikamiz qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlar va uni chuqurlashtirish jarayonida tarmoq ishlab chiqarishida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish orqali turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllari teng sharoitda faoliyat ko'rsatishning tashkiliy, huquqiy va iqtisodiy asoslarini yaratish va ular faoliyatining bir maqsadga yo'naltirishga alohida e'tibor berilmoqda. Natijada tarmoqda boshqaruv, mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllari, ekinlar tizimi, ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlar tubdan o'zgardi. Turli xo'jalik yuritish shakllari amaliyotda sinalib,

ular orasida avvalo shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklari istiqbolli deb topilib, keyinchalik fermer xo'jaliklari rivojlanishiga ustuvor yo'nalish berilib, ularga o'zaro raqobat va teng huquqli faoliyat yuritishning asoslari yaratildi. Ushbu islohotlarning samarasi o'laroq, hozirgi kunda mamlakatimizda yetishtirilayotgan yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 99 foizi xususiy sektor hissasiga to'g'ri kelmoqda. Agrar sohada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati, turli mulkchilikka asoslangan turli xil xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shakllanishi ularning o'zaro tenglik erkinlik tarzda faoliyat ko'rsatishidadir.

Agrar sohada amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida qishloqda dehqonning yerga va o'zi yaratgan mahsulotga egalik hissini oshirishga qaratilgan mulkiy munosabatlar hamda uning mukammal huquqiy asoslari shakllantirildi. O'tgan davr ichida agrar sohada ko'p ukladli iqtisodiyot barpo etildi va qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora tadbirlarini amalga oshirish ta'minlandi. Agrar sohada mulkiy munosabatlarni rivojlantirish asoslari yaratildi.

Davlat imtiyozlarini saqlab qolish bilan bir qatorda, klaster uslubini joriy etish sohaning tartibga solinganlik darajasini, mahalliy hukumatning paxta yetishtirish jarayoniga aralashuvini kamaytiradi, unga faqat ichki imkoniyatlardan kengroq foydalanish vazifalarini yuklaydi, xolos. Klaster azolari yakuniy natijaga jamoaviy ravishda javobgar bo'ladilar. Har bir klaster ishtirokchisining, shu jumladan dehqonning sa'y-harakati ushbu kooperativning yakuniy daromadini, demak, har bir ishtirokchining daromadini belgilab beradi. Mikro darajadagi iqtisodiy tizimning elementi sifatida fermer xarajatlarini minimallashtirish va daromadini maksimallashtirishdan manfaatdor. Fermer uchun rag'bat manbasi va majburiy mehnatni yo'q qilish chorasi mana shunda.

Ishlab chiqarish klasteri umumiy ma'noda, iqtisodiyotning bir xil yoki bir-biriga bog'liq sohalarida faoliyat yuritadigan va geografik jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan korxonalar guruhidir. Bu korxonalarining texnologik jihatdan o'zaro bog'liq bo'lishi juda muhimdir. Bundan tashqari, ushbu korxonalar bitta umumiy maqsad uchun –raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun birlashgan.

Masalan, paxta-to'qimachilik klasterining texnologik zanjiri paxta xom

ashyosini ishlab chiqarish, uni qayta ishlash, paxta tolasidan kalava ip ishlab chiqarish, gazlama ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish kabi kompleks faoliyat turlarini o'z ichiga qamrab oladi. Shu bilan birga, fermerlarni (paxta xom ashyosini yetishtiruvchilarni), paxta tozalash zavodini, paxtani qayta ishlash korxonasini, to'qimachilikfabrikasini va kiyim-kechak ishlab chiqaruvchi korxonalarni birlashtirishning maqsadi – har bir ishlab chiqaruvchining xarajatlarini kamaytiradigan va yakuniy mahsulotningraqobatbardoshligini oshiradigan yagona tuzilma yaratiladi.

«Klaster» tushunchasi ilk bor 1990 yilda Maykl Porter tomonidan «Davlatlarning raqobatdosh afzalligi» nomli asarida keltirilgan⁶. 10 ta sanoat jihatdan rivojlangan davlatlarning rivojlanish tarixini tahlil qilgach, Maykl Porter klasterlarning paydo bo'lishi iqtisodiy rivojlanish va sanoatlashtirish jarayoni tarkibining ajralmas qismidir degan fikrga kelgan. Shunday qilib, klaster – o'zaro bog'liq korxonalarni birlashtirishning bir shakli bo'lib, bu hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Tashkillashtirish shakli jihatidan, klaster – vertikal ravishda integratsiyalangan tuzilma deyish mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, raqobat kurashida klasterlarga asosiy urg'u beriladi. Chunki ular bozor iqtisodiyotining boshqa institutlari, xususan, hukumat, universitetlar, kompaniyalar, turagentliklar, turoperatorlar samaradorligini oshirish imkonini beradi. O'zlarida davlat siyosatini tushunishining yangi va qo'shimcha usulini namoyon etadi. Ayrim mintaqalarda klasterlar holatini tushunish klasterlar iqtisodiyoti turizm salohiyatining ichki xususiyatlarini hamda ularning kelgusi rivoji uchun mavjud bo'lgan cheklovlarni qo'llashni ta'minlaydi.

⁶ 1990 yilda Maykl Porter tomonidan «Davlatlarning raqobatdosh afzalligi» nomli asarida keltirilgan

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.20.12.2022.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 15 maydagi – “Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.
3. Izboskan tumanidagi "Nanyang red cotton angel textile" ma'suliyati cheklangan jamiyatning yillik xisobotlaridan.
4. Maykl Porter, «Davlatlarning raqobatdosh afzalligi» nomli asari, 1990 yil.
- 5 Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
- 6 Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. *World scientific research journal*, 9(1), 220-224.
- 7 SOBIROVNA, U. M. (2021). Modernization of the content, methods and tools of technologies in the organization of modern education. *IEJRD*.
- 8 Sobirovna, U. M., & Sharifjon, P. O. (2023). Choosing Organizational Forms of Education in the Effective Organization of Technology Courses. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2(2), 77-81.
- 9 Sobirovna, U. M. (2022). Improving the educational system for children with disabilities. *The Peerian Journal*, 4, 20-22.
- 10 Sobirovna, U. M., & Irodaxon, T. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 21(1), 41-44.
- 11 SOBIROVNA, U. M. (2021). Modernization of the content, methods and tools of technologies in the organization of modern education. *IEJRD*.

KASHTA CHOKIDA KOMPOZITSIYA TIKISH

Toshkent viloyati Yangiyòl shahar

7-òrta ta'lim maktabining Texnologiya fani o'qituvchisi

Hakimova Dilfuza Baxodirovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada kashtaning nimalar tayyorlashda ishlatilishi, qaysi mamlakatlarda mashhurligi, kashtachilikda o'simlik, gul, shoxlarning tasvirlanishi, naqshda qanday shakllardan ko'proq foydalanishi, chok turlari haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kashtado'zlik, naqsh, xromatik, axromatik, spektor, qaytma chok, suv chok, iroqsimon chok, yo'rma chok, popop chok.

O'zbek milliy kashtado'zligi xalq hunarmandchilik san'atining eng qadimiy turlaridan hisoblanadi. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro'zg'or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo'llaniladi. Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O'zbek chevarlari qo'llari bilan tikilgan kirpech, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Amerika, Hindiston kabi xorijiy mamlakatlarda ham mashhur. Respublikamizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, amaliy san'at muzeylarida ham qo'l kashtachiligi namunalari to'planib, doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Hozirgacha bu buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligibilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. Unda hind, xitoy, rus, qozoq, qirg'iz va tojik kashtachiligi usullarini uchratamiz. Kashtachilik san'atida har bir millatning o'ziga xos, eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan. O'tmishda bu kashtalar oq va tabiiy malla shoyi, adras, baxmal

matolarga tikilgan. Hozirgi kungacha ham satin, shoyi, baxmalga tikiladi. Ish jarayonida kashtachilar o‘z mahoratlarini oshirishadi va bir-biridan o‘rganishadi.

Kashta choklari, tikish uslublarining turli-tumanligi o‘zbek kashtado‘zlarining katta san’atidan dalolat beradi. Masalan, Nurota, Buxoro, Samarqand kashtachilik mahsulotlari ko‘proq yo‘rma chok bilan, Shahrisabzda yo‘rma, kandaxayol, iroqi, Toshkentda esa ko‘proq bosma chok bilan tikilgan. O‘zbek kashtado‘zlari buyum bezaklarida amaliy bezak san’atining boshqa turlaridagi naqshlardan andaza olgan.

Kashtalarda o‘simliksimon tasvirlar – shox, gulband, guldastalar ko‘p uchraydi. Naqsh mujassamligida asosiy bezak matoning o‘rtasida bo‘lib, hoshiyalar qo‘shimcha bezak hisoblanadi. Lekin hoshiya bezagi mahorat bilan ishlangan kashtalar ham ko‘p. Ganchkorlik, yog‘och o‘ymakorligi, kandakorlik, naqqoshlikda uchraydigan islamiy gul (naqsh)lar kashtachilikda ham ko‘p uchrashi chizmakash (naqqosh)lar amaliy bezak san’atining turli sohalariga chizma (naqsh)lar tayyorlaganini ko‘rsatadi. Kashtachilikda chizmakashlar yaratgan naqsh (gul)lar asosida kashtado‘zlar badiiy buyum yaratadilar.

Kashtada naqsh tuzishda geometrik shakllar – uchburchak, kvadrat, yulduzcha, aylana va hokazolardan, shuningdek, to‘lqinsimon, siniq chiziqlar, o‘simlik belgilari (barglar, gullar, shoxlar, daraxtlar)dan, jonivorlar dunyosi (hasharotlar, qushlar, baliqlar, hayvonlar) tasviridan, shuningdek, umumlashgan odam qiyofasidan foydalanish mumkin. Ba’zan naqshda geometrik shakllar bilan tabiatga xos belgilar qo‘shilgan bo‘ladi. Naqshning hamma qismlari mutanosib bo‘lishi kerak. Ba’zan bezakda motivlar qaytarilmaydi. Bezak simmetrik va asimmetrik tuzilishi mumkin. Kashtaga naqsh bosish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

Kashtada rang muhim ahamiyat kasb etadi. Iplarni tanlashda ranglarning uyg‘unlashuvini, bir-biriga qanday ta’sir etishini bilish zarur. O‘zaro mos ranglarni tanlashda berk spektor qatori ranglaridan iborat ranglar doirasi asos qilib olinadi.

Ranglar xromatik va axromatik bo‘ladi. Kamalak spektoridagi ranglar xromatik ranglar deyiladi. Axromatik ranglarga oq, kulrang, qora ranglar kiradi. Spektor doirasining qarama-qarshi tomonida joylashgan ranglar qo‘shimcha ranglar

deyiladi. Agar qizil rangning o'rtasidan diametr o'tkazilsa, u ranglar doirasidagi qizil rangning taxminan to'g'risidagi zangori – yashil rangni kesib o'tadi. Demak, qizilga zangori – yashil, to'q sariqqa – zangori, sariqqa – ko'k, yashilroq sariqqa – binafsha va hokazo qo'shimcha ranglar bo'ladi.

Kashta chok turlari quyidagilar: qaytma chok, suv chok, iroqsimon chok, yo'rma chok, popop chok,

Kashtani tikishdan oldin uning umumiy badiiy yechimini o'ylab ko'rish, bezakning, undagi ayrim bo'laklarning buyum yuzasiga qanday joylashtirishni, qanday rangda tikishni, ya'ni kompozitsiya tushunchasiga kiradigan hamma narsani aniqlab olish kerak. Kompozitsiya xarakteri ko'proq ritmga – naqshdagi alohida elementlar yoki element guruhlarining qonuniy almashinishiga bog'liq bo'lib, bu kompozitsiyaning ifodali bo'lishiga, aniq tasavvur etilishiga yordam beradi. Mulina iplari bir tekis ochilib, karton qog'ozga o'raladi. Kerakli qalinlikda iplar tanlanib, ignadan o'tkaziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q.M.Abdullayeva, M.A.Maxsumova, M.H.Rahimjonova “Gazlamaga badiiy ishlov berish, kashtachilik va uni o'qitish metodikasi”.
2. Texnologiya 5-sinf 2020y.
3. Sobirovna, U. M. (2022). MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
4. Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
5. Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. *World scientific research journal*, 9(1), 220-224.
6. SOBIROVNA, U. M. (2021). Modernization of the content, methods and tools of technologies in the organization of modern education. *IEJRD*.
7. Sobirovna, U. M., & Sharifjon, P. O. (2023). Choosing Organizational Forms of Education in the Effective Organization of Technology Courses. *Journal of Innovation, Creativity and Art*, 2(2), 77-81.
8. Sobirovna, U. M. (2022). Improving the educational system for children with disabilities. *The Peerian Journal*, 4, 20-22.
9. Sobirovna, U. M., & Irodaxon, T. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 21(1), 41-44.
10. SOBIROVNA, U. M. (2021). Modernization of the content, methods and tools of technologies in the organization of modern education. *IEJRD*.

VAQT O'LCHOV BIRLIKLARI

Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani

26-o'rta ta'lim maktabining Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Xakimova Nazima Burkitbayevna

Annotatsiya: Ushbu maqolada vaqt o'lchov birliklarini taqqoslash, qo'shish, ayirish mumkinligi, o'rtacha quyosh vaqti, ularning turlari, bir kun 24 soat, bir soat 60 daqiqa, bir daqiqa 60 soniya ekanligi va boshqalar haqida malumot berilgan

Kalit so'zlar: soniya, daqiqa, soat, sutka, hafta, oy, yil, asr, oddiy va kabisa yili.

Vaqt tushunchasini uzunlik, massa tushunchalariga nisbatan ancha murakkab bo'lgan kattalik miqdor sifatida qaraladi, chunki vaqt oraliqlari uzunlik, yuz, og'irlik xossalari o'xshash masalalariga ega. Kundalik hayotda vaqt bir voqeani ikkinchi voqeadan ajratib turadi. Vaqt birliklari taqqoslash, qo'shish, ayirish mumkin. Vaqtni o'lchashning birinchi birliklaridan biri, albatta, kun edi, ya'ni Quyosh osmonda paydo bo'lib, Yerni "aylanib o'tadi" va asl nuqtasida yana paydo bo'ladi. Kunni ikki qismga - kunduz va tunga bo'lish bu vaqt oralig'ini aniqlashni osonlashtirdi. Turli xalqlar uchun kunning o'zgarishi vaqti kun va tunning o'zgarishi bilan bog'liq edi. Ruscha "kun" so'zi qadimgi "bo'g'im" dan keladi, ya'ni ikki qismni bir butunga bog'lash, bu holda kecha va kunduzni, yorug'lik va zulmatni bog'lash. Qadim zamonlarda kunning boshlanishi ko'pincha Quyoshning chiqishi (Quyoshga sig'inish), musulmonlar orasida - Quyoshning botishi (Oyga sig'inish), bizning davrimizda eng keng tarqalgan chegara hisoblanadi. kunlar yarim tun, ya'ni ma'lum bir hududda Quyoshning pastki kulminatsiyasiga shartli ravishda mos keladigan vaqt. Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi bir xilda sodir bo'ladi, lekin bir qator sabablar (presessiya, yulduzlarning osmon sferasiga nisbatan siljishi va boshqalar) kunni aniq belgilash mezonini tanlashni qiyinlashtiradi. Shuning uchun tushunchalar mavjud: yulduz kunlari, haqiqiy quyosh va o'rtacha quyosh kunlari. Hayotning odatiy tartibi boshqa, quyoshli kunlar, quyosh vaqti bilan chambarchas bog'liq.

Quyosh kunlari Quyoshning ketma-ket yuqori cho'qqilari orasidagi vaqt uzunligi bilan o'lchanadi. Quyosh kunining davomiyligi yulduz kunidan o'rtacha 4 daqiqaga oshadi. Bundan tashqari, Yerning Quyosh atrofida elliptik orbitadagi notekis harakati tufayli quyosh kunlari o'zgaruvchan kattalikka ega. Ularni kundalik hayotda ishlatish noqulay. Shuning uchun standart sifatida haqiqiy Quyoshning ekliptika bo'ylab o'rtacha tezligi bilan Yer atrofida osmon ekvatori bo'ylab xayoliy nuqtaning ("o'rtacha Quyosh") hisoblangan bir xildagi harakati bilan aniqlangan mavhum o'rtacha quyosh kuni olinadi. Bunday "o'rtacha Quyosh" ning ikkita ketma-ket kulminatsiyalari orasidagi vaqt oralig'i o'rtacha quyosh kuni deb ataladi. Kundalik hayotdagi har bir soat o'rtacha vaqtga moslashtiriladi, o'rtacha vaqt ham zamonaviy kalendarlarning asosidir. O'rtacha quyosh vaqti, yarim tundan boshlab hisoblangan, fuqarolik vaqti deb ataladi. O'rtacha quyosh kunlari, xuddi yulduz kunlari kabi, 24 soatga bo'lingan, ularning har biri 60 daqiqa va daqiqalarda 60 soniya. Kunning kasrga bo'linishi birinchi marta Qadimgi Bobilda paydo bo'lgan va oltita kichik hisoblash tizimiga asoslangan. Bir kun nisbatan qisqa vaqt davri bo'lganligi sababli, uning o'lchov birliklari asta-sekin ishlab chiqildi. Dastlab barmoqlar bilan hisoblash amalga oshirildi. Buning natijasida o'n kun (o'n kun) va yigirma kun kabi vaqt birliklari paydo bo'ldi. Keyinchalik astronomik hodisalarga asoslangan hisob o'rnatildi. O'lchov birligi oyning ikkita bir xil fazalari orasidagi interval sifatida qabul qilindi. Oysiz tunlardan keyin tor oy yarim oyining paydo bo'lishini sezish eng oson bo'lganligi sababli, bu daqiqa yangi oyning boshlanishi deb hisoblangan. Sinodik oyning o'rtacha davomiyligi 29 kun, 12 soat, 44 daqiqa va 3 soniya. Kalendarlarni qurish amaliyotida 29,5 kun davomiylikdan foydalanilgan va to'plangan farq qo'shimcha kunlarni maxsus joriy etish bilan bartaraf etilgan.

Quyosh taqvimining oylari oyning fazalari bilan bog'liq emas, shuning uchun ularning davomiyligi o'zboshimchalik bilan (22 dan 40 kungacha), lekin o'rtacha (30 dan 31 kungacha) sinodik oyning davomiyligiga yaqin edi. Bu holat, ma'lum darajada, kun hisobini haftalar davomida saqlab qolishga yordam berdi. Etti kunlik vaqt (hafta) nafaqat yettita aylanib yuruvchi samoviy jismlarga (Quyosh, Oy, Mars,

Merkuriy, Yupiter, Venera va Saturn) mos keladigan yetti xudoga sig'inish tufayli paydo bo'lgan, balki ettita kunlar qamariy oyning chorak qismini tashkil etdi ...

Ko'pgina kalendarlarda qabul qilingan yildagi oylar soni (o'n ikki) ekliptikaning o'n ikki zodiacal yulduz turkumi bilan bog'liq. Oylarning nomlari ko'pincha ma'lum fasllar, kattaroq vaqt birliklari - fasllar bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Vaqtning uchinchi asosiy birligi (yil) ayniqsa ekvatorga yaqinroq joylashgan, fasllar o'rtasida unchalik katta farq bo'lmagan yerlarda unchalik sezilmaydigan bo'lgan. Quyosh yilining kattaligi, ya'ni Yer Quyosh atrofida aylanish davrini etarli darajada aniqlik bilan hisoblab chiqdi. Qadimgi Misr, bu erda tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar mamlakatning iqtisodiy hayotida alohida ahamiyatga ega edi. "Nildagi suvning ko'tarilish va pasayish davrlarini hisoblash zarurati Misr astronomiyasini yaratdi." Asta-sekin, tropik yilning o'lchami aniqlandi, ya'ni Quyosh markazining bahorgi tengkunlik nuqtasi orqali ikki ketma-ket o'tishi orasidagi vaqt oralig'i. Zamonaviy hisob-kitoblar uchun yil uzunligi 365 kun, 5 soat, 48 daqiqa va 46 soniya. Ba'zi kalendarlarda yillarni oy oylarining ma'lum soni bilan bog'liq va tropik yil bilan bog'liq bo'lmagan oy yillari bo'yicha hisoblash g'oyasi. Zamonaviy amaliyotda yilni nafaqat oylarga, balki semestrlarga (6 oy) va choraklarga (3 oy) bo'lish ham keng qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.E.Jumayev, Z.G'.Tadjiyeva – Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi Toshkent – 2005.
2. 3-sinf darslik/L.O'rinova va boshqalar – Toshkent Respublika ta'lim markazi. 2022
3. Fayllar.uz
4. Sobirovna, U. M. (2022). MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
5. Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
6. Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. World scientific research journal, 9(1), 220-224.

TEZKOR QIDIRUV FAOLIYATIDA KO'MAKLASHUVCHI SHAXSLARGA PUL MABLAG'LAR SARFLASH TARTIBI

Tilavov Ulug'bek Baxtiyor o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Akademiyasi 3-o'quv kurs 305 guruh kursanti

ANOTATSIYA

Ushbu maqola orqali muallif tezkor qidiruv faoiyatida ko'maklashuvchi shaxslarga ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ta'riflarni, tezkor qidiruv faoliyati to'g'risida qonunchilik hujjatlaridan foydalangan holda ayrim tushunchalarni, tezkor qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ko'maklashuvchi shaxslar bilan ishlash va ularni ijtimoiy huquqiy himoya qilishga doir adabiyotlarda keltirilgan ta'rif va tushunchalar yoritib o'tgan.

Kalit so'zlar: *tezkor bo'linmalar, jamoatchilik bilan hamkorlik, kooperativ tashkilot, tezkor qidiruv faoliyati, ko'maklashuvchi shaxs, rag'batlantirish, ikkiyuzlamachilik.*

АННОТАЦИЯ

В рамках данной статьи автор описывает приведенные в научной литературе определения лиц, оказывающих оперативно-розыскную деятельность, некоторые понятия о оперативно-розыскной деятельности с использованием законодательных документов, о работе с лицами, оказывающими содействие органам, осуществляющим оперативно-розыскную деятельность, и их социально-правовые нормы. Выделены определения и понятия, данные в литературе о делании.

Ключевые слова: *оперативные подразделения, сотрудничество с общественностью, кооперативная организация, оперативно-розыскная деятельность, опорное лицо, поощрение, лицемерие.*

ANNOTATION

Through this article, the author describes the definitions given in the scientific literature for persons assisting in the activity of rapid search, some concepts about the activity of rapid search using legislative documents, working with persons assisting the bodies implementing rapid search activities and their social legal protection. Definitions and concepts given in the literature on doing are highlighted.

Key words: *operative units, cooperation with the public, cooperative organization, operative search activity, supporting person, encouragement, hypocrisy.*

O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasining 121-moddasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy kooperativ tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo'linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko'rsatishi ta'qiqlanadi.¹

Tezkor qidiruv faoliyati to'g'risidagi qonunning 3-moddasiga ko'ra **Tezkor-qidiruv faoliyati** tezkor qidiruv faoliyati to'g'risidagi qonun bilan maxsus vakolat berilgan davlat organlarining tezkor bo'linmalari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlari o'tkazish orqali amalga oshiriladigan faoliyat turidir.

Ushbu qonunning 10-moddasida tezkor qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar ko'rsatib o'tilgan bo'lib unga ko'ra quyidagi organlargina tezkor qidiruv faoliyatini amalga oshirishga haqlidir:

- ✓ O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmatining;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy razvedkasining;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining;
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining;

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi elektron manbaa: Lex.uz sayti <https://lex.uz/docs/-20596>

✓ O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining organlari amalga oshiradi.

Tezkor qidruv faoliyati to‘g‘risidagi qonunning 12-moddasida 1-qismi 2-bandida tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning huquqlari qatoriga maxfiylik asosida ko‘maklashish istagini bildirgan shaxslar bilan pulli yoki bepul hamkorlik o‘rnatish kiritib o‘tilgan.

Ushbu qonunning 23-moddasiga ko‘ra tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ko‘maklashayotgan shaxslar davlat himoyasida bo‘ladi. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ko‘maklashayotgan shaxslar tezkor-qidiruv faoliyati uchun ajratilgan mablag‘lar hisobidan belgilangan miqdorlarda taqdirlanish huquqiga ega. Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ko‘maklashayotgan shaxslarning, shuningdek ular oila a‘zolarining hayotiga, sog‘lig‘iga yoki mol-mulkiga haqiqiy tahdid yuzaga kelgan taqdirda, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar ularga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda maxsus himoya chora-tadbirlarini ko‘rishi shart.

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ko‘maklashayotgan shaxs tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishda ishtirok etishi bilan bog‘liq holda mayib bo‘lgan, bu uning mehnat qilish qobiliyatini yo‘qotishiga hamda nogironlikka olib kelgan taqdirda, ushbu shaxsga qonunchilikka muvofiq bir yo‘la beriladigan nafaqa to‘lanadi hamda nogironlik pensiyasi tayinlanadi.

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ko‘maklashayotgan shaxs tezkor-qidiruv tadbirlarini o‘tkazishda ishtirok etishi bilan bog‘liq holda halok bo‘lgan taqdirda, marhumning oila a‘zolariga va qaramog‘ida bo‘lgan shaxslarga qonunchilikka muvofiq bir yo‘la beriladigan nafaqa to‘lanadi hamda boquvchisini yo‘qotganligi munosabati bilan pensiya tayinlanadi.

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga ko‘maklashayotgan, uyushgan jinoiy guruh, jinoiy uyushma orasiga ularni fosh qilish maqsadida kiritilgan shaxs qonunda belgilangan tartibda qilmishning jinoiyligini istisno

qiladigan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, qonunga xilof qilmishlari uchun jinoiy javobgarlikdan ozod etiladi.²

Tezkor-qidiruv amaliyoti guvohlik berishicha jinoyatchilikka qarshi kurashish vazifalarini samarali hal etishda ko'maklashuvchi (*ko'maklashmoq*- yordam, ko'mak bermoq yordamlashmoq)³ shaxslar institutidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Rossiya xavfsizlik xizmatining sobiq rahbarlaridan bo'lgan V.F.Grushko, "Nooshkora yordamchilar kuchidan foydalanmasdan jinoyatchilik terrorizm uyushgan va transmilliy boshqa o'ta og'ir jinoiy va ko'rinishlarga qarshi samarali tashkil etishning iloji yo'q" deb ta'kidlagan edi. Ko'maklashuvchi shaxslar institutidan foydalanish har bir davlatning mazkur sohadagi zarur amaliyoti hisoblanib, jinoyatlarni fosh etish imkoniyatini oshiradi. Masalan, AQShda Federal Tergov Byurosi (FTB) tomonidan 85% dan ortiq og'ir jinoyatlar ko'maklashuvchi shaxslar yordamida fosh etiladi.⁴

Shu bilan birga, yaqin o'tmishimizning ayrim bosqichlarida ko'maklashuvchi shaxslar institutini tugatishga urinishlar bo'lgan bo'lib, G.K.Sinilovning yozishicha, o'tgan asrning 60-yillarida davlat rahbarlarining jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamkorlikning nooshkora shakllaridan foydalanishdan voz kechishga va bu funksiyani jamoatchilik tashkilotlariga topshirish borasidagi o'ylamasdan qilingan harakatlari oqibatida ko'maklashuvchi shaxslar tarmog'i qariyb vayron etilgan bo'lib, buning natijasida jinoyatchilikning keskin oshib ketishi va uning ochilish darajasi pasayib ketishi kuzatilgan.

TQFni amalga oshiruvchi organlarga ko'maklashuvchi shaxslar bilan ishlash TQFning o'zagini tashkil etadi. Shu bilan birga, mazkur institut TQFning boshqa yo'nalishlari va shakllari ega bo'lmagan ayrim xususiyatlarga egaligi bilan ham ta'riflanadi. Jumladan, mazkur soxadagi fuqarolarni maxfiy hamkorlikka jalb qilish jarayonida o'ziga xos (huquqiy, ahloqiy, tashkiliy-taktik va boshqa) mustaqil mavqega ega bo'lgan subyekt namoyon bo'ladi. Bir tomondan, ko'maklashuvchi

² Tezkor qidiruv faoliyati to'g'risidagi 2012 yil 25 dekabrda qonun elektron manbaa: Lex.uz sayti <https://lex.uz/docs/-2107763>

³ O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 ga yaqin so'z birikmasi. /Ma'sul muharrir A.Madaliyev. – T.: 1997.-C.73.

⁴ Qarang: Grushko V.F. Судьба контрразведчика.-М...1997.-С.73.

shaxs ijtimoiy munosabatlar sub'ektlarining huquqiy holatiga ba'zan kuchli tasir etuvchi davlat-huquqiy faoliyatida bevosita ishtirok etadi. Boshqa tomondan, ular davlat hokimiyatiga tayanadigan biror-bir maxsus vakolatga ega bo'lmaydilar. Natijada ularning huquqiy tabiati qarama- qarshi va aniq belgilab berilmagan ijtimoiy munosabatlar sub'ektlari sifatida namoyon bo'ladi.

TQFni amalga oshiruvchi organlarga ko'maklashayotgan shaxslar TQF uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan belgilangan miqdorda taqdirlanish huquqiga ega bo'lib, uning miqdorini tezkor-qidiruv organi rahbari tomonidan belgilanadi. Bunday maqsadlarda TQFni moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari va mazkur faoliyatni amalga oshiruvchi organlarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirildai (qonunning 23, 24-moddalari).

Ijtimoiy himoyaning alohida turi sifatida TQFni amalga oshirishga ko'maklashayotgan shaxsning TQTni o'tkazishda ishtirok etishi bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, bu uning mehnat qilish qobiliyatini yo'qotishga hamda nogironlikka olib kelgan taqdirda, ushbu shaxsga qonun hujjatlariga muvofiq bir yo'la beriladigan nafaqa to'lanadi hamda nogironlik pensiyasi tayinlanadi. Shuningdek, ular TQTni o'tkazishda ishtirok etishi bilan bog'liq holda halok bo'lgan taqdirda, marhumning oila a'zolariga va qarmog'ida bo'lgan shaxslarga bir yo'la beriladigan nafaqa to'lanadi hamda boquvchisini yo'qotganligi munosabati bilan pensiya tayinlanadi (qonunning 23-moddasi to'rtinchi va beshinchi qismlari)

Ushbu toifa shaxslarga nisbatan huquqiy-tartibga solish choralari qo'llash, tezkor-qidiruv qonunchiligidan tashqari yana bir qator boshqa qonunchilik va qonunosti hujjatlarida nazarda tutilgan.⁵

⁵ Tezkor qidiruv faoliyati darslik Vahobjon Karimov Toshkent 2021 yil O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura akademiyasi elektron manbaa: <https://proacademy.uz/postfiles/books/iv/qh/index.html>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi elektron manbaa: Lex.uz sayti <https://lex.uz/docs/-20596>
2. Tezkor qidiruv faoliyati to'g'risidagi 2012 yil 25 dekabrda qonun elektron manbaa: Lex.uz sayti <https://lex.uz/docs/-2107763> Jinoyat huquqi Maxsus qism darslik M.X.Rustambayev Toshkent 2018. 10 bet
3. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 ga yaqin so'z birikmasi. /Ma'sul muharrir A.Madaliyev. – T.: 1997.-C 73.
4. Qarang: Grushko V.F. Судьба контрразведчика.-М...1997.-С.73.
5. Tezkor qidiruv faoliyati darslik Vahobjon Karimov Toshkent 2021 yil O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuratura akademiyasi elektron manbaa: <https://proacademy.uz/postfiles/books/iv/qh/index.html>

ТАРИХ ДАРСЛАРИДА ЎҚУВ ФАОЛИЯТНИНГ МУАММОЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ

Абдураимов Нозимжон Азимжон ўғли,

Сурхондарё вилояти, Денов тумани 11-АФЧЎМИ ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Мақолада умумтаълим мактабларида тарих фанини ўқитишнинг замонавийлаштириш жараёнларига мос келадиган инновацион усуллари кўллаш муаммолари зикр этилган. Тарих фанини ўқитишнинг интерфаол усулларида фойдаланиш ва ўқувчиларнинг мустақил ишларини ташкил этиш бўйича услубий тавсиялар тақдим этилган.

Калит сўзлар: тарих, компетенция, компетенцияга асосланган ёндашув, вазиятни ўрганиш усули, тадқиқот усули, модернизация, интерфаол усуллар,

ABSTRACT

The article substantiates the features of innovative methods of teaching history that are adequate to modernization processes in a comprehensive school. Recommendations on the use of interactive methods of teaching history and the organization of independent work of students are formulated.

Keywords: history, competence, competency-based approach, case study method, research approach, modernization, interactive methods

Умумтаълим мактабларда тарихни ўқитиш ва ўқитишнинг замонавий ёндошуви ўқув жараёнига ўқув дастурларини ва дидактик воситаларни ўзлаштиришнинг кўплаб интерфаол усуллари ўқувчиларнинг ижодий, мустақил фикрлашларини шакллантиришга ҳисса қўшишни ўз ичига олади. Компетенциявий ёндошувга асосланган таълим таълим тизимида ўқувчилар ва ўқитувчилар олдида қўйилган мақсад ва вазифаларга ўқувчиларнинг ақлий фаолиятини рағбатлантирадиган муаммоли, дизайн, ўйин усуллари ва

техникасини ўз ичига олган инновацион педагогик технологиялар тўпламидан фойдаланиш орқали эришиш мумкин. Ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида ўзаро тушунишни, таълим муаммоларини биргаликда ҳал этишни ва ўқувчиларнинг ижобий мулоқот кўникмаларини эгаллашга ёрдам берадиган мулоқот (интерфаол) шакллари (амалий машғулотлар, мунозаралар, мунозаралар).

Бизнинг фикримизча, ўқув дастурида ўқувчиларнинг мустақил иши улушини ошириш йўналиши бўйича мактаб таълимида ўқиш вақтини қайта тақсимлаш масаласи муҳокаманинг муҳокамаси сифатида кўриб чиқилиши лозим. Тарих фанини ўрганиш натижаси нафақат мустаҳкам билим, балки ўтмишдаги воқеаларни тушунтириш ва жамият ривожига объектив ва субъектив омилларни ҳисобга олган ҳолда сабаб-оқибат муносабатларини ўрнатиш қобилиятига эга бўлиши кераклиги, шунингдек, ўзларининг баҳс-мунозаралари қобилияти бўлиши муҳимдир [1].

Бизнинг фикримизча, ўқув ишининг муаммоли ва ўйноқи шакллари истиқболли бўлиб, синфда илмий полемикани ўқитувчининг обрўси ва босимсиз эркин, эркин тарзда олиб борилишини ташкил этиш учун имконият яратади. Мунозарада тарихий фактлар, воқеалар, жараёнлар ва ҳодисаларни ижодий тушуниш ўтмишни йўқолган тарихий алтернативлар нуқтаи назаридан кўриб чиқишда маълумотни танқидий баҳолаш ва мураккаб муаммоли муаммоларни ҳал қилиш билан бирлаштирилади.

Худди шу тамойилни ўқувчиларга замонавийлик воқелигини тушуниш учун бериш, тафаккур жараёнида тарихий изланишларнинг прогностик функциясини янада кучайтиради. Масалан, 7-синф Ўзбекистон тарихи дарсларида Чингизхон босқини ёки Амир Темур лавлати ҳақидаги мавзуларни ўқишда "Чингизхон" ёки "Амир Темур"- қонли золимми ёки таниқли сиёсатчи?" биз тарихий белгилар синовларини стимуляция қилиш усулидан фойдаланамиз. Ўқувчилар олдиндан дарс режасини, адабиётлар рўйхатини олдиндан олишади, ҳимоя ёки айблов позициясини аниқлаб олишади. Берилган режа бўйича асосий саволлар ўқитувчи билан маслаҳатлашади.

Бизнинг фикримизча, бўлажак мунозарани олдиндан йўналтириш амалий эмас, чунки дарснинг ушбу шакли ўқувчиларнинг мустақил ижодий ишларини ўз ичига олади, улар тарихий билим ва фактлардан фойдаланиш, уларга баҳо бериш, ўз фикрларини ифода этиш ва қўллаб-қувватлаш қобилиятини намоён этадилар. Масалани ўрганиш услуби ёки муайян вазиятлар услубидан, масалан, 7- синф “Ўзбекистон тарихи” дарсидаги “Амир Темуր –марказлашган давлати асосчиси”, “Темурийлар салтанатининг инқирозга юз тутиши”, 9-синф “Ўзбекистон тарихи” дарсидаги “Туркистонда 1916-йилги воқеаларнинг аҳамияти ва оқибатлари”, 11-синф “Ўзбекистон тарихи” дарсидаги “Ўзбекистоннинг Марказий Осиё мамлакатлари билан ўзаро ҳамкорлиги” мавзуларини ўзлаштиришда фойдаланиш мумкин. Танланган усул ҳақиқий вазиятларни таҳлил қилиш асосида билим жараёнини фаоллаштиришга ёрдам беради ва ўқувчиларнинг умумий коммуникатив ва интеллектуал салоҳиятини ривожлантиришга қаратилган. Биринчидан, жамоавий муҳокама бўлиб ўтади, кейин ҳар бир иштирокчи шахсий позициясини билдиради.

Кейс-стади услубининг ўзига хос хусусияти - бу ягона тўғри қарорнинг йўқлиги, қарор қабул қилиш алгоритминини танлаш ва шу билан бирга тадқиқот элементлари билан танишиш имконини беради. Бироқ, амалий тадқиқотлар, шунингдек, тарихий белгилар синовларини симуляция қилиш усули билан, агар ўқувчилар пухта тайёрланган бўлса, улар фақат керакли маълумотларни йиғибгина қолмай, балки барқарор алоқа ва мустақил ишлаш кўникмаларига эга бўлганда муружаат қилишлари мумкин.

Ўқувчилар "Тошкентда “Вабо исёни” мавзусини, "Туркистонда миллий озодлик ҳаракатларининг бошланиши ва унинг сабаблари” мавзусини ўрганишда мунозарада катта қизиқиш уйғотади. Гуруҳ ишининг ушбу интерфаол шакллари, улар давомида "ўтмишдаги муайян вазият моделлаштирилади, одамлар - маълум бир тарихий давр иштирокчилари ва кўпинча тарихий драма" ҳаётга кириб, "ҳаракат қилишади" [2], ўқувчиларнинг аналитик тафаккурини ривожлантиришга ҳисса қўшадилар. муқобил тарихий

танқидлар нуқтаи назаридан тортишув тизимини яратиш қобилиятини шакллантириш.

Ўтмишда содир бўлган воқеаларни оқилона баҳолаб, шу асосда ҳозирги кунга қараб, ўқувчилар билимга асосланган, қарор қабул қилишни ўрганадилар, ижтимоий муносабатларнинг субъектларига айланадилар. Таъкидлаш керакки, ўқув машғулотларини муҳокамалар, мунозаралар, ролли ўйинлар ва бошқалар шаклида ўтказиш, агар ўқувчилар бошланғич билимларга эга бўлган мавзулар бўйича олиб борилса ва танланган мавзулар юқори малакали деб таснифланмаса. Бундан ташқари, тарихий масалаларни кўриб чиқиш стратегияси аста-секин далилларни оддий баён этишдан муаммонинг кенгроқ баёнига ўтишни назарда тутиши керак.

Ҳар бир янги мавзу олдидан муаммоли савол бериш, унинг келгуси тақдимотини актуаллаштириш, уни идрок этиш ва тингловчилар томонидан талаб қилинадиган билимлар омили ўртасидаги қарама-қаршиликни йўқ қилади. Бундай ташкилот ёрдамида маъруза тингловчиларнинг когнитив фаоллигини рағбатлантирадиган, тадқиқот жараёнига тақлид қилиб, унинг махсус интеллектуал зўриқишини юзага келтирадиган диалогга айланади. Шу билан бирга, дарс давомида ўқитувчи ҳам, унинг ўқувчилари ҳам мунозаранинг асосий масалаларини илгари суришда фаол иштирок этишлари мумкин.

Ўқувчиларнинг тарих фанига қизиқишини оширишнинг яна бир усули бу лойиҳавий фаолият, бу тарихий ўтмишни ва унинг ҳозирги замон билан алоқаларини, тарихнинг яратувчиси сифатида ўзига хос мавқеининг аниқ шартлилигини тан олиш имкониятини чуқур англашга йўл очади.

Тарихий манбаларга таянмасдан тарихни ўрганиш тарихий воқеликни соддалаштирилган, яққол идрок этишига олиб келади, билиш жараёнини бегона интеллектуал лабиринтларда адашиб кетишга айлантиради. Шу муносабат билан, лойиҳалар устида ишлашда ўқувчилар тарихий архивларни сақлайдиган электрон манбалардан фойдаланишлари муҳимдир [3, 91-бет].

Хулоса, бундай фаолият жараёнида ўқувчилар у ёки бу тарихий вазиятни рационал ва ахлоқий позициялардан объектив равишда баҳолаш қобилиятини ривожлантирадилар, мулоқот кўникмаларини яхшилайдилар ва гуруҳ ишига ҳиссий жалб қилиш орқали бошқа одамларнинг фикрларини онгли равишда ҳисобга олиш ва қабул қилиш қобилиятини ривожлантирадилар.

Хаволалар рўйхати:

1. Абдурахманова Ж. Н. (2019). Тарих фанини ўқитиш усуллари ва уларнинг самарадорлиги // Та'лим, fan va innovatsiya. Т.: 1(4), 35-39.
2. Сағдиев А., Фузаилова Г., Ҳасанова М. Тарих ўқитиш методикаси. – Тошкент: ТДПУ, 2008. – Б. 37-47.
3. Уразова М.Б., Эшпулатов Ш.Н. Бўлажак ўқитувчининг лойиҳалаш фаолияти // Методик қўлланма. – Тошкент: ТДПУ Ризографи, 2014. 6,5 б.т.
4. Sobirovna, U. M. (2022). MODERN APPROACHES TO EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
5. Sobirovna, U. M. (2022). DIDACTIC PRINCIPLES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF TECHNOLOGY LESSONS.
6. Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. *World scientific research journal*, 9(1), 220-224

ТАРИХ ДАРСЛАРИДА ҲАМКОРЛИКДАГИ ТАЪЛИМ КЛАСТЕРИ

Ҳамраева Ирода Ғайратовна,

Сурхондарё вилояти, Қумқўрғон тумани 28 -мактаб тарих фани ўқитувчиси

АННОТАЦИЯ

Мақолада умумтаълим мактабларида тарих фанини ўқитишнинг замонавийлаштириш жараёнларига мос келадиган ҳамкорликдаги таълим кластерини қўллаш муаммолари зикр этилган. Тарих фанини ўқитишда ҳамкорликдаги таълим кластери ўқувчиларнинг когнитив фаолияти даражасини такомиллаштиришнинг муҳим воситаси сифатида талқин этилган, мавзу доирасида услубий тавсиялар тақдим этилган.

Калит сўзлар: тарих, ҳамкорликдаги таълим кластери, компетенцияга асосланган ёндашув, вазиятни ўрганиш усули, интерфаол усуллар.

ABSTRACT

The article mentions the problems of using a cooperative educational cluster that is compatible with the modernization processes of teaching history in general education schools. Collaborative learning cluster in history teaching is interpreted as an important tool for improving the level of students' cognitive activity, methodological recommendations are presented within the topic.

Key words: history, collaborative learning cluster, competency-based approach, case study method, interactive methods.

Сўнгги йилларда дунёнинг кўплаб мамлакатларида умумий ўрта таълим муассасалари таълим оловчилари таълим ва тарбияси сифатини оширишнинг энг самарали йўллари бўйича илмий ва ижодий изланишлар олиб борилмоқда. Таълим жараёнларини услубий жиҳатдан такомиллаштириш ўқитувчиларнинг

Ўз фаолиятини, компетентлигини янада ривожлантиришни талаб қилади. Узлуксиз таълим жараёни илмий-педагогик тамойилларга амал қилгандагина ўз олдига қўйган мураккаб муаммоларни еча олади. Таълим жараёнини мақсадга мувофиқ ташкил қилиб, дарс самарадорлигини ошириш учун эса, энг муҳим, ҳал қилувчи аҳамиятга эга тамойилларни белгилаган ҳолда унга қўйиладиган талабларни бажармоқ зарур. Бу талаблар таълим-тарбиянинг давр талабига мослиги, педагогик жараёнда объектив ва субъектив жараёнларнинг уйғунлиги, таълим-тарбияда мақсад, мазмун, метод ва воситаларнинг бир-бири билан боғлиқлиги каби таълим кластерининг умумий қонуниятлари ҳамда тамойилларидан фойдаланиб амалга оширилади. Бу каби талабларни аниқлаш учун тарих таълимнинг ўзига хос хусусиятлари ҳисобга олиш лозим.

Тарих фанларини ўқитишда умумтаълим мактабларида ҳамкорликдаги таълим кластерларини ташкил қилиш энг самарали механизм бўлиб, бунда олий ва умумий ўрта таълим муассасаларининг ўзаро тенг ҳуқуқли ҳамкорлиги асосидаги таълим турлари интеграцияси ҳамда тарих фанларини ўқитишда узвийлик ва изчилликни таъминлашга асосланган таълим мазмуни интеграцияси муҳим бўлиб, бу интеграциялар таълим самарадорлигини оширишда долзарб аҳамиятга эга[1].

Таълимда компетенциявий ёндашув орқали ўқувчиларнинг шахсий, касбий ва ижтимоий ҳаётларида учрайдиган вазиятларда эгаллаган турли типдаги малакаларини самарали равишда қўллашга ўргатиш, таълим муассасасида умумтаълим фанлари бўйича ўқувчиларнинг билим, кўникма ва малакаларга эга бўлишлари билан биргаликда, ўз фикрини бошқаларга тушунтира олиш, бошқаларни тинглаб уларни тушуна олиш, баҳсга киришиш, кундалик ҳаётда муваффақиятларга эришиш учун ўқувчи ушбу ахборотларни излаб топиши, таҳлил қилиш, билим, кўникма ва малакалардан кундалик ҳаётларида учрайдиган муаммоларни ҳал этишда фойдалана олишларини шакллантириш зарур[2].

Таълим кластерининг ўзига хос хусусиятига кўра, мактабларда олиб бориладиган таълимий ва тарбиявий жараённинг ҳар бир дақиқасидан унумли фойдаланиш талаб этилади, бундан келиб чиқиб тарих ўқитувчилари оғзаки ўқитиш усулидан воз кечган ҳолда тарих фанларини интеграцион асосда ўқитишга, ахборот технологиялари асосида мустақил ўрганишга ўргатиш катта аҳамиятга эга.

Тарих таълимидаги дарсликлар, хариталар, хужжатлар, жадвал, тушунчалар, турли хил қўлланмалар шу жумладан даврий нашрлар ва бошқа манбалар билан мустақил ишлашга ўргатиш талаб этилади. Ўқитувчи ўқувчи билан биргаликда жадваллар, диаграммалар, хариталар, иллюстрациялар тайёрлаш иш тизимини ташкил қилиши зарур. Ривожланган мактаблар тажрибаси шуни кўрсатадики, тарих ва ҳаётни ўрганиш ўртасидаги боғлиқлик ўқувчилар билим савиясининг ортишига олиб келади. Таълим жараёни иштирокчилари томонидан жараёни услубий такомиллаштириш бўйича доимий иш олиб борилгандагина ўқувчилар фанга оид компетенцияларни мукамал ўзлаштиради.

Демак, тарих таълимининг сифатини оширишнинг асосий усуллари қуйидагиларда намоён бўлади:

мустақил ишлаш услубларини ўрганиш; оғзаки ўқитиш усуллари билан шуғулланишдан воз кечиш; ўқитувчилар фаолиятини ривожлантириш;

иш усулларида ёш хусусиятларини ҳисобга олиш;

олинган билимларни амалиётда қўллай олишга эътибор қаратиш ва ҳоказо[3].

Мактаблар учун нашр қилинадиган янги авлод адабиётлари ўрганган материалларни мустаҳкамлаш, назария ва тушунчаларни ижодий ўзлаштириш ва уларни аниқ ҳаётий вазиятларни ҳал қилишда қўллаш имконини берувчи мустақил иш ва ўз-ўзини назорат қилиш материаллари билан такомиллаштирилиши тарих фанларига оид компетенцияларни ривожланишига олиб келади. Шунингдек, улар электрон таълим ресурслари

ва модулларга боғланган бўлиши таълим олишда маълумотлар ҳажмини ошишига ва уларни доимий тўлдириб борилишига ёрдам беради.

Тарихий билимларни ўрганиш тарихий воқелик ҳақидаги ғояларни, инсоният жамияти тараққиёти ҳақидаги илмий тасаввурни, тарихий билимларни ўзлаштириш ва замонавий жамиятни билиш жараёнида тарихий воқеаларни ўрганиш учун индикатив асос бўлиб хизмат қилади. Тарихий билимларнинг тизимли тузилиши тарихий тасаввурлар, тарихий тушунчалар ва тарихни билиш методологиясини билишдан иборат.

Тарихий билимларнинг ҳар бир таркибий қисмига қуйидагича қисқача тавсиф бериш мумкин:

1. Тарихий тасаввурлар тарихий далиллар, воқеалар, шахслар ва уларнинг вақт ва макондаги маҳаллий даражасининг ташқи ва энг мазмунли хусусиятлари орқали ўқувчилар онгида акс этади.

Тарихий тасаввурлар доим субъективдир, бу тарихий воқеликни идрок этишнинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқади.

2. Тарихий тушунчалар дастлабки тарихий идрокда англашилмасида, у тарихий далилларнинг энг муҳим, умумлаштирилган, тизимлаштирилган хусусиятларини ёдда тутиб, уларнинг ички мазмун-моҳиятини очиб беради. Тарихий тушунчалар объектив бўлиб, тарихий билимларнинг асоси ҳисобланади.

3. Тарихни билиш методологиясини билиш сабаб ва оқибат муносабатлари, тарихий тушунча ва далиллар, тарихий жараённинг ривожланишида муайян натижага олиб келадиган воқеалар ўртасидаги муҳим ва барқарор муносабатларини ҳамда тарих фани билимларини ўз ичига олади. Бунга ўқувчиларнинг тарихий материал билан ишлаш ҳақидаги билимларини ҳам киритиш мумкин[4].

Бошқача қилиб айтганда, бу тарих фанларини ўрганиш шаклландирган интеграцион компетенциялар ҳисобланади. Тарих фанларига оид компетенцияларни ривожлантириш ўқувчиларнинг когнитив фаолияти

даражасини такомиллаштиришнинг муҳим воситасидир, улар замонавий ҳаётда янада самарали ва тўғри ҳаракат қилиш имконини беради.

Тарих таълимига нисбатан кластер ёндашуви муассаса бошқарув органларига тизим ичида самарали ўзаро таъсир ўтказиш учун муайян воситалар билан таъминлаш, муаммоларни яхшироқ тушуниш, минтақада тарих фанларини самарали ўқитишни ривожлантиришнинг илмий асосларини режалаштириш имконини беради.

Хаволалар рўйхати:

1. Короткова М. В., Студеникин М.Т. Методика обучения истории в схемах таблицах описаниях. Практическое пособие для учителей. – М., 2007.
2. Мадраимов А., Фузаилова Г. Тарихий манбашунослик. – Тошкент: Фан, 2016.
3. Ганиева М., Файзуллаев Д. Кейс-стади ўқитишнинг педагогик технологиялари тўплами. – Тошкент: Иқтисодиёт, 2013.
4. Воинова М.Г. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. – Тошкент: IQTISOD-MOLIYA, 2006.
5. Sobirovna, U. M. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDAN FOYDALANISH. World scientific research journal, 9(1), 220-224.
6. SOBIROVNA, U. M. (2021). Modernization of the content, methods and tools of technologies in the organization of modern education. IEJRD.
7. Sobirovna, U. M., & Sharifjon, P. O. (2023). Choosing Organizational Forms of Education in the Effective Organization of Technology Courses. Journal of Innovation, Creativity and Art, 2(2), 77-81.
8. Sobirovna, U. M. (2022). Improving the educational system for children with disabilities. The Peerian Journal, 4, 20-22.
9. Sobirovna, U. M., & Irodaxon, T. (2022). TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODLARI. PEDAGOGS jurnali, 21(1), 41-44.
10. SOBIROVNA, U. M. (2021). Modernization of the content, methods and tools of technologies in the organization of modern education. IEJRD.

**УМУМТАЪЛИМ МУАССАСАСИ РАЎБАРИ ИМИДЖИНИ
РИВОЖЛАНТИРИШДА МАКТАБ ИМИДЖИНИ
ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ**

Юнусова Барно Мухамедумаровна

Ориентал университети магистранти

Маълумки, сўнги йилларда таълим соҳасида юзага келган муаммо ва камчиликлар бу соҳада кўзлаган мақсадларимизни юзага чиқишида бир оз оқсоқланишга олиб келди. Мамлакатимиз раҳбари ҳам халқ таълими тизимида юзага келган бир қатор муаммоларнинг мавжуд эканлигини таъкидлаб ўтдилар, хусусан, жойларда умумий ўрта ва мактабдан ташқари таълим соҳасида давлат сиёсатини амалга ошириш, умумтаълим муассасалари раҳбарларини танлаш ва жой-жойига қўйиш масалаларини ҳал этиш, идоравий мансуб ташкилотларнинг мулкидан самарали фойдаланишда халқ таълими бошқарув органлари ролининг етарли даражада эмаслиги; умумтаълим муассасалари раҳбарлари зиммасига уларга хос бўлмаган вазифалар ва функцияларни юклаш, муассаса директори ва унинг ўринбосарлари ўртасида ваколатларнинг аниқ тақсимланмаганлиги, улар фаолияти самарадорлигини баҳолашнинг аниқ мезонлари ва параметрлари мавжуд эмаслиги; умумий ўрта таълимнинг долзарб масалалари ва уларнинг натижаларини амалиётга татбиқ этиш бўйича чуқур илмий тадқиқотларнинг мавжуд эмаслиги, ўқув-тарбия жараёнини услубий таъминлаш масалаларида халқ таълими бўлимлари ва умумтаълим муассасалари ўртасида ўзаро ҳамкорлик даражасининг пастлиги; раҳбарлар, ўқитувчилар ва умумтаълим муассасалари бошқа ходимларининг касбий фаолиятига асоссиз равишда аралашувдан ҳимоя қилиш механизмларининг самарасизлиги, назорат қилувчи ва бошқа давлат органлари томонидан мактабларни текшириш ҳаддан зиёд кўпайиб

кетганлиги¹ каби бир қатор муаммоларга ечим топиш айни вақтда долзарб вазифага айланди. Келтирилган бу каби муаммоларни бартараф этишда жамиятнинг бир қатор соҳаларининг ҳамкорликдаги фаолияти яхши натижа бериши шубҳасиз. Халқ таълимида амалга оширилаётган ислоҳотлар жараёнида жамиятда умумтаълим муассасаларининг роли ва мавқеини ошириш, улар орасида ўзаро соғлом рақобат ва ҳамкорлик муҳитини ривожлантириш мақсадида умумтаълим мактабининг имижини ривожлантириш юқорида келтирилган муаммоларга ечим бериш, замонавий мактабларни ташкил этиш орқали халқ таълимида юзага келган муаммоларга ечим топиш ва провард мақсадларни амалга оширишда муҳим омил бўлиб хизмат қилади.

Маълумки, сўнги йилларда замонавий мактаб қандай бўлиши керак, мактаб ички ва ташқи фаолият доираси орқали мактаб имижини, жамоатчилик билан алоқалар (PR) ўрнатиш тизимини самарали ташкил этиш масалалари янада муҳим аҳамият касб этмоқда. Бунга қуйидаги сабабларни ҳам келтириш мумкин:

- биринчидан, бу турли йўналиш ва кўриниш фаолиятидаги мактабларнинг ўзаро алоқаларини мустаҳкамлаш;

- иккинчидан, давлат ва нодавлат типдаги мактабларга ўқувчиларни жалб қилишдаги ўзига хосликларга эришиш;

- учинчидан, ўрганилишлар натижаси шуни кўрсатадики, таълим соҳасига кириб келаётган инновациялар ва соҳадаги ривожланиш кўринишлари ҳар доим ҳам ўқувчилар (талабгорлар) ва уларнинг ота-оналари учун тўлиқ тушунарли бўлмаётгани ҳам таълимда амалга оширилаётган ислоҳотлар натижавийлигига тегишлича таъсир кўрсатади.

Шундай экан, умумтаълим муассасаларининг имижини шакллантириш орқали қуйидаги масалаларга аниқлик киритилади:

- умумий ўрта таълим тизимидаги мураккаб демографик вазиятлар;

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 сентябрдаги “Халқ таълимини бошқариш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 5538-сон Фармони.

- ўқувчиларнинг ўзлигини англаши ва эртанги кунини тўғри режалаштиришдаги мураккабликлар;
- умумий ўрта таълим муассасаларига ижтимоий талаблар;
- мактаб ҳақидаги ғояларни шакллантириш юзасидан таълим ва бошқарув амалиёти талаблари;
- ушбу соҳада таълим муассасалари тажрибаси².

Шу ўринда Ўзбекистонда “Замонавий мактаб” Давлат дастури ишлаб чиқиладигани қувонарли ҳолат. Унга кўра Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Лойиҳа бошқаруви миллий агентлиги, бошқа манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда Ўзбекистон Республикасида 2030 йилга қадар умумий ўрта ва мактабдан ташқари таълимни тизимли, минтақавий ва мақсадли ривожлантиришнинг устувор йўналишларини, шунингдек, уни амалга ошириш бўйича “йўл харитасини” ўз ичига олган Халқ таълими тизимини ривожлантиришнинг узоқ муддатли концепцияси ишлаб чиқилиши; шунингдек, Қурилиш вазирлиги, Молия вазирлиги, Инвестициялар бўйича давлат қўмитаси билан биргаликда етакчи лойиҳа институтларини жалб қилган ҳолда, умумтаълим муассасаларини қуришнинг халқаро тажрибасини ўрганиши ва қуйидагиларни эътиборга олган ҳолда “Замонавий мактаб” лойиҳасини киритиши белгилаб берилган:

экологик жиҳатдан тоза материаллар ва энергиянинг муқобил манбаларидан фойдаланган ҳолда ишлаб чиқилган намунавий лойиҳалар асосида замонавий мактаблар қуриш;

мактабларни, шу жумладан, ўқув синфлари ичини янги қулай мебеллар, замонавий ўқув ва лаборатория ускуналари, дарсликлар ва ўқув-услубий материаллар, компьютер ва мультимедиа техникаси, видеокузатув тизимлари билан жиҳозлашқаби вазифаларни назарда тутади.³

²И.А. Хоменко. Имидж школы: механизмы и формирования и способы построения.

³Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 сентябрдаги “Халқ таълимини бошқариш тизимини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони

Демак, замонавий мактабларни барпо этишнинг ҳуқуқий асоси яратилди. Замонавий мактаблар фаолиятини ривожлантиришда мактаб имижини шакллантириш ҳам муҳим масаладир. Мутахассислар мактаб имижини шакллантирувчи куйидаги омилларни тавсия қилади:

- *мактаб менежерининг ижобий қиёфаси* – бу раҳбарининг шахсий физиологик хусусиятлари (характер, маданият, жозибадорлик), ижтимоий хусусиятлар (маълумоти, таржимаи холи, турмуш тарзи, мақоми, қадриятлари), раҳбарлик хусусиятлари (таълим тараққиёти стратегиясини, таълим технологиялари, умумтаълим мактаби фаолиятининг иқтисодий ва ҳуқуқий асосларини билиши, тарбиялилик);

- *сифатли таълим хизматлари* – ўқувчиларни тайёрлашда таълим жараёнидаги ривожланишларни инобатга олиш, уларнинг таълим-тарбияси, психологик вазифалар, ижодий имкониятлар, соғлом турмуш тарзини шакллантириш, таълим-тарбия мақсадларини аниқ кўрсатиш, таълим муассасаси миссиясини шакллантириш, турли ижтимоий институтлар билан мактаб ҳамкорлиги;

- *психологик қулай муҳитнинг қай даражада эканлиги, ўқитувчи-ўқувчи муносабатидаги ўзаро ҳурмат, низоларсиз муносабатлар, жамоада самимийлик ва оптимизм, таълим жараёнининг алоҳида иштирокчиларига замонавий психологик кўмак бериш.*

- *персонал қиёфаси* – бу малакалилик, шахсий самарадорлик, ташқи кўриниш, ходимнинг бошқарув, ижтимоий ва педагогик компитентлилиги.

- *таълим муассасаси стили, мактабнинг маънавий ташкилий фаолият самарадорлиги, болалар ва ёшлар уюшмаларининг мавжудлиги ва фаолияти, мактабнинг ташқи қиёфаси, анъаналари, таълим жараёни иштирокчиларининг ўзаро ҳамкорлик кўриниши;*

- *ташқи атрибутлар* – мактаб формаси, мактаб нашри (газетаси), мактабнинг шахсий интернет сайти, мактаб рамзини ўйлаб топиш.

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб, бугун мамлакатимизда фаолият олиб бораётган умумтаълим мактабларини қиёслаб таҳлил қилиб кўрамиз.

Уларни қуйидагича ажратиш мумкин, давлат умумтаълим мактаблари, хусусий мактаблар, ихтисослаштирилган давлат умумтаълим мактаблари каби. Буларнинг барчаси учун тенг имкониятлар яратилган, фақатгина ўз фаолиятини маҳорат билан ташкил қилиш ва олиб бориш самарадорлигига эришиш вазифасини англаб етиш лозим. Аслида таълим фаолиятини ташкил қилувчилар, мактаб раҳбарияти, педагогик жамоа ва албатта ўқувчиларнинг мактабдаги ва мактабдан ташқари фаолиятини тўғри ташкил қилиш, уларнинг фаолият ваколатларини кенгайтириш, эркин изланиш ва ижодкорлик муҳитини яратиш, моддий таъминот ва инвестицион фаолиятни рағбатлантириш ишларини ривожлантириш жуда муҳимдир.

Ҳукуматимиз томонидан халқ таълими соҳасида қабул қилинаётган қарор ва фармонларда замонавий мактаблар фаолиятини йўлга қўйиш бўйича кенг имкониятлар яратилиши билан бирга уларни қўллаб-қувватлаш бўйича тегишли чора-тадбирлар ҳам олиб борилмоқда. Шундай экан, умумтаълим мактаблари ҳам жамиятда ўз имижини яратиш билан мактаб фаолияти самарадорлигини янада оширишга эришади.

Маълумки, жамиятда қай бир соҳа бўлмасин, унинг барқарор ривожланишида шу соҳада фаолият юритаётган тегишли ташкилотларнинг жамиятдаги фаол роли ва жамият ривожига ҳиссаси катта аҳамиятга эга. Шу асосда умумтаълим мактабларининг мамлакат таянч бўғини сифатида юзага чиқиши айни муддаодир. Асоски, Ўзбекистон аҳолисининг олтимиш фоиздан ортиғини ташкил қилаётган ўқувчи-ёшларимизни ҳар тамонлама қўллаб-қувватлашда, уларда фаол фуқаролик позициясини шакллантиришда, ижтимоий-сиёсий жараёнларнинг фаол иштирокчисига айланишларида умумтаълим мактабларининг жамоатчилик билан кенг ҳамкорлигини ривожлантириш, умумтаълим муассасалари нафақат таълим-тарбия берувчи маскан, балки, ижтимоий институт сифатида⁴ ҳам фаолият олиб боришини инобатга олмоқ лозим. Ижтимоий ва сиёсий позицияга эга бўлиш, ўз-ўзини

⁴Ш.Курбонов, Э.Сейтхалилов “Таълим сифатини бошқариш” Т.: 2006

мустақил бошқариш механизмларини кенгайтириш, бугунги шиддат билан ўзгариб ва ривожланиб бораётган жараёнларга лаббай деб жавоб бера олишда муассасанинг жамиятдаги имижини шакллантириш муҳим вазифадир. Ҳар бир муассаса, ташкилотнинг имижи унинг ваколат ва функционал вазифаларидан келиб чиқиб яратилади ва шу тариқа таъсир ва ҳамкорлик доираси кенгая боради.

Аслини олганда ҳам ҳеч бир муассаса, айниқса, умумтаълим муассасаси яқка холдаги фаолияти билан тараққий эта олмайди. Унинг фаолиятида тегишли жамоатчилик институт ва гуруҳлари (фуқаролик жамияти институтлари, ота-оналар, кузатув кенгашлари, ўз-ўзини бошқариш органлари ва б.) билан ҳамкорлик орқали ривожланиши тизимдаги муаммоларни комплекс равишда бартараф этишга ёрдам беради.

Мутахассислар фикрича, ҳозирги даврда ишбилармонлик ва сиёсий фаолият билан шуғулланаётган кишилар учун имиж яратиб бориш заруратга айланиб қолди. Жамиятда ҳар бир ташкилот имижини яратиб бориш мақсадга мувофиқ эканлигини барча мутахассислар эътироф этишади.

Юқоридаги фикрлардан хулоса чиқариш мумкинки, умумтаълим муассасалари бошқарувида муассаса имижини шакллантириш ва ривожлантира бориш зарурий масала эканлигидан далолат беради.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 сентябрдаги “Халқ таълимини бошқариш тизимини такомиллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 5538-сон Фармони.
2. И.А. Хоменко. Имидж школы: механизмы и формирования и способы построения.
3. Ш.Қурбонов, Э.Сейтхалилов “Таълим сифатини бошқариш” Т.: 2006.

BOSHLANG'ICH SINIFLARGA KASR TUSHUNCHASINI TANISHTIRISH METODIKASI

Otabayeva Zuhra

UrDU Pedagogika fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarga kasr tushunchasini o'rgatish muammolari va yechimlari haqida, kasr tushunchasini o'rgatishga doir tavsiyalar yoritilib berilgan.

Kalit so'z: innovatsion texnologiya, kasr tushunchasi, miqdorlar, ulushlar, boshlang'ich sinf o'quvchilari

O'quv predmeti sifatida matematika o'qitish metodikasi eng avvalo, kichik yoshdagi o'quvchilarni umumiy tizimda o'qitish va tarbiyalash vazifasini qo'yadi. Umumiy metodika boshlang'ich sinf matematikasining mazmunini va tizimligini aks ettiradi, har bir bo'limni o'qitishning o'ziga xos xususiy metodlarini o'rgatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematika darslarini tashkil qilish murakkab jarayondir. Sababi boshlang'ich sinf o'quvchilari bir xillikdan zerikib qolishadi. Bunda o'qituvchi pedagogik mahoratini ishga solgan holda darsni noan'anaviy shaklda olib borsada maqsadga muvofiq bo'ladi. Boshlang'ich matematika fani bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Boshlang'ich matematik bilimlarni egallashlarida tayanch ustun vazifasini bajaradi.

Dars o'tish jarayonida o'qituvchi innovatsion texnologiyalardan va ko'rgazmali qurollardan foydalanib darsni tashkil qilishi kerak. Kasrlarni hosil bo'lishi, ularni taqqoslash, sonni ulushini topish va berilgan ulushiga ko'ra sonning o'zini topish bilan tanishadilar. 4-sinfda 1 ning ulushi va bir necha ulushi, uning yozma ko'rinishi tasavvurlariga ega bo'ladilar. Kasr tushunchasi geometriyada kesma ulushi, middorlarning ulushi o'zaro bog'langan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga kasr va miqdor tushunchalari 3-sinfda o'rgatiladi.

Miqdorlarning ulushlari bilan [tanishtirish metodikasi](#).

3-sinf matematika darsligida birning ulushlarini $1/2$, $1/3$, $1/4$ va shu kabilar o'quvchilarga o'qitiladi. Bunday kaslarni o'rgatayotganda ko'rgazmali qurollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, tarvuz, olma, non, santimetrli lenta, qog'ozlar. Ko'rgazmali tushuntirishda, masalan, olmani teng ikkiga bo'lish, yordamida kasr hosil qilinadi. Shunga mos olmani teng bo'lmagan 2 bo'lakka bo'lib, u yarim olma emasligini, demak, kasrni hosil qilmaslikni tushuntirish kerak. Faqat teng bo'lakka bo'lgandagina kasr son yoki butunning ulushi hosil bo'lishini mustahkam singdirish lozim.

Turli xil geometrik shakllar bilan ishlayotganda bu shakl yordamida ulushlarni hosil qiladilar, hamda uning ba'zi xossalarini keltirib chiqaradilar. Masalan, nonni teng 4 bo'lakka bo'lishda, uni ikkita yo'l bilan bo'lib, o'zaro tengligiga, tomonlarining o'zaro [tengligiga asoslanib](#), uning simmetriyasi haqida tasavvurlarga ega bo'ladilar.

"Ulushlar" mavzusida o'qituvchi tomonidan tayyorlanib kelgan shakllarni teng bo'laklarga bo'lish asosida ulushlarni taqqoslash ham tushuntiriladi. Masalan, o'qituvchi 5 ta bir xil santimetrli lentani yo'lakchali qilib qirqishni taklif qiladi.

Bu yo'lakchanning birinchisini teng ikkiga, ikkinchisini teng to'rtga, bo'lib, ularni ustma-ust qo'yish asosida har bir teng bo'laklarni taqqoslaydi. Unda $1/2 > 1/4$, $1/4 > 1/8$, $1/3 > 1/6$ kabi ekanligiga ishonch hosil qiladilar. 3-sinfda sonning ulushini topishni amaliy masalalardan boshlash kerak. Masalan, uzunligi 12 sm bo'lgan qog'oz yo'lakchani olib uni ikkiga buklash topshiriladi. Yo'lakchanning yarmi necha sm? $12/2=6$ sm. Endi yo'lakchani yana ikki buklab to'rt qismga bo'ladi. Yo'lakchanning qanday qismi hosil bo'ldi va uning uzunligi qancha? Javob: $12:4=3$ sm. $1/4$ qism. Bu ish chizg'ich yordamida ham o'lchab ko'riladi.

Masala. Kitob 60 bet, o'quvchi uning $1/4$ qismini o'qidi. Necha bet kitob o'qilgan. 60 betning $1/4$ qismi qancha? $60 :4=15$ bet.

Kasrga oid masalalarni yechayotganda chizmadan ham foydalansa bo'ladi : [son kesma orqali tasvirlanadi](#), u berilgan sondagi teng bo'laklarga bo'linadi, ulushi belgilanadi, so'ngra yechishni og'zaki yoki yozma bajaradi. Masalan, $1/2$ m da, $1/3$ m da, $1/4$ m da necha sm bor?

Keyinchalik, sonni uning ulushi bo'yicha topishga doir masalalar bilan sonning ulushini topishga doir masalalar aralashtirib kiritiladi. 3-sinfda ulushni va ulushga qarab sonni topishga doir faqat sodda masalalar, 4-sinfda esa murakkab masalalar yechdiriladi.

Kasrlarni o'rganish metodikasi.

4-sinf matematika darsligida "Ulushlar" mavzusi berilgan. Bu yerda ham ko'rgazma qurol bilim berishning bosh mezonini bo'ladi. Narsalarni, shakllarni va boshqa atrofda qilarni teng bo'laklarga bo'lish va shu bo'laklardan bittasini, ikkitasini, uchtasini, ... olish masalasi, uni ifodalash, va yozish asosiy vazifa bo'ladi. Bunda kasr, kasrning surati, maxraji kabi terminlar bilan tanishtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga kasr mavzusini tushuntirish jarayonida inovatsion texnologiyalardan, ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilariga an'anaviy darsdan noan'anaviy tashkil qilingan dars qiziqarli va tushunarliroq bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning tashkiliy shakllari dars, uy vazifalarini mustaqil bajarish, o'quvchilarning yakka tartibda guruh va jamoa bo'lib ishlashlari, ekskursiyalar, sinfdan tashqari ishlardan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 3-sinf Matematika darslik . 2022-yil
2. Majmua 3-kurs. Matematika o'qitish metodikasi. 2022-2023-o'quv yili
3. [http//. ziyonet.uz](http://.ziyonet.uz)

NAMUNALI FUQORO LOYIHASI VA UNING ISTIQBOLLARI

Abdunazarov Sevdiyor Dilshod o'g'li

Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi

3-bosqich 320-guruh kursanti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola orqali muallif jazo va huquqbuzarlik tushunchasini, jinoyat kodeksida ko'rsatilgan javobgarlikning muqarrarligi prinsipini sharhini, javobgarlik tushunchasini jazo tushunchasidan faqli tomonlarini, namunali fuqoro tushunchasi, unga qo'yiladigan talablarni, bu mexanizmni kelgusida qo'llash istiqbollarini, namunali fuqorolar uchun rag'batlantirish choralari bo'yicha o'z takliflarni berib o'tganlar.

Kalit so'zlar: *Jinoyat, huquqbuzarlik, jazo, javobgarlik muqarrarligi, jinoyat prinsiplari, namunali fuqoro, rag'batlantirish choralari.*

АННОТАЦИЯ

Посредством данной статьи автор разъясняет понятия наказания и правонарушения, обзор принципа неотвратимости ответственности, закрепленного в уголовном кодексе, различия понятия ответственности и понятия наказания, понятия образцового гражданина, требования к нему, перспективы дальнейшего использования этого механизма, поощрения образцовых граждан, внесших свои предложения по мерам.

Ключевые слова: *Преступление, правонарушение, наказание, неотвратимость ответственности, принципы преступления, примерный гражданин, меры поощрения.*

ANNOTATION

Through this article, the author explains the concept of punishment and offense, the overview of the principle of inevitability of responsibility specified in the criminal code, the differences between the concept of responsibility and the

concept of punishment, the concept of a model citizen, the requirements for it, the prospects for the future use of this mechanism, incentives for model citizens who gave their suggestions on the measures.

Key words: *Crime, offense, punishment, inevitability of responsibility, principles of crime, exemplary citizen, incentive measures.*

O‘zbekistonda jadal suratlar bilan demokratik huquqiy davlatni qurish hamda fuqarolik jamiyatini shakllantirish ishlari amalga oshirilmoqda. Shu maqsadlardan kelib chiqib, jamiyatimiz a‘zolarining huquqiy madaniyatini oshirish, aholining huquqiy va siyosiy bilimlarini kuchaytirish ustuvor vazifalaridan biri etib belgilangan. Xalqimiz asrlar davomida qonunni hurmat qilish, ularga itoatkorlik va rioya etilishining shartligi borasidagi rishtalarni shakllantirib, odillik va insonparvarlik prinsiplarining uyg‘unligini ta‘minlab kelgan. Hozirgi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarni profilaktika qilish huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan oldindan turgan enag asosiy vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda.

Jinoyat- Ushbu Kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.¹

Huquqbuzarlik — sodir etilganligi uchun ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g‘ayrihuquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik)² tushuniladi

O‘zbekiston Respublikasi JKning 10-moddasida Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi ko‘rsatilgan bo‘lib unga ko‘ra qilmishida jinoyat tarkibining mavjudligi aniqlangan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan. Jinoyat kodeksida mazkur qoidaning mavjudligi jinoyat huquqi normalarining barqarorligi va bir xilligini angaltib, jinoyat to‘g‘risidagi qonun hujjatlari mavqeyining oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, javobgarlikning

¹ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi elektron manbaa: Lex.uz sayti <https://lex.uz/acts/-111453>

² 2014 yil 14 maydagi “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida” gi qonun 3-moddasi elektron manbaa Lex.uz sayti <https://lex.uz/acts/-2387357>

muqarrarligi prinsipi barcha fuqorolarning harakatiga nisbatan ogohlantiruvchi ta'sir kuchiga ega bo'lib, shu orqali jinoyat vazifalarining amalga oshirilishiga ko'maklashadi. Javobgarlikning muqarrarligi prinsipi birinchi navbatda jinoyat sodir qilgan shaxslarga qaratilgan va mazkur shaxslar tomonidan sodir qilingan qilmish uchun javobgarlikka oid qoidalarni o'rnatadi. Bu modda qonuniylik prinsipi va fuqorolarning qonun oldida tengligi prinsiplarining davomi hisblanib, ularni aniqlashtiradi va bir paytning o'zida ularning doirasidan bir oz chiqadi ham. Ushbu modda muayyan shaxslar doirasiga kiruvchi, ya'ni qilmishda jinoyat tarkibi mavjud bo'lgan har bir shaxs nazarda tutilgan. Shaxsning xatti-harakatlarida jinoyat tarkibi mavjudligini aniqlash javobgarlikka tortishning zaruriy belgisi hisoblanadi, ya'ni bu jinoyat qonunda nazarda tutilgan jazolovchi hamda qilmishning ijtimoiy xavfliligini ko'rsatuvchi obektiv va subektiv elementlar majmuyidir. Shaxsning qilmishida jinoyat tarkibining mavjud emasligi uning jinoiy javobgarlikka torilmasligiga sabab bo'ladi. Qonunga ko'ra, qilmishda jinoyat tarkibi mavjud bo'lgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortiladi. Bunday talab har bir ijtimoiy xavfli qilmishda aybdor bo'lgan shaxs muayyan qonun normasida nazarda tutilgan salbiy oqibatlar boshdan kechirish kerakligini bildiradi. Ta'kidlash joizki, salbiy oqibatlar:

1. JK amal qiladigan shaxslarga nisbatan,
2. JK normalariga muvofiq javobgarlikka tortishda;
3. Amaldagi qonunlar, xalqaro shartnomalar yoki bitimlarga muvofiq chet el fuqorolarining javobgarligi to'g'risidagi masala O'zbekiston Respublikasi sudlariga tegishli bo'lmasa, xalqaro huquq normalariga muvofiq javobgarlikka tortilishda ifodalanadi.³

Shuni aytib o'tish lozimki, Jinoyat kodeksiga muvofiq, shaxsning jinoiy javobgarlikka tortilishi, albatta, jazo tayinlanishini anglatmaydi. Unga nisbatan jinoyat qonunida nazarda tutilgan boshqa huquqiy ta'sir choralari ham qo'llanilishi mumkin.⁴

³ O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksiga sharh M.X.Rustamboyev Toshkent 2016 yil IIV Akademiyasi 60-bet

⁴ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2006 yil 3 fevraldagi "Sudalar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi 1-sonli qarori, 2-bandi // To'plam, 2-jild. –B 225

Hozirgi kunda ko'pchilik ommaviy ahborot vositalari orqali tarqalayotgan xabarlar sodir etilgan jinoyatlar tahlil qilinganda aksariyat ko'pchilik jurnalist, bloger hattoki huquqshunoslar ham "Jinoyat uchun jazo muqarrar" degan iborani ishlatishadi. Aslida esa Jinoyat kodeksida ko'rsatilgan prinsplarda ham javobgarlik muqarrar ekanligi ko'rsatilgan. Aslida esa har bir sodir etilgan jinoyat uchun aniq jazo tayinlanadi degan qoidanining o'zi yo'q.

O'zbekiston Respublikasi JK 42-moddasiga ko'ra Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo'llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasidir.

Jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to'sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.⁵

Bizda haqiqatda sodir etilgan jinoyat uchun shaxs qonuniy albatta javobgarlikka tortiladi. Bunga hech qanfay shubha yo'q. Lekin jamiyatda boshqalarga o'rnak bo'lib kelayotgan, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash, adashib noto'g'ri yo'lga kirish ehtimoli bo'lgan shaxslarni bu yo'ldan qaytarish va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jinoyat va huquqbuzarlik sodir etilishini oldini olib, fuqorolik burchini a'lo darajada bajargan shaxslarga nisbatan huddi jinoyat va huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikni muqarrar qilganimiz kabi namunali fuqorolar uchun mukofotlanishning muqarrarligi tamoyili albatta bo'lish kerak. Amir Temur bobomiz o'zining mashhur temur tuzuklarida "**Mening saltanatimda kimki mukofotga loyiq ish qilsa, mukofotsiz qolmaydi, jazoga loyiq ish qilsa jazosiz qolmaydi**"⁶ deya ta'kidlagan edi. Bundan ko'rinib turibdiki biz biror kim jinoyat sodir etganligi uchun javobgarlikni muqarrar deb belgilab qoydikmi? Ana endi mukofotlanishning muqarrarligi degan prinspni kiritishimiz kerak. Shaxs nojo'ya harakatlar qilganligi uchun jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortilishini ko'rsatish barobarida, biz unga namunali xulq atvor ham

⁵ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi elektron manbaa: Lex.uz sayti <https://lex.uz/acts/-111453>

⁶ Temur tuzuklari kitob elektron manbaa: <https://xdp.uz/uploads/documentation/12.pdf>

albatta mukofotlanishini qonunchilikda ko'rsatib, mustahkamlab qo'yishimiz kerak. Sababi huquqni muhofaza qiluvchi organlar jinoyat sodir etgan shaxsni ko'proq javobgarlikka tortishdan ko'ra namunali fuqorolarni ko'paytirish, jinoyatlarni sodir etishiga yo'l qo'ymaslikdan manfaatdor.

Namunali fuqro- jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarga befarq bo'lmagan, har tomonlama o'zini ijobiy jihatdan ko'rsatib kelayotgan, yoshlarni to'g'ri yo'lga boshlash, adashib noto'g'ri yo'lga tushib qolishini oldini olish yuzasidan choralarni ko'rib kelayotgan, o'zining xulq-atvori va harakatlari bilan barchaga o'rnak bo'la oladigan shaxs tushuniladi.

Namunali fuqrolar ro'yxati MFY raislari, profilaktika inspektorlari bilan kelishgan holda tuman shahar hokimliklariga ularning ro'yxatlarini har oyda bir marotaba taqdim etadilar. Hokimliklarda bu ro'yxat umumlashtirilib ularning hisobi yuritiladi.

Namunali fuqorolarni rag'batlantirishni quyidagi turlarini taklif beramiz:

1. Uning nomiga, mahalla yoki ota-onasining nomiga minnatdorchilik e'lon qilib, jamoat oldida taqdirlash;
2. Unga esdalik sovg'alar qimmatbaho esdalik buyumlar berish bilan mukofotlash
3. Manshudek namunali fuqorolarni mahallalarda "namunali fuqorolar" burchaklarini tashkil etib manashu xurmat taxtasiga chiqarish;
4. Mazkur namunali fuqorolar istiqmomat qilayotgan xonadonlarga "bu uyda namunali fuqoro istiqomat qiladi" degan belgi o'rnatish;
5. Bunday fuqrolar uchun ichki turizm yo'nalishida mamlakatimizdagi qadamjollarga imtiyozli borib-kelishlari uchun yo'llanmalar berish;
6. Namunali fuqorolarga ishga joylashish, moddiy yordam olishda imtiyoz va imkoniyatlar berish;
7. Namunali fuqoro ro'yxatidagi yoshlarni haydovchilik guvohnomasini olish uchun o'qishida va muddatli harbiy xizmatni o'tashga jo'natishda imtiyozlar berish;

8. Namunali fuqorolar ro'yxatini o'rnak tariqasida tuman va shahar rasmiy internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida doimiy yortib borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi elektron manbaa: Lex.uz sayti <https://lex.uz/acts/-111453>

2. 2014 yil 14 maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida" gi qonun 3-moddasi elektron manbaa Lex.uz sayti <https://lex.uz/acts/-2387357>

3. O'zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksiga sharh M.X.Rustamboyev Toshkent 2016 yil IIV Akademiyasi 60-bet

4. Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2006 yil 3 fevraldagi "Sudalar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida"gi 1-sonli qarori, 2-bandi // To'plam, 2-jild. –B 225

5. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi elektron manbaa: Lex.uz sayti <https://lex.uz/acts/-111453>

6. Temur tuzuklari kitob elektron manbaa: <https://xdp.uz/uploads/documentation/12.pdf>

MUQIMIYNING "MOSKOVCHI BOY" ASARINING IJTIMOIY-IQTISODIY TAHLILI.

TDIU

Moliya va buxgalteriya fakulteti talabasi

Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi

xonshams@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hassos shoir Muqimiyning "Moskovchi boy" nomli she'ri tanqidiy-satirik usulda tahlil qilingan. Shuningdek, asardagi aniq tarixiy sharoit, voqelik, ijtimoiy, iqtisodiy holat mahorat bilan tasvirlab berilganligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Muqimiy, boy, kapitalist, Xodixo'jam, tanqid, satira.

Demokratik shoir Muhammad Aminxo'ja Muqimiy katta bir qismini jozibador g'azallar, jo'shqin va sho'x murabba'lar, dilkash muxammaslar tashkil etadi. Shoir lirikasini ham g'oyaviy, ham badiiy kamolotga erishuvida xalq og'zaki ijodi bilan bir qatorda ko'p asrlilik she'riyatimizning xususan, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Amiriy kabi shoirlarning ijodi samarali ta'sir qildi. Muqimiy o'z lirikasida chin sevgini, sadoqat va vafodorlikni, insonni ma'naviy go'zal etuvchi fazilatlarni ulug'ladi, bevafoqlik, subutsizlik, inson sha'niga dog'tushiruvchi xislatlar, adolatsiz siyosatni qoraladi.

Muqimiy lirikasidagi shikoyat, norozilik, hayotdan bezish va tarkidunyochilik da'vati emas, balki, mohiyat-e'tibori bilan hayotsevarlikdan, farovon turmush va baxtli zamon haqidagi orzu-umidlaridan kelib chiqqan. Xuddi shuning uchun ham shoir hayot lazzatlaridan, do'stu ulfat suhbatlaridan, sevgi va visol pularidan bahramandlikka chaqiradi, ona tabiat go'zalliklaridan, bahor nashidasidan zavqlanishga undaydi.

Shoir o'zbek adabiyoti tarixida ijtimoiy-siyosiy hajviyotning asoschilaridan biri bo'lib maydonga chiqdi. Uning qator hajviyalarini shu yo'nalishning yetuk

na'munalari sirasiga qo'yish mumkin. "Tanobchilar", Voqeari ko'r Ashurboy hoji", "Moskovchi boy" kabi hajviyalarida mustamlaka tuzumi uchun xos bo'lgan hayotiy mavzular- jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, tabaqalanish, hukmron adolatsizlik kabi juda jiddiy masalalar tahlil etildiki, bu Muqimiy hajviyotining siyosiy yo'nalishi va g'oyaviy kamolotidan guvohlik beradi. Bu jihatdan Ashurboy Hojining og'ir jinoyati haqidagi hajviyadan shoirning jiddiy siyosiy xulosasi diqqatga sazovor.

Haqorat qilingan kishilar qolib,

Topib boy so'zi munda zo'r e'tibor.

Qachon kambag'alning so'zi o'tar?

Agar bo'lsa aqchang- so'zing zulfiqar.

Umuman olganda shoirning bu asarida asosiy qahramon Hodixo'ja Eshondir. Satirada u o'ta maqtanchoq, pul-boylik desa o'zini tomdan tashlaydigan, ahmoq, ayyor, zolim axloq buzuc bir shaxs sifatida gavalantirilgan. Ya'ni asarda milliy burjuaziya va rus kapitalistlarining o'zaro raqobati tasvirlanadi. Shuningdek, ularning mavqeyi, obro'-e'tibori boyligi bilan belgilanishi hayotiy dalillarda ko'rsatilgan.

Hikoyat qilay turfa davron ekan,

Xaloyiq hamma mavhu hayron ekan,

Chiqib yangi maskovichidin boylar,

Sinar o'tmayin ba'zisi oylar.

Xususanki, eshoni Hodixo'jam.

Boylar rus kapitalistlari va banklardan kreditlar olib fabrika, zavodlarini yurg'izadilar. Asardagi Hodixo'ja esa ana shunday boylardan biri edi va uni singanini eshitgan kapitalistlar unga pul berishni to'xtatib qo'yadilar va oxir –oqibat umuman hamma narsasini tortib olishga urinadilar. Chunki, Hodixo'ja qurayotgan

zavodini ham bitira olmaydi, savdoda ishi orqaga ketib, olgan pullarini qaytara olmaydi. Natijada esa uning qo'ldagi ishchilari ham uni qo'llamay yuz o'girishni boshlaydilar. Ya'ni Muqimiy bu bilan aynan ishchilar guruhini yomonlamoqchi emas, aksincha ular ta'rafdaligi shundoqqina namoyon bo'ladi. Aynan ishchilar guruhini adabiyotga olib kirgan ham Muqimiydir.

Asarida shoir oddiy ishchilarning faryodlarini , ularning zavod egalari bilan ziddiyatlari va muammolarini ko'rsatib bra olgan. Muqimiyning ishchi-mardikorlarni bir-biriga gamxo'r qilib tasvirlashi, ularning faoliyatlarini oqlashi, xo'jayinlarga dag'al munosbatlarini ta'kidlash , ular ustidan kulishi tasodifiy emas albatta. Xulosa qilib aytganda, u ana shu kichik, ammo juda muhim bo'lgan o'zbek adabiyoti tarixida ishchilar sinfi va uni revolyutsiyasini mahorat bilan yoritib bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yoqubov H., O'zbek demokrat shoiri Muqimiy, T., 1953.
2. Ahmedov S. O'zbek adabiyotida "Sayohatnoma". , 1986.
3. Qayumov A., "G'oziy" , T. 1959-yil,24-bet .
4. arboblar.uz. Tarjimaiy hol
5. <https://orifto.lib.uz/kutubxona/muqimiy-1850-1903/>

O'SPIRINLIK DAVRI PSIXOLOGIYASI

Farg'ona viloyati Quva tumani

57-umumiy o'rta ta'lim maktabining amaliyotchi psixologi

Kasimova Roziyaxon Abdibannapovna

47- umumiy o'rta talim maktabi amaliyotchi Psixologi

Temirova Oygul Abdug'opurovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'spirinlik davri 15-18 yoshlarni qamrab olishi, ularni 8-10-sinflarga to'g'ri kelishi, ularning xususiyatlari haqida ma'lumot berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'spirinlik, psixik rivojlanish, intensiv, jismoniy rivojlanish, O'smirlikdan keyingi navbatdagi bosqichni o'spirinlik davri deb bir bosqich xisoblashimiz xam mumkin, lekin hozirgi ko'pchilik psixologlar klassifikatsiyasi bo'yicha ikki bosqichga ajratishimiz xam mumkin. Avval o'smirlikdan keyingi bosqichni o'smirlik, keyingisi ilk o'spirinlik yoki yigitlik davri deb aytilardi va 14 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan davrlarni qamrab olar edi. Hozir ko'pchilik psixologlar 15–18 yoshni qamrab oladigan davrni ilk o'spirinlik deb atashni maqul ko'rmoqdalar, bu umumta'lim maktabining 8–9 sinfidan boshlab, kasb–xunar kolleji va litseylarining 1–2–sinflariga, ya'ni 8–10 sinf yoshiga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchi jismonan baquvvat, o'qishni tugatgach mutsaqil mexnat qila oladigan, oliy maktabda o'zini sinab ko'radigan imkoniyatga ega bo'ladi.

Mazkur davrning yana bir xususiyati – mexnat bilan ta'lim faoliyatining bir xil ahamiyat kasb etishidan iborat. Ijtimoiy xayotda faol qatnashish, ta'lim xarakterining o'zgarishi, yigit va qizlarda ilmiy dunyoqarash, barqaror e'tiqodning shakllanishiga, yuksak insoniy xis–tuyg'uning vujudga kelishiga, bilimni o'zlashtirishga ijodiy yondoshuv kuchayishiga olib keladi.

Xayotda o'z o'rnini topishga intilish kasb – xunar o'rganish, ixtisoslikni tanlash, itsiqbol rejasini tuzish, kelajakka jiddiy munosabatda bo'lishni keltirib chiqaradi. Biroq bu davr kuch-g'ayrat, shijoat, qaxramonlik ko'rsatishga urinish,

jamoat, jamiyat va tabiat xodisalariga romantik munosabatda bo'lish bilan boshqa yosh davrlaridan keskin farqlanadi.

Ilk o'spirinning psixik rivojlanishini xarakterga keltiruvchi kuch jamoat tashkilotlari, maktab jamoasi, ta'lim jarayoni qo'yadigan talablar darajasining oshishi bilan u erishgan psixik kamolot o'rtasidagi ziddiyatlardir. Turli qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar o'spirinning axloqiy, aqliy, etsetik jihatdan tez o'sishi orqali bartaraf qilinadi.

Ilk o'spirinlik yoshidagi yetakchi omil yuqori sinf o'quvchisi faoliyatining xususiyati, moxiyati va mazmunidagi tub burilishdir.

O'spirinlarda avvalo o'zini anglashdagi siljish yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu xol shunchaki o'sishni bildirmaydi. Uspirinda o'zining ruxiy dunyosini, shaxsiy fazilatlarini, aql-zakovatini, qobiliyati xamda imkoniyatini aniqlashga intilish kuchayadi. Bu yosh-dagi oquvchilarning o'zini anglashga aloqador xususiyatlari mavjud. Ular avval, o'zlarining kuchli va zaif jihatlarini, yutuq va kamchiliklarini, munosib va nomunosib kiliklarini aniqroq baxolash imkoniyatiga ega bo'ladilar. O'spirin o'smirga karaganda o'z ma'naviyati va ruxiyatining xususiyatlarini to'larok tasavvur eta olsa xam, ularni oqilona baxolashda kamchiliklarga yo'l qo'yadi. Natijada u o'z xususiyatlariga ortiqcha baxo berib, manmanlik, takabburlik, kibrlanish illatiga duchor bo'ladi, sinf va pedagoglar jamoalarining a'zolariga g'ayritabiiy munosabatda bo'la boshlaydi. Shuningdek, ayrim o'spirinlar o'z xatti-xarakatlari, aqliy imkoniyatlari va qiziqishlariga past baxo beradilar va o'zlarini kamtarona tutishga intiladilar. O'smirlik yoshidagi boladan yana bir xususiyat-murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch, vijdon xissi, o'z qadr-qimmatini e'zozlash, sezish va faxmlashga moyillikdir.

O'spirin xar bir ishda etakchi, birinchi bo'lish itsagi bilan yashaydi. Lekin xar doim xam uddasidan chiqa olmaydi. L.A.Umanskiy fikricha buning uchun o'spirin quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak.

a) axlokiy xislatlar – jamoatchilik, samimiylik, tashabbuskorlik, faollik, mexnatsevarlik;

b) irodaviy xislatlar – matonat, kat’iyat, mutsakillik, tashabbuskorlik, batartiblik, intizomlilik;

v) emotsional xislatlar – xushchakchaklik, tetiklik, xazilkashlik va yangilikni xis etish, o’z kuchiga ishonch, optimizm va boshqalar.

O’spirinlarda mavjud bo’lgan yana bir muxim xislat ularda yuksak darajadagi do’sstlik, urtoqlik, ulfatchilik, muxabbatning vujudga kelishidir. Shu sifatlarning qay darajada shakllanganligi tarbiyaviy ta’sir o’tkazish mezoni xisoblanadi.

O’spirin o’quvchilarda tabiat, san’at, adabiyot, madaniyat, ijtimoiy xayot go’zalliklarini payqash, idrok qilish, sevish, ulardan ta’sirlanish, ma’naviy ozuqa olish xislatlari paydo bo’ladi. Ularning psixologiyasida mayin sado, yoqimli nido, qalbni to’lqinlantiradigan musiqa, nozik xis–tuyg’u, ezgulik xislari, mayllari kuchayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.G’oziyev. Yosh davrlar psixologiyasi. Toshkent
2. V.M.Karimova, F.A.Akramova. Psixologiya. Toshkent
3. E.G’oziyev. Umumiy psixologiya. I-II tom. Toshkent

INTERNETDA QIMOR VA TAVAKKALCHILIKKA ASOSLANGAN O‘YINLAR UCHUN JAVOBGARLIK

A.K.Turayev

*Shahrisabz “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi oliy toifali
informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni reklama qilish, namoyish etish hamda tarqatish uchun javobgarlik kabi tushunchalar batafsil yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Onlayn qimor o‘yinlar, ma‘muriy huquqbuzarlik, jinoyat, bazaviy hisoblash miqdori, totalizator, bukmekerlik, reklama, telekommunikatsiya tarmoqlari, internet jahon axborot termog‘i.

So‘nggi yillarda qimor va tavakkalchilikka asoslangan onlayn qimor o‘yinlarni tashkil etish hamda bunday o‘yinlarda ishtirok etish bilan bog‘liq jinoyatlar va ma‘muriy huquqbuzarliklar soni ortib bormoqda.

Xususan, onlayn qimor o‘yinlarining aholi orasida keng ommalashib borayotganligi mazkur o‘yinlarga nisbatan qaramlikning vujudga kelishi va firibgarlik hamda o‘z joniga qasd qilish kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Bunday holatlarning oldini olish uchun tegishli qonun loyihasi taklif qilinayotgan bo‘lib, jamoatchilik muhokamasi uchun e‘lon qilindi. Taklif etilayotgan qonun loyihasi bilan qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish uchun ma‘muriy va jinoiy javobgarlik kuchaytiriladi. Shuningdek, bunday o‘yinlarni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tarqatish, reklama qilish hamda O‘zbekiston hududiga olib kirish, Internet jahon axborot tarmog‘ida reklamasi uchun ham javobgarlik belgilanmoqda. Deputatlar ko‘rib chiqayotgan qonun loyihasiga ko‘ra, Jinoyat kodeksida internetda qimor va tavakkalchilikka asoslangan o‘yinlar yuzasidan qator o‘zgarishlar [ko‘zda tutilmoqda](#).

Xususan, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni qonunga xilof ravishda tashkil etish, o‘tkazish yoki ularda ishtirok etish uchun

telekommunikatsiya tarmoqlari yoxud Internet jahon axborot tarmog‘i orqali xizmatlar ko‘rsatish, tegishli dasturiy ta‘minotdan nusxa ko‘paytirish, uni ko‘paytirish, tarqatish **bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravaridan 70 besh baravarigacha** miqdorda jarima yoki 300 soatdan 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Shuningdek, qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni targ‘ib qiluvchi mahsulotni qonunga xilof ravishda reklama qilish, namoyish etish, tarqatish maqsadida tayyorlash yoki O‘zbekiston hududiga olib kirish, xuddi shuningdek qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni targ‘ib qiluvchi mahsulotni qonunga xilof ravishda reklama qilish, namoyish etish, tarqatish, shu jumladan, ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki internetda reklama qilish, namoyish etish, tarqatish, shunday harakatlar uchun ma‘muriy jazo qo‘llanganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, **bazaviy hisoblash miqdorining 400 baravaridan 600 baravarigacha** miqdorda jarima yoki 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Shuningdek, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga kiritilayotgan qo‘shimchalarga ko‘ra:

qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni targ‘ib qiluvchi mahsulotni qonunga xilof ravishda reklama qilish, namoyish etish, tarqatish maqsadida tayyorlash yoki O‘zbekiston hududiga olib kirish, xuddi shuningdek qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni targ‘ib qiluvchi mahsulotni qonunga xilof ravishda reklama qilish, namoyish etish, tarqatish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida reklama qilish, namoyish etish, tarqatish qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni targ‘ib qiluvchi mahsulotni, shu jumladan uni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish va namoyish etish vositalarini musodara qilib, fuqarolarga BHMning yuz baravari, mansabdor shaxslarga esa — ikki yuz baravari miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Ta‘kidlanishicha, tahlillar so‘ngi yillarda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish hamda bunday o‘yinlarda ishtirok etish

bilan bog‘liq jinoyatlar va ma‘muriy huquqbuzarliklar soni ortib borayotganligini ko‘rsatmoqda.

Qimor o‘yinlari bo‘yicha ma‘muriy huquqbuzarliklar soni **2019 yilda 1 454 ta bo‘lgan** bo‘lsa, bu ko‘rsatkich **2020 yilda 2 864 ta, 2021 yilda 3 372 ta va 2022 yilning 6 oyida 2 325 tani tashkil etdi.**

Ma‘lumot uchun, ushbu o‘yinlar, ayniqsa, onlayn qimor bilan bog‘liq jinoyatlar **2019-yilda 55 ta, 2020-yilda 86 ta, 2021-yilda 103 ta, 2022-yilning 6 oyida 90 tani** tashkil etgan. Mutaxassislarning bildirishicha, bunday o‘yinlar insonda qaramlikni vujudga keltirib, katta miqdordagi pul mablag‘lari sarflashiga va ayrim fuqarolarning o‘z joniga qasd qilish, firibgarlik, budget mablag‘larni talon-toroj qilish kabi harkatlar sodir etilishiga sabab bo‘lmoqda.

Onlayn qimorda yutqazgani sababli **2021-yilda 6 nafar va 2022-yilning 6 oyida 6 nafar** fuqaro o‘z joniga qasd qilib, vafot etgan. Ularning barchasi **25** yoshgacha bo‘lgan yoshlar hisoblangan. Mazkur holatlar qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq noqonuniy faoliyatga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Ta‘kidlash joizki, bugungi kunda respublikamizda totalizator va bukmekerlik faoliyatini amalga oshirish va albatta, bunday xizmatlarni reklama qilish noqonuniy hisoblanadi. Bu borada 2021-yilda o‘tkazilgan 1105 ta o‘rganishlarda 102 ta holatda bunday noqonuniy xizmatlar reklamasini aniqlangan. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda 30 dan ortiq totalizator va bukmekerlik reklamasini noqonuniy ravishda yurituvchi saytlarga kirish cheklab qo‘yildi.

Hozirgi kunda homiy yoki hamkor sifatida bukmekerlar joy olmagan sport tadbirni topish qiyin. Ba‘zi sport jamoalar o‘zining futbolkalarida bukmekerlarni nomini qo‘ygan. Bunday holatda odamlarga oson yo‘l bilan pul topish imkoni yo‘qligi, bo‘lganida ham tatimasligi, ular oxiri berk ko‘chaga olib borishi, bu tavakkal katta xavfga qo‘yilgan qadam ekanini ko‘proq tushuntirish orqali qiziqish va talabni kamaytirish mumkin. Agar talab yuqoriligicha qoladigan bo‘lsa, hech qanday cheklovlar foyda bermaydi. Qiziquvchilar taqiqlarni aylanib

o‘tadigan yo‘llarni topadi. Bunday holda bizning vazifamiz —ularning xavfli ekani, osonlikcha pul topish baxayr emasligini tushuntirish va bugungacha ma’lum oqibatlar bilan bo‘lishishdan iboratligicha qoladi.

Xulosa: bugungi kunda qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o‘yinlarning qonunga xilof ravishda tashkil etilishi va o‘tkazilishi fuqarolarga nafaqat ruhiy ta’sir o‘tkazadi, balki moliyaviy qaramlikka duchor etib, oilaviy nizolarga ham sabab bo‘ladi. Shuningdek, ushbu faoliyat naqd pullarning bankdan tashqari muomalasi ko‘payishiga, soliqlar va boshqa to‘lovlarni to‘lashdan bo‘yin tovlanishiga yo‘l ochadi hamda shu orqali mamlakatimizning iqtisodiy ravnaqiga putur yetkazadi.

Shunga ko‘ra, fuqarolarning ogohligini oshirish, davlatning bu boradagi nazoratini kuchaytirish hamda ota-onalar tomonidan o‘z farzandlarining bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanishi ustidan muntazam nazorat olib borilishi yuqoridagi kabi salbiy illatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining kinoyat Kodeksi
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.09.2007 yildagi O‘RQ-109-son.
3. www.kun.uz
4. www.daryo.uz

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ИГРЫ КАК МОТИВАТОР ПРИ ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКАМ

Камалова Малика Низамовна

к.п.н., доцент, заведующий кафедрой

«Узбекский язык и литература» Ташкентский государственный

экономический университет

malikakamalova71@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена роли образовательных игр как мотиватора при обучении языкам, основной целью которой является стимулирование и облегчение учебной деятельности. Игры могут быть различными и способствовать пополнению знаний, повышению интереса, а также игры повышают внимание и сосредоточенность. Игра в образовании необходима для того, чтобы обучающиеся осознали какие знания, умения, навыки и компетенции у них уже есть, а каких не хватает и над которыми необходимо работать.

Ключевые слова: образовательные игры, мотивация, стимуляция, эффективность, виды игр.

ANNOTATION

The article is devoted to the role of educational games as a motivator in teaching languages, the main purpose of which is to stimulate and facilitate learning activities. Games can be different and contribute to the replenishment of knowledge, increase interest, and games also increase attention and concentration. The game in education is necessary for students to realize what knowledge, skills, abilities and competencies they already have, and what they lack and which need to be worked on.

Key words: educational games, motivation, stimulation, efficiency, types of games.

Любая деятельность требует мотивацию, т.е. побуждения, определяющие содержание, направленность и характер деятельности. Мотивация понимается как внутренний импульс, побуждение к действию, активные состояния психики, побуждающие человека совершать определенные виды действия [2; 4]. Учебная мотивация – это вид мотивации, включенной в деятельность обучения, воспитательную деятельность. Основной целью учебной мотивации является стимулирование и облегчение учебной деятельности. Обучение – это активный процесс, который необходимо мотивировать и направлять на достижение желаемых целей. Проблема мотивации учебной деятельности – одна из главных проблем в психологии обучения. Она имеет значимый статус, так как, мотивация является главным психологическим свойством любой деятельности, включая учебную деятельность. В то же время управление мотивацией к обучению позволяет осуществлять контроль за учебным процессом. Качественные особенности развития мотивационной сферы личности обучаемого зависят от идентификации образа «Я», образа мира, образа будущей профессиональной деятельности, самооценки и рефлексии. Глубокие знания и понимание мотивационной сферы могут обеспечить успех, направить активность личности обучающегося в нужное русло его развития. Современная система высшего образования функционирует и развивается в новых политических, социальных и экономических условиях, определяющих не только пути и направления ее развития, но и связанные с ней проблемы. Настоящая проблема в мотивации вузовской подготовки студентов заключается в обнаружении ценностей, достаточно сильных, чтобы стимулировать обучаемых к эффективным усилиям. Поскольку все учащиеся реагируют неодинаково, мотивация обучения должна быть различной для разных людей. Понимание природы мотивации важно, потому что мотивация определяет не только интенсивность усилий по обучению, но также и степень, в которой эти усилия превращаются в деятельность всей личности. Мотивация учебной деятельности помогает обучаемому сосредоточиться на

том, что он делает, и тем самым получить удовольствие от обучения. Необходимо чтобы мотивация была непрерывна. Эффективность обучения зависит отчасти от силы потребностей и от удовлетворения, которое приносит обучение. Можно сказать, что скорость обучения зависит от силы мотива. Мотивация – основа учебного процесса. В обучении преподаватели используют кроме основных видов работы с учебным материалом также игры для улучшения образовательного процесса. На занятиях можно использовать развивающие игры, которые при этом являются дополнением к основному содержанию обучения. То есть игры, разработанные для достижения определенных результатов обучения, а не для развлечения.

Игровые задания украсят любой урок. Основная цель применения игровой технологии на уроках второго языка заключается в моделировании адекватной коммуникативной ситуации с целью мотивации естественной речевой деятельности на изучаемом языке. Это означает создание таких условий для речевой деятельности, которые были бы максимально близки к условиям реальной деятельности детей соответствующего возраста, и в которых могла бы разворачиваться их речевая деятельность на родном языке. Именно в игровой деятельности учащиеся усваивают содержание ролей и стремятся выразить свое отношение в соответствии с игровой ситуацией или сюжетом.

Игровая форма помогает наиболее эффективно закреплять полученные знания. И конечно, чем выше уровень студентов, тем большее количество интересных игр можно использовать: аутентичные настольные игры, ролевые игры, дебаты, головоломки, ассоциации и др. Однако на начальном уровне, когда лексический запас у учащихся очень ограничен, придумать игру (в особенности коммуникативную) достаточно трудно.

Ролевые игры создают вымышленный мир, который будоражит воображение. Учеными доказано, что при этом тренируется не только левое аналитическое полушарие мозга, но и правое полушарие мозга, отвечающее за креативность и интуицию. В совместной обучающей игре поощряются

личные и социальные навыки, навыки построения взаимоотношений, навыки разрешения конфликтов, умение отстаивать собственные интересы и интересы общего блага также тренируются в игровой форме. В игровой сюжетной линии участники активно знакомятся с контентом, тренируют свои когнитивные навыки и получают новые знания. Социальные игры способствуют развитию навыков взаимодействия с партнерами, а развивающие игры – отличный способ понять, что обучение тоже может быть увлекательным. Обучающая игра пробуждает такие положительные эмоции, как, например, радость, которые оказывают полезное влияние на естественный процесс обучения. Таким образом, учебный контент связывается и сохраняется с позитивным опытом, мыслительные процессы объединяются в сеть и создаются новые связи. Обучаемые понимают, что овладение знаниями также может быть увлекательным и не всегда связано с усиленной работой и негативными эмоциями.

Задачи учебной игры включают следующие компоненты:

- повышении мотивации к изучению языка;
- развитие коммуникативных навыков обучающихся;
- развитие мышления средствами изучаемого языка;
- обеспечение личностного роста каждого обучающегося;
- создание психологически комфортной обстановки для всех участников игры.

Игры в педагогике существуют давно, но сознательно стали их использовать относительно недавно. Ещё во время первобытнообщинного строя, передавали детям через игру элементы навыков, необходимые для охоты, собирательства трав и растений, разведение огня и других жизненно важных занятий. Поэтому первые игры были направлены на развитие меткости — дети повторяли действия взрослых в процессе охоты, памяти — запоминание видов и форм растений по их применению и др.

На самом деле игры были образовательными всегда, сама осознанность образовательной направленности взрослела вместе с обществом, появлялись

новые игры, направленные на развитие сознания и мышления — математического, логического, критического, стратегического.

Но не всё можно назвать игрой. Настоящая игра имеет множество вариантов решения, её всегда можно переиграть, её принцип — демократичность.

Образовательные игры проводятся в офлайн. Если за аудиторию взять студентов, то ведущими становятся профессиональные педагоги. Площадки могут быть различными: например, образовательную игру можно провести не только в аудитории, но и в актовом зале или на природе.

Игра в образовании необходима для того, чтобы осознать какие знания, умения, навыки и компетенции уже есть, а каких не хватает и над которыми необходимо работать. А значит её можно использовать как мотиватор для обучения. У игр есть свои функции: первая — самопознание, вторая функция — социализация, третья — эмоциональная включенность, четвёртая функция — развлечение. Конечно, не обязательно включать игры во весь образовательный процесс, достаточно интегрировать их туда, где они необходимы. Например, при обучении языкам,

Игры могут быть различными и могут: быстро расшевелить и пополнить знания, повысить интерес, игры могут также «включить» у студентов внимание и сосредоточенность. Хотя игры кажутся лёгкими и забавными, преподавателю не стоит быть поверхностным. Он должен владеть множеством технологий, методик и уметь их грамотно использовать, объединять друг с другом. Он должен уметь рефлексировать сам и запускать рефлексию участников игры через эту игру. Он должен работать в ситуативной игровой реальности, им же создаваемой, быть эмпатом, должен уметь погружать в действие, которое затягивает.

Отсюда вывод: Если игра может помогает человеку осознать свои слабые стороны и пробелы в навыках, то, значит, её можно использовать как мотиватор для обучения, само же обучение проводить уже в традиционном формате.

Сегодня, когда образование конкурирует с развлечениями, особенно важно создать не только внутреннюю, а также и внешнюю мотивацию для обучения. Конечно, не обязательно включать игры во весь образовательный процесс — достаточно интегрировать игры туда, где они действительно необходимы. Особенно хороши они как раз для понимания мотивов и мотиваторов человека. Причём этот инструмент полезен не только для самопознания, он многое может дать и преподавателю — для понимания учащихся.

Даже для выявления лидера группы можно использовать массу таких игр. К примеру «Мультконтакт» (она из игротеки «Дети мира», выпущенной в издательстве «Билингва»). Эта игра подойдёт и для любой аудитории школьной, студенческой, взрослой.

Организатору понадобятся карточки с изображениями сказочных персонажей — в соответствии с количеством участников. Каждый вытягивает (чтобы лучше идентифицировать себя с героем) по одной карточке. Потом все как можно скорее (фактор времени очень важен!) должны построиться по росту — но не своему, а по предполагаемому росту своих персонажей. При этом нельзя разговаривать и издавать любые звуки. Показывать свои карточки друг другу можно и нужно. Лидер первым сообразит, что, пока не решено, в какой точке должен находиться самый высокий, а в какой — самый маленький персонаж, будет продолжаться бессмысленная толкотня. Лидер возьмёт на себя организацию процесса: покажет простым жестом, где встанут самые высокие и в какую сторону пойдёт снижение роста. А заодно могут проявиться и обладатели, зашкаливающие его.

Педагог должен начинать с того, чтобы обучающиеся обязательно почувствовали себя личностью, центром сначала игровой, а затем неигровой реальности. Чтобы они во всем могли найти свой личный мотив, анализируя свое «Я».

При обучении языкам часто используют ролевые ассоциативные игры. Между участниками распределяют роли, которые имеют определенный социальный статус. Ориентируясь в ролевых отношениях, участники выбирают соответствующие формулы речевого этикета при обращении друг к другу. Пространство игры может быть самым разным — аудитория, природа, актовый зал. В неформальной педагогике много внимания уделяется атмосфере — звукам, запахам, предметам. Можно включить музыку, погасить свет, нестандартно расставить столы, добавить какие-либо атрибуты. Стоит шагнуть в такое пространство — и ты начинаешь сразу погружаться в игру, когда что-то идёт не по привычному сценарию.

Готовясь к игре, участник, как правило, придумывает имя своему герою. Можно просто прикрепить стикер, а можно использовать метафорические карточки — они раздаются участникам, и каждый, глядя на картинку, самостоятельно придумывает имя и образ. Кроме того, можно прибегнуть к жеребьёвке, в ходе которой человек получает конверт с бумажкой, где расписана суть его роли. Такие подходы работают в играх и с вымышленными, и с реальными персонажами.

Взаимодействие участников игры между собой помогает учиться эффективнее. Человек постоянно перемещается в пространстве, выбирает удобный для себя способ запоминания информации, общается с другими людьми в группе.

Важным моментом в игре является и то, чтобы каждый участник осознал, что он работает не на себя, а на команду, и важен общий результат. Чтобы у отдельных участников не возникало мысли «я здесь самый лучший и самый умный».

Такой подход поможет обучающимся принимать друг друга и свои роли в коллективе. У каждого будет возможность высказать свое мнение. Кто-то тихий, ответит правильно один раз, а кто-то более находчивый ответит несколько раз.

Базовые правила любой образовательной игры — это добровольность участия, безопасность всех участников и возможность остановиться в любой момент. Развивающие игры являются полезным дополнением к классическому обучению. При этом ценность обучения и игры должна быть сбалансирована.

Отсюда вывод: игровой подход в образовании может применяться в самых разных случаях и стать хорошим подспорьем для того, чтобы лучше освоить учебный материал. Игра позволяет добиваться высоких результатов и при этом сохранять в участниках интерес к предмету. Это нестандартный способ, позволяющий посмотреть на процесс обучения под другим углом.

Однако такой подход требует от преподавателя креативного подхода к построению уроков. Потому что в этом случае важно не просто знание предмета, а способность буквально превратить это всё в игру.

Список использованной литературы

1. Ветушинский А. С. Больше, чем просто средство: новый подход к пониманию геймификации // Социология власти. 2020. № 32 (3). С.14–31.
2. Мотивация // Новейший философский словарь. URL: <https://gufo.me/dict/philosophy/D0%AF> (дата обращения 11.10.22).
3. Насырова А. Р. Игра как способ развития коммуникативной компетентности учащихся // Образование и саморазвитие. 2013. № 3(37). С.86–91.
4. Педагогический терминологический словарь – Санкт-Петербург: Российская национальная библиотека, 2006. – URL: <https://rus-pedagogicaldict.slovaronline.com/> (дата обращения: 24.10.2022).
5. Цинь Хэ Игра в обучении китайских студентов чтению прессы (на примере газетной хроники) // Вестник Томского гос. ун-та. 2021. № 465. С. 188–195. DOI: 10.17223/15617793/465/25.
6. Шилова Н.В. Игра как средство повышения мотивации учащихся к изучению иностранного языка // Проблемы современного педагогического образования. 2022. <https://cyberleninka.ru/journal/n/problemy-sovremennogo-pedagogicheskogo-obrazovaniya>.

MUNDARIJA

Maqola mavzusi	sahifasi
HARBIY XIZMATCHILARDA STRESSGA BARQARORLIKNI ANIQLASH DIAGNOSTIKASI	2-8
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH	9-11
ABDULLA ORIPOV - O'ZBEK SHOIRI VA JAMOAT ARBOBI	12-17
THE ROLE OF ENGLISH LANGUAGE IN MODERN UZBEKISTAN.	18-20
MATEMATIKANI KASBGA YO'NALTIRIB O'QITISH.KASBGA YO'NALTIRIB O'QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI	21-27
MILLIY MUSIQIY CHOLG'ULARNING TARIXIY TARAQQIYOTI (NAY MISOLIDA)	28-33
CHOLG'U IJROCHILIGINI RIVOJLANTIRISH	34-44
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH	45-49
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI IJODIY FAOLIYATGA YO'LLASH	50-54
BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHINING SO'Z BOYLIGINI OSHIRISH USTIDA ISHLASH METODIKASI	55-59
MATEMATIKA DARSLARINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH	60-65
TEXNOLOGIYA FANI DARSLARINING O'QUVCHILARGA KASBLARGA OID MA'LUMOTLARNI BERISHDAGI AHAMIYATI»	66-70
G'AFUR G'ULOMNING "VAQT" SHE'RI TAHLILI.	71-74
G'AFUR G'ULOMNING "YODGOR" HIKOYASINING HUQUQIY TALQINI	75-78
RUS TILI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK JIHALARI	79-83
G'AFUR G'ULOMNING "MENING O'G'RIGINA BOLAM" HIKOYASI HAMDA HIKOYANING HOZIRGI ZAMON BILAN HUQUQIY BOG'LIQLIGI	84-87

G'AFUR G'ULOM "MENING O'G'RIGINA BOLAM" ASARI TO'G'RISIDA	88-91
A PIECE FROM THE LIFE OF GAFUR GHULAM	92-93
G'IJJAK IJROCHILIGI DARSLARIDA MUMTOZ ASARLARNING IJRO YO'LLARINI O'ZLASHTIRISH	94-97
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DANIDAN INTERFAOL METODLARNING QO'LLANILISHI	98-102
DEVELOPING SOCIOLINGUISTIC COMPETENCE OF THE YOUNG LEARNERS WITH INTERNET RESOURCES	103-107
PROFILAKTIKA INSPEKTORLARI FAOLIYATIDAGI YUTUQLAR VA AYRIM AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR	108-114
TEZKOR BO'LINMALARNING JAMOATCHILIK BILAN HAMKORLIGI	115-120
PROFILAKTIKA INSPEKTORINING SODIR ETILGAN JINOYATLANI ISSIQ ISSIQ IZIDAN FOSH ETISH YUZASIDAN HARAKATLARI	121-125
BERDAQ SHE'RIYATI OLAMIDA AYOL SIYMOSINING O'RNI	126-129
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH - XALQARO TADQIQOTLAR TAJRIBASIDA	130-134
МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ЖАРAYONINI ТАКОМИЛЛАСHTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI	135-140
BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION FAOLIYATNING SHAKLLANGANLIK BOSQICHI	141-144
HERMAN VAMBERINING AMIR TEMUR HAQIDAGI MULOHAZALARI	145-151
ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ МАҲАЛЛА ҲУҚУҚ-ТАРТИБОТ МАСКАНИДА КРИМИНОГЕН ВАЗИЯТНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ ЮЗАСИДАН ҲАРАКАТЛАРИ	152-157
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛАТИНСКИХ ТЕРМИНОВ И ТЕРМИНОЭЛЕМЕНТОВ В МЕДИЦИНЕ	158-163
IZBOSKAN TUMANIDAGI "NANYANG RED COTTON ANGEL TEXTILE" MA'SULYATI CHEKLANGAN JAMIYATIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINING TAXLILI.	164-175

KASHTA CHOKIDA KOMPOZITSIYA TIKISH	176-178
VAQT O'LCHOV BIRLIKLARI	179-181
TEZKOR QIDIRUV FAOLIYATIDA KO'MAKLASHUVCHI SHAXSLARGA PUL MABLAG'LAR SARFLASH TARTIBI	182-187
ТАРИХ ДАРСЛАРИДА ЎҚУВ ФАОЛИЯТНИНГ МУАММОЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ	188-192
ТАРИХ ДАРСЛАРИДА ҲАМКОРЛИКДАГИ ТАЪЛИМ КЛАСТЕРИ	193-197
УМУМТАЪЛИМ МУАССАСАСИ РАҲБАРИ ИМИДЖИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МАКТАБ ИМИДЖИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ АҲАМИЯТИ	198-203
BOSHLANG'ICH SINIFLARGA KASR TUSHUNCHASINI TANISHTIRISH METODIKASI	204-206
NAMUNALI FUQORO LOYIHASI VA UNING ISTIQBOLLARI	207-212
MUQIMIYNING "MOSKOVCHI BOY" ASARINING IJTIMOY-IQTISODIY TAHLILI.	213-215
O'SPIRINLIK DAVRI PSIXOLOGIYASI	216-218
INTERNETDA QIMOR VA TAVAKKALCHILIKKA ASOSLANGAN O'YINLAR UCHUN JAVOBGARLIK	219-222
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ИГРЫ КАК МОТИВАТОР ПРИ ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКАМ	223-230

Obuna indeks raqami – 7601



ISBN 978-9943-6663-3-7



9 789943 666337